Bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashning ahamiyati. Tayyorlov guruhidagi bolalarni o‘qish va yozishga o‘rgatishda ularning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish. MTMda bolalarni o‘qish va yozishga o‘rgatishda analitik-sihtetik tovush metodi va uni takomillashtirib borish. O‘qishga va yozishga o‘rgatishga tayyorgarlik

### 14-mavzu. Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlar (2 soat ma’ruza)

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limiy o‘yinlar va ularning ahamiyati. Lug‘atni boyitish uchun yordam beradigan ta’limiy o‘yinlarning turlari. Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlar.Bolalar lug‘atini boyitishda ta’limiy o‘yinlarni tanlash, o‘tkazish va tahlil qilish.

### 15-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni bilishida nutqni rivojlantirish texnologiyasi (2 soat ma’ruza)

Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va anglashga o‘rgatish. Bolalarning kattalar mehnati hamda sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini boyitish, bilimlarini kengaytirish. Tevarak-atrofni bilishda bolalar nutqini rivojlantirish mashg‘ulotlari.

## 2.2.Amaliy mashg`ulot mavzulari

| № | Mavzular nomi | Soat |
|---|---|---|
| 1 | Bolalarda nutqni o’stirish metodikasining predmeti va nazariy asoslari. Nutqni rivojlantirish metodikasiing fan sifatida tarkib topishi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishning lingvistik asoslari. | 2 |
| 2. | Sharq mutafakkirlarining o’sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlari. | 2 |
| 3 | Bolalikning ilk bosqichlarida nutqni rivojlantirishning ahamiyati. | 2 |
| 4 | Bolaning har bir yosh bosqichida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Maktabgacha ta'limda nutq o`stirishning bosqichlari, bolalar yosh xususiyatlari. | 2 |
| 5 | Ravon nutq. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot. | 2 |
| **6** | Bolalar lug`atiga yangi so`zlarni kiritish. Lug’at ishlarini olib borishning lingvodidaktik asoslarining metod va usullari. | 2 |
| **7** | Bolalarda nutqning grammatik qurilishini shakllantirish. Nutq o`stirish mazmuni, shakllari. | 2 |
| **8** | Bolalarning tilni muloqot vositasi sifatida o`zlashtirishlari; nutqiy muloqotni shakllantirish. | 2 |
| **9** | Bolalarning bog`lanishli nutqini rivojlantirish. | 2 |
| **10** | Dialogik nutqning mazmuni va vazifalari | 2 |
| **11** | Turli yosh guruhda suhbat uchun mavzu tanlash va unga qo`yilgan talablar. | 2 |
| **12** | Hikoya qilishga o`rgatishning maqsadi, vazifasi. Bolalarni o’z tajribalardan hikoya qilishga o’rgatish. Ijodiy hikoya qilish. | 2 |
| **13** | Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning ahamiyati. Nutqni rivojlantirishda ta’limning o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida. | 2 |
| **14** | Bolalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatishning mazmuni va mohiyati. | 2 |
| **15** | Maktabgacha yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| | bilish jarayonida nutqni rivojlantirish texnologiyalari | |
| **16** | Ko`rgazmali materiallar bilan o`ynaladigan ta’limiy o`yinlar. | 2 |
| **17** | 1-bo`lim bo`yicha o`rganilgan Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi fani asosida bilimlarini mustahkamlash. | 2 |
| | Jami | **34** |

## “Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi” fanining amaliy mashg‘ulotlari mazmuni

### 1- amaliy mashg‘ulot. Bolalarda nutqni o’stirish metodikasining predmeti va nazariy asoslari

Ta’lim-tarbiya jarayoni hamda nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi va vazifalari, nutq o’stirishni takomillashtirish yo’llari. Nutq o’stirish metodikasining fan sifatida tashkil topganligi.Oliy o’quv yurtida nutqni rivojlantirish metodikasi kursi vazifalari. Nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari.

### 2- amaliy mashg‘ulot. Sharq mutafakkirlari o`sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda ona tilining roli

Sharq mutafakkirlari o`sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda ona tilining roli haqida batafsil ma’lumot berish. A.Navoiy, Z.M.Bobur, M.Qoshg`ariy, Y.X.Hojiblarning til va nutq haqida bildirgan purma’no fikrlari mohiyatini yoritish.

### 3- amaliy mashg‘ulot. Bolalikning ilk bosqichlarida nutqni rivojlantirishning ahamiyati

Ilk yoshdagi bolalar nutqini o’stirish metodikasi.Ilk yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning ahamiyati. Dastlabki tushunarli so’zlarni gapirishga o’rgatish.Tarbiyachining nutqi – bolalar uchun to’g’ri nutq namunasi ekanligi.. Tarbiyachi o’z nutqini ta’sirchan qilishida xalq og’zaki ijodi namunalaridan foydalanishi Ravon nutq turlari. Bolalarni diologik nutqga o’rgatish uslubiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarni  dialogic nutqqa nutqga o’rgatish muamola vositasi sifatida. Ravon nutqni o‘rgatishda mantiqiylik va uning ahamiyati Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi fanining tashkil topishi va rivojlanishi.  Bolalar nutqini o‘stirishga oid nazariy ishlar. Maktabgacha ta’lim me’yoriy xujjatlari asosida bolalarni tarbiyalash. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini

rivojlantirishning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari.

**4-amaliy mashg‘ulot. Bolaning har bir yosh bosqichida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Maktabgacha ta'limda nutq o`stirishning bosqichlari, bolalar yosh xususiyatlari. (2 soat)**

Nutqning tovush madaniyati deganda nima tushuniladi. «Bolalar bog’chasi tarbiya dasturi»da tovush madaniyatini o’stirishga qo’yiladigan talablar. Bolalar nutqida tovush madaniyatini tarbiyalash vositalari. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga qo‘yiladigan talab va vazifalar

**5- amaliy mashg‘ulot. Ravon nutq. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot.**

Ravon nutq tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalari. Ravon nutq mohiyati. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ravon nutqqa o‘rgatish.Til tafakkur quroli va muomala vositasi.

Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik to‘g‘riligini o‘stirish. Maktabgacha yoshdagi bola nutqning shakllanishida dialogik nutqning ahamiyati. Dialogik nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlarning ahamiyati. Monologik nutqini shakllantirishning nazari asoslari.

**6- amaliy mashg‘ulot. Bolalar lug`atiga yangi so`zlarni kiritish. Lug’at ishlarini olib borishning lingvodidaktik asoslarining metod va usullari.** Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug‘at ishini olib borish vazifasi. Lug‘atni boyitish va faollashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug‘at ishini olib borish vazifasi.

Lug‘atni boyitish va faollashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug‘at zahirasini boyitish, kengaytirish va faollashtirish. Nutqiy va lug‘atni rivojlantirishning bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan yagonaligi (qabul qilish, tasavvur qilish, fikrlash).

**7- amaliy mashg‘ulot. Bolalarda nutqning grammatik qurilishini shakllantirish. Nutq o`stirish mazmuni, shakllari.**

Grammatika va bolalar nutqi. Grammatik jihatdan to’g’ri nutqqa o’rgatish. Bolalar nutqidagi morfologik kamchiliklar va ularni bartaraf etish usullari. Bolalarni oddiy va murakkab sintaktik tuzilmalarga o’rgatish. Grammatik qurilishni shakllantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirish mazmuni. Grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish

usullari va yo‘llari.Bolalarning biron-bir narsa, hodisa haqidagi bilimlari qanchalik chuqur va xilma-xil bo‘lsa, ularning fikr bildirishlari ham shunchalik keng bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirishda mashq va o‘yinlardan foydalanish.

**8-amaliy mashg‘ulot. Bolalarning tilni muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirishlari; dialogik va monologik nutqni, nutqiy muloqotni shakllantirish (kommunikativ jihati).**

Bolalarni dialogik nutqqa o‘rgatish muammolari. Bolalarga dialogik nutqni o‘rgatish usullari. Bola hayotining ikkinchi yilida nutqiy rivojlantirish vazifalari. Bola hayotining uchinchi yilida nutqiy rivojlantirish vazifalari. Monologik nutqini shakillantirishning nazari asoslari. Bolalarga monologik nutqni o‘rgatish ishining mazmuni va vazifalari. Monologik nutqini shakllantirish usullari. Monologik nutqini shakllantirish usullari. Bolalarga keng yoyilgan fikr tuzishni o‘qitishda tarbiyachi ularda matn tuzilmasi (boshi, o‘rtasi, oxiri) haqidagi eng oddiy bilimlarni, gap bilan fikrning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalar haqidagi tasavvurni shakllantirishi zarur. Aynan ushbu ko‘rsatkich (gaplar o‘rtasidagi aloqa vositasi) nutqiy fikrning ravonligini shakllantirishning muhim shartlaridan biri sifatida ishtirok etadi.

**9- amaliy mashg‘ulot. Bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish**

Zamonaviy talablar asosida mashg‘ulot ishlanmasini yaratish. Maktabgacha yoshdagi bola bog‘lanishli nutqini shakllantirish. Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so‘zlarning to‘g‘ri tartibini qo‘llashni o‘rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e’tiborni qaratish. Ijodiy rivojlantiruvchi muhitning samarasi kichkintoyning umumiy taraqqiyotiga, ijodiy tafakkuriga, mustaqilligiga ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitgagina bog‘liq emas, balki tarbiyachining bola bilan bo‘ladigan muloqotiga, vaziyatga, beriladigan topshiriqlarga, ularni berish usullariga ham bog‘liq. Bolalarga ta’lim-tarbiya berish bir tartibda o‘tmaydi. Tarbiyachi bolalarning taraqqiy etish dinamikasini kuzatib borishi, lozim bo‘lsa, yordam ko‘rsatishi lozim.

**10-amaliy mashg‘ulot. Dialogik nutqning mazmuni va vazifalari**

Nutq o`stirish mashg`ulotlari lug‘atni boyitish uchun yordam beradigan asosiy ta’lim shakli. Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy mashg`ulotlar turlari. Dabdurusdan tug‘ilgan so‘z ijodkorligida, tovushlar va qofiyalar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda, so‘zlar bilan amalga oshiriladigan

sinovlarda, ularning jarangdorligi va ahamiyati, so‘zlar mazmunini talqin qilishda ko‘zga tashlanadigan so‘zlarga qiziqishni qo‘llab-quvvatlash zarur.

**11-amaliy mashg‘ulot. Turli yosh guruhda suhbat uchun mavzu tanlash va unga qo`yilgan talablar.**

Turli yosh guruhda suhbat uchun mavzu tanlashga o`rgatish. Bolalar lug‘atini boyitishda ta’limiy o‘yinlarni tanlash, o‘tkazish va tahlil qilish. Bolalarning o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki kattalarning taklifiga ko‘ra hikoya qilib berishga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, ertaklar, suratlar va o‘z shaxsiy tajribasiga oid taassurotlarning so‘zdagi mazmunini qisqa hikoya, mulohaza, tavsiflar yordamida ifodalashni o‘rgatish.

**12-amaliy mashg‘ulot. Hikoya qilishga o`rgatishning maqsadi, vazifasi. Bolalarni o’z tajribalardan hikoya qilishga o’rgatish. Ijodiy hikoya qilish.**

Qisqa hikoyalar tuzish orqali lug‘atni boyligini oshirish. Bolalar lug‘atini boyitishda qayta hikoya qilishga o`rgatish usullari. Tovushlar va qofiyalar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda, so‘zlar bilan amalga oshiriladigan sinovlarda, ularning jarangdorligi va ahamiyati, so‘zlar mazmunini talqin qilishda ko‘zga tashlanadigan so‘zlarga qiziqishni qo‘llab-quvvatlash zarur.

**13- amaliy mashg‘ulot. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Turli yosh guruhlarida matn bilan ishlash metodikasi**

Bolalar nutqini o’stirishda badiiy so’z vositasining ahamiyati. MTMning bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish vositasi. Bolalarga badiiy adabiyotni yodlatish va o’qib berish metodikasi. Turli yosh guruhlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo‘yicha olib boriladigan mashg‘ulot turlari.

**14- amaliy mashg‘ulot. Bolalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatishning mazmuni va mohiyati.**

Bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashning ahamiyati. Tayyorlov guruhidagi bolalarni o‘qish va yozishga o‘rgatishda ularning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish. MTMda bolalarni o‘qish va yozishga o‘rgatishda analitik-sihtetik tovush metodi va uni takomillashtirib borish.O‘qishga va yozishga o‘rgatishga tayyorgarlik**.**

**15-amaliy mashg‘ulot. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni bilish jarayonida nutqni rivojlantirish texnologiyasi (2 soat)**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni bilishda nutqni

rivojlantirish ahamiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni bilishda nutqni rivojlantirish mazmuni. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirishda, lug‘at boyligini faollashtirish. Bolaning tevarak-atrofdagi voqelikni bilib borishi, uning go‘zalligini, bitmas-tuganmas murakkabliklarini his etishi, ijtimoiy munosabatlar va kattalar dunyosiga kirib borishi, uning har tomonlama kamol topishi.

## 16-amaliy mashg‘ulot. Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlar

Lug‘atni boyitish uchun yordam beradigan ta’limiy o‘yinlarning turlari. Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlar. Bolalar lug‘atini boyitishda ta’limiy o‘yinlarni tanlash, o‘tkazish va tahlil qilish. Bolalarning o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki kattalarning taklifiga ko‘ra hikoya qilib berishga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, ertaklar, suratlar va o‘z shaxsiy tajribasiga oid taassurotlarning so‘zdagi mazmunini qisqa hikoya, mulohaza, tavsiflar yordamida ifodalashni o‘rgatish. Dabdurusdan tug‘ilgan so‘z ijodkorligida, tovushlar va qofiyalar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda, so‘zlar bilan amalga oshiriladigan sinovlarda, ularning jarangdorligi va ahamiyati, so‘zlar mazmunini talqin qilishda ko‘zga tashlanadigan so‘zlarga qiziqishni qo‘llab-quvvatlash zarur.

## 17-amaliy mashg‘ulot. 1-bo`lim bo`yicha o`rganilgan Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi fani asosida bilimlarini mustahkamlash.

Nutq o`stirish uchun yordam beradigan interfaol o‘yinlarning turlari. Bolalar lug‘atini boyitishda ta’limiy o‘yinlarni tanlash, o‘tkazish va tahlil qilish. Bolalarning o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki kattalarning taklifiga ko‘ra hikoya qilib berishga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, ertaklar, suratlar va o‘z shaxsiy tajribasiga oid taassurotlarning so‘zdagi mazmunini qisqa hikoya, mulohaza, tavsiflar yordamida ifodalashni o‘rgatish.

## 2.4. Mustaqil ish topshiriqlari

| № | Mavzular nomi | Soat |
|---|---|---|
| 45. | Nutq o`stirish metodikasi fanining nazariy asoslari. | 2 |
| 46. | Nutq o`stirish metodikasi pedagogik fan, fanning predmeti, maqsadi vazifalari. | 2 |
| 47. | Nutq o`stirish metodikasining ilmiy tadqiqot metodlari va boshqa fanlar bilan munosabati. | 2 |
| 48. | Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o`stirishning mazmuni, dastur talablari. | 2 |
| 49. | Nutq o`stirish metodlari va usullari. | 2 |
| 50. | Nutq o`stirish mashg`ulotlari, ularning qurilishi. | 2 |
| 51. | Boglanishli nutq o`stirishning maqsadi, vazifalari, bog`lanishli nutq turlari. | 2 |
| 52. | Suhbat diologik nutq o`stirishning asosiy metodidir. | 2 |
| 53. | Maktabgacha ta'limda monologik nutq-hikoya qilishga o`rgatish metodikasi. | 2 |
| 54. | Maktabgacha ta'limda bolalar so`z boyligini oshirishning maqsadi, vazifalari. | 2 |
| 55. | Maktabgacha ta'limda bolalar so`z boyligini oshirish metodlari. | 2 |
| 56. | Maktabgacha ta'limda nutqning grammatik tomonini shakllantirish metodikasi. | 2 |
| 57. | Maktabgacha ta'limda nutqning tovush tomonini tarbiyalashning maqsad-vazifalari. | 2 |
| 58. | Badiiy asarlarni o`rgatish metodikasi. | 2 |
| 59. | Maktabgacha ta'limda monologik nutq-hikoya qilishga o`rgatish metodikasi. | 2 |
| 60. | Maktabgacha ta’lim tizimida bolalar nutqini o’stirish dasturini o’rganish va tahlil qilish | 2 |
| 61. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga qo’yilgan davlat talablarini o’rganish | 2 |
| 62. | Nutq o’stirish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa fanlar bilan aloqasi | 2 |
| 63. | Hikoya qilishga o`rgatish metodlari. | 2 |
| 64. | Turli yosh guruhda hikoya namunalari | 2 |
| 65. | So`z va uning xususiyatlari. | 2 |
| 66. | Bolalar lug`atini boyitish va uning vazifalari. | 2 |
| 67. | So`z boyligini oshirish talablari | 2 |
| 68. | Talabalarni nutq o’stirish mashg’ulotlarini rejalashtirishga o’rgatish | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| 69. | Nutq o’stirish mashg’ulotlarini tashkil qilish | 2 |
| 70. | Pedagogika kollejlarida nutq o`stirish metodikasi fanining o`qitilishi | 4 |
| 71. | Nutq o`stirish mashg`ulotlarini rejalashtirish va tashkil qilish | 2 |
| 72. | Nutq o`stirish mashg`ulotlarini kuzatish va tahlil qilish. | 2 |
| 73. | Bolalarni savod o’rganishga tayyorlash. | 2 |
| 74. | Bolalarda nutqni rivojlantirishga doir ishlarni rejalashtirish va hisobotini yuritish. | 4 |
| 75. | Bolalarda nutqni rivojlantirishga doir ishlarga uslubiy rahbarlik qilish | 2 |
| 76. | «O’zbekiston Respublikasida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dolzarb muammolari» mavzusida pedagogik kengashni tayyorlash va o’tkazish. | 2 |
| 77. | Bolalarda nutqni rivojlantirish metodikasining pretmeti va nazariy asoslari | 2 |
| 78. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ona tilining roli | 4 |
| 79. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishning fiziologik asoslari | 2 |
| 80. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishning psixologik –pedagogik asoslari | 4 |
| 81. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishning ingvestik asoslari | 2 |
| 82. | Nutqni rivojlantirish metodikasiing fan sifatida tarkib topishi | 4 |
| 83. | Sharq mutafakkirlari o’sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda ona tilining roli haqida | 2 |
| 84. | Nutqiy muloqotni rivojlantirish | 4 |
| 85. | Maktabgacha ta'limda nutq o`stirishning bosqichlari, bolalar yosh hususiyatlari | 4 |
| 86. | Nutq o`stirish mazmuni, shakllari | 2 |
| 87. | Mashg`ulot-maktabgacha ta'limda nutq o`stirishning asosiy shakli | 2 |
| 88. | Turli yosh guruxda suhbat uchun mavzu tanlash va unga qo`yilgan talablar | 2 |
| | **Jami** | **88** |

**“Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni**

**Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi fani bo‘yicha** fani bo’yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo’yicha birinchi mashg’ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo’yicha talabalarning bilim saviyasi va o’zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o’tkaziladi:

**joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo’yicha bilim va amaliy ko’nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg’ulotlarda og’zaki so’rov, test o’tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o’tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o’quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o’z ichiga olgan) bo’limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko’nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o’tkaziladi va shakli (yozma, og’zaki, test va hokazo) o’quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

**yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo’yicha nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni talabalar tomonidan o’zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o’tkaziladi.

***Talabaning bilim saviyasi, ko’nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo’yicha o’zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi. «Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi» fani bo’yicha talabalarning semestr davomidagi o’zlashtirish ko’rsatkichi 5 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 5 ball baholash turlari bo’yicha quyidagicha taqsimlanadi:***
Ya.N.-5 ball

| **Ball** | **Baho** | **Talabalarning bilim darajasi** |
|---|---|---|
| 5 ball | A’lo | Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish, tasvirlay olish. Tasavvurga ega bo’lish. |
| 4 ball | Yaxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo’lish. |
| 3 ball | Qoniqarli | Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish<br>Tasavvurga ega bo’lish. |
| 2 ball | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bo’lmaslik. Bilmaslik. |

Fan bo'yicha saralash bali 3 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi. Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 3 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 3 bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi. Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

**ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

**JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

## Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat "**Yozma ish**" shaklida amalga oshiriladi. Yozma ishi uchun 5 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 5 ball to'plashi mumkin.

Yozma ishi bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.Yakuniy nazorati varianti beshta savoldan iborat bo'lib, har bir savol max. ball.- 1 balldan baholanadi

## Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- fan bo’yicha ma'ruza darslari zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Muammoli ma'ruza", "Klaster", "Aqliy hujum" singari metodlari, multimediyali elektron darslik namoyishlarini;

- psixologiya metodlari, psixik jarayonlar, shaxsning individual xususiyatlari, shaxs taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya mavzularida o’tkaziladigan seminar mashg’ulotlarida guruhli fikrlash, kichik guruhlar musobaqalari pedagogik texnologiyalarini;

- shaxs, faoliyat, muloqot, yosh va pedagogik psixologiya metodlari, mavzularida o’tkaziladgan seminar mashg’ulotlarida "Charxpalak", "Bumerang", "Sinkveyn", "zinama " kabi pedagogik texnologiyalarni qo’llash nazarda tutiladi.

## Didaкtik vositalar

**Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi LCD-monitor, elektron ko’rsatkich (ukazka )

**Video- audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon kolonkalar.

**Kompyuter va mulьtimediali vositalar:** kompьter Dell tipdagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko’z (glazok)

## Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o’quv qo’llanmalar ro’yxati

**Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o’quv qo’llanmalar ro’yxati**

### Rahbarlik adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi tog`rida”gi PF-4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
2. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent, 2017. B.56.
3. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. –Toshkent, 2017. B.592.
4. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son,70-modda.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so’zi gazetasi. 2017-yil, 16-yanvar, №11.

**Asosiy adabiyotlar**

6. M.Asqarova, S.Matjonov va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirish.T.: O`zbekiston, 2001. -160 b.
7. Jo’raqulov R. “Bolalar nutqini o’stirish”. -Samarqand, 1994.
8. D.R.Babayeva. Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi. O`quv qo`llanma. -Toshkent, 2017.
9. Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to’g’ri talaffuzga o’rgatish. -Toshkent, 1995.
10. Shodiyeva Q. Kichkintoylarni o‘qish va yozishga o‘rgatish. -Toshkent, “O‘qituvchi”, 2002.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

10. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. -Toshkent, “Sharq”, 2004.
11. R.N.Nurmatov, X.N.Muzaffarova, G.X.Temurova. Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi. O`quv-metodik qo`llanma. -Jizzax, 2009.
12. S.G`oziyeva, D.Ochilova, L.Dolimova. Badiiy terma kitob. -Toshkent, “O`qituvchi”, 1994. -B.222.
13. G.Nasriddonova, S.Xo`jaahmedov. Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi. -Toshkent, 2011.-B.320.
14. M.R.Qodirova, F.R.Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. -Toshkent, 2006.
15. M.Asqarxo`jayeva, N.Hakimova. Bog`chalarda o`zbek tilini o`rgatish. -Toshkent, “O`qituvchi”, 1994. -B.126.
16. Jo’raqulov R., To’xtayeva Sh. Bog’chalarning kichik guruhlarida bolalar nutqini o’stirish bo’yicha uslubiy tavsiyalar. -Samarqand, 1991.
17. Jo‘rayev S., Qodirov H. Kichkintoylar nutqini o‘stirish. -Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.

**Elektron ta’lim resurslari**

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

## 1-MAVZU: TIL VA NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANINING VAZIFASI, PREDMETI, MAQSADI VA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI

Reja:

1. Ta’lim-tarbiya jarayoni hamda til va Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi fani haqida.
2. Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi va vazifalari haqida.
3. Til va nutq o’stirishni takomillashtirish yo’llari.

Maktabgacha ta’lim sog‘lom, har tomonlama etuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlash ota-onalarga yordam beradi. So‘ngi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunining 11- moddasida: «Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va etuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta’lim olti-etti yoshgacha oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida va mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi» deyilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qayd etilganidek, maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, shunnngdek, Maktabgacha ta’lim muassasalarida ham innovatsion g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida; maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yahshilash, ta’lim –tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intelektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida etibor qaratildi. Bu qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan, uning maktabgacha ta’lim bosqichiga e’tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish, mamlakatimiz ilmiy-texnikaviy dasturi, ustuvor

tadqiqotlarga yo‘nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi lozim. Zero, ta’kidlab o‘tganimizdek, uzluksiz ta’lim bosqichlarining nechog‘lik samarali ishlashi ma’lum darajada maktabgacha ta’lim sifatiga bog‘liq: bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo‘ladib, unga to‘g‘ri mazmun va yo‘nalish berish pedagogika fani, ta’lim amaliyotining dolzarb muammosidir. Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta’siri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadilar. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.)ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir.

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo‘lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko‘p asrlik tajribasini o‘zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi - til orqaligina berish mumkin. Til – hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, biz unga o‘z-o‘zidan bo‘lishi shart bo‘lgan narsa sifatida qaraymiz.

Tilning o‘zi nima, biz unda qanday so‘zlayapmiz, biz qanday qilib so‘zlashni o‘rganishimiz haqida esa unchalik ko‘p o‘ylab ham o‘tirmaymiz. Bilimni uyushtiruvchi boshlang‘ich bosqich sifatida chiqadigan nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o‘rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi ilmiy ufqlarni ochadi, uni o‘zining gumanitar mohiyati haqida orzu-xayollarga berilgan holda doimo tinch-osuda va jimgina o‘tiradigan burchagidan chiqishga majbur qiladi.

Ana shu nuqtai nazardan «Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi» fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Umumiy pedagogika - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

2. Nutq madaniyati - bu to‘g‘ri so‘zlay olish, ya’ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda

barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zahira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir.

3. Bolalar psixologiyasi – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

4. Maktabgacha pedagogika – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o‘rganadi.

5. Etika – shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

6. Estetika – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

7. Fiziologiya – o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.

8. Gigiyena – bolalarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.

9. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

10. Bolalar adabiyoti va adabiyotshunoslik asoslari – ta’lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish, xalq maktabgacha pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.

11. Madaniyatshunoslik – bolalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

12. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

13. Ijtimoiy pedagogika. Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi. SHaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarkibiy tajribani o‘zlashtirish, ta’lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo‘lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Tarbiya va ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning

rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

2. **Bolalar nutqini o‘stirishning predmeti maqsadi va vazifalari.**

Insonning yana bir o‘ziga xos xususiyati, o‘ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud, bu – boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandlik, «emotsional muloqotga ehtiyojmandlik»dir (K.Obuxovskiy). Aynan shu ehtiyoj tufayli dastlab til paydo bo‘lgan. Muloqotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so‘zlashni o‘rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to‘g‘ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nimalar deyishayotganliklarini tushunishi va o‘zi ham so‘zlashi lozim. Bu o‘rinda tilning uch sifati (tajribani jamlash va sintez qilish – fikrga jamlash – muloqotni amalga oshirish) haqida so‘z yuritish mumkin (V.A.Zveginsev). Tilni tadqiq qilish mustaqil, umumilmiy qiziqishdan
tashqari ko‘plab dolzarb amaliy vazifalarni hal etishda ulkan ahamiyatga egadir.

Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi maktabgacha ta’lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta’siri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o‘rinlidir, zero fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o‘zlashtirish va ijtimoiy o‘zaro hamkorlik – o‘zaro bog‘liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.)ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir.

Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi fani etti yoshgacha bo‘lgan

bolalarga har tomonlama ta'lim - tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, metod va vositalar hamda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi. Nutq o'stirish metodikasi maktabgacha pedagogikaning alohida sohasi bo'lib, uning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, metodologik asosi, tashkiliy shakl, metod va vositalariga tayanadi. Nutq o'stirish nazariyasi va amaliyoti maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga yaxlit tarbiya berishning maqsadi, bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta'limni hayot, amaliyot va zamonaviylik bilan bog'liqlikda olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslaniladi.

Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos – «o'rgatuvchi», didasko – «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, pedagog va pedagog faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi muammolarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fanining ob'ekti – yaxlit maktabgacha ta'lim jarayoni. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fanining predmeti – maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari, unga qo'yilgan talablar, usullari, shakllari, nutqni rivojlantirish muammolari, barkamol avlod tarbiyasida nutqni to'g'ri shkllantirish yo'llari va ish samaradorligi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya. Ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, va uning tamoyillari, qonuniyatlari. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish ishiga tayyorlashdan iboratdir.

Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fanining vazifalari:

-  maktabgacha yoshdagi bolalarda turli yosh bosqichlaridagi nutq rivojini ko'ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish;
-  bola nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'lini to'g'ri tanlash va bolaning nafaqat yoshini, balki uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zaro birgalikda xarakat qilish hamda olingan natijani tahlil qilish;
-  bolalar nutqining turli jihatlarini rivojlantirish, aniq uslublari va usullari xaqidagi bilimlar o'zlashtirilishini hamda ularning didaktik nutq muloqotlari

paytida qo‘llay olinishini ta’minlash;

 uslubiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilgan holda maktabgacha yoshda bo‘lgan bola nutqiga ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos usullari va uslublarini yaratishga intilishni rag‘batlantirish.

Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni - bolalarda og‘zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy muloqoti ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Nutqni rivojlantirish metodikasi quyidagi asosiy savollarga javob topish imkonini beradi: nimani o‘qitish (bolalarda qanday nutqiy ko‘nikmalarni tarbiyalash), qanday o‘qitish (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda qaysi metod va usullardan foydalanish lozim), nega endi aynan shunday o‘qitish zarur (nutqni rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysi ma’lumotlariga asoslanmoqda).Nutqni rivojlantirish metodikasi har qanday rivojlanishning umumiy shakllari, tomonlari va o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradigan dialektika qonunlari va toifalariga tayanadi.

Til – tarixiy va o‘zgaruvchan hodisadir. Har bir xalq, millat, elat va odamlar qabilasi o‘z tiliga egadir. Har bir xalqning tilida mazkur jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayoni, uning turmush sharoiti, ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar, ijtimoiy-mehnat faoliyatidagi yangi kashfiyotlar va erishilgan natijalari aks etgan.

3. Bolalar nutqini rivojlatirishning tashkiliy pedagogik va metodik ishlari. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza bilish darajasini ko‘tarish maktabgacha ta’lim tizimi metodistlari oldidagi asosiy vazifalardandir. SHuni hisobga olgan holda tevarak-atrofni o‘rganishda maktabgacha tarbiya yoshidagi kata bolalarning nutqini rivojlantirish muammosiga oid tadqiqotni nutqni rivojlantirishni ta’minlaydigan omillarni aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yuqori darajasiga quyidagilar evaziga erishilishi mumkin ekan:

- tilning adabiy me’yorlari va qoidalaridan xabardorlik;
- o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon eta olish;
- muloqotga kira bilish, kattalar va tengdoshlar bilan muomala qila olish;
- suhbatdoshni tinglay bilish, so‘rash (savollarni to‘g‘ri bera olish), javob berish, e’tiroz bildirish, zarur bo‘lganda esa tushuntirish, izohlash.

Ma’lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi:

- tabiat ob’ektlari bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida;
- savod o‘rgatishda;
- o‘yin faoliyatida;
- ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida.

Tadqiqotchilardan L.P.Fedorenko va G.A.Fomichevalar metodik jihatdan

muhim g‘oyani ilgari suradilar: «Bolani nutqga o‘rgatish, - deb yozadi ular, unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) ma’nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida (ehtiros va tuyg‘ularni mashq qildirish) borliqni baholashni ifodalashni o‘rgatish, adabiyot me’yorlarini eslashni osonlashtirishga ko‘mak berish demakdir».

Nutq o‘stirishni ta’minlaydigan Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning yuqori darajasiga quyidagilar evaziga erishilishi mumkin ekan:

- tilning adabiy me’yorlari va qoidalaridan xabardorlik;
- o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon eta olish;
- muloqotga kira bilish, kattalar va tengdoshlar bilan muomala qila olish;
- suhbatdoshni tinglay bilish, so‘rash (savollarni to‘g‘ri bera olish), javob berish, e’tiroz bildirish, zarur bo‘lganda esa tushuntirish, izohlash.

Ma’lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi:

- tabiat ob’ektlari bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida;
- savod o‘rgatishda;
- o‘yin faoliyatida;
- ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida.

Tadqiqotchilardan L.P.Fedorenko va G.A.Fomichevalar metodik jihatdan muhim g‘oyani ilgari suradilar: «Bolani nutqga o‘rgatish, - deb yozadi ular, -unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) ma’nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida (ehtiros va tuyg‘ularni mashq qildirish) borliqni baholashni ifodalashni o‘rgatish, adabiyot me’yorlarini eslashni osonlashtirishga ko‘mak berish demakdir».

Bola tomonidan nutqni o‘zlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda biz shunga e’tiborimizni qaratdikki, qo‘llanma mualliflari tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qo‘llaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam e’ibor qaratadilar.

Nutq o‘stirish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilmagan mashqlar bolalarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga ijobiy ta’sir ko‘rsata olmasligi mumkindir.

Nutq o‘stirishni ta’minlaydigan omillar

1. Tilning adabiy me’yoriy qoidalaridan xabardor
2. Nutqini rivojlantirishga erishish
3.Muloqatga kira olish
4. Tovushlarni talaffuz qilish
5. Iboralarni to‘g‘ri tanlash
6. Maishiy leksikaga ega gap tuzish
7.Bolalarning yosh xususiyatlari

8. Nutqni rivojlantirishning o‘sib boruvchi saloxiyati
9. Kattalar va tengdoshlari bilan muomala qilishi
10. Suxbatdoshini tinglay bilish
11. O‘z fikr mulohazalarini erkin bayon eta olish

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularga ona tilini o‘rgatish sohasidagi psixologo-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- Nutqni rivojlantirish – bu bolaning individual rivojlanishida markaziy o‘rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirishiga oid o‘ta murakkab va ko‘p omilli jarayondir.
- Bu stixiyali jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif qiluvchi ijodiy jarayondir.
- Bolaning nutqiy rivojlanish jarayonini boshqaruvchi pedagog ushbu jarayon qonuniyatlari, mexanizmlari va uning turli yosh bosqichlaridagi xususiyatlarini bilishi, nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini ko‘ra bilishi va bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uning nutqiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning eng samarali yo‘llarini tanlashi shart.

«Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o‘zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari zarur, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Nutq madaniyati - bu to‘g‘ri so‘zlay olish, ya’ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zahira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir.

Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza bilish darajasini ko‘tarish maktabgacha ta’lim tizimi metodistlari oldidagi asosiy vazifalardandir.

## Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. «Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi» fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligini tushuntiring?
2. Bolalar nutqini o‘stirishning predmeti, maqsadi va vazifalarini tavsiflab bering?
3. Bolalar nutqini rivojlatirishning tashkiliy pedagogik va metodik ishlarni qanday tashkil qilish kerak?

## ADABIYOTLAR:

1. Jo’raqulov R., To’xtayeva Sh. Bog’chalarning kichik guruhlarida bolalar nutqini o’stirish bo’yicha uslubiy tavsiyalar. -Samarqand, 1991.
2. Jo’raqulov R. “Bolalar nutqini o’stirish”. -Samarqand, 1994.

3. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. O`quv qo`llanma. -Toshkent, 2017.
4. Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. -Toshkent, 1995.
5. Shodiyeva Q. Kichkintoylarni oʻqish va yozishga oʻrgatish. -Toshkent, "Oʻqituvchi", 2002.

## 2-MAVZU: SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'SIB KELAYOTGAN AVLODNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

Reja:

1. Sharq va G'arb mutafakkirlari ta'lim va tarbiya haqida.
2. K.D.Ushinskiy bolalarga birinchi navbatda ona tilini o'qitish asoschisi.
3. Ye.N. Vodovozova, uning bolalar nutqini rivojlantirish metodikasiga qo'shgan hissasi.

Ta'lim va tarbiya muammosi juda qadimdan beri mavjud. U o'rta asrlardagi Sharq va G'arb mutafakkirlarining asarlarida ko'rib chiqilgan o'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy va boshqalar feodal zulm va mutaasib ruhoniylarning qattiq qarshiligiga qaramasdan jahon fani madaniyati, maorifiga beqiyos hissa qo'shdilar.

O'tgan davrlarda mehnatkashlarning o'z munosabatlarini uning yoshlariga tarbiyaviy ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadida yo'lga qo'yish borasidagi tajribalarini nafaqat xalk pedagogikasining qator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshqaruvchi obyektiv umumiy ijtimoiy qonunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham o'rganish lozim.

O'rta asrlar Sharqining qomusiy mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy (873-950) insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt- saodatga yetaklash yo'llari va usullarini o'zining ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markaziga qo'yadi. Bu esa uning dunyoqarashlarini umuminsoniy asosga egaligidan dalolat beradi.

Aynan shunday maqsadlar Forobiyning shaxsini tarbiyalash va ta'lim berish, uni takomillashtirish hamda uning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faol roliga nisbatan dunyoqarashlarining bosh mazmunini tashkil etadi.

Abu Rayhon Beruniy (971-1050) qomusiy olim sifatida tarixga kirgan. U fanni dindan ajratish zarur deb hisoblagan, aks holda uning fikriga ko'ra ilmiy bilimlar haqiqiy bo'la olmaydi. Olimning dinga bo'lgan tanqidiy munosabati ko'p jihatdan uning tarbiya va ta'limga bo'lgan munosabatlarini ham belgilab beradi. Beruniy o'z asarlarida ta'limning uzluksiz ko'rgazmali, aniq maqsadga yo'naltirilishi lozimligini va uning muayyan tizim asosida o'tkazilishi zarurligini ta'kidlagan. Beruniy shaxs tarbiya jarayonida shakllanadi, deb hisoblagan. Davoniy Eron hududida yashagan va ijod qilgan bo'lsa ham uning «Axloqi Jaloli»

nomli asari inqilobga qadar Samarqand va Buxorodagi madrasalarda o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan hamda O'rta Osiyodagi ko'plab ilg'or muttafakkirlarning pedagogik va axloqiy qarashlarini shakllantirishda katta rol o'ynagan.

Davoniy asarlarida ta'lim-tarbiya metodikasida maktab va o'qituvchining tutgan o'rni haqida ijodiy fikrlar juda ko'p. Uning asarlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Davoniy o'z davrining ilg'or mutafakkiri bo'lgan hamda uning ta'lim va tarbiya haqidagi ko'plab g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ayniksa, Alisher Navoiy o'zbek xalqi qalbidan chuqur joy olgan. Uning asarlari besh yuz yildan buyon ko'plab avlodlarni hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat g'oyalari insonning oliy maqsadlarini kuylash Navoiy merosida asosiy o'rin tutadi.

Navoiyning pedagogik qarashlari o'ta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish va tarbiyalash masalalariga juda katta ahamiyat bergan, Navoiy farzandni oilaga quvonch va baxt keltiruvchi shamchiroq deb bilgan.

Navoiy bolaga uning yoshiga qarab eng kichik yoshdan to'g'ri tarbiya berish zarur, fanlarni o'rganishni iloji boricha barvaqt boshlash lozim, deya ta'kidlagan.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy (1824-1870) rus pedagogikasi, xususan maktabgacha pedagogikaning asoschisi hisoblanadi. U bolalarni maktabgacha tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti masalalarini boshlang'ich ta'lim muammosi bilan bog'lagan.

Ushinskiy pedagogika tizimining asosiy yetakchi g'oyasi xalqona tarbiya g'oyasi hisoblanadi. Bunda har bir xalqning u yashaydigan va mehnat qiladigan tarixiy, tabiiy shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xosligini tushunadi.

Ushinskiy ona tili xalqchillikning eng yaxshi ifodasini tan olgan hamda ta'lim va tarbiya ishida ona tili asosiy o'rinni egallashi lozim deb hisoblagan.

Ona tilining bola psixologik kuchlarini har tomonlama rivojlantirish, til mohiyati va uning vujudga kelishining bosh manbai ekanligi haqidagi ta'limot K.D. Ushinskiy pedagogik ta'limotida markaziy o'rinlardan birini egallaydi hamda uning metodik tizimini tushunish uchun nasos bo'lib xizmat qiladi.

K.D. Ushinskiy ona tilini birlamchi o'qitishning uchta asosiy maqsadlarini shakllantirgan:

1. So'z imkoniyatlarini rivojlantirish.

2. Bolaga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o'rgatish, bolalarni ona tili boyliklarini egallashga jalb qilish.

3. Til qonunlarini, uning grammatikasini o'rganish.

Ona tilining birlamchi o'qitishning barcha uch maqsadiga ketma-ket, balki bir vaqtning o'zida erishiladi.

1861 yilda Ushinskiyning «Ona tili» nomli asari chop etildi. Mazkur asar Konstantin Dmitriyevichning bolalarga birlamchi savod o'rgatish va ularni tarbiyalash bilan bog'liq pedagogik g'oyalari hamda estetik tamoyillarining o'ziga xos yakunlari va amaliy ifodasi bo'ldi. O'qish kitobining butun mazmuni

muayyan tizim bo’yicha berilgan «Ona tili» kitobi nafaqat bilimlar qomusi, balki badiiy ensiklopediya ham hisoblanadi.

Uning birinchi qismidan 19 ta ertak, 30 ta topishmoq, 123 ta maqol va matal, 13 ta tez aytish, 14 ta qo’shiq, 14 ta turli shoirlar she’rlari hamda Ushinskiyning o’zi yozgan 43 ta hikoyasi joy olgan.

Ushinskiy 6 yoshgacha bo’lgan bolalar nutqini tavsiflar ekan, uning ayrim xususiyatlarini, masalan, tovushning tushunarsizligi lug’at boyligining yetarli emasligini, o’zaro bog’liqlikning yo’qligini alohida ta’kidlagan. U bolalar bilan mashg’ulot o’tkazishning turli shakllarini taklif qilgan:

- ❖ bolalar hayotidan hikoyalar;
- ❖ bolalarga narsalarning xususiyatlarini ko’rishda, 6 yoshga kelib esa narsalar juftligini bir-biriga taqqoslash, ular o’rtasidagi umumiylik va farqlarni topishda yordam beruvchi mashqlar;
- ❖ suratlar asosida hikoya qilish. Bu bolalarga savollarga javob berish so’ngra esa ravon, tushunarli va erkin hikoya qilib berishni o’rgatadi;
- ❖ bolalar o’qish va yozishga tayyorlovchi amaliy mashqlar.

K.D.Ushinskiyning til va u bilan ruhan shakllanishida tutgan o’rni haqidagi ta’limot nutqni rivojlantirish metodikasini mustaqil fan sifatida ajratish uchun muhim ahamiyatga egadir.

1. Til haqida uning vujudga kelishi haqida ta’limot metodikaning nazariy asoslari ishlab chiqildi, uning har bir odamning rivojlanishida tutgan o’rni ko’rsatib berildi. Bu esa bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashda ona tilining yetakchi o’rin tutishini asoslash imkonini berdi.

2. Bolalar nutqini rivojlantirish ishi maktab ta’limiga qadar boshlanadigan ish sifatida alohida bo’limga ajratilgan.

3. Bolalar nutqini rivojlantirishga bolaning uzoq davom etadigan ona tili uning mazmuni va shakllarini o’zlashtirish jarayoni sifatida qaralgan. Ushbu murakkab jarayon ustoz tomonidan to’g’ri va faol rahbarlik qilishni talab qiladi.

4. Ona tilini o’qitish jarayoniga rahbarlik qilishning asosiy qoidalari ona tilini birlamchi o’qitishni maqsadlari ularni amalga oshirish mazmuni va shakli nutqni rivojlantirishda ko’rgazmaviylikning ahamiyati ishlab chiqilgan va asoslab berilgan.

5. Bola nutqini uning fikrlash ma’naviy va estetik his-tuyg’ulari bilan birgalikda rivojlantirishni ta’minlovchi ish usullari ko’rsatib berilgan.

Yelizaveta Nikolayevna Vodovozova (1844-1923) K.D.Ushinskiyning shogirdi va izdoshi bo’lib, u maktabgacha tarbiya muassasalarini nazariy ishlab chiqishga sezilarli hissa qo’shgan. Ayni paytda Ye.N.Vodovozova taniqli bolalar yozuvchisi bo’lib, o’z davrida Rossiya tabiati hamda G’arbiy Yevropa davlatlari xalqlari hayotidan hikoya qiluvchi ajoyib ocherklar va hikoyalar yozgan.

1871 yilda uning maktabgacha pedagogikaga oid asosiy asari «Bolalarni ong paydo bo’lgan paytdan boshlab to 8 yoshgacha ularni aqlan rivojlantirish» nomli kitobi chop etildi. Vodovozova tarbiyaning bosh maqsadi insonni insoniylik g’oyalarini o’zida jo qilgan bo’lajak ijtimoiy arbob va o’z vatani fuqarosini tarbiyalashdan iborat, deb hisoblagan.

Vodovozova maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada va jamiyatda tarbiyalash tizimining asosiga xalqchillikni kiritdi. U bolalarni ilk yoshdan boshidan tarbiyalash tizimi xalq nutqi, xalq qo'shiqlari, topishmoqlar, ertaklar va o'yinlardan foydalanish asosiga qurilishi lozim, deb hisoblagan. Bu tizim bolalarda xalqiga, vataniga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalashni ta'minlashi lozim.

Ye.N.Vodovozovaning ulkan xizmatlari shundaki, u bolalarda ona tilini rivojlantirish dasturini va bolalarning tarbiyalashda rus folkloridan foydalanish metodikasini ishlab chiqdi. Vodovozova ham xuddi K.D.Ushinskiy kabi ertaklarni, ayniqsa xalk ertaklarini himoya qilib chiqqan.

Ye.N.Vodovozovaning fikriga ko'ra, ertak bolalarning boy kuzatishlari va bilimlariga tayanadi, bolalar nutqining boyishiga ko'maklashadi, ularga xalq iboralarini, nutq oborotlarini oddiy va jonli obrazlarni yod saqlab qolishga yordam beradi, ma'naviy jihatdan tarbiyalashda ko'maklashadi.

Vodovozovaning «Aqliy rivojlanish» nomli asarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun imkon doirasidagi va foydali bo'lgan xalq ertaklari turkumi bayon qilingan.

1 Sharq mutafakkirlarining asarlarida tarbiyaga, shu jumladan oilaviy tarbiyaga katta e'tibor berilgan.
2 Keng qamrovli shaxsni shakllantirish faqat ta'lim va tarbiya orqaligina amalga oshirilishi mumkin.
3 K.D.Ushinskiy til va uning ma'naviy shakllanishida tutgan o'rni haqidagi ta'limoti nutqni rivojlantirish metodikasini mustaqil fanga ajratish uchun qulaylik yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Abu Nasr al-Forobiyning tarbiya va ta'limga oid qarashlarining bosh mazmunini tavsiflang.

2. Devoniyning tarbiya va ta'limga oid ijabiy g'oyalarini tavsiflab bering.

3. Navoiyning pedagogik merosining bosh xususiyati nimalarda ifodalanadi?

4. K.D.Ushinskiyning bolalarga dastlab ona tilini o'qitish ta'limoti asoschisi sifatidagi faoliyatini ta'riflang.

5. Ye.N.Vodovozovaning maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashdagi xalqchillik g'oyalarini asoslab bering.

# 3-MAVZU. MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASASIDA NUTQINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR ISHLAR TIZIMI

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish qonuniyatlari.
2. Bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha ishlarni rejalashtirish.
3. Didaktik maqsadlar bo‘yicha mashg‘ulotlar turlarini ajratib ko‘rsatish.

***Tayanch tushunchalar:*** sensomotorika, tajriba-validatsiya, bilish instinkti, me’yorlangan nutq, nutq me’yorlari, bolaning nutqi, til qonuniyatlari, kattalar nutqi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish qonuniyatlari.

Ma’lumki, bolaning nutqi til qonuniyatlariga to‘g‘ri amal qilish, kattalar nutqini idrok etish va o‘zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi.

SHunday qilib, til va nutq maktabgacha katta yoshdagi bolaning psixologik rivojlanishi hamda dastavval xotirasi, fikrlashi, idrok etishi, hissiyoti va ehtirosini ta’minlaydigan ikkita muhim vositadir.

Birinchi qonuniyat: Ona tilidagi nutqni idrok etish qobiliyati bola nutq organlari muskullarining mashq qildirilishiga bog‘liq (shuning uchun ham so‘z, ibora va gaplarni talaffuz etishni takomillashtirish uchun nutq organlarini mashq qildirishga etarli darajada e’tibor bermoq muhimdir).

Ikkinchi qonuniyat: Nutq ma’nosini tushunish bola tomonidan nutqning leksik va grammatik qonuniyatlarining o‘zlashtirilishiga bog‘liq.

Uchinchi qonuniyat: Nutq ifodaliligini o‘zlashtirish bolada fonetika, leksika va grammatikaning ifoda vositalarini tushunishga bo‘lgan moyillikka bog‘liq (maktabgacha katta yoshdagi bolalarni nutq ifodaliligini tushunishga o‘rgatish hamda bu hissiyotlarning bola tomonidan o‘zlashtirilishiga erishish lozim).

To‘rtinchi qonuniyat: Nutqni boyitish, avvalo, nutq ko‘nikmalarini takomillashtirishga bog‘liq (agar oldingi yosh bosqichida maktabgacha kata yoshdagi bola nutqini shakllantirish muvaffaqiyatli bo‘lgan bo‘lsa, undan keyingi nutqni boyitish jarayoni hamda uni o‘zlashtirish oson va tez boradi).

Bundan tashqari, tadqiqotchilar tomonidan nutqni boyitish jadalligi tilni his etish, bilish imkoniyatlari (sezish, xotira, idrok qilish, fikrlash), iroda kuchining rivojlanishiga ham bog‘liq.

Beshinchi qonuniyat: Nutq me’yorlarini o‘zlashtirish tilni his etishning rivojlanishi. Ma’lumki, ta’limda biror-bir yutuqqa erishish tarbiyaga bog‘liq. SHuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalarning madaniy xulq-odatlarini shakllantirishga muayyan darajada e’tibor berish lozim. Ularda yaxshilik, kamtarlik, adolatlilik, vijdonlilik to‘g‘risidagi axloqiy tasavvurlarni tarkib toptirish kerak. Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof ob’ektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o‘simliklar olami, suv osti dunyosi) to‘g‘risidagi tasavvurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab etiladi. Nutqni rivojlantirishning samaradorligini

oshirish rejasida nafaqat tevarak-atrof ob'ektlari ustida oddiy kuzatishlar (mushohadalar) uchun, balki ularni o'rganish uchun ham sayrlar, sayohatlar o'tkazish muhimdir. SHu o'rinda tevarak-atrof ob'ektlarini o'rganishda nimalarga erishish mumkinligini aniqlab olishimiz lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, nutq o'stirishga oid tevarak-atrof manbalarining o'zini guruhlashtirish taqozo etiladi.

Tevarak-atrofni o'rganishda (tarbiyachilar yoki ota-onalar tomonidan) bolalar shunchaki kuzatmasliklari, balki predmetlarni ularning qismlari, elementlarini ko'rib, jarayonlar, hodisalarni idrok eta borib, ular to'g'risida mulohaza yuritishlari ham lozim. Bunga erishish uchun tarbiyachi oldiga qiyoslash, taqqoslash, ajratish, umumlashtirish, tahlil qilish va boshqa shu kabi usullardan foydalanish vazifasi qo'yiladi. Bundan tashqari, o'rganish jarayonida) maktabgacha katta yoshdagi bolalarni mehnatning ular uchun qulay bo'lgan turlari (ariqchalarni tozalash, daraxtlar tagini yumshatish, gullarni parvarish qilish)ga jalb qilish muhimdir. Bunday yondashuv shu bilan bog'liqki, inson biron narsani o'z qo'li bilan bajarsa, uni ko'proq va to'laroq esda saqlaydi. Mazkur usul bilan maktabgacha katta yoshdagi bolalarning
bog'lanishli nutqidagi kamchiliklar narsa-predmetlarning nomlarini so'zma-so'z va eslash orqali to'ldiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko'p jihatdan quyidagi narsalarning to'g'ri hal etilishiga bog'liq:

- nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar (tarbiyachi va ota-onalarning ma'lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o'qib yoki aytib beriladigan ertaklar, qo'shiqlar, hikoyalar);
- ta'limning didaktik materiallarni o'zlashtirish uchun foydalaniladigan metod va usullari;
- ta'limni tashkil etish (tevarak-atrof ob'ektlarini saralash, shunga bog'liq nutq o'stirishni rejalashtirish).
- o'quv materialining mazmuni, uni o'rganishning ayrim usullari hamda ularga tegishli tamoyillarga tayanib, tarbiyachi nutq o'stirish bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni rejalashtirmog'i zarur.

Biz ayni muammoga oid tadqiqot ishlari olib borish jarayonida nutq o'stirish borasida quyidagi didaktik tamoyillarga tayanib ish ko'rish yaxshi natija beradi degan xulosaga keldik:

- nutq organlari hamda qo'lni o'rgatish uchun nutq materialini tushunish;
- nutq ahamiyatini tushunish hamda leksik va grammatik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- nutq ifodaliligini baholash. Buning uchun maktabgacha yoshdagi kata bolalarda muayyan hissiyotni rivojlantiradigan didaktik materiallarni tanlash maqsadga muvofiqdir;
- ona tiliga muhabbat tuyg'usini rivojlantirish tamoyili (bu o'rinda bolalarga, xususan, nutqda ona tili faktlarini qo'llash an'anasini o'zlashtirish bo'yicha ta'limni tashkil etish nazarda tutiladi);

- muayyan mavzuga oid yozma nutqni og‘zaki nutq bilan qiyoslash;
- nutqning asta-sekin boyib borishi.

**2.Bolalar nutqini o‘stirish bo‘yicha ishlarni rejalashtirish.**

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog‘liqdir.

Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo‘naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so‘ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o‘rganishga o‘tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi. Bola leksikasini kengaytirish, uning o‘z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o‘zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi.

Nutqni zamonaviy va to‘laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o‘zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o‘zgarganligidadir. Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo‘lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo‘lishi bosqichiga o‘tish uchun zarur bo‘lgan sharoit vujudga keladi.

Bolaning faol nutqni o‘zlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar.

Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko‘rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo‘yilayotgan va so‘zdan jamiyatda o‘zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo‘lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko‘rib chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o‘z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya’ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi. Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida- uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o‘zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bu bola nutqining yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o‘zlashtirishiga olib keladi.

Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o‘rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to‘satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik sa’y-harakatlarni uyushtirish kalitidir.

«Haqiqatdan ham, til bilan tafakkur bir-birisiz yashamaydi, - deb yozadi

A. M. Borodich - Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o'zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur- ob'ektiv borliqning intihosi, til esa- fikrni boshqa kishilarga etqazish va mustahkamlash vositasi. So'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi». Ma'lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi: tabiat ob'ektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida; savod o'rgatishda; o'yin faoliyatida; ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida. Biroq A.M.Borodich, F.A.Soxin, E. I. Tixeeva, O.S.Ushakova, A.P.Usova, A.P.Fedorenko va boshqa tadqiqotchilar ko'rsatib o'tganlaridek, nutqni rivojlantirish mahsus rejalashtirilgan va tashqil etilgan mashg'ulotlarda amalga oshirilishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir. SHu bilan birga, mashg'ulotlarni tashqil etishda eng ma'qul natijalarga erishish uchun quyidagi talablarga rioya qilish zarur bo'ladi: mashg'ulotlarni ularning maqsadi, mazmuni va o'tqazilish muddatini hisobga olgan holla rejalashtirish; bolalarning analitik-sintetik xarakterdagi nutqiy vazifalarni echish mashg'ulotlarida mustaqil faoliyatlarini aniq belgilash, predmetlar o'rtasida aloqalar o'rnatish, o'xshashliklarini ajratish; tarbiyaviy xarakterdagi aniq masalalarni hal etish mashg'ulot mazmuni, vaqti va o'tkazish metodini aniq belgilash; bolalarda nutqni shakllantirishga oid mashg'ulotlarga qiziqish o'yg'otish; rejalashtirilgan mashg'ulotlar o'rtasida izchillikka rioya qilish.

Ma'lumki, nutqda belgilarni qo'llash an'anasi hech kim tomonidan boshqarilmaydi. Vujudga kelgan an'anani eslash va undan foydalanish kerak. SHuning uchun ham, nutqqa ega bo'lish uchun til belgilaridan foydalanish an'anasini (ularning kombinatsiyalari,bir-birini almashtira olishni bilish lozim. Ana shu munosabat bilan tadqiqotchilardan L.P.Fedorenko va G.A. Fomichevalar metodik jihatdan muhim g'oyani ilgari suradi: «Bolani nutqqa o'rgatish, - deb yozadi ular, - unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) ma'nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida (ehtirom va tuyg'ularni mashq qildirish) borliqni baholashni ifodalashni o'rgatish, adabiiy me'yorlarini eslashni osonlashtirishga ko'mak berish demakdir». Bola tomonidan nutqni o'zlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda biz shunga e'tiborimizni qaratdikki, ushbu qo'llanma mualliflari tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qo'llaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam e'tibor qaratadilar.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Maktabgacha ta'lim muassasalarininig asosiy vazifalaridan biri bolalarning o'z xalqining badiiy tilini o'zlashtirib olishlari natijasida ularning to'g'ri og'zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish, og'zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni

rivojlantirish, badiiy so‘zga qiziqishni tarbiyalash, savod o‘rgatishga tayyorlash. Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug‘at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo‘lgan nutqiy mahorat va ko‘nikmalar belgilangan bo‘lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosiqlik) tarbiyalashni ko‘zda tutishi lozim. Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga qurilgan bo‘lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o‘quv, o‘yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi. Jamoat tarbiyasi sharoitida ta’lim -bola nutqini shakllantirishning etakchi vositasi hisoblanadi. Ona tilini o‘qitish – bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko‘zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug‘atni o‘zlashtirish, nutqiy mahorat va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishning asosiy shakli – mashg‘ulotlardir.

Didaktik maqsadlar bo‘yicha quyidagi mashg‘ulotlar turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- yangi materialni ma’lum qilish mashg‘uloti;
- bilimlar, mahorat va ko‘nikmalar mustahkamlashga oid mashg‘ulotlar;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid mashg‘ulotlar;
- yakuniy mashg‘ulotlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) mashg‘ulotlari.

Bolalarga ona tilini o‘qitishga doir mashg‘ulotlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. CHunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar soni, har bir mashg‘ulotning davomiyligi shunga bog‘liq bo‘ladi.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg‘ulotlarni didaktik o‘yinlar, ermak o‘yinlar, sahna ko‘rinishlari shaklida o‘tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko‘ngilochar tusga, balki albatta, ta’lim tusiga ega bo‘lishi lozim. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo‘lishi lozim. Bunda ko‘rgazmaviylik, o‘yin usullari va didaktik o‘yinlarni keng qo‘llash zarur. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg‘ulotlar muayyan vazifaga ega – ya’ni, u bolalarni maktabda o‘qishga tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Mashg‘ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o‘quv faoliyatini yo‘lga qo‘yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e’tiborli bo‘lish, pedagog topshirig‘ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr oldira olish, tengdoshining javobiga oddiy baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

To‘g‘ri ta’lim berilgan taqdirda etti yoshga kelib bola og‘zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga

kirisha oladi; dialogda tashabbus ko‘rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e’tiborini o‘ziga jalb qilish, unga so‘z, harakat va so‘zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi; fikrlarini to‘liq va noto‘liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi;

- tanish ertaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir voqeani to‘qib chiqarishga qiziqa boshlaydilar;
- fikr bildirishlarda nutqning turli qismlarini, tashbehlar, qiyoslashlar va sinonimlarni qo‘llaydi;
- nutqqa tanqidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to‘g‘ri so‘zlashga intiladi, shu tufayli so‘z to‘qish barham topadi, grammatizmlar soni kamayadi; ona tilidagi barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etadi.

Bolalardagi ko‘plab nutqiy muloqot va ko‘nikmalar mashg‘ulotlardan tashqarida shakllanadi. Bolalar bog‘chasida bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshq.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro‘y beradi.

Mehnat jarayonida – xo‘jalik-maishiy, qo‘l va qishloq xo‘jaligi mehnatida bolalarning lug‘ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi. O‘yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug‘at, mashg‘ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O‘yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug‘atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Qurilishga oid o‘yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo‘lgan so‘zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi. Matnli, harakatchan musiqiy o‘yinlar, sahnalashtirish o‘yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to‘g‘ri sur’at, nafas olish, yaxshi diksiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko‘pgina o‘yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo‘llay boshlaydilar.

Didaktik o‘yinlar yordamida bolalarda atrof-olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug‘at mustahkamlanadi, aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o‘yinlar nutqiy mahorat va ko‘nikmalarni mashq qilishda (ibora tuzish, so‘zni o‘zgartirish, hikoya to‘qish va h.q.) qo‘llaniladi. Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshqarishi lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya’ni, agarda pedagog, ayniqsa, kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning qismlari, sifati, xususiyati, qo‘llanish maqsadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharhlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug‘atdan foydalanishni o‘rgatsa bolalarning lug‘ati boyiydi. Agarda pedagog o‘z nutqida qiyoslash, sinonimlar, xalq og‘zaki ijodi (maqollar, matallar, sanoq she’rlar)dan keng va moxirona foydalansa,

uning nutqi bosiq va ifodali bo‘ladi.

Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar kitoblari she’riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg‘ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Badiiy so‘z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi, jaranglayotgan ona nutqning go‘zalligini tushunishga yordam beradi. Bolalar bog‘chasida nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so‘zdan tashqari tasviriy san’at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Ularning qimmati shundaki, u ijobiy hissiyotlarni hosil qiladi, bu esa o‘z navbatida tilni o‘zlashtirish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Quvonch hissi, hayajonlanganlik, ko‘tarinkilik holati, g‘ayrioddiy narsani kutish bolalarning qabul qilish qobiliyatini oshiradi, materialni eslab qolishni kuchaytiradi, bolalar nutqining ifodaliligiga ta’sir ko‘rsatadi. Suratlar, amaliy san’at buyumlarini tomosha qilishda bolalar ko‘p savol beradilar, olgan taassurotlarini atrofdagilarga aytishga oshiqadilar.

Bolalar kun bo‘yi – mashg‘ulotlarda, o‘yinlarda, xo‘jalik-maishiy va mehnat faoliyatida o‘z pedagoglari bilan muloqotda bo‘ladilar. O‘z-o‘zidan bolalar bog‘chasida nutqiy muhitning rivojlantirish imkoniyatlari butunlay pedagog nutqining sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Namunali nutqqa ega bo‘lish – bu tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi darajasidir. SHuning uchun o‘z nutqini takomillashtirish haqida qayg‘urish – bo‘lajak pedagogning axloqiy va ijtimoiy burchlaridir. U o‘zida barcha nutq ko‘nikmalarini mukammal shakllantirishi va uni kelgusida bolalarga berishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar, atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to‘g‘ri talaffuzni, so‘zni qo‘llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda uchraydigan nutq nomukammalliklarini ham o‘zlariga qabul qilib oladilar.

Tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning bir-birlari bilan mazmunli muloqoti, bolalar rivojini rag‘batlantiruvchi qulay til muhiti, to‘g‘ri metodlardan foydalanish - bolalar bog‘chasida nutqni rivojlantirishga oid ishlar muvaffaqiyatining garovidir.

Bolalar bog‘chasida ona tilidagi nutqni rivojlantirishning metodik tamoyillari quyidagilardir:

- aqliy va nutqiy rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi tamoyili;
- nutqni yaxlit bir tuzilma sifatida rivojlantirish tamoyili;
- nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- bolalarning faol nutqiy amaliyotini ta’minlash tamoyili;
- nutqni rivojlantirishga nisbatan muomalali va amaliy yondashuv tamoyili;
- muloqotning ijobiy va emotsional muhitini ta’minlash tamoyili.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bola eshitgan nutqqa taqlid qilishidan iborat emas, balki bu bolada muloqot faoliyatini rivojlantirish va muloqotga

ehtiyoj mavjudligi bilan bog‘liqdir.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish qonuniyatlari haqida gapirib bering.
2. Bolalar nutqini rivojlantirishning ilmiy asoslari haqida nimalarni bilasiz?
3. Nutq o‘stirish borasida qanday didaktik tamoyillarga tayanib ish ko‘riladi?
4. Bolalarning nutqini o‘rganishning eng qulay usulini ayting?
5. Bolalar nutqini rivojlantirish sohasida maktabgacha ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsad va vazifalari.
6. Nutqni rivojlantirish dasturining ilmiy asosi.
7. Barcha yosh bosqichlarida bolalar nutqini rivojlantirishga doir pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlari.
8. Bolalar nutqini rivojlantirish sohasida maktabgacha talim muassasasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsad va vazifalari.

## 4-MAVZU: MAKTABGACHA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O`STIRISHNING VAZIFALARI, METODLARI VA VOSITALARI

**Reja:**

1. Kichik yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning metodik masalalari.
3. Kichik yoshdagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish.

***Tayanch tushunchalar:*** psixolingvistik adabiyotlar, yarim tillilik, ijtimoiy kutish, kommunikativ yo‘naltirilganlik, ijtimoiy vaziyat, emotsional kechinmalar, ermak o‘yinlar, diksiya, emotsional ekspressiya, empatiya

Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg‘u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o‘zgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o‘yin, predmetlar va o‘yinchoqlar bilan tajriba o‘tkazish, qog‘ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo‘shilib ketgan, so‘ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog‘liq bo‘lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojining

qondirilmasligi ular o‘rtasida emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ba’zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig‘lab yuboruvchi bo‘lib qoladilar; boshqalari esa – negativizm, tajovuzni namoyon qilishadi.

Bola hayotining to‘rtinchi yilida tengdoshi uning uchun eng avvalo, birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, o‘yindagi sherik sifatida qolaveradi. Bola tengdoshiga eng oddiy talablar, iltimoslar bilan murojaat qiladi va tengdoshining harakatiga baho beradi. Besh yoshli bolalar tengdoshlarining hadeb u yoki bu narsani so‘rab, jonga tegishini salbiy baholaydi. Besh yoshga kelib, tengdoshlari bilan muloqotga va ular bilan bolalar jamiyatini vujudga keltiradigan birgalikdagi o‘yinlarga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortadi. Bola hayotining beshinchi yiliga kelib, u o‘z tengdoshlari o‘rtasida o‘z o‘rnini anglay boshlaydi. Kommunikativ qo‘nikma rivojlanadi: bola salomlashadi va xayrlashadi, do‘stini ismini aytib chaqiradi, to‘rt-besh yoshlarga kelib – sherigini u o‘ynayotgan rol nomi bilan chaqiradi («hoy, shofyor, arqon g‘ildirakning tagiga tushib ketdi»).

Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish bolaga o‘zining «men»ini anglash imkonini

Uch yashar bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar:

-  bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, o‘z istak-xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko‘rsatib fikr bildirishga intilishini qo‘llab-quvvatlang;
-  tengdoshlari ishlariga qiziqishi, o‘z taassurotlarini ular bilan o‘rtoqlashishni istashi, o‘yin harakatlari, ro‘y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini rag‘batlantiring;
-  bolangizning lug‘at zahirasini kishilar, o‘simliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, o‘yinchoqlar, narsa-buyum qismlari (ko‘ylak engi, cho‘ntaklari va yoqasi; mashina eshigi va g‘ildiragi kabilar) nomlari bilan boyitib boring. Gapda so‘zlarni bir-biriga to‘g‘ri bog‘lashni (masalan, «Uyda ketdi» emas, «uyga ketdi», «Kecha boraman» emas, «Bugunboraman») o‘rgatishga alohida e’tibor bering;
-  bolalarni unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgating.

**Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning metodik masalalari.** Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti to‘laqonli ijtimoiy rivojlanishning muhim shartidir. SHundan kelib chiqqan holda, bolada muloqotga intilish, muloqot bo‘yicha sheriklarining talabiga javob berish, ijtimoiy jihatdan o‘zini tutishga moslashuvchanlik va xushmuomalalilik kabi hislatlarni tarbiyalamoq zarur. Kattalar (ota-onalar, pedagoglar) shuni tushunishlari lozimki, qator holatlarda salbiy muloqot tajribasi bolani biron-bir harakatga undamaydi, balki bolani insoniy munosabatlar olamida o‘zini ko‘rsatishdan «aynitadi», himoya mexanizmlari – o‘zi bilan insoniy olam

o‘rtasidagi «devor», atrofdagi olamni «ko‘rmaslik» paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin: bola odamlar haqidagi savollarga javob bermaydi, suratlarda odamlarni «ko‘rmaydi», odamlar va hayvonlarni tasvirlovchi o‘yinchoqlar bilan o‘ynamaydi.

Muloqotdan faol bosh tortayotgan bolaning dunyosiga qo‘pol aralashish salbiy oqibatlarga va tajovuzga olib keladi. Salbiy kechinmalar cho‘qqisida o‘ziga nisbatan tajovuz tug‘iladi.

Bolaga oilada va maktabgacha ta’lim muassasasida psixologik jihatdan qulay bo‘lishi, uning kattalar va tengdoshlari o‘rtasida emotsional jihatdan qulay muhit yaratish, ular bilan o‘zaro munosabatlardan quvonch va zavq olishlari uchun quyidagilar zarur:

- bolaga kattalar va tengdoshlarining turli emotsional holatdagi hissiyotlari va kechinmalari olamini ochib berish;
- bolaning boshqa bolalar bilan ishongan holatda muloqot qilishi uchun sharoit yaratish;
- quvonchli, qayg‘uli, xotirjam, emotsional holatini ko‘rish va tushunishga bo‘lgan intilishni rivojlantirish;
- o‘zini tutib turish va g‘azab, qo‘rquv, jahl hislarini ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda namoyon qilishni rivojlantirish (boshqa bolani turtmaslik, urmaslik, o‘yinchoqni qo‘ldan tortib olmaslik va h.k.);
- jamiyatda qabul qilingan muloqot usullaridan foydalanish ko‘nikmasini tarbiyalash: ochiq chehra bilan salomlashish va xayrlashish, o‘z iltimos va takliflarini xushmuomalalik bilan bildirish; yordam berganlik, mehmon qilganlik uchun, o‘yinchoqni berib turganlik uchun minnatdorchilik izhor qilish; o‘rtog‘ining iltimosiga xushmuomalalilik bilan javob qaytarish; javobini xotirjamlik bilan tinglash; o‘rtog‘ini xafa qilmaydigan ohangda o‘z noroziligini izhor qilish.

Pedagogik ishlar to‘g‘ri tashkil qilinganida maktabgacha yoshdagi bola besh yoshga kelib ijtimoiy rivojlanishning quyidagi ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi:

- insoniy munosabatlarni tushunadi, atrofdagilarning unga nisbatan yaxshi va yomon munosabatlarini his qiladi va anglaydi; ota-onasining, tengdoshining emotsional ahvolidagi o‘zgarishlarni payqaydi; diqqat-e’tibor, hamdardlik izhor qiladi;
- «men xohlayman!» vaziyatga oid bevosita istagini to‘xtatib turishga qodir. Empatiya (hamdardlik) va emotsional ekspressiya (quvonch, qayg‘u va boshqa holatlarni ifodalash) xususiyatidagi kechinmalar bola xulq-atvori va muloqotining tartibga soluvchisiga aylanadi;
- bolalar barqaror o‘yin birlashmalariga kirishi mumkin, muloqotda va birgalikdagi faoliyatda quvonch, zavqlanish, qayg‘u va boshqa holatlarni ifodalash uchun emotsional ekspressiv nutqiy va nonutqiy vositalardan foydalanadi.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo‘lishi lozim. Bunda ko‘rgazmalilik, o‘yin usullari va didaktik o‘yinlarni keng qo‘llash zarur.

**Nutqiy muloqotni rivojlantirish.** Bolalardagi ko‘plab nutqiy muloqot va ko‘nikmalar mashg‘ulotlardan tashqarida shakllanadi. Maktabgacha talimda bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshq.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro‘y beradi. Mehnat jarayonida - xo‘jalik-maishiy, qo‘l va qishloq xo‘jaligi mehnatida bolalarning lug‘ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi. O‘yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug‘at, mashg‘ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O‘yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug‘atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Qurilishga oid o‘yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin bo‘lgan so‘zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi.

Matnli, harakatchan musiqiy o‘yinlar, sahnalashtirish o‘yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to‘g‘ri sur’at, nafas olish, yaxshi diksiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko‘pgina o‘yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo‘llay boshlaydilar.

Mashg‘ulotning tahlili: Tarbiyachi dastur bo‘yicha kapalakning yangi turi «Baxmal kapalak» haqida bolalarga bilim berdi. Mashg‘ulotda solishtirish metodidan foydalanildi (YA’ni, oddiy kapalak baxmal kapalak bilan solishtirildi). Mashg‘ulot savol-javob tarzida boshlandi. YAngi bilim berish bilan tugatildi.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Maktabgacha o‘rta yoshdagi bolalar bilan muloqot qay tarzda amalga oshiriladi?
2. Maktabgacha o‘rta yoshdagi bola nutqning grammatik tizimi qanday shakllantiriladi?
3. Muloqotning qanday vositalarini bilasiz?
4. Maktabgacha o‘rta yoshdagi bolalar uchun qanday mashg‘ulotlar ishlanmasi tavsiya etilgan?
5. Muloqot, til, nutqning tahlili va rivojlanish asoslari haqida nimalarni bilasiz?

# 5-MAVZU: MAKTABGACHA O‘RTA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHNING METODIK MASALALARI

**Reja:**

1. O‘rta yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. O‘rta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning metodik masalalari.
3. O‘rta yoshdagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish.

***Tayanch tushunchalar:*** psixolingvistik adabiyotlar, yarim tillilik, ijtimoiy kutish, kommunikativ yo‘naltirilganlik, ijtimoiy vaziyat, emotsional kechinmalar, ermak o‘yinlar, diksiya, emotsional ekspressiya, empatiya

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim – tarbiya berishda tevarak atrof bilan tanishtirish va nutqni rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan ishlar katta o‘rin egallaydi. Bu ishlar faqat mashg‘ulotlardagina amalga oshirilmasdan, balki bolalarning kundalik hayotida ham, mehnat faoliyatida va o‘yin faoliyatida amalga oshiriladi.

-  bolaning o‘z qarindoshlari, qo‘shni tengdoshlari shaxsiga va faoliyatigaqiziqishini qo‘llab-quvvatlash, birgalikdagi o‘yinlarda ularning dialogik nutqini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish;
-  turli muloqot vositalari, ya’ni - so‘z, yuz ifodasi (imo-ishora)dan muayyan vaziyatni hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan holda foydalanishni o‘rgatish;
-  bolalarning ertak va kichik hikoyalarni so‘zlab berishga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash;
-  bolani “tovush”, “so‘z”, “gap” atamalari bilan tanishtirish kabilardan iborat.

O‘rta guruhda bolaning narsa (buyumlar) to‘g‘risidagi bilimlarini chuqurlashtirish bo‘yicha mukammal ish olib borish ko‘zda tutilgan. Bu guruh bolalarining faol lug‘ati narsalarning nomlarini, qismlarini, ularning sifatlarini va xususiyatlarini (rangi, shakli, uzunligi, tashqi ko‘rinishi va boshqalar) hamda fazo va vaqtni bildiruvchi so‘zlar hisobiga boyib boradi. Bolalarning o‘z nutqlarida umumlashtiruvchi so‘zlarni, ya’ni kiyim-kechak, oyoq kiyim, mebel, idish-tovoqlar, sabzavotlar, mevalar, gullar, qushlar, hayvonlar va hokazolarni ishlatishga o‘rgatiladi; tanish buyumlarni guruhlashga va ularni tasniflashga (idish tovoqlar, choy idishlar, ovqat suzadigan idishlar, oshxonada ishlatiladigan idishlar, oyoq kiyimlar, qishki va yozgi kiyimlar) o‘rgatiladi.

4-5 yoshli bolalar jamiyat hayotining ayrim hodisalari bilan tanishtiriladi, kishilar mehnati, ularning kasblari, mehnat qurollari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirilib boriladi va buning natijasida ularning lug‘atlariga mehnat faoliyatining xususiyatlarini, ishchilar (mehnatkashlar) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini bildiruvchi so‘zlar kiritib boriladi.

O‘rta guruhda ona shahriga, qishlog‘iga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni tarbiyalash davom ettiriladi. Ularning nutqida jamoat binolarining nomlarini bildiruvchi so‘zlar faollashtirib boriladi: pochta, maktab, do‘kon, kino-teatr va hokazolar, faollashtirib boriladi hamda shahar va qishloqlarni, obodonlashtirish bo‘yicha olib boriladigan mehnat faoliyatlarini bildiruvchi so‘zlar hisobiga (yangi ko‘prik qurishyapti, shahar bog‘i tashkil qilindi) lug‘atlari boyitib boriladi. Bola tilining lug‘at tarkibini egallash bilan birga uning grammatik qurilishini ham egallay boshlaydi.

O‘rta guruh yoshdagi bola nutqi uchun quyidagi xususiyatlar xosdir: Bola besh yoshga etganda uning faol lug‘ati boyib, munosabat doirasi kengayib, oddiy yoyiq gaplardan foydalana boshlaydi. So‘z turkumlaridan otni tez o‘zlashtiradi, vaqt, son shaxs kabi kategoriyalardan foydalanadi, sodda va murakkab jumlalar tuzadi. To‘rt yoshli bolalar o‘z nutqlarida bog‘lovchilarni ishlata boshlaydilar, otlarni ko‘plik, birlik, bo‘lishli, bo‘lishsiz shakllarda va turli kelishiklarda to‘g‘ri ishlata oladigan bo‘ladilar. Otlardan so‘ng so‘z turkumlaridan fe’llarni va sifatlarni o‘zlashtira boshlaydilar. Lekin yangi o‘zlashtirilgan so‘zlarni hamma vaqt ham yangi grammatik shaklda eslab qola olmaydi, yoyiq gapdan foydalangan vaqtda uning mazmuni va shaklini tekshirib ulgura olmaydi. Fe’llarning zamonga qarab o‘zgarishini (hozirgi, o‘tgan va kelasi zamon) tezda to‘g‘ri o‘zlashtirib ololmaydilar, nutqlarida fe’llarning zamon qo‘shimchalarini almashtirib yuboradilar. Ayrim bolalar nutqida gaplaridagi so‘zlar bir-biriga to‘g‘ri bog‘lanmaydi, ayrim so‘z turkumlarini tushirib qoldiradilar.

To‘rt yoshli bolalarni so‘zlashuv (dialog) nutqiga o‘rgatishda bolalarga berilgan savollarga bitta-bittadan javob berishga, jamoa bo‘lib so‘zlashishga, suhbatda qatnashishga, o‘rtog‘ining javobini qunt bilan tinglashga va savollar berishga o‘rgatiladi. O‘rta guruhda bog‘lanishli nutqni rivojlantirishda yangi vazifa, ya’ni hikoya qilishga o‘rgatish kiritiladi. 4-5 yoshli bolalarni buyumlarni tasvirlashga (o‘yinchoqlarni, o‘simliklarni, kiyimlarni), ularning o‘ziga xos belgilarini aytishga, bolalarga tanish bo‘lgan qisqa ertaklarni (masalan: «Echki bolalari bilan»), mashg‘ulotlarda birinchi martda o‘qib berilgan uncha katta bo‘lmagan hikoyalarni qayta hikoya qilishga o‘rgatiladi.

4-5 yoshli bolalar nutqning tovush tomoni ayrim xususiyatlari bilan ajralib turadi: birinchi xususiyati shundan iboratki, ular boshqa kishilar nutqidagi tovushlarni tez idrok etadilar, ikkinchi xususiyati esa tovush talaffuzidagi kamchiliklarni sezish qobiliyati etarli rivojlanmagan bo‘ladi va uchinchi xususiyati hali bolalarda artikulyasiya apparati etarli darajada rivojlanmagan bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarda nutq, tovush madaniyatini tarbiyalash, asosan, fonematik eshitishni va ona tilidagi hamma tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishni shakllantirishga qaratilgandir. Nutqning mazmundorligi, intonatsion ifodaliligi, ovoz kuchi, tempi, so‘zlarda urg‘ularni to‘g‘ri ishlatish, gapirganda to‘g‘ri nafas olish, va chiqarishni ham tarbiyalash zarur. Ayniqsa, hushtakli (s-z), shovqinli (sh, j, ch) va sonor tovushlarni (l, r) to‘g‘ri talaffuz etilishiga alohida ahamiyat berish kerak. O‘rta guruhda bolalarning

badiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishi rivojlantirib boriladi. Ularga kitob o‘qib beriladi, hikoya qilinadi, kitobdagi rasmlarni ko‘rib chiqish, uni to‘g‘ri idrok qilish o‘rgatiladi.

Tarbiyachi bolalarga asar mazmunini tushunib olishiga, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay olishga yordam beradi, badiiy so‘z jozibasini his eta olish qobiliyatini tarbiyalaydi. Bolalarni qisqa she’rlarni badiiy aytishga va xotirada saqlab qolishga (yod olishga) o‘rgatadi. Maktabgacha o‘rta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning metodik masalalari. Ilk turdagi nutqiy rivojlanishda 4-5 yoshdan maxsus tayyorgarliksiz hikoya qilib berish boshlanadi. Bolalar sehrli ertaklar va bo‘lgan voqealarni bir-biriga so‘zlab beradilar, o‘yinchoqlardan foydalangan holda o‘ziga xos hikoyalar to‘qiydilar. Agarda bola etti yoshida tanish an’anaviy ertakni (“Zumrad va Qimmat», “Egri va To‘g‘ri» kabi) mustaqil hikoya qilib bera olsa, o‘yinchoqlar, sur’atlar asosida kichik og‘zaki insho to‘qiy olsa bular uning nutqi etarli darajada rivojlanayotganini bildiradi.

Bola nutqini ma’nodosh, shakldosh va ko‘p ma’noli so‘zlar, umumlashtiruvchi nomlar bilan boyitishga harakat qiling. Unga yangi so‘zlarni o‘zlashtirishiga yordam bering. Bolada to‘g‘ri gapirishga intilishni qo‘llab-quvvatlang. Bolaning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishiga ahamiyat bering.

 tez aytish va qisqa she’rlarda tovushlarni to‘g‘ri ifodalashiga erishing. Uning ifoda, intonatsiya sur’ati va baland-pastligiga rioya qilishga o‘rgating. YUqorida bayon qilinganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha katta yoshga etib bola eng oddiy notiqlik sirlarini o‘rgana boshlaydi, o‘z fikrlarini mantiqan va ifodali bayon qiladi, u nafaqat so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va gap tuzishni, balki so‘zlar qaysi tovushlardan va gaplar qaysi so‘zlardan tashkil topishini anglab olishni o‘rganadi. Bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish, bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun zarurdir.

Ota-onalarning vazifasi esa farzandi nutqining to‘g‘ri rivojlanishi uchun g‘amxo‘rlik qilishdan iborat. Tarbiyachi navbatdagi topshiriqni bajarishga bolalarni jalb etishdan avval har bil bola haqida qandaydir yaxshi so‘z aytishga, ularni dadillashtirishga harakat qilishi kerak. Masalan: «Quyonlarni boqishni Alisherga ishonib topshiraman. Uning qo‘llari judayam sahiy!» «Odina-g‘amxo‘r», «Madina juda xushchaqchaq», «Iroda – mehnatsevar» va shunga o‘xshash bolalarga berilgan baholar ularda o‘ziga ishonchni, xatti-harakatlariga baho bera olishni vujudga keltiradi. Bolalar o‘zlarining yaxshi javoblari va a’lo xulqlari bilan javob berishga, o‘z tengdoshlariga nisbatan samimiy bo‘lishga harakat qiladilar.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Maktabgacha o‘rta yoshdagi bolalar bilan muloqot qay tarzda amalga oshiriladi?
2. Maktabgacha o‘rta yoshdagi bola nutqning grammatik tizimi qanday shakllantiriladi?

3. Muloqotning qanday vositalarini bilasiz?

4. Maktabgacha o‘rta yoshdagi bolalar uchun qanday mashg‘ulotlar ishlanmasi tavsiya etilgan?

5. Muloqot, til, nutqning tahlili va rivojlanish asoslari haqida nimalarni bilasiz?

## 6-MAVZU: MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH VAZIFALARI

**Reja:**

1. Katta yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning metodik masalalari.
3. Katta yoshdagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish.

***Tayanch tushunchalar:*** psixolingvistik adabiyotlar, yarim tillilik, ijtimoiy kutish, kommunikativ yo‘naltirilganlik, ijtimoiy vaziyat, emotsional kechinmalar, ermak o‘yinlar, diksiya, emotsional ekspressiya, empatiya.

Bola tilining grammatik tizimini o‘z vaqtida shakllanti rish – uni to‘laqonli nutqiy va umumiy psixologik rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Tilning grammatik tizimini bola predmetli harakatlarni o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liqlikda bilishni rivojlantirish asosida egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish morfologiya (so‘zlarni sonlar, kelishiklarga qarab o‘zgartirish), so‘z hosil qilish (maxsus vositalar yordamida bir so‘z negizida boshqa so‘zni hosil qilish), sintaksis (oddiy va qo‘shma gaplarni tuzish) ustidagi ishlarni o‘z ichiga oladi.

Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o‘zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birgalikdagi muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim.

Bolalarda grammatik tizimni – sintaksis, morfologiya, so‘z hosil qilishni shakllantirish o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun pedagog turli vositalarni qo‘llashi darkor. Morfologiya va so‘z hosil qilishni o‘zlashtirish uchun rag‘batlantiruvchi til o‘yinlari; sintaksisni rivojlantirish uchun esa keng fikr bildirish, motivatsiyani yaratish muhim.

Ma’lumki, bolalar o‘z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o‘z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega bo‘ladi. Bola hayotining beshinchi yilida pedagog rag‘batlantirishga (gap so‘z hosil qilish va so‘z ijodkorligi xususida bormoqda); oltinchi yilda – gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantirishga (so‘z o‘zgartirishda); ettinchi yilda – hosila so‘zlar o‘rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka, murakkab sintaktik tuzilmalarni ixtiyoriy tuzishga alohida e’tibor berishi lozim.

Didaktik o‘yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar bolalarning tilga oid o‘yinlarini, ularning grammatika sohasidagi faolligini

rag‘batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so‘z birikmasini o‘ylab ko‘rish, so‘ngra gapda so‘zlarni bir-biri bilan to‘g‘ri bog‘lash qobiliyatini o‘rgatishi zarur.

Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni yozma nutq vaziyatida, ya’ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi. Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so‘zlarning to‘g‘ri tartibini qo‘llashni o‘rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e’tiborni qaratish zarur. Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda leksikadan to‘g‘ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalarga gapda so‘zlarni biriktirishning turli usullarini, so‘zlar o‘rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog‘liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonatsion jihatdan rasmiylashtirishni o‘rgatish zarur.

SHunday qilib, nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko‘nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta’minlanadi. Bola tilining grammatik tizimini shakllantirish uning nutqi (tili) rivojlanishining umumiy oqimida ro‘y berishi lozim; pedagogik rahbarlik shakllari va metodlari umumiy nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich xususiyatga egaligini, eng avvalo, dialog va monologni, so‘zgacha bo‘lgan mazmunli-semantik tizimdan vaziyatga oid ixtiyoriy iborali nutqqa o‘tish (undan keyinchalik dialog va monolog rivojlanadi), bolalarning nutqiy havaskorligi sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqotning dialogik shakllarini o‘zlashtirishni hisobga olishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog‘liqdir. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-muhit bilan tanishtirish, balki uni umumiy ruhiy rivojlantirish uchun ham zarur. Oilada bola nutqini o‘stirishdan maqsad og‘zaki nutqni adabiy til me’yorlariga muvofiq holda egallashi, faol nutqqa kirishishini ta’minlashdan iborat. Farzand nutqini shakllantirish va rivojlantirishda ota-ona o‘zi oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ygani ma’qul:

- farzandida so‘zlashish odobini tarbiyalash;
- lug‘at boyligini shakllantirish, boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;
- nutqni grammatik jihatdan shakllantirish va rivojlantirish;
- ravon nutqni takomillashtirish;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish;
- savod o‘rganishga tayyorlash.

Go‘dak nutqini shakllantirishning asosiy genetik vazifasi – kichkintoylarda katta odam bilan muloqotga kirishish qobiliyati va vositalarini vujudga keltirishdan iboratdir. Emotsional - erkin muloqot ushbu yoshda etakchi faoliyat turi hisoblanadi. Kichkintoy 2-2,5 oyligidan boshlab

xatti-harakatlari bilan kattalardan o‘zi bilan muloqotga kirishishni “talab qila» boshlaydi. Muloqotning birinchi shakli – hissiy-erkin bo‘lib, go‘dakning atrofidagilarga nisbatan qiziqishi uning his-tuyg‘ularga boy munosabati orqali tavsiflanadi. Muloqotning bunday shakli bola hayotining birinchi yarim yilligiga xosdir. Muloqotning yanada rivojlangan ikkinchi shakli – ya’ni, hissiy-vositali (vaziyatli-amaliy) shakli bola hayotining ikkinchi yarim yilligida ro‘y beradi. Bu muloqot predmetlar orqali vositali muloqotga aylantiriladi. Ushbu yoshda bolaning qiziqishlari atrof muhitga yo‘naltiriladi. Unda yangi taassurotlarga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Bu yoshda nutqni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

-  bolada kattalarga nisbatan emotsional bog‘liqlik va ishonch hissini tarbiyalash;
-  uning o‘ziga nisbatan atrofidagilarning ijobiy diqqat-e’tibor talab qilishini qondirish;
-  kichkintoyning qiziqishlarini rivojlantirishga ko‘maklashish.

Masalan: «Qo‘ling qani? Qo‘lingni ko‘rsat! Kim keldi? Akang keldimi?“ Ushbu davrda bola kattalar ko‘magida narsa-buyumlardan foydalanish usullarini o‘rganadi (qoshiq bilan ovqatlanish, piyoladan choy ichish, qalamda rasm chizish, stulchaga o‘tirish va boshqalar). Narsa-buyumlardan foydalanish ehtiyoji nutqiy muloqotni talab etadi. Ilk yoshda bola oldida turgan asosiy vazifa narsalardan foydalanish usullarini o‘zlashtirish asosida nutqni egallashdan iborat bo‘ladi.

4. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot. Katta yoshli kishi ta’sirida bolada muloqotning yangi – vaziyatdan tashqari-shaxsli shakli vujudga keladi, unda bola «odamlar olami»ga qarab ish tutadi. Bola odamni jamiyatning vakili deb biladi, ijtimoiy olamdagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘zlashtiradi.

Muloqotning ushbu shakli vujudga kelishi va rivojlanishi ko‘p jihatdan bolalar kattalarning o‘zaro munosabatlari, jamiyatda o‘zining tutish qoidalari bilan qiziqadigan o‘yinlarning rivojlanishi bilan uzviy darajada bog‘liqdir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar faqat kattalarning xayrixoh diqqat-e’tiborlariga va ular bilan hamkorlik qilishga emas, balki kattalarning ularni hurmat qilishlariga, o‘zaro bir-birini tushunish va hamdard bo‘lishilariga intiladi.

Besh yosh chegarasida bolaning tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, o‘zini boshqalar bilan taqqoslash, taqlid qilishga ehtiyoji keskin ortadi. Faoliyatning o‘ziga va tengdosh sheriklariga bo‘lgan qiziqishdan kelib chiqqan holda, biron-bir ishda (o‘yinda, mahsuldor faoliyatda) ishtirok etishga intilish ancha barqaror bo‘lib qoladi. Tengdoshlar bilan muloqotda, o‘yinda va faoliyatning boshqa turlarida
axborot almashish, funksiyani rejalashtirish, ajratish va muvofiqlashtirish, ya’ni birgalikda faoliyat yurituvchi bolalarning umumlashuviga ko‘maklashuvchi harakatlarning barchasi amalga oshiriladi. YOsh ulg‘aygani sayin muloqot

mustaqil ahamiyat kasb etib boradi, bu hol bolaning tengdoshlariga hamdardlik bildirishi, ularni tushunishi, emotsional yaqinligida namoyon bo‘ladi.

Etti yoshga kelib bola tengdoshining shaxsga oid xususiyatlarini ajrata boshlaydi («qiziqarli o‘yinlar o‘ylab topadi», «YAxshi yuguradi», «Juda yaxshi, kulgili» va h.k.).

Etti yoshli bolalarda, agarda ular maktabgacha ta’lim muassasasida bir guruhda bir necha yil birga tarbiyalangan bo‘lsalar, ancha uyushgan bolalar jamiyati mavjud bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarga nisbatan muloqot doirasi ancha kengayadi. O‘yin guruhlarining barqarorligi ortadi, ulardagi bolalarning o‘rtacha soni ikki-uch kishiga etadi, ba’zan, ayniqsa, o‘g‘il bolalarda 8-9 kishidan iborat o‘yin guruhlari vujudga keladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarning yuqori darajasi va ulardan o‘rinli foydalanish kuzatiladi. Ular tomonidan takliflar, iltimoslarni asoslash uchun keltiriladigan dalillar, baholar o‘z mazmuniga ko‘ra yanada takomillashib boradi. Bolalar hayotining ettinchi yilida tengdoshlari bilan do‘stona munosabatlarga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortadi. Bolalar o‘z tengdoshlariga nisbatan beradigan baholar umumlashtirilgan xususiyatga ega bo‘ladi va bu maktabgacha katta yoshdagi bolalarning MTMdagi guruh hayotiga aloqadorligi tobora ortib borayotganidan dalolat beradi («Hamma bilan do‘st», «Agar bolalar urushib qolishsa, yarashtiradi», «Agarda bironta bolani xafa qilishsa, uning yonini oladi»).

Axloq normalari va qoidalarini o‘zlashtirib olish natijasida bolada shakllanadigan etik o‘lchovlar uning universal insoniy qadriyatlarga munosabatini aks ettiradi, bola uni faqat o‘z shaxsiga nisbatan qo‘llash bilan cheklanib qolmaydi.

Bola borgan sayin kattalarga qaram bo‘lmasdan mustaqil bo‘lib boradi. Uning ijtimoiy tajribasi boyiydi, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlari murakkablashadi. Bu unga o‘zini, o‘zining afzalliklari va kamchiliklarini to‘liqroq anglab etish imkonini beradi. O‘zi haqidagi bilimlari cheklanganligi tufayli kattalarning baholarini ishonib qabul qiladigan va o‘zini katta yoshli odamning fikri orqali qabul qiladigan ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalardan farqli ravishda, maktabgacha kata yoshdagi bolalarda o‘zi haqidagi mustaqil tasavvurlar hamda o‘zini, o‘z harakatlarini va tashqi xususiyatlarini baholash elementlari paydo bo‘ladi.

Bolaga odamlar – kattalar va tengdoshlari olamini yaqinroq bilib olish uchun quyidagilar zarur:

-  katta yoshli odamning bola bilan hamda bolalarning bir-birlari bilan badiiy, musiqiy, teatr faoliyatining har xil turlarida (ertaklarni sahnalashtirish, tomosha ko‘rsatish, barmoqli va boshqa teatr turlari) emotsional jihatdan boy mazmunli muloqoti;
-  o‘z yaqinlari bo‘lgan kattalar va tengdoshlariga nisbatan yoqtirish, emotsional bog‘liqlik hissiyotlarini, o‘zaro bir-birini tushunish va hamdard bo‘lish tuyg‘ularini tarbiyalash uchun bolalarning kattalar va boshqa bolalar

bilan muloqotga kirishishga undovchi sharoitlar yaratish; ularning emotsional holatlarini: quvonch, zavq-shavq, qayg‘u, xotirjamlik, g‘azab, jahl, tashvishlilikni; amaliy va shaxsiy sifatlarini; turli faoliyat shakllarida, jamiyatdagi axloq qoidalariga rioya qilishdagi imkoniyatlarini anglash uchun; agarda boshqa odam charchagan, unchalik sog‘lom emas, o‘zini yomon his qilayotgan bo‘lsa, nimagadir xafa bo‘lsa, tashvishga tushgan bo‘lsa unga hamdardlik bildirish va kattalar hamda bolalarning ifodali nutqiga, hazillarga emotsional munosabat bildirishni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni hosil qilish;

- kishilarning teatrda, muzeylarda, ko‘rgazmalarda, transportda, pochtada, bankda, stadionda, do‘konda o‘zini tutishini ko‘rsatuvchi hamda bolalarning axloq va nutqiy muloqot qoidalari, normalariga oid diafilmlar, shuningdek, maxsus suratga olingan maktabgacha ta’lim muassasasidagi kattalar va bolalar, ular ishtirokidagi o‘yinlar, mashg‘ulotlar, bayramlar haqidagi videofilmlarni namoyish qilish. Bolalarda insonlar olamiga nisbatan qiziqishni rivojlantirish vositasi sifatida muzeylar, teatrlar, ko‘rgazmalar, sayrlar, ekskursiyalarga borish;
- katta yoshli odam, boshqa bolalarning iltimoslarini bajarishga intilishlarini, takliflarga javob berishini qo‘llab-quvvatlash. Kattalar mehnatiga bo‘lgan qiziqishni va uning ijtimoy ahamiyatini qadrlash, mehnat natijalarini asrab-avaylash, kattalar bilan birgalikdagi mehnat faoliyatiga qo‘shilish qobilyatini shakllantirish. Bolaning kattalar hamda tengdoshlari bilan muloqoti va munosabatlarini rivojlantirish, shuningdek o‘zining obrazi va o‘ziga bo‘lgan munosabat shakllanishida erishilgan yutuqlar shaxsning ijtimoiy layoqatlilik yoki etuklik kabi kompleks bazaviy xususiyatlarida jamlanadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqqa doir, malaka va ko‘nikmalari mavjud bo‘lganligini hisobga olib, ularda bog‘lanishli nutqni shakllantirishda, avvalo, tevarak-atrofni kuzatishda nimalarga e’tibor berishimiz kerakligini aniqlab olishimiz zarur. Bular avvalo, ona Vatan haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishdan boshlanadi. Bunda «Ilq qadam» dasturida bolalarda mustaqil O‘zbekiston davlati haqidagi tushunchalarni kengaytirish, uning o‘tmishiga oid yodgorliklar bilan tanishtirish. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo‘qon kabi tarixiy shaharlar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, «Mustaqillik kuni» (1991 yil 1 sentyabr), O‘zbekiston ramzlari — gerbi, bayrog‘i, madhiyasi bilan tanishtirish, O‘zbekiston Prezidenti, Prezidentlik boshqaruvi haqida ma’lumotlar berish, bolalarning o‘z mahallasi, ko‘chasi, uyi, uning nomlanishi, nomlanish sababi; O‘zbekistonning tabiati, er osti va er usti boyliklari, tog‘lari, cho‘l va adirlari, tog‘u soylari, o‘rmonu bog‘lari, iqlimi, buyuk siymolari, sarkardalari, ulug‘ mutafakkirlari, an’anaviy bayramlari, sayllari, milliy marosimlari, o‘zbek xalqining amaliy san’ati, kattalar mehnati, bolalarning ota-onalari, aka-opalarining O‘zbekiston xalq ho‘jaligining turli sohalaridagi ishtiroki, ishlab chiqarishning muhim sohalari, aloqa vositasi haqida bilim berish nazarda tutilgan. Ana shularning barchasi bolalarning tevarak-atrofdagi xodisalar haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va

kengaytirish asosida bog'lanishli nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Bizga ma'lumki, juda ko'p mashqlar sayr paytida uyushtiriladi.

Bolada o'ziga nisbatan ishonchni rivojlantirish, qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirish uchun katta yoshli kishi o'zining butun vujudi bilan bolani yaxshi tushunishini va uning yutuqlaridan xursand bo'lishini va muvaffaqiyatsizliklarida hamdard bo'lishini ko'rsatishi zarur. Kattalarning mehri va tengdoshlarining xayrixoh munosabati bolada o'ziga nisbatan hurmatni his etishda yordam beradi, o'zini ko'rsatish va shaxs sifatida o'sish omili hisoblanadi, unda o'zining haqiqiy insoniy qiyofasini ifodalashga nisbatan intilish rivojlanishiga ko'maklashadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar bilan muloqot qay tarzda amalga oshiriladi?
2. Maktabgacha o'rta yoshdagi bolalar bilan muloqot qaytarzda amalga oshiriladi?
3. Maktabgacha yoshdagi bola nutqning grammatik tizimi qanday shakllantiriladi?
4. Muloqotning qanday vositalarini bilasiz?
5. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot qay tarzda amalga oshiriladi?
6. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun qanday mashg'ulotlar ishlanmasi tavsiya etilgan?
7. Muloqot, til, nutqning tahlili va rivojlanish asoslari haqida nimalarni bilasiz?
8. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot.




## 7-Mavzu: Ravon nutq. Maktabgacha yosh davrida ravon nutqni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Ravon nutq tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalari.
2. Til tafakkur quroli va muomala vositasi.
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ijodiy hikoya tuzishga o'rgatish.

*Tayanch tushunchalar:* ravon nutq, dialog muloqot, muomala, individuallararo, ichki individual, umuminsoni,. akustik va artikulyasion jihat, imitatsiya metodi.

Ravon nutq tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalari.

Ravon nutq — bu kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta'lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro'y beradi. Bolalar hayotining dastlabki etti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur.

Til millatning noyob xazinasi bo'lib doimo og'zaki va yozma holda, namoyon bo'lgan. Boy, yorqin, maroqli nutq so'zlayotgan kim bo'lishidan qat'iy nazar, nuri hisoblanadi. Tilning oliyjanob imkoniyatlar nutq orqali

nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. So‘z va g‘azal sultoni A.Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi. «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa tilning manfaatidir». Demak. Til qanchalik zo‘r bo‘lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilar ekan. Uning kuch, qudrati nutq jarayonida namoyon bo‘lar ekan. Agar til o‘q bo‘lsa, nutq kamondir. O‘qning qudrati, kamonning qudratiga ham bog‘liq.

Ma’lumki til inson aqlining, faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. CHunki insonni boshqa jonzotlardan ajralib turadigan ham til emasmi?! SHunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy maxsullari tafakkur mevalari til, nutq orqali ro‘yobga chiqadi. Til tafakkur mahsulining xayotga tatbiq etilish vositasi bo‘luvchi qudratli quroldir.Nutq vazifasi uning ontogenezdagi haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks ettiradi, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga egadir:

1-vazifasi — shaxslararo – kishilar o‘rtasidagi muloqot vositasidir. Ushbu holatda nutq og‘zaki nutq – monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbati sifatida chiqadi.

2-vazifasi — ichki individual – bu erda nutq ko‘plab ruhiy jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e’tibor, xotira, tasavvur va boshq.) aniq-tiniq anglash darajasiga ko‘targani hamda shaxsga ruhiy jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

3-vazifasi — umuminsoniy – bu o‘rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda u grafik ramzlar va belgilarda moddiylashtirilgan yozma nutqdir.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus mashg‘ulotlarda. Dialog ko‘proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo‘ladi va u bolalar lug‘atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko‘nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg‘ulotlarda o‘qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg‘ulot); ta’lim muassasalarida bo‘lib turgan vaqti mobaynida bola erkin muloqotda pedagog va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim. Dialogik nutqni (yoki og‘zaki nutqni) o‘rgatish odatda suhbat shaklida, ya’ni kattalar bilan bola o‘rtasida hamda bolalarning o‘zlari o‘rtasida fikr almashish shaklida ro‘y beradi. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o‘tkaziladi. Mazkur metodlar ko‘pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbati (so‘zlashish) usullari;

Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud: To‘g‘ridan-to‘g‘ri bolalarni suhbatlashishga, ya’ni suhbatdoshi so‘zlarini bo‘lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o‘zini tutib turish,

suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so‘zlash; Yo‘ldosh – talaffuz va grammatik ko‘nikmalarni mashq qilish, ma’lum so‘zlar ma’nosini aniqlashtirish.

Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so‘z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yo‘naltirish, nutqiy muloqotni ta’minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e’tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi. Ravon nutq mohiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan nutqning ikki shaklini – dialogik va monologik shakllarini ko‘rib chiqish lozim. Dialog ikki yoki bir necha so‘zlovchining biron-bir vaziyat bilan bog‘liq mavzudagi fikrlarining almashinuvi bilan tavsiflanadi. Dialogda, yuklamalardan foydalanilgan holda, sintaktik jihatdan sodda bo‘lgan darak, undov (iltimos, talab), so‘roq gaplarning barcha turlari namoyon etilgan. Til vositalari imo-ishoralar, mimika bilan kuchaytiriladi. Tarbiyachi shunday vaziyatni yaratishi kerakki, unda bolalar turli xil til vositalaridan foydalangan holda dialog tuzish – so‘rash, javob berish, tushuntirish, iltimos qilish, luqma tashlash va h.k. zaruratiga duch kelsin. Ushbu maqsadda bolaning oiladagi, maktabgacha ta’lim muassasasidagi hayoti, uning do‘stlari va kattalar bilan munosabatlari, uning qiziqishlari va taassurotlari bilan bog‘liq turli xil mavzularda suhbat o‘tkazishdan foydalanish lozim. Aynan, dialogda
suhbatdoshni tinglash, savollar berish, mazmundan kelib chiqqan holda javob berish qobiliyati rivojlanadi. Qayd etilgan malaka va ko‘nikmalar monologik nutqni rivojlantirish uchun ham zarurdir. Tengdoshlar bilan dialogik muloqotni yo‘lga qo‘yish uchun kooperativ tusdagi faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur faoliyat asta-sekinlik bilan shakllanadi. Dastlab, bolalar ro‘y berayotgan hodisalarni sharhlagan holda, yaqinda turib harakat qiladilar. Ushbu vaziyatda nutq tengdosh bolaning mavjud bo‘lishi va u bilan so‘zlashish imkoniyati orqali rag‘batlantiradi hamda u o‘z faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish, shuningdek, ijtimoiy muloqot o‘rnatish funksiyasini bajaradi.

Bolalar o‘rtasidagi muloqot, asosan, amaliy xususiyatga ega. Dialog ko‘pincha shunday shaklga olib boriladiki, bunda bola sherigining qisqa luqmalariga harakat bilan javob beradi yoki ro‘y berayotgan hodisaga nisbatan o‘z munosabatini nonutqiy vositalar yordamida ifodalaydi. Ular orqali bolalar bir-biriga e’tibor berishni, do‘stlarini ularning tovushidan bilib olishni, tashqi ko‘rinish detallarini sezishni, nutqiy muloqot qilishni o‘rganadilar. Dialog muloqotini yo‘lga qo‘yish uchun stol o‘yinlari va chop etilgan («loto», «domino») o‘yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Juft bo‘lib o‘ynashda bolalar dialogik hamkorlik qilish usullarini: navbatga rioya qilish, bir-biriga xushmuomalalik bilan murojaat qilish, o‘z nuqtai-nazarini dalil isbotlar bilan himoya qilish, fikrlarini sherigi bilan muvofiqlashtirishni o‘rganadilar. Bunday o‘yinlarda biluvchanlikning asosi sifatida nutqiy topshiriqlarning har xil turlari ishtirok etishi mumkin, masalan: berilgan tovushli so‘zlarni tanlab olish, akustik va artikulyasion jihatdan bir-biriga

yaqin bo‘lgan tovushlarni tabaqalashtirish, umumlashtiruvchi nomlarni tasniflash, rasmlar turkumi asosida birgalashib hikoya qilish va h.k.

**Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ijodiy hikoya tuzishga o‘rgatish**

Mavzu: «Men yoqtirgan fasl».

Maqsad: SHaxsiy tajribaga asoslanib, ravon nutqni rivolantirish uchun mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Vazifalar: SHaxsiy hayot (tajriba)dan tugallangan hikoya tuzish malakasini shakllantirish. Bunda:

-  sabzavot va mevalar bo‘yicha lug‘atini faollashtirish, topishmoqlar mazmuniga tushunishga o‘rgatish;
-  maqoldagi so‘zlarni aniq va burro aytish nazarda tutiladi.

Kutilayotgan natijalar: shaxsiy hayot (tajriba)dan tugallangan hikoya tuzish malakasi shakllanadi. YA’ni:

-  hikoya to‘qishga qiziqish uyg‘onadi;
-  topishmoq, maqollar mazmunini tushunib oladilar.

Kerakli jihozlar: to‘rt faslga oid katta rasmlar:

-  to‘rt faslga oid qirqma rasmlar.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi: Bolalar, hozir qanday fasl? (Qish). Qish faslida qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi? Sizga qaysi fasl ko‘proq yoqadi? Nima uchun yoqadi? Bugun biz «Men yoqtirgan fasl» mavzusida qisqa va tugallangan hikoya tuzishni o‘rganamiz. Bolalar, kelinglar, hozir biz kichik guruhlarga bo‘linib olamiz.

Bir yilda nechta fasl bor? (4ta fasl)

Demak, biz to‘rt guruhga bo‘linamiz.

Bolalar guruhlarga bo‘linish uchun bahor, yoz, kuz va qish fasllari tasvirlangan suratlarning qirqma bo‘laklarini oladilar. Ular o‘z fasllariga tegishli tasvirlarning qirqma bo‘laklarini yig‘ish bilan guruhlarga bo‘linib oladilar. 1-guruh bolalari bahor faslini, 2-guruh bolalari yoz faslini, 3-guruh bolalari kuz faslini, 4-guruh bolalari qish faslining qirqma bo‘laklarini yig‘adilar. Natijada, har bir guruhda katta fasl tasviri hosil bo‘ladi. Har bir guruh o‘z fasllari haqida hikoya tuzishlari kerak. Hikoya yakunida shu fasl haqida she’rlar, topishmoqlar aytishlari mumkin. Bolalar hikoya tuzishda qiynalsalar tarbiyachi hikoya namunasini beradi.

Tarbiyachi: Men uchun sevimli fasl - kuz. Kuzda shamol g‘ir-g‘ir esib turadi. Osmon toza va beg‘ubor bo‘ladi. Bog‘larda kuzgi mevalar pishib etiladi. Paxtazorlarda paxtalar oppoq bo‘lib ochiladi. Dala va bog‘larda ish qizg‘in bo‘ladi. Mevalar teriladi, kartoshka, piyoz, sabzi kabi sabzavotlar birin-ketin kovlanadi. Paxtalar teriladi.

Bolalarning tuzgan hikoyalari bo‘yicha guruhlar taqdimoti o‘tkaziladi. Har bir guruhning tuzgan hikoyalari tinglanadi va rahbatlantiriladi.

Tetiklashtiruvchi mashqlar:

**Quyosh**

Erta tongda
Quyosh turib
Bolalarni erkalaydi,
Boshlarini silaydi.

Bilaklar ichki tarafi bilan bir-biriga tekkiziladi. Barmoqlar quyosh nurlari kabi keng yoyilgan holatda bo‘ladi.

Tarbiyachi bolalarga fasllar haqida maqollar ayttirib, mashg‘ulotni tugatishi mumkin.

1. Qish g‘amini yozda e.
2. Bahorgi harakat - kuzgi barakat.
3. YOzgi mehnat - qishgi rohat.
4. Er haydasang kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :

1. Bir yilda nechta fasl bor?
2. Siz qaysi faslni yoqtirasiz?
3. Mehnat haqida maqollar aytib bering.

Til tafakkur quroli va muomala vositasi. Til millatning noyob hazinasi bo‘lib, doimo og‘zaki va yozma holda namoyon bo‘lgan. Tilning muhim imkoniyatlari nutq orqali nutqiy jarayonda ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmaydi. So‘z sultoni Alisher Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izoxlaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq ma’qul bo‘lib chiqsa, tilning manfaatidir» Demak, til qanchalik zo‘r bo‘lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilardi. Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo‘ladi. Agar til o‘q bo‘lsa, nutq kamondir. O‘qning qudrati, kamonning qudratiga ham bog‘liq. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy so‘zga shunday baho berganlar:

So‘zdirki, nishon berur o‘likka jondin,
So‘zdirki, berur jonga xabar jonondin.
Insonki so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilki, gavhari sharifroq yo‘q ondin».

Qadimgi sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri «Qobusnoma»da ham til va nutqqa alohida e’tibor berilganki, ular hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘ramiz. Kaykovus barcha hunarlar ichida so‘z hunari – notiqlikni a’lo deb biladi: «Bilinki, hamma hunardan so‘z hunari yaxshi». SHuning uchun ham kishi suxandon va notiq bo‘lishni takidlaydi. Muallif notiqlikni egallashning yo‘lini tinimsiz mehnat va o‘rganish, deb uqtiradi.

Hikoyat: «SHunday deb eshitdimki, bir kecha Xorun ar-Rashid bir tush ko‘rdi. YA’ni og‘zidagi hamma tishlari to‘kilib tushgan emish. Ertalab turib bir ta’birchini chaqirib, bu tush ta’biri nima ekanini so‘radik. Ta’birchi dedi: “Ey amir al mo‘min, sening huzuringda barcha qarindosh-urug‘laring o‘ladi, sendan boshqa hech kishi qolmaydi”. Xorun ar-Rashid dedi: Mening yuzimga shunday dard-anduh bilan to‘lgan so‘zni aytasanmi? Agar mening qarindoshlarim o‘lsalar, men nima ish qilaman? Va qanday qilib kun

kechiraman? - deb ta’birchini yuz tayoq urishga buyurdi. So‘ngra boshqa bir ta’birchini chaqirdi va tushining ta’birini so‘radi. Ta’birchi dedi: “Ey amir al mo‘min, sening umring barcha qarindoshlaringning umridan uzun bo‘ladi. Xorun ar Rashid dedi: «Barcha aqlning yo‘li birdir va ikkovining ta’biri bir erdan chiqadi, ammo yuqoridagi ta’birchining iborasi bilan keyingi ta’birchining iborasi orasidagi farq kattadir», – dedi va Xalifa keyingi ta’birchiga yuz tilla berishini buyurdi.

Ey farzand, so‘zingni yuzi va orqa tomonini bilgin, ularga rioya qilgin. So‘zlaganda ma’noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zing qanday ma’noga ega ekanligini bilmasang, qushga o‘xshaysan, bunday qushni to‘ti deydilar. To‘ti ham so‘zlaydi, ammo so‘zining ma’nosi bo‘lmaydi. SHunday kishini notiq (suxango‘y) deymizki, uning har bir so‘zi xalqqa tushunarli bo‘lsin va xalqning har so‘zi unga ma’lum bo‘lsin. Bunday kishilar oqil (aqlli)lar qatoriga kiradi. Bilgan so‘zingni o‘z joyila ishlatgin, vaqtni bekor o‘tkazmagin. Agar vaqtni bekor o‘tkazsang, donishmandlikka putur etkazgan bo‘lasan. Hamma vaqt to‘g‘ri so‘z gapir, bepisandlikni da’vo qilguvchi bo‘lmagin, bilmagan ilmdan gapirmagil, shunda ilmdan non talab qilma. Har qanday talabing bo‘lsa, bilgan ilm, ma’rifat va hunardan hozir bo‘ladi. Bilmagan ilm, ma’rifat va hunarni bilmagan deb da’vo qilsang, nech narsa hosil bo‘lmaydi va behuda zaxmat chekasan. Har bir so‘zga quloq sol, tezlik qilma. O‘ylamasdan so‘zlama. Har bir so‘zni o‘ylab gapir, xatto aytgan gapingdan pushaymon bo‘lmagaysan (Qobusnomadan).

Ma’lumki, til inson aqliy faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. CHunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham til emasmi? SHunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari, tafakkur mevalari til va nutq orqali ro‘yobga chiqadi. Til tafakkur mahsulining hayotga tatbiq etilish vositasi bo‘luvchi qudratli quroldir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Ravon nutq tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
2. Ravon nutqning mohiyati nimalardan iborat?
3. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ravon nutqqa o‘rgatish jarayoni qanday kechadi?
4. Til tafakkur quroli va muomala vositasi deyilishini asoslab bering?
5. Ta’lim muassasalarida o‘qitish qanday shakllarda amalga oshiriladi?
6. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ravon nutqqa ijodiy o‘rgatish usullari haqida nimalarni bilasiz?




**8-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN LUG`AT ISHINI OLIB BORISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug'at ishini olib borish vazifasi.
2. Ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlar olib borish.
3. Lug'at ishi jarayoni.
4. Lug'at ishlarini tashkil qilishda hisobga olinadigan jihat lar.
5. Lug'atni boyitish va faollashtirish.

***Tayanch tushunchalar:*** lug'at ishi, lug'at zahirasi, nutq madaniyati, umumlashtirish, assotsiativ metod, sheva leksikasi, lug'atni egallash, antonimiya, sinonimiya, tashbeh (epitet)lar.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug'at ishini olib borish vazifasi. Lug'at ishining bosh vazifasi – lug'at zahirasini boyitish, kengaytirish va faollashtirishdan iborat. Bolalar lug'atini boyitish asosini bolaning til imkoniyati va mavzuga oid so'zlar, sinonimik qatorlar, antonimik juftliklar, ko'p ma'noli so'zlarni kiritish tashkil qiladi. Bolalar bilan sinonimlar ustida ishlash (mazmuniga ko'ra bir-biriga yaqin so'zlarni tanlash) mavzuga oid so'zlar guruhlarini (harakat fe'llari: yurmoq, qadam tashlamoq, sudralmoq va h.k. yoki nutqni belgilovchi fe'llar: aytdi, so'radi, javob berdi, qichqirdi va boshq.) o'zlashtirishga oid ishlar bilan uyg'unlashib ketishi lozim.

Bolalarning ona tilida avloddan-avlodga o'tib, kelayotgan xalq ma'naviy boyliklarini qanchalik meros qilib olishlari, tarbiyalanuvchilarning kelgusida o'z davrining ilmiy yutuqlarini o'zlashtira olishlari, ularning insoniyatning ilg'or she'riy va estetik ideallariga sodiqligi, ya'ni mustaqil O'zbekistonda demokratik jamiyatning to'laqonli quruvchilari bo'la olishlari tarbiyachiga bog'liqdir.

Bolalarga nutqni o‘rgatish uchun bo‘lajak tarbiyachi nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasini chuqur o‘rganishi va ushbu sohaning fanga ma’lum bo‘lgan metodlarini o‘zlashtirishi, bolaning ona tilini o‘zlashtirish qonuniyatlarini tushunib etishi lozim. Ta’limning fonetika sohasidagi vazifalari. Quloqni tovushlarga va yangi tildagi so‘zlarga o‘rgatish, tovush qurilishining asosiy qonuniyatlarini farqlash zarurligi; to‘g‘ri adabiy talaffuz qoidalarini o‘zlashtirish, til tovush qurilishining asosiy qoidalari, ya’ni undoshlarning qattiq-yumshoqligi, jarangli va jarangsizligiga qarab, bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishni o‘zlashtirib olish asosida shevada gapirishning oldini olish maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar nutqini o‘stirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. To‘g‘ri adabiy talaffuzga o‘rgatishni mashq qilishni nutqni o‘zlashtirishning keyingi bosqichlarida ham davom ettirish darkor.

Bolalarning o‘z ona tilidan boshqa tilni o‘rganishlari orfoepik (ifoda) qiyinchiliklarning yangi fonetik (tovush) qatlamga o‘tishidan boshlanadi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, ko‘p holatlarda ushbu qiyinchiliklar inson nutqida milliy sheva ko‘rinishidagi asoratlarni qoldiradi. Ko‘pgina holatlarda esa orfoepik (ifoda) to‘siq mamlakatimizda o‘zga tilni o‘rganuvchilar uchun ijtimoiy lingvistik sharoitlar o‘zgarganiga qaramay, engib o‘tilmay qolaveradi. Hattoki, rus muhitida yashaydigan va o‘zga tilni etarli darajada egallab olgan odamlar ham butun umr bo‘yi nutqdagi milliy shevadan xolos bo‘la olmaydilar. SHuning uchun maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalarga o‘zga tilni o‘qitishda dastlabki mashg‘ulotlardan boshlaboq, ularda to‘g‘ri adabiy talaffuzni shakllantirish ishiga alohida e’tibor berish lozim. SHu bois, bu jarayonda, pedagog oldida quyidagi vazifalar turadi:

- bolalarda artikulyasiya apparatining harakatchanligini rivojlantirish;
- eshitish organlarini yangi til tovushlariga o‘rgatish;
- bo‘g‘inlardagi, so‘zlardagi tovushlarni rus tilining orfoepik qoidalariga mos ravishda sof, tushunarli ifodalashni shakllantirish;
- bolalar nutqining ifodaviyligini, yaxshi talaffuzni shakllantirish;
- milliy shevaning oldini olish.

To‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga oid ishlarning muhim qismi hisoblanadi. Bu ish lug‘atni, ravon va grammatik to‘g‘ri nutqni rivojlantirish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni - bolalarda og‘zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy muloqoti ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Nutqni rivojlantirish metodikasi quyidagi asosiy savollarga javob topish imkonini beradi: nimani o‘qitish (bolalarda qanday nutqiy ko‘nikmalarni tarbiyalash), qanday o‘qitish (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda qaysi metod va usullardan foydalanish lozim), nega endi aynan shunday o‘qitish zarur (nutqni rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysi ma’lumotlariga asoslanmoqda). Metodikaning asosiy vazifasi – ilmiy-psixologik asosda nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalari, metodlari va usullarini ishlab

chiqish hamda bolalarda zarur nutqiy ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirishlari uchun ular bilan bolalar bog‘chalari tarbiyachilarini qurollantirishdan iboratdir. Nutqni rivojlantirish metodikasi bolalarga ona tilini o‘rgatishning ob’ektiv xususiyatlari aks ettirilgan, nutqni rivojlantirish metodikasi sohasida O‘zbekiston Respublikasida va xorijda yaratilgan va hozirda mavjud bo‘lgan barcha ijobiy natijalar umumlashtirilgan.

Metodik nazariyani bilmaydigan tarbiyachi faqat o‘z farazlaridan kelib chiqib yoki boshqalarning tajribalaridan nusxa ko‘chirgan holda bolalarni ko‘r-ko‘rona tarbiyalaydi. U ko‘p narsani nazardan qochiradi, chunki rang-barang metodlar va usullarni bilmaydi. Zero, hozirgi kunda nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasi metodik amaliyot bilan birgalikda rivojlanmoqda. Ayrim metodik qoidalarning yashovchanligi amaliyotda tekshirib ko‘rilmoqda, amaliyotning o‘zi fan oldiga hali o‘z echimini topmagan muhim masalalarni qo‘ymoqda.Antonimlar (qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar) ustidagi ishlar bolalar bilan so‘z birikmalari va gaplar tuzishda amalga oshirilishi kerak. Pedagog bolalarga maqollarda, matallarda antonimlarni topishni o‘rgatishi zarur. Ko‘p ma’noli so‘zlar tarkibidan antonimlarni topish bolalarning so‘z haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, uning mazmunini aniqlashtirishga yordam beradi. Qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardan iborat so‘z birikmalarini tanlar ekan, bolalar so‘zlarning ko‘p ma’noliligini yanada chuqurroq tushunadilar (eski ko‘ylak – (ko‘p ma’noli) yirtilgan - yangi ko‘ylak (antonomik zid ma’nosi), eski do‘st – uzoq do‘st, qalin do‘st – yaqin do‘st, yangi do‘st kabi.

So‘zlarning ko‘p ma’noliligini maktabgacha yoshdagi bolalarga ularga yaxshi tanish bo‘lgan aniq predmet ahamiyatiga ega bo‘lgan (ruchka, igna, yashin, gavdaning orqa tomoni, oyoq) so‘zlar orqali ko‘rsatish darkor. Ko‘p ma’noli so‘zlar ustidagi ishlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilishi mumkin: so‘zni aytish, unga belgilar va harakatlar tanlash – so‘z birikmasini, so‘ngra gaplarni tuzish va oxir-oqibatda ko‘p ma’noli so‘zlardan ravon matnda foydalanish. Lug‘at ishi jarayoni (va boshqa nutqiy vazifalarni hal etish)da pedagog bolalarda nutqning aniqlik, to‘g‘rilik, ravonlik, ifodalilik kabi sifatlari amalga oshishiga erishishi zarur. Bolalarda, ayniqsa, fikr bildirish uchun so‘zlovchining niyatini aniq aks ettiruvchi leksik vositalarni tanlab olish qobiliyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bolalar bilan lug‘at ishlarini tashkil qilar ekan, pedagog bunda quyidagilarni hisobga olishi lozim:

- leksikani tashkil etishning mavzuga asoslangan tamoyili;
- semantik jihati (bolani so‘z mazmuni bilan tanishtirish);
- so‘zlarni birlashtirishning assotsiativ metodi.

Bunday jarayonda leksikani o‘stirishga oid ishlarning barcha turlarini boshqa nutqiy vazifalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda so‘zli o‘yinlar, mashqlar, ijodiy vazifalar shaklida o‘tkazish tavsiya etiladi. Leksik mazmundagi o‘yinlar va mashqlar – nutqning mazmun jihatini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Ularda turli predmetlar va ob’ektlarni taqqoslash, turli umumiy

xususiyatlar va funksiyalarni ajratish muhim ahamiyatga ega. Bunda real ob'ektlar (o'yinchoqlar, rasmlar, kiyimlar, mebel va h.k.) ham, xayoliy vaziyatlar (quvnoq va g'amgin harakatlar, erta va kech kuz ob-havosi va h.k.) ham taqqoslanishi mumkin. Hikoya qilishdan oldingi lug'at mashqlari bolalarning kelgusidagi ravon nutqlarining aniq va obrazli so'zlar hamda iboralar bilan boyitilishiga yordam beradi.

Lug'at ishlarini o'tkazishda tarbiyachi bolaning umumiy nutq madaniyatiga ta'sir qiladi, unga umumiy ravishda qabul qilingan adabiy so'zlar va ifodalarni ma'lum qiladi, ularni to'g'ri tovush va grammatik shaklda ifoda qiladi, bunda u bolalarda uchraydigan sheva leksikasini bartaraf qiladi (ta'qiqlaydi), ularni adabiy me'yorlar bilan almashtiradi. "Lug'atni egallash" atamasi – bu nafaqat so'zni o'zlashtirish, uni tushunish, balki uni albatta qo'llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir. Insonning yuqori nutq madaniyati, lug'atining boyligi haqida u "eshitilgan", insonning jonli nutqini bezab turgan taqdirdagina so'z yuritish mumkin bo'ladi. Lug'at ishidagi asosiy jihat bu faqat bolalarga yangi so'zni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqqa kiritish sanaladi. Bolalar bog'chasidagi lug'at ishi – bu bolalarning faol lug'atini notanish yoki ular uchun qiyin bo'lgan so'zlar bilan reja asosida boyitib borishdan iboratdir.

2. Lug'atni boyitish va faollashtirish. Lug'atni rivojlantirishda uni sifat jihatdan takomillashtirish dastlabki o'ringa chiqadi. Bu antonimiya (o'tkir-o'tmas, achchiq-chuchuk), sinonimiya (o'tkir - uchi o'tkirlangan, o'tkirlangan), ko'p ma'nolilik (o'tkir pichoq, achchiq qalampir, achchiq til) kabi hodisalarni tushunish va ularni nutqda faol qo'llashga taalluqlidir. Bolalar narsalar, tabiat hodisalari, insonlar qilmishlarini ko'rib, ulardagi har xillik va umumiylikni aniqlashni hamda ularning ma'nosi qarama-qarshi yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar, taqqoslashlar, aniq fe'llar, tashbeh(epitet)lar yordamida nutqda aks ettirishni o'rganadilar. So'z birikmasiga sinonim yoki antonimni tanlab olish usullari bolalarga so'zlarning ko'p ma'noga egaligini tushuntiradi. Narsalarning funksiyalarini taqqoslash asosida umumlashtiruvchi nomlar (hayvonlar, idish-tovoqlar, transport va boshq.) shakllanadi.

Lug'atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik jihatdan to'g'rilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini (gaplarni bog'lovchilar, leksik takrorlashlar, sinonimlar yordamida bog'lash vositalari; tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi) o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Turli funksiyalarni bajarish bilan bog'liq dialogli muloqot negizida rivojlangan nutqning barcha tomonlari til ongining shakllanishiga bevosita bog'liq bo'ladi va ular buning uchun bolaning kattalar bilan muayyan shakldagi muloqotiga, to'g'rirog'i, nafaqat tashqi olam va boshqa odamni bilishga qaratilgan muloqotga, balki tilning o'zini, uning tuzilishi va faoliyatini anglab etishga qaratilgan muloqotga muhtoj bo'ladilar.Lug'at ishlariga oid dasturlarni amalga oshirish mashg'ulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim uch xil ko'rinishdagi mashg'ulotlardan tashkil topadi: Lug'at ishlari atrof-muhitdagi doimo kengayib borayotgan narsalar va

hodisalar doirasi bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar (ekskursiya, narsalarni namoyish qilish va h.k.); Lug‘at ishlari bolalarning atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga tayanadigan mashg‘ulotlar (sifatlar, xususiyatlar, o‘ziga xos jihatlari bilan tanishtirish); Umumlashtirishlar jarayonida lug‘at ishining hal qiluvchi vazifasi tushunchalarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlar sanaladi. Bunda nutqiy va lug‘atni rivojlantirishning bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan yagonaligi (qabul qilish, tasavvur qilish, fikrlash) nazarda tutiladi. Nutqiy va bilish faoliyatining aniq maqsadni ko‘zlagan holda tashkil etilishi, bilish faoliyatini tashkil etish uchun asos sifatida ko‘rgazmaviylikning mavjudligi e’tiborga molik.

Nutqni rivojlantirish metodikasi maktabgacha ta’limdagi boshqa xususiy metodikalar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi, chunki nutq bola shaxsini to‘la-to‘kis rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Pedagogik jarayon, xususan, atrofdagilar nutqini tushunishda bolaning faol nutqi o‘ta muhimdir. CHunki nutq bolaning butun faoliyatida davomida unga yo‘ldosh bo‘ladi. Intellekt, ya’ni tashqi dunyoni xotira, tasavvur, hayolot, fikrlash, shuningdek, nutq yordamida anglash qobiliyati sanalib, insonni hayvondan ajratib turuvchi muhim xususiyatlardir. Intellekt ham, nutq ham insonda ilk bolalik yoshidan paydo bo‘ladi hamda u o‘smir yoki yosh yigitda uning organizmi rivojlanayotgani uchungina emas, balki inson nutqni o‘zlashtirib olgan taqdirda ham jadal takomillashib boradi. Bolalarning o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki kattalarning taklifiga ko‘ra hikoya qilib berishga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, ertaklar, suratlar va o‘z shaxsiy tajribasiga oid taassurotlarning so‘zdagi mazmunini qisqa hikoya, mulohaza, tavsiflar yordamida ifodalashni o‘rgatish zarur. Bu jarayonda dabdurustdan tug‘ilgan so‘z ijodkorligida, tovushlar va qofiyalar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda, so‘zlar bilan amalga oshiriladigan sinovlarda, ularning jarangdorligi va ahamiyati, so‘zlar mazmunini talqin qilishda ko‘zga tashlanadigan so‘zlarga qiziqishni qo‘llab-quvvatlash va til voqeligini eng oddiy anglashni rivojlantirish, bolalarni «tovush», «so‘z», «gap» atamalari bilan tanishtirish borish muhim.

Lug‘at. So‘zning mazmun jihatlari haqidagi tasavvurlarni takomillashtirish, bolalar nutqlarini antonim, sinonim, ko‘p ma’noli so‘zlar, umumlashtiruvchi nomlar bilan boyitish, obrazli so‘zlar, qiyoslash, o‘xshatishlar, aniq fe’llarni faollashtirish asosida amalga oshiriladi.

Nutqning grammatik qurilishi. So‘z o‘zgartirishdagi qiyin holatlarni (ko‘plikdagi otning bosh va qaratqich kelishigi, o‘zgarmaydigan otlar, buyruq mayllari, fe’llar shakllari, tugallangan va tugallanmagan fe’l shakllarini vujudga keltirish) o‘zlashtirishga yordam berish. Fe’llar, otlar va sifatdan so‘z yasash usullarini shakllantirish. Gap tuzilmasini takomillashtirish, turli xil tuzilmadagi - oddiy, qo‘shma gaplarning, o‘zgalar nutqining faol qo‘llanilishiga yordamlashish. Grammatik vositalarni o‘rganish jarayonida nutqqa nisbatan tanqidiy munosabatni, to‘g‘ri gapirishga intilishni qo‘llab-quvvatlash. Nutqning tovush madaniyati. Fonematik qabul qilishni, nutqning talaffuz va

ifoda jihatlarini rivojlantirish. Artikulyasiya va akustika jihatidan yaqin (qattiq va yumshoq, jarangli va jarangsiz, sonor) tovushlarni eshitishda ajrata olish va uni to‘g‘ri talaffuz etish. So‘zlardagi, tez aytishlardagi, qisqa she’rlardagi tovushlarni to‘g‘ri ifodalashni mashq qildirish. Ifoda, intonatsiya sur’ati va balandligini beixtiyor tartibga solishni o‘rgatish.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha bo‘lgan bosqichdagi katta yoshga etib inson hayotining eng muhim davrlaridan biri - uning birinchi «dorilfununi» nihoyasiga etadi. Ammo haqiqiy dorilfunun ta’lim oluvchisidan farqli ravishda bola birdaniga barcha fakultetlarda ta’lim oladi. U jonli va jonsiz tabiat sirlarini o‘rganadi (albatta, imkon darajasida), matematikadan dastlabki saboqni oladi. SHuningdek, eng oddiy notiqlik kursini ham egallaydi, o‘z fikrlarini mantiqan va ifodali bayon qilishni o‘rganadi. Filologiya fanlarini o‘rganish natijasida nafaqat badiiy adabiyot asarlarini emotsional qabul qilishni, uning qahramonlariga qayg‘urishni, balki badiiy ifodalilikka oid til vositalarining eng oddiy shakllarini his qilish va tushunish ko‘nikmalariga ham ega bo‘ladi. Bola kichik tilshunosga aylanadi, chunki u nafaqat so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va gap tuzishni, balki so‘zlar qaysi tovushdan va gaplar qaysi so‘zlardan tashkil topishini anglab olishni egallaydi. Bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish, bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun zarurdir. Lug‘at ishi jarayonida (va boshqa nutqiy vazifalarni hal etish jarayonida) pedagog bolalarda nutqning aniqlik, to‘g‘rilik, ravonlik, ifodalilik kabi sifatlari amalga oshishiga erishishi zarur. Bolalarda fikr bildirish uchun so‘zlovchining niyatini aniq aks ettiruvchi leksik vositalarni tanlab olish qobiliyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bolalar bilan lug‘at ustida ishlash tashkil qilar ekan, bunda pedagog quyidagilarni hisobga olishi lozim:

- leksikani tashkil etishning mavzuga asoslangan tamoyili;
- semantik jihati (bolani so‘z mazmuni bilan tanishtirish);
- so‘zlarni birlashtirishning assotsiativ metodi.

Leksikaga oid ishlarining barcha turlarini boshqa nutqiy vazifalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda so‘zli o‘yinlar, mashqlar, ijodiy vazifalar shaklida o‘tkazish tavsiya etiladi.

Leksik mazmundagi o‘yinlar va mashqlar – nutqning mazmun jihatini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ularda turli predmetlar va ob’ektlarni taqqoslash, turli umumiy xususiyatlar va funksiyalarni ajratish muhim ahamiyatga ega. Bunda real ob’ekt (o‘yinchoqlar, rasmlar, kiyimlar, mebel va h.k.)lar ham, xayoliy vaziyatlar (quvnoq va g‘amgin tulkichaning harakatlari, erta va kech kuz ob-havosi va h.k.) ham taqqoslanishi mumkin. Hikoya qilishdan oldingi lug‘at mashqlari bolalarg ravon nutqining aniq va obrazli so‘zlar hamda iboralar bilan boyitilishiga yordam beradi.

**Mavzu: Suratga qarab hikoya tuzish: “Paxta – milliy boyligimiz”.**

Maqsad: Tasvir bo‘yicha mazmunli hikoya tuzishga o‘rgatish.

Vazifalar:

-  tasvir bo‘yicha voqeani tugallashga, suratga nom topishga o‘rgatish;
-  gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, jumlalar tuzish malakasini mustahkamlash;
-  paxtaning o‘zbek xalqi turmushidagi o‘rni, asosiy milliy boyligimizdan biri ekanligini tushuntirish;
-  bog‘lanishli nutq – hikoya tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish;
-  bolalar lug‘atini “Paxtazor” mavzusida so‘zlar yordamida faollashtirish va boyitish;
-  bolalarning faol lug‘atiga mexanizator, paxta teruv mashinasi, mahsulot nomlarini kiritiladi.

Kutilayotgan natijalar:

-  tasvir bo‘yicha mazmunli hikoya tuzishga o‘rganadilar;
-  hikoya to‘qishga qiziqish uyg‘onadi;
-  gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, jumlalar tuzish malakasi oshadi;

Kerakli jihozlar:

“Paxtazor” mavzusiga doir rasmlar, paxtadan tayyorlanadigan mahsulotlardan namunalar (paxta, sovun, ip kabilar).

Mashg‘ulotning borishi. Bolalarga ko‘rinarli qilib “Paxtazorda” mavzusida surat ilinadi. Tarbiyachi qisqagina kirish suhbati o‘tkazadi.Bolalar, paxta – o‘zbek xalqining faxri, milliy boyligi hisoblanadi. Uni e’zozlab, “Oq oltin” deb ataydilar. Paxta etishtirish uchun dehqonlarimiz juda ko‘p mehnat qiladilar. Bahor va yozda paxtani parvarish qiladilar. Kuzda paxtalar oppoq bo‘lib ochiladi. Hosil yig‘ib-terib olinadi. Paxtadan ip, gazlama, yog‘, qog‘oz kabi mahsulotlar olinadi. So‘ngra tarbiyachi quyidagi savollar bilan bolalar diqqatini suratga jalb qiladi:

1. Suratda qaer tasvirlangan? (Paxtazor).
2. Bolalar nima haqida suhbatlashyaptilar?
3. Suratga nima deb nom berish mumkin?
4. Paxtalarni qanday mashinalar teryapti?
5. Paxta teruv mashina haydovchisini kim deb ataymiz? (mexanizatorlar).
6. Paxtadan qanday mahsulotlar olinadi?

Tarbiyachi: Mana endi, suratga qarab hikoya tuzishga harakat qiling. Avval hikoyaga qanday nom berishingizni ayting?

Bolalar hikoya tuzishga qiynalsalar tarbiyachi hikoya namunasini beradi.

Tarbiyachining hikoya namunasi:

Katta paxta dalasi. Paxtalar qiyg‘os ochilgan. Uchta paxta teruv mashinasi paxta dalasiga ishga tushirilgan. Paxta teruv mashinasini mexanizatorlar boshqaryaptilar. SHahzoda va Zuhriddinlar paxtazorni tomosha qilib turibdilar. Zuhriddin SHahzodaga: -Men katta bo‘lsam albatta mexanizator bo‘laman. Mashinada paxta terishni orzu qilaman, dedi.

Hikoyangizni qiziqarli tugating (bolalar hikoyalarini tugatishga qiynalsalar,

tarbiyachi ularga yordam berishi mumkin).
Harakatli o‘yin: “Kim tezroq paxta teradi”.
Ikkita guruh bittadan yugurib borib, chanoqni olib, savatga solishadi, orqaga qaytib, safning ortiga turishadi.
Bolalarning bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :
Paxtani kimlar etishtiradi?
- paxtadan qanday mahsulotlar olinadi?
- paxtalarni qaysi mashinalarda teradilar?
- kimning hikoyasi sizga yoqdi?

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug‘at ishini olib borish vazifasi haqida gapiring.
2. Ko‘p ma’noli so‘zlar ustidagi ishlar qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha olib boriladi?
3. Lug‘at ishi jarayonida qaysi sifatlarning oshishiga erishiladi?
4. Lug‘at ishlarini tashkil qilishda nimalarni hisobga olish lozim?
5. Lug‘atni boyitish va faollashtirishga qanday erishiladi?

## 9-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GRAMMATIK JIHATDAN TO`G`RI NUTQNI SHAKLLANTIRISH

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirish mazmuni.
2. Didaktik o‘yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar - bolalarning tilga oid o‘yinlarini, ularning grammatik sohasidagi faolligini rag‘batlantirishning muhim vositasidir.
3. Grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish usullari va yo‘llari.

***Tayanch tushunchalar:*** tizim, grammatik tizim, grammatik ko‘nikma, grammatik rivojlanish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirish mazmuni. Bola tilining grammatik tizimini o‘z vaqtida shakllantirish – uni to‘laqonli nutqiy va umumiy psixologik rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.Tilning grammatik tizimini bola predmetli harakatlarni o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liqlikda bilishni rivojlantirish asosida egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish morfologiya (so‘zlarni rodlar, sonlar, kelishiklarga qarab o‘zgartirish), so‘z hosil qilish (maxsus vositalar yordamida bir so‘z negizida boshqa so‘zni hosil qilish), sintaksis (oddiy va qo‘shma gaplarni tuzish) ustidagi ishlarni o‘z ichiga oladi.

Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o‘zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birgalikdagi

muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim. Bolalarda grammatik tizimni – sintaksis, morfologiya, so‘z hosil qilishni shakllantirish o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun pedagog turli vositalarni qo‘llashi darkor. Morfologiya va so‘z hosil qilishni o‘zlashtirish uchun rag‘batlantiruvchi til o‘yinlari; sintaksisni rivojlantirish uchun esa, keng fikr bildirish uchun motivasiyani yaratish muhim.

Ma’lumki, bolalar o‘z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o‘z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega bo‘ladi. Bola hayotining beshinchi yilida pedagog rag‘batlantirishga (gap so‘z hosil qilish va so‘z ijodkorligi xususida bormoqda); oltinchi yilda – gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantirishga (so‘z o‘zgartirishda); ettinchi yilda – hosila so‘zlar o‘rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka, murakkab sintaktik tuzilmalarni ixtiyoriy tuzishga alohida e’tibor berishi lozim.

Didaktik o‘yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar - bolalarning tilga oid o‘yinlarini, ularning grammatik sohasidagi faolligini rag‘batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so‘z birikmasini o‘ylab ko‘rish, so‘ngra gapda so‘zlarni bir-biri bilan to‘g‘ri bog‘lash qobiliyatini o‘rgatishi zarur.Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni «yozma nutq vaziyati»da, ya’ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi.Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so‘zlarning to‘g‘ri tartibini qo‘llashni o‘rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e’tiborni qaratish zarur. Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda leksikadan to‘g‘ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalarga gapda so‘zlarni biriktirishning turli usullarini, so‘zlar o‘rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog‘liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonasion jihatdan rasmiylashtirishni o‘rgatish zarur.

SHunday qilib, nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko‘nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta’minlanadi. Bola tilining grammatik tizimini shakllantirish uning nutqi (tili) rivojlanishining umumiy oqimida ro‘y berishi lozim; pedagogik rahbarlik shakllari va metodlari umumiy nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich xususiyatga egaligini, eng avvalo dialog va monologni, so‘zgacha bo‘lgan mazmunli-semantik tizimdan vaziyatga oid ixtiyoriy iborali nutqqa o‘tish (keyinchalik dialog va monolog rivojlanadi), bolalarning nutqiy havaskorligi sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqotning dialogik shakllarini o‘zlashtirishni hisobga olishi lozim.

Grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish usullari va yo‘llari. Maktabgacha katta yoshda nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantirish nutqqa nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi, aniq va to‘g‘ri so‘zlashga intilish bilan bog‘liq. To‘g‘ri so‘zlashga intilish grammatikaning barcha sohalari – morfologiyada (aniq shakl hosil qilishda,

shakllarning turli-tumanligini o‘zlashtirishda: stollar, stullar, qavatlar va boshq.), so‘z hosil qilishda, (non uchun – nondon, tuz uchun tuzdon va boshq.) sintaksisda (og‘zaki nutq qurilmasini engib o‘tish va bog‘lovchisini ko‘p marta qo‘llash orqali gapni cho‘zib yuborish, bitta gapda to‘g‘ri va bilvosita nutqni aralashtirib yuborish va boshq.) ko‘zga tashlanadi. Nutqning grammatik to‘g‘riligiga intilish ko‘proq etti yoshli bolalarga xosdir. Besh yoshli bolakay hali ham grammatik shakllar ustida zavq bilan mashq qiladi va aynan mana shu so‘z bilan mashqlar kelajakda grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalangan nutq uchun poydevor yaratadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini tadqiq etish natijalarini sifat jihatdan tahlil etish shuni ko‘rsatdiki, eng ko‘p fikr bildirishlar hajmi sevimli ertaklarni aytib berish hissasiga, eng kami esa, o‘z shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, hikoya tuzish hissasiga to‘g‘ri keldi. Fikr bildirish hajmi va nutqning tezkorligi nafaqat bolaning faol lug‘at zahirasini, balki uning «o‘ta tezkor sintez» qila olish qobiliyatini ham tavsiflaydi. Bundan tashqari, fikr bildirish hajmi uning ob’ekt bilan tanishlik darajasidan dalolat bermoqda. Bolalarning biron-bir narsa, hodisa haqidagi bilimlari qanchalik chuqur va xilma-xil bo‘lsa, ularning fikr bildirishlari ham shunchalik keng bo‘ladi. Bolalarning nutqida oddiy gaplar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ba’zan «esa», «va» kabi bog‘lovchilar ishtirokida tuzilgan va ba’zan esa ularsiz bog‘langan qo‘shma gaplar ham uchrab turadi. Bildirish xususiyatiga ko‘ra bolalar hikoyalaridagi aksariyat gaplar darak gaplardir, nutq bir xil ohangda jaranglaydi, ko‘pincha so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik bog‘liqlik, ya’ni: gapdagi so‘zlar tartibi, inversiya buzilishiga oid xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. Hikoya qilib berishda so‘z birikmalarini tuzishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi kuzatildi.

- eganing kesim bilan noto‘g‘ri bog‘lanishi: keldi quyon;
- aniqlovchining aniqlanuvchi so‘z bilan noto‘g‘ri bog‘lanishi: uchradi ayiq, uchradi tulki;
- kelishikda va kelishik-gap boshqaruvidagi xatoliklar: sayrga ayiq bilan chiqdik.

Bolalar fikrlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular nutqida aniq ma’noli otlar ustunlik qiladi. Nutqni otlar bilan boyitish quyidagi sharoitlar ta’sirida ro‘y beradi: bola o‘zi uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan narsalarninggina nomlarini o‘zlashtirib olmoqda; unga tanish narsalar va shaxslar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Mashg‘ulot:**

Mavzu: «Tulki bolalari bilan» surati bo‘yicha hikoya qilish.

Maqsad: Surat bo‘yicha hikoya qilish malakalarini mustahkamlash.

Vazifalar:

- tegishli sifatlarni hosil qilishga o‘rgatish;
- jumlani grammatik tahlil qilish;
- fe’llarning murakkab grammatik shakllaridan foydalanishni mashq qilish.

Kutilayotgan natijalar:

- surat bo‘yicha hikoya qilish malakalari mustahkamlanadi;

-  hikoya toʻqishga qiziqish uygʻonadi;
-  tegishli sifatlarni hosil qilishga oʻrganadilar.

Kerakli jihozlar:
“Tulki bolalari bilan” surati.
Mashgʻulotning borishi. Tarbiyachi bolalarga suratni koʻrsatadi. Tulki haqida topishmoqni eslashlarini soʻraydi.
Surat boʻyicha tarbiyachining savollari.
1. Suratda tulki qanday tasvirlangan? (malla, chaqqon, ayyor).
2. Tulki nima qilishni biladi? (ovlaydi, ayyorlik qiladi).
3. Tulki haqida oʻzingiz topishmoq toʻqiy olasizmi?
Mallagina momiqqina-bu nima? (tulki).

Bolalar, suratga qarab hikoya toʻqing. Avval tulki bolalari bilan qaerda, qachon oʻynashganini oʻylab toping. Keyin suratda nima tasvirlanganiga qarab hikoya oʻylab toping. Hikoyangiz yakunlangan boʻlishi kerak. 2-3 nafar bolalarning hikoyalari tinglanadi va ragʻbatlantiriladi. Tetiklashtiruvchi mashq Oʻyinning borishi: Bolalar doira shaklida turadilar. Tarbiyachi koptokni qoʻliga olib, oʻyinni boshlab beradi. Tarbiyachi bolalarga koptokni otib, turli savollar bilan murojaat qiladi: biror yovvoyi hayvonning nomini ayt. Nima uchun yovvoyi hayvon deyiladi. Tulkining poʻsti qanday? Quyonning poʻsti qanday? Boʻrining poʻsti qanday? Boʻri bilan tulki oʻtxoʻr-mi yoki yirtqi?

Oʻyin shu tarzda davom etadi. Izoh: Tarbiyachi oʻyin davomida koptok har bir bolaga borishiga va javoblar qaytarilmasligiga, bolalar nutqining grammatik toʻgʻri tuzilishiga ahamiyat berishi kerak. Tarbiyachi suratni olib qoʻyadi. Oʻyinchoq tulkini koʻrsatadi. Bolalar, tulki bizga mehmonga keldi. U siz bilan birga oʻynamoqchi. Tulki sizning barcha topshirigʻingizni bajaradi. Faqat siz undan toʻgʻri iltimos qilsangiz bas. Nodir, sen tulkidan nimani soʻramoqchisan? “Tulki qoʻshiq aytib ber!”. Sen-chi, Mahmud? “Tulki, oʻynab ber!” Barakalla bolalar topshiriqni toʻgʻri berdinglar. Tulki sizning hamma topshirigʻingizni bajardi. Sayrda u bilan oʻynashni davom etasiz.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:
1. Tulki qanday hayvon?
2. Suratda tulki qanday tasvirlangan?
3. Tulki haqida oʻzingiz topishmoq toʻqiy olasizmi?

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishini shakllantirish mazmuni haqida soʻzlab bering.
2. Bolalarning nutqining asosiy qismini qanday gaplar tashkil qiladi?
3. Grammatik koʻnikmalarni shakllantirishning qanday usullari mavjud?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirishda qanday mashq va oʻyinlardan foydalanish mumkin?
5. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish qanday ishlarni oʻz ichiga oladi?

# 10-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI QAYTA VA IJODIY HIKOYA QILISHGA O`RGATISH

**REJA:**

1. Qayta hikoya qilishga oʻrgatish metodikasi haqida umumiy tushuncha.
2. Bolalarni hikoya qilishga oʻrgatish usullari
3. Turli yosh guruhlarida hikoya qilishga o’rgatish.
4. Hikoya qilishga doir mashg’ulotlarni o’tkazish qoidalari.

Qayta so’zlab berish (hikoya qilish) – eshitilgan badiiy asarni ravon kelishtirib berishdir. Bola muallif tomonidan aytib berilgan tayyor mazmunni gapiradi va tayyor nutqiy shakllardan – so’zlardan, jumlalardan, ularning izchilligidan foydalanadi.

Hikoya qilish – biron bir voqeani ravon qilib mufassal gapirib berishdir. Hikoya uchun bolaning o’zi mazmun va nutq shaklini tanlaydi. Mazmuni bo’yicha hikoyalarni shartli ravishda ikki turga bo’lish mumkin:

a) hayotiy voqealarga asoslangan dalilli hikoyalar (bularga kuzatish yoki idrok qilish vaqtidagi hikoyalar, ko’rib turgan predmetni, o’yinchoqlarni tasvirlash, xotira bo’yicha hikoyalar, ya’ni ko’rilgan narsalar haqidagi hikoyalar kiradi).

b) ijodiy hikoyalar (bolalar tomonidan o’ylab tuzilgan hikoyalar) xayoliy (uydirma) materiallarga asoslanadi. Lekin ularda bolalarning tajribasi ham ishga solinadi. Hikoyaning bunday turi maktabga tayyorlov guruhida o’tkaziladi.

Olti yoshlik bolalar o’z xayol kuchlari bilan uncha murakkab bo’lmagan hikoya va ertaklarni to’qiy oladilar. Bolalar ijodiy hikoyalarida ishtirok etuvchi shaxslarning yangi obrazlarni, ularning harakati, qiliqlarini o’ylab topadilar.

Hikoyalar shakli bo’yicha tasviriy va syujetli bo’lishi mumkin. Tasviriy hikoya – bu biror premet, masalan, o’yinchoq, kiyim yoki hodisaning tug’ilgan kun, bayram va boshqalarning xarakterli belgilarini gapirib berishdir.

Syujetli hikoya – bu qandaydir bir voqeani ijodiy gapirib berishdir. Masalan, «A’zam kuchukchani qanday qilib topib oladi?» va boshqalar.

Bolalarni hikoya qilishga o’rgatishda maxsus usullardan foydalaniladi. Hikoya qilishga o’rgatish usullari turli-tumandir. Ularning eng asosiylari – tarbiyachining hikoya qilish namunasini aytib berishi, hikoyaning rejasini tuzib berishi, hikoyani qismlar bo’yicha tuzish, uning rejasini jamoa bo’lib muhokama qilish tarbiyachining savollar berishi, aytib turishi va bolalarning hikoyalarini baholash usullaridir.

Tarbiyachi har bir mashg’ulot uchun aniq bitta yoki ikkita usulni asosiy usul qilib tanlaydi. Masalan, hikoya qilish namunasini aytib berish va hikoyaning rejasini tuzib berish yoki hikoya qilish rejasini tuzib berish va rejani jamoa bo’lib muhokama qilishni tanlashi mumkin.

Tarbiyachining hikoya qilish namunasi – bu didaktik usul bo’lib, uning yordamida tarbiyachi bolalarni boshqalardan o’rnak olib hikoya qilishga o’rgatadi. Hikoya qilish namunasi qimmatli tarbiyaviy mazmunga ega bo’lishi, bolalarni o’z hikoyalarida yaxshi xatti-harakatlarni do’stlik tuyg’ularini tasvirlashga undashi

lozim.

Hikoya qilish namunasini berish usuli eng yengil usul bo'lib hisoblanadi, chunki bolalar tarbiyachining surat, predmet, voqealar haqidagi savollarini yoki ko'rsatmalarini emas, balki tayyor hikoyasini eshitadilar. Shuning uchun hikoya namunasi berish usulidan hikoya qilib berishga o'rgatishning birinchi bosqichlarida yoki tarbiyachi bolalar oldiga yangi vazifalar qo'yganda foydalaniladi.

Hikoyaning rejasini berish – bu hikoya tuzishda amal qilish lozim bo'lgan ikki-uchta asosiy savollardir. Namuna bo'yicha ikki-uchta mashg'ulot o'tkazilgach, (masalan, o'yinchoqlarni tasvirlash), hikoyaning rejasini berish hikoya qilishga o'rgatishning mustaqil, asosiy usuli bo'lib qoladi. Tarbiyachi mashg'ulotgacha rejaning asosiy va qo'shimcha savollarini tayyorlaydi. Chunki bir mashg'ulotda reja savollarining o'zgarib turishi bolalarni faollashtiradi. Hikoyani turli-tuman qiladi. Masalan, maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari bilan ular yashaydigan ko'chalarini tasvirlash mashg'ulotida quyidagicha reja tavsiya qilish mumkin (bu savollar bittadan berilmay birdaniga beriladi):

1. Sening ko'changni nomi nima?
2. Sening ko'changda qanday binolar bor?
3. Sening ko'changda qanday transportlar o'tadi?

Uch-to'rt bola yuqoridagi reja savollari bo'yicha hikoya qilgach, quyidagi yangi savollarni berish mumkin:

1. Sening ko'changni nomi nima?
2. Sening ko'changda qanday daraxtlar bor?
3. Nima uchun sening ko'chang toza va chiroyli?

Maktabga tayyorlov guruhida dasturda yanada yuqoriroq talablarni qo'yadi. Bolalarni rejadagi savollarga quloq solishga unga rioya qilishga o'rgatiladi (ayniqsa suratga qarab hikoya qilishda va jamoa tajribasidan olib to'qilgan hikoyalarda).

Bu guruhda bolalar o'rtoqlarining hikoyalarini nazorat qilishga ko'proq jalb etiladi (hozir nima haqida gapirish kerak? Hammaga tushunarli bo'lishi uchun hikoyani nimadan boshlashi yaxshirok?).

Reja tuzib berish hikoyaning namunasini berish usuliga qaraganda eng qiyin usul bo'lib undan bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda keng foydalaniladi. Rejani jamoa bo'lib muhokama qilish – bu usul bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatishning birinchi bosqichlarida ko'proq qo'llaniladi.

Bolalar hikoyaning qiyin turi, ya'ni tarbiyachi taklif etgan mavzu bo'yicha hikoyalar tuza olishlari va bu hikoyalar va bu hikoyalar turli-tuman bo'lishi uchun tarbiyachi bu usuldan foydalanishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga mavzu va rejani beradi. Mavzu: Qizcha mushukchani qanday topdi?

1. Qizcha mushukchani qanday topdi .

2 Mushukcha qanday edi?

3. Qizcha u bilan nima qiladi?

Bolalarning joyida turib bergan javoblari hikoya bo'lmaydi, u bir necha yoki bitta jumladir. Maqsad – hikoyalarning turli-tuman bo'lishi mumkinligini

ko'rsatishdir. Tarbiyachi reja tuzayotganda jamoa bo'lib muhokama qilish uchun eng qiyin savollarni oldindan aniqlashi lozim.

Qismlar bo'yicha hikoya tuzish. Odatda bu usul mazmuni qismlarga oson bo'linadigan suratlar bilan ishlashda foydalaniladi. Suratlar bilan ishlashda tarbiyachi oldindan uni shartli ravishda qismlarga bo'ladi va bola biror qism haqida so'zlab berishi lozim.

Umumiy jamoa tajriba asosida hikoya qilishda tarbiyachi oldindan mavzuni juda mayda qismlarga bo'ladi, Masalan, «Bizning tipratikon» mavzusidagi tasviriy hikoyani tuzishda tarbiyachi bolalarni tipratikon haqida hamma narsani birdan so'zlamasdan, hammasini esga olish uchun tartib bilan so'zlaymiz deb ogohlantiradi. So'ngra tarbiyachi har bir qismga reja beradi. Hozir bolalar eslang tipratikonning usti nima bilan qoplangan? Uning tumshug'i qanday? U qanday yuradi?

Bu reja bolalarning ikkita-uchta hikoyalaridan keyin boshqa qismga o'tiladi. Bizda tipratikon qayerda yashaydi, uning qafasida nima bor, u nima uchun kerak aytib bering. Bolalarning javobidan keyin hikoyaning uchinchi qismiga o'tiladi. Ayting-chi biz tipratikonni nima bilan boqdik. Kim uni parvarish qiladi, qanday parvarish qildi va hikoyaning oxirida bolalardan biz o'z tipratikonimizni kimga sovg'a qildik, o'rta guruh bolalari bizga nima dedilar? deb so'rash mumkin. Jamoa hikoya uchun «Bolalar bog'chasida», «Yangi yil archasi», «Hayvonot bog'iga ekskursiya», «Shahar atrofiga sayohat» va boshqa mavzularni tanlab olish mumkin.

Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi mavzuning hamma qismlari bo'yicha bitta umumiy reja beradi va yaxshi hikoya qiladigan 1-2 bola hammasi haqida birdan gapirib beradi. Masalan, «Bizning tipratikon» hikoyasida har bir qism rejalari bo'yicha bolalar hikoya qilganlaridan keyin mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bunday reja beradi:

1. Bizning tipratikonimiz qanday edi?
2. Biz uni qanday parvarish qildik?
3. Biz uni kimga sovg'a qildik?

Savollar berish – bu keng tarqalgan usul. Lekin hikoya qilishda u ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Savollar odatda javob berayotgan bolaga yoki butun guruhga hikoya tugagandan keyin uni aniqlash yoki to'ldirish uchun beriladi. Savollar metodik jihatdan to'g'ri bo'lishi lozim. Baland ovoz bilan hamma bolalarga qarata javob berish uchun bolani chaqirishdan oldin pauzaga rioya qilish kerak.

Aytib turish – hikoya qilish jarayonida bola yanglishib qolgan vaqtda savol berishdan ko'ra, so'zni yoki gapni aytib turishdan foydalanish yaxshiroqdir. Aytib turish yoki to'g'rilash yetarli darajada baland ovozda hayrixohlik ruhida bo'lishi lozim. To'g'rilangan so'z yoki jumlani bolaga takrorlash shart emas. Chunki bola hikoyaning davomini esdan chiqarib qo'yishi mumkin.

Bolalar hikoyasini baholash – o'rgatuvchi usuldir. Shuning uchun u mashg'ulotning oxirida emas, balki mashg'ulot jarayonida qo'llaniladi. Baholash faqatgina hikoyasi baholanayotgan bolagagina ta'sir etib qolmay, qolgan bolalarga, ular tuzishi lozim bo'lgan hikoyalarga ham ta'sir etadi. Bolalar bahoni

tinglab tarbiyachi maqtaganlarga taqlid qiladilar Har bir bolaning hikoyasi mufassal baho berish shart emas. Lekin ba'zi hikoyalarning qimmatli tomoni, ya'ni mustaqilligi, izchilligi ovoz kuchi, javob berganda turishi va hokazalar ajratib ko'rsatishi tavsiya etiladi.

Kichik guruh bolalarida boshlang'ich monolog tarzidagi nutqiy o'stirishda suratdan keng foydalanishadi. Bolalar suratlarni mashg'ulotlarda ko'radilar. Kundalik turmushda ham kitobdagi rasmlarni, suratlarni, taklifnomalarni ko'zdan kechiradilar. Yilning boshida birinchi kichik guruhda bolalar tarbiyachining savoliga xor bilan javob bera oladilar. Tarbiyachi o'z vaqtida bolalarga yordam berishi, ya'ni aytib turishi yoki birga javob berishi lozim. O'rta guruhda tarbiya dasturi asosida bolalarni hikoya qilishga o'rgatishning mazmuni bir muncha murakkablashadi. O'rta guruh bolalari faqatgina yaxshi tanish ertak va hikoyalarni kayta hikoya qilibgina qolmay, mashg'ulotda birinchi marta o'qib berilgan asarlarni ham qayta-qayta hikoya qilishga, predmetlar, o'yinchoq, o'simlik, kiyimlarning ko'prok xarakterli belgilarini tasvirlab berishga o'rganishlari lozim.

Agar bolalarga yaxshi tanish ertak va hikoyalarni qayta hikoya qilish malakasi kichkina guruhdan tarkib topa boshlasa, birinchi marta o'qib berilgan adabiy asarni qkayta hikoya qilish malakasi esa faqat o'rta guruhda tarkib topa boshlaydi.

Qayta hikoya qilish uchun asarlar tanlashda quyidagi talablarni hisobga olish tavsiya etiladi:

a) adabiy asar bolalarni ruhan tarbiyalash ishiga xizmat qilishi;

b) adabiy asarlar o'zining mazmuniga ko'ra bolalarga tushunarli va ularning tajribasiga yaqin bo'lishi;

d) adabiy asarlar badiiy bezatilgan bo'lishi lozim. Agar mazmunan aniq tuzilgan, tushunarli, ifodali tilda qisqa, aniq jumlalar bilan yozilgan bo'lishi kerak.

Tarbiyachi bu talablarga asoslanib qayta hikoya qilish uchun asarlarni to'g'ri tanlashi hamda bolalarning so'zlab berish malakalarini ham hisobga olishi kerak.

Asarni tanlab olgandan so'ng tarbiyachi uni ifodali o'qishga o'rganish unda bolalar uchun noaniq bo'lgan so'zlarni ajratishi va ularni yaxshiroq tushuntirish yo'llarini o'ylab ko'rishi lozim.

Mashg'ulotning tuzilishini belgilashda tarbiyachi unga quyidagi qismlar kirishi mumkinligini esda saqlashi kerak:

1. Kirish suhbati.
2. Matnni birinchi o'qib berish.
3. Asar yuzasidan suhbat o'tkazish.
4. Matnni ikkinchi marta o'qib berish.
5. Bolalarning qayta hikoya qilishlari.

Katta guruh bolalarini hikoya qilishga o'rgatishda qayta hikoya qilish muhim o'rin egallaydi. Bolalar bog'chasining tarbiyachilari bolalarni adabiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishga alohida e'tibor berishlari lozim. Chunki maktabda o'qishning birinchi kunidan boshlab ular qayta hikoya qilishga duch keladilar Katta guruhda tarbiyachi bu malakalarni mustahkamlashi va taraqqiy

etishi lozim. Yilning boshida qayta hikoya qilish bo'yicha o'tkaziladigan bir necha mashg'ulotning tuzilishi o'rta guruhdagidek bo'lishi kerak.

Maktabgacha tayyorlov guruhining dasturi ham katta guruhdagi hikoya turlari ko'rsatilgan. Lekin bu yoshdagi bolalarni hali jamoa tajribalaridan hikoya tuzishga tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mazmun bo'yicha hikoyalar to'qishga o'rgatishi kerak bo'ladi. Birinchi mashg'ulotlarda tarbiyachi hikoyaning boshlanishida o'zi gapirib beradi. Gapni suratda tasvirlangandan oldin bo'lib o'tgan voqealardan boshlaydi. Masalan, qishki ko'ngilochar tadbirlar surati bo'yicha hikoyani boshlash namunasini beradi. U sayrgacha bolalar nima qilganliklari, nima bilan shug'ullanganliklari, kim ularga ko'chaga chiqishlarini taklif qilganliklari, bolalar qanday to'planganliklari, o'zlari bilan nimalar olib chiqqanliklari haqida hikoya qilib beradi.

Nutqni o'stirish mashg'ulotlari, ayniqsa hikoya qilish mashg'ulotlari har kuni o'tkaziladigan ikki mashg'ulotning birinchisi qilib o'tkaziladi. Hikoya qilish mashg'ulotlari muntazam o'tkaziladi. Haftada to'rt marta o'tkaziladigan ona tili mashg'ulotining bittasi hikoya qilishga bag'ishlangan bo'lishi zarur. Hamma dastur vazifalarini kiritish uchun oy davomida mashg'ulot turlarini xilma-xil qilish kerak. Masalan, katta guruhda bunday bo'ladi.

*Birinchi oy.* I hafta – predmetni tasvirlash, II hafta – qayta hikoya qilish, III hafta – suratli tasvirlash, IV hafta – o'z tajribalaridan hikoya qilish.

*Ikkinchi oy.* I hafta – tasvirlash bo'yicha didaktik o'yin, II hafta – qayta hikoya qilish, III hafta – mayda suratlarni tasvirlash, IV hafta – esga tushirib gapiradigan tasviriy hikoya.

Hikoya qilish bo'yicha dastur materiallarini, nutqni o'stirish bo'yicha mazmunan bir-biriga yaqin boshqa mashg'ulotlarga qo'shib amalga oshirish mumkin. Masalan, mashg'ulotning ikkinchi qismi bolalarga hayvonlar haqida topishmoq, hikoya tuzdirish.

Bir oyda har bir bola kamida bir martadan hikoya qilishga chaqirilgan bo'lishi lozim. Har bir mashg'ulotda 6-7 kishidan so'rash kerak.

Hikoya qilish mashg'ulotlarida tarbiyachi to'g'ri sur'atni saqlashi kerak. Bolalarni javob berishga shoshiltirmasligi, javobini o'ylashga vaqt berishi, har bir bolani aqliy ish jarayoniga tortishi lozim.

## SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Hikoya janri haqida ma`lumot bering.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalar bilan ishlashda hikoya qilishga o`rgatish usullari qanday?
3. Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalarni qayta hikoya qilishga o`rgatishga bag`ishlangan mashg`ulot tuzing.

## 11-MAVZU:BOLALARNI BADIIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH. TURLI YOSH GURUHLARIDA MATN BILAN ISHLASH METODIKASI

REJA:

1. Badiiy so'zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur.
2. Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi.
3. Adabiy tur va janrlar.

***Tayanch so`z va iboralar:*** adabiyot, badiiy asar, adabiy tur va janrlar, xalq og`zaki ijodi janrlari.

Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta o'rin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalliga, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Buyuk rus demokratik V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, «Tarbiya – buyuk ish, u insonning taqdirini hal qiladi» - degan edi.

Badiiy adabiyotning qimmati bolaning har bir jihatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatishidadir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealar, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlariga xos bir yordam beradi. Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do'stlik, halollik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik namunalarini ko'rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she'rlarning musiqaviyligi, tilning o'tkirligi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so'z qudratini his etadilar, uncha katta bo'lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she'rlarini tez va osongina eslab qoladilar.

Badiiy so'zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog'chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o'tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo'lib qoladi. Xalq, og'zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo'shiqlarning ko'plari uzoq o'tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqyeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi.

Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobiy

qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo'lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg'anchiqlikka, makr-xiylaga nisbatan murosasiz bo'lishga majbur etadi.

O'zbek xalq ertaklaridan tashqari ko'pgina rus xalq va mamlakatimizdagi boshqa xalqlar ertaklari ham bolalarga o'qib beriladigan ertaklar jumlasiga kiradi. Rus mumtoz adabiyoti namoyondalaridan A.S.Pushkin, N.A. Nekrasov, L.N. Tolstoy, K.D. Ushinskiy va boshqalarning asarlari bolalarga o'qib berish dasturiga kiritilgan. O'zbek yozuvchilari, shoirlari bolalar uchun juda ko'p ajoyib asarlar yaratganlar. Bu G'.G'ulom, N. Orifjonov, I. Muslim, P. Mo'min, Sh. Sa'dulla, Q. Hikmat, Q. Muhammadiy va boshqalarning asarlari – bolalarga o'qib beriladigan asarlarning eng boy manbasi hisoblanadi. Maktabgcha tarbiya yoshidagi bolalarga bag'ishlangan adabiyotlar ro'yxatidan rus yozuvchilari va shoirlari: V. Mayakovskiy, A. Kononov, S.Mixalkov, A. Gaydar, K. Chukovskiy va boshqalarning tarjima qilgan asarlari keng o'rin olgan. Bu ro'yxatga chet el yozuvchilari Sh. Perro, X.K.Andersen va boshqalarning ertaklari ham kiradi. Bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasiga har xil janrdagi asarlar: hikoya va povestlar, proza hamda she'r shaklidagi ertaklar, dostonlar, hazil she'rlari, topishmoqlar, masallar kiradi.

Bolalar bog'chasi dasturida ko'rsatilgan asarlarning ko'pchiligi bolalar adabiyotining oltin fondini tashkil etadi. Har yili bolalar uchun yangi kitoblar nashr etib turiladi. Tarbiyachi bosmadan chiqayotgan kitoblarni kuzatib borishi, jurnallardagi tanqidiy maqolalarni o'qishi va bolalar kitoblarining muhokama etilishida ishtirok etishi kerak. Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko'p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. Bolalar bog'chasining muhim vazifasi bolalarning asarlar mazmunini o'zlashtirib olishlariga, ularni to'g'ri tushunishlariga erishishdir. Bolalar asarlarning bir qismini yod olishlari, bir qismini esa matnga yaqinroq qilib aytib bera olishlari lozim.

Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg'ular va kayfiyalarni his etishi ham lozim. Bolalar bog'chasida asarning mazmuni va formalarini analiz qilishning ba'zi elementlari ham tarkib toptiriladi. Har bir bola maktabga o'tish paytida asarda hikoya qilangan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan o'z munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) ayta bilishi, asarning formasini aniqlay bilishi (she'r, hikoya, ertak) lozim.

Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o'qib berilgan asar asosida savollar berish, illyustrasiyani diqqat bilan ko'zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalash zarur. Bog'cha bolalarda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidaga taassurotlarni o'rtoqlashish istagi va ko'nikmasini tarbiyalashi lozim.

Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo'lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya'ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushunadi hamda his eta olgan taqdirdagina u o'zining tarbiyaviy rolini bajaradi. Tarbiyachilar bolalarning

asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishganlarini bilishlari kerak. Buning uchun yil boshida oldingi guruh dasturini ko'rib chiqish va takrorlash materialini belgilab olishi lozim.

Tarbiyachi taqvim-reja tuzish paytida yaqin bir-ikki hafta ichida bolalarga o'qib beradigan asarlarini tavsiya ro'yxatidan belgilab oladi. Bunda u bolalarda his-tuyg'u va xulq-atvorni, tevarak-atrofga har xil qiziqish hamda munosabatlarni tarkib toptirishdek muhim tarbiyaning umumiy vazifalariga amal qiladi. Bolalarning qiziqqan narsalarini, ularning o'zaro munosabatlarini, o'yinlarini kuzatish yaxshi kitob tanlashga ancha yordam beradi. Har bir asarni tevarak-atrofdaga ma'lum hodisalar bilan bog'lash va o'sha vaqtdagina o'qib berish lozim, deb o'ylash noto'g'ri. Albatta, kitobdagi hodisalarga bog'liq mavzuni o'qib berish kerak. Lekin boshqa vaqtda ham bunday kitob o'qishni o'tkazish lozim.

Tarbiyachi asar tanlagach, bolalarga uni qanday yetkazish lozimligini aniqlab olishi kerak. Notanish so'zlari ko'p bo'lgani uchun bolalar mazmunini tushuna olmaydigan asarni o'qimagan ma'qul. O'tmishda tarixiy davr bilan bog'liq bo'lgan mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarida, masalan, A.S. Pushkin ertaklarida, xalq ertaklarida uchraydigan juda ko'p notanish so'zlarni tushuntirish kerakmi? degan savol tug'iladi. Bu so'zlar bolalarning asar mazmunini tushunib olishlariga xalaqit bermaydimi, shuning uchun ularni tushuntirmasa ham bo'ladi.

Badiiy adabiyotdan foydalanadigan mashg'ulotlar g'oyat osoyishta sharoit yaratilishini talab etadi. Muhimi, xech narsa bolalarni eshitishdan chalg'itmasligi lozim. Mashg'ulotlarni tez uyushtirish, uni bolalar adabiyotiga xos sog'lom, optimistik xarakterda, xushchaqchaqlik bilan o'tkazish kerak. Tarbiyachi bolalarni xushmuomalalik va osiyishtalik bilan o'tirishga taklif etib, bolalarning qanday o'tirganini tekshirib, mashg'ulotni boshlaydi. Mashg'ulot boshlangan vaqtdayoq bolalarning diqqatini jalb etish juda muhim. Bunga ogohlantirish, po'pisa qilish («Eshitinglar, keyin sizlardan so'rayman») bilan emas, balki qiziqarli muqaddima so'zi, muqaddima suhbati bilan erishish mumkin. Chunki ularda kitob mazmuniga qarab yorqin surat, topishmoq, bolalar tajribasidan va hokazolardan foydalansa bo'ladi. Bolalar bilan o'qib berishdan oldin va o'qib berishdan keyin olib boriladigan dastlabki ish badiiy asarning mazmuniga bog'liqdir. Ba'zan tarbiyachi muqaddima so'zida asarning nomi, muallifning ismi, mavzuni ma'lum qiladi. Masalan, «Bugun men sizlarga o'zbek xalq ertaklaridan «Aqlli qiz qanday qilib qizg'anchiq boyni aldagani»ni o'qib beraman. Mashg'ulotni muqaddima suhbati bilan boshlash mumkin. Masalan, S.Y.Marshakning «O'n ikki oy» ertagini o'qib berishdan oldin:

Tarbiyachi: Bolalar, bir yilda necha oy borligini bilasizlarmi?

Bolalar yoki tarbiyachi: O'n ikki oy.

Tarbiyachi: U oylar qanday ataladi?

Bolalar oylar nomini aytishadi, tarbiyachi esa, zarurat bo'lsa, ularning javoblarini tuzatadi.

Tarbiyachi: Bir oy tugashi bilanoq ikkinchisi boshlanadi. Hali hech qachon

fevral yanvar tugamasdan kelmagan yoki may oyi aprelni quvib o'tmagan. Oylar birin-ketin kelaveradi va hech qachon bir-biri bilan uchrashmaydi. Ammo odamlar tog'lik o'lka – Begimiyada bir qiz bir vaqtning o'zida o'n ikki oyning hammasini ko'rganligi haqida hikoya qiladi. Bu qanday bo'lgan?

Manna bunday ....

Keyin tarbiyachi kitobdan o'qiy boshlaydi.

Ertak o'qib bo'lingach, qizcha bir vaqtning o'zida birdaniga o'n ikki oyni qanday ko'rganligi, qiyin vaqtda oylar qizchaga qanday yordam berganligi va boshqalar haqida suhbat o'tkazgan ma'qul. Ayniqsa, axloqiy-estetik va bilish mazmuniga ega bo'lgan kitoblarni o'qib berishda puxta tayyorgarlik talab qilinadi. Axloqiy-estetik mazmundagi kitoblar bolalarda axloqiy sifatlar, xulq-atvorning ijobiy tomonlarini tarkib toptirishga yordam beradi. Sh. Sa'dullaning «Injiq qizcha», L.N. Tolstoyning «Danak», V. Oseyevaning «Sehrli so'z» degan asarlari va boshqalar shunday kitoblar jumlasiga kiradi.

Muhimi, bolalarning kitobni eshitish jarayonidayoq uning g'oyaviy mazmunini tushunib olishlaridir. Bunda muqaddima suhbati katta rol o'ynaydi, tarbiyachi bunday suhbatda bolalar diqqatini eng asosiy, muhim narsalarga jalb etadi, Masalan, maktabga tayyorlov guruhida Sh.Sa'dullaning «Injiq qiz» she'rini o'qib berishdan oldin tarbiyachi bolalarga bunday savol beradi: «Bolalar, yaxshilab o'ylang va ayting: qanday qiz haqida – yaxshi qiz va qanday qiz to'g'risida – yomon deyishadi?».

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar kimning yaxshi qiz, kimning yomon qiz deyilishini to'g'ri aytinglar. Hozir men sizlarga Gulbodom degan qiz haqida yozilagan she'rni o'qib beraman. Sizlar yaxshilab eshiting va keyin menga Gulbodomni yaxshi qiz deyish mumkin-munkin emasligini aytasiz. Bu she'r «Injiq qiz» deb ataladi. She'rni shoir Shukur Sa'dulla yozgan.

Shundan so'ng tarbiyachi she'rni o'qiy boshlaydi.

Axloqiy-estetik mazmundagi kitobni o'qishdan oldin o'tkaziladigan muqaddima suhbati qisqa bo'lishi – 3-5 daqiqadan oshmasligi va albatta bolalar tajribasi bilan bog'lanishi kerak («Kimni biz yaxshi qiz deymiz?» -bu savol bolalar tajribasiga va kitob mazmuniga qaratilgan).

Axloqiy-epik mazmundagi kitoblar o'qib bo'lingandan keyin ham suhbat o'tkazishni talab etadi. Bunday suhbatlarda juda ko'p savol va tushuntirishlar bo'lmasligi lozim, chunki bolalar kitobni o'qish paytidayoq qahramonlar xatti-harakatlarining mohiyatini chuqur anglab oladilar. O'qilgan asar haqida o'tkaziladigan suhbatlarda bolalarni qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga o'rgatish va bolalarning qahramon va uning xatti-harakatlariga o'z munosabatlarini aytishlariga erishish lozim».

Sh.Sa'dullaning she'rini o'qigandan so'ng o'tkaziladigan suhbatda bolalarga injiq qizning xulq-atvorini baholashga ko'maklashadigan savollar berish kerak.

Tarbiyachi: Gulbodomni yaxshi qiz deb bo'ladimi?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Nima uchun?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Siz bunday qiz bilan do’st bo’lishni istarmidingiz? Nega?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Gulbodomni uchratsangiz unga nima degan bo’lar edingiz?

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Gulbodomga onangizga qanday g’amxo’rlik qilishingiz va yordam berishingiz haqida nimalarni aytib berar edingiz?

Bolalarning javoblari.

Bilim beruvchi xarakterdagi kitoblar, masalan, mehnat haqidagi kitoblar mukaddima suhbati va o’qigandan keyinga suhbatni boshqacha mazmunda bo’lishini talab etadi. Mehnat haqidagi kitob bolalar uchun kishilarning kasblari, mashinalar va mehnat qurollari haqidagi bilimlar manbai bo’lib xizmat etadi.

Bilim beruvchi kitoblar har xil bilimlar manbai bo’libgina qolmay, balki kishilarning mehnatiga hurmat, tabiatga nisbatan muhabbat va hokazo fazilatlar tarbiyalash vositasi bo’lib ham xizmat qiladi. Shuning uchun kitob bilan ishlashni shunday yo’lga qo’yish g’oyat muhimki, u bolalarda yuksak axloqiy sifatlar tarbiyalash imkonini bersin (masalan, katta guruhda Q. Muhammadiyning «Etik» she’rini o’qishda).

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Hikoya janri haqida ma`lumot bering.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalar bilan ishlashda hikoya qilishga o`rgatish usullari qanday?
3. Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalarni qayta hikoya qilishga o`rgatishga bag`ishlangan mashg`ulot tuzing.

## 12-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SHE’RIY ASARLAR. TURLI YOSH GURUHLARIDAGI BOLALARNI MUSTAQIL BADIIY NUTQ FAOLIYATIGA O‘RGATISH

Axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta’sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko’rsatadi.

he’riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg’ular va o’zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o’z ta’sir kuchiga ko’ra turlicha bo’ladi: hikoyalarda bolalar so’zlarning lo’ndaligi va aniqligini bilib oladilar, sherlarda o’zbekcha nutqning musiqiyligini, ohangdorligani ilg’aydilar, xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko’rsatadi.

Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg’urishni o’rganganlaridan so’ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg’ulari – birovning dardiga sherik bo’lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko’rsatish qobiliyati uyg’ona boshlaydi. Bu

prinsipiallik, halollik, haqiqiy fuqarolik xislari tarbiyalanadigan poydevordir. Has-tuyg'ular bilimdan oldin keladi. Kimki haqiqatni his qilmagan bo'lsa, u buni tushunmagan va tanimagandir.

Xalq – bolalarning betakror o'qituvchisidir. Xalq asarlaridan boshqa hech qaysi asarlarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning bunday qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko'ra bir-biridan zo'rg'a farq qiladigan so'zlarning hayron qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor hazillar, nozik yumor, sanoq she'rlar – pedagogik ta'sir ko'rsatishning samarali vositasi, dangasalik, qo'rqoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqat o'zini o'ylash (egoizm) kabi xislatlarga qarshi yaxshigina «malhamdir».

Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligani namoyon qiladilar va albatta bolalar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarning (ota-onalar, pedagoglar) o'qib chiqilgan asarlar bo'yicha nasihatnamo muloxazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. O'qib chiqilgan asar bo'yicha haddan tashqari ko'p nasihat qilish katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmas ziyon yetkazadi: mayda-chuyda savollar bilan «sochib tashlangan» asar bolalar ko'z o'ngida o'zining barcha jozibadorligini yo'qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'liq tayanish zarur.

K.D. Ushinskiy shunday yozadi: «Bola ona tilini o'rganar ekan, u faqat shartli tovushlarnigina o'rganmaydi. Balki ona tilining ona ko'kragidan ma'naviy hayot va kuchni ham emadi. U bolaga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshqa hech bir tabiatshunos bunga qodir emas, u atrofdagi odamlar xarakteri u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshqa hech qanday tarixchi bunga qodir emas, u bolani xalq udumlari, xalq she'riyatiga shunday olib kiradiki, boshqa hech bir estetik bunga qodir emas, nihoyat u bolaga shunday mantiqiy tushunchalar va falsafiy qarashlarni beradiki, albatta, boshqa biron-bir faylasuf bunga qodir emas». Buyuk pedagogning ushbu so'zlarida nafaqat ona tilini o'zlashtirish natijalari, balki uni o'rganish metodi: «nafaqat ko'p narsani o'rgatadigan, balki hayron qolarli darajada oson, qandaydir yetishib bo'lmaydigan metod asosida o'qitadigan o'qituvchi tiliga ishonch ko'rsatib berilgan.

Shunday qilib, ona tilidagi muayyan badiiy asarni egallashda bolalarga yordam berar ekan, pedagog har tomonlama tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo'yadi. Yoshi o'sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy

adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi –bu ularga nisbatan emosional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir. Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldaga she'riyat, ya'ni folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bosh qahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar bolalarga juda qiziqarlidir.

Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo'nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga takdid qiladi. Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustrasiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Kichkintoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. Shuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim. Ilk yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan folklor asarlari tashkil qilali. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir. Bolalar hayvonlar haqidaga xalq ertaklari bilan tanishadilar: «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Uycha», «Chipor tovuq» va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim muassasalari va ota-onalarning vazifalari:

- bolaga so'z san'ati olamini ochish, kitobga qiziqish va mehrni, uni tinglash va tushunishni, xayoliy voqealarga emosional munosabat bildirishni, qahramonlar haqida qaygurish va «ularga yordamlashish» hissini tarbiyalash, ya'ni bolalarni badiiy rivojlantirish, ularni bo'lajak kitobxon sifatida shakllantirish;
- hikoyani tinglash va tengdoshlari bilan birgalikda bilish malakasini hosil qilish;
- bolalarga sanoq she'r matniga mos keluvchi o'yin harakatlarini bajarishni o'rgatish;
- bolalarda xalq asarlari, she'rlar, qo'shiqlar ohangdorligi va musiqiyligiga nisbatan emosional munosabat bildirishni tarbiyalash;
- bolalarga adabiy asarlar ko'p martalab o'qilganida va hikoya qilinganida ularning qahramonlarini tanib olishda yordamlashish;
- bolaning she'rlar va ertaklardan ayrim so'zlar hamda ifodalarni takrorlashga rag'batlantirish;
- illyustrasiyalarni ko'zdan kechirishni, ulardan adabiy asarlar qahramonlarini tanib olishni va illyustrasiya mazmuni bo'yicha oddiy savollarga javob berishni o'rgatish (Kim bu? Quyonning qulokdari qani? U nima qilayapti? Sichqon qani? va h.k.).
- bolalarga dastlab ko'rgazmali asosda (suratlar, o'yinchoqlar, harakatlar), so'ngra esa ko'rgazmasiz taqdim qilinayotgan qisqa she'rlar, sanoq she'rlar,

ertaklardagi harakatlar rivojini kuzatib borishni o'rgatish;

- bolani ilk yoshdagi bolalar uchun maxsus chop etilgan (rang-barang, yirik suratli, muqovasi qattiq va yuviladigan) kitoblardan mustaqil ravishda foydalanishga undash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik qabul qilish qobiliyati va mahoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlar mazmuni va shartlari qanday bo'lmog'i lozim?

Tarbiyachining badiiy asarni o'qish yoki hikoya qilish jarayoniga u xuddi ana shu voqealar tomoshabini yoki ishtirokchisi sifatida emosional tarzda qo'shilib ketishi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi. Aynan bir asarning o'zi ko'p marta takrorlanishi lozim: tarbiyachi suratli kitobdan «Sholg'om» ertagini o'qiydi, so'ngra uni kitobsiz hikoya qilib beradi, o'yinchoqlar bilan ko'rsatadi, guruhga boshqa rassom tomonidan ishlangan illyustrasiyalarni olib keladi, bolalar bilan birgalikda o'qiydi va hikoya qiladi.

Kattalar badiiy so'zni bolaning kundalik hayotiga doimiy ravishda kiritib borishlari (Uxla, qarog'im mening), bolaning o'z ismini u yoki bu o'yin yohud maishiy vaziyatga mos keluvchi xalq qo'shig'iga qo'shib aytishlari lozim (Allayo-alla, Gulnor qizim uxlasin, alla va h.k.). Tarbiyachi (kattalar) bolalar bilan birgalikda tanish va notanish kitoblardagi illyustrasiyalarni ko'zdan kechirishi, bolalarni tanish asarlar, illyustrasiyalar va o'yinchoqlar qaqramonlarini tanib olishga, qahramon ismi va uning harakatlari nomini aytishga, shuningdek, badiiy matnning ayrim ifodali qismlarini aytib berishga («Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim momomdan,..») undashi darkor.

Ayniqsa, 4-5 nafar boladan iborat bo'lgan kichik guruhlar bilan kitoblarni ko'rib chiqish va o'qish, shuningdek, har bir bolaning tanlab olingan va guruhda saqlanayotgan kitoblardan erkin foydalanishi uchun tegishli sharoit yaratilishi alohida ahamiyatga egadir. Bolalarga barcha notanish so'zlar ma'nosini darhol tushuntirib berishga, xususan obrazli tavsiflash yohud u yoki bu ertakdan kelib chiqadigan ma'noni o'z so'zlari bilan aytib berishga intilmaslik zarur.

Ilk yoshdagi bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy qobiliyatlarini hamda nisbatan tegishli munosabatni rivojlantirish zarur.

*Bilish qobiliyati:* kattalarning hikoya yoki kitob o'qishlarini diqqat bilan tinglash, tanish asarlarni esda saqlab qolish va uni takror tinglaganda ertak, hikoya, illyustrasiya, o'yinchoqlar qahramonlarini tanib olish, she'rlar qatorlari, kichik shakldagi asarlar matnini esda saqlab qolish.

*Nutqiy malaka:* asar, sanoq she'r, o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar mazmunini so'z, imo-ishora, harakat orqali tasvirlash; so'zni va tanish she'rlar qatorlarini ilib olish, ularning ayrimlarini yoddan aytib berish.

*Munosabat:* badiiy asar bilan uchrashuvdan xursandchilikni, emosional hamkorlikdan quvonchni va birgalikdagi qaygurishlarni ifodalash. Tarbiyachi bolani kattalar va bolalar bilan birgalikda she'rlar, qo'shiqlar aytishda ishtirok

etishga, tovushlar, jarangdor qofiya, so’zlar bilan o’ynashdan zavq olishga undaydi.

Bolaning o’zlashtirish darajasi quyidagalarda ifodalanadi: bola kitob tinglash, o’yinda ishtirok etish haqidaga taklifga faol javob beradi. Uning o’zi kattalardan she’rlar, ertaklar o’qib berishni iltimos qiladi. Qabul qilishga oson qo’shiladi. Asar mazmuniga oid savollarni diqqat bilan tinglaydi va ularga javob beradi. Matnga mos o’yin harakatlarini bajaradi. Tinglagan asarlarining mazmunini biladi, illyustrasiyalarda tanish asar epizodlari va ularning qahramonlarini taniydi. O’qilgan kitobga nisbatan yorqin munosabat bildiradi, kuladi, quvonadi, yig’laydi, qo’shiqlar, sanoq, she’rlarni jo’r bo’lib aytishda faol ishtirok etadi. Ilk yoshdagi bolalarda yuqorida aytib o’tilgan bilish, nutqiy qobiliyatlarni, badiiy asarga nisbatan munosabatni shakllantirish uchun ularga badiiy asarlarni tanishtirish metodikasini bilish va uni to’g’ri qo’llay olish zarur.

Kichik guruhdan boshlab bolalarga janrlarni farqlashni o’rgatish lozim. Tarbiyachi badiiy asar janri nomini albatta aytishi darkor: «Men sizlarga ertak aytib beraman», «Hikoya, she’r o’qib beraman».

Janrlar yo’nalishini, ularning xususiyatini chuqur tushunish nisbatan katta yoshlarda ro’y beradi. Ilk yoshda esa bolalar janr nomini eshitganlari holda uni shunchaki esda saqlab qoladilar. «Laylak bilan tulki» – bu ertak, Y.Sulaymon yozgan «Buvim» – bu she’r. «Men sizlarga she’r hikoya qilib beraman», «Ertak o’qib beraman» kabi noto’g’ri ifodalardan saqlanish lozim. Janr nomi aniq va to’g’ri berilishi zarur: ertak, hikoya, she’r. Ertak aytiladi, hikoya o’qiladi, she’r o’qiladi va yod olinadi. Turli adabiy janrlar turlicha usulda yetkazishni talab qiladi. Ilk yoshdagi bolalarga ertakni kitobdan o’qib emas, balki uni aytib bergan ma’qul. Bu emosional ta’sirni kuchaytiradi va o’z navbatida ertakning asosiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Katta yoshli odam kitobga emas, bolalarga qaraganida u xuddi har bir bola bilan suhbatlashgandek bo’ladi va shu bilan monologik nutqni eshitish hamda tushunishdek muhim qobiliyatini tarbiyalaydi.

Agarda ertak mazmuni unchalik katta bo’lmasa, uni ikki-uch marta hikoya qilish yoki eng yorkin joylarini takrorlash mumkin. Uni aytib bo’lgandan so’ng bolalarga shunday sharoitni vujudga keltirish tavsiya qilinadiki, toki ular eng qiziqarli jihatlarni esga olish va ularni ertakdagi so’zlar bilan takrorlashga majbur bo’lsin. Pedagog vaziyat yordamida bolalar bilan xalq ertaklari qahramonlarining qo’shiqlarini, qahramonlar ismlarini takrorlash, obrazli so’zlarni bolalar ongida mustahkamlashni amalga oshiradi va ular buni o’z nutqlarida qo’llay boshlaydilar.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga o’qib berish uchun unchalik katta bo’lmagan hikoya va she’rlar (Mirmuhsinning «Olxo’ri», Q.Abdullayevaning «Quyon» she’rlari) tavsiya qilinadi, bular kichik tinglovchilarda ijobiy emosiyalarni tarbiyalashga yordam beradi. Ularning bolaning shaxsiy tajribasiga yaqin bo’lgan oson mazmuni oddiy va sodda shaklda ifodalangan: qofiyalar o’xshash, she’r katorlari qisqa. Bolalar ularni takrorlar ekan, qatorlarning jarangdorligini, she’rning musiqiyligini ilg’ab oladilar, ularni oson qabul qiladilar. So’ngra esa butun she’rni esda saqlab qoladilar. Bolalarni ilk yoshda ko’proq

she’rlar o’ziga jalb qiladi, chunki ular aniq qofiyalari, ohangdorligi va musiqiyligi bilan alohida ajralib turadi.

Takror o’qishda bolalar she’r mazmunini o’zlashtirib oladilar, qofiya va ritmni his qiladilar, ayrim so’zlar va ifodalarni esda saqlab qoladilar hamda shu bilan o’z nutqlarini boyitadilar. Ushbu yoshda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash katta ahamiyatga egadir: she’r o’qishda kichkintoylarga har bir so’zni aniq aytgan holda ularni shoshmasdan talaffuz qilishni o’rgatish zarur. Bolalarda qofiyalanayotgan so’zlarga urg’u berish odati mavjud, shuning uchun tarbiyachi mantiqiy urg’ularni to’g’ri qo’yishi va bolalarning ham she’rni to’g’ri aytishlariga erishishi lozim,

Mazmuni har bir bolaga tushunarli va yaqin bo’lgan ertak hamda she’rlar o’qib bo’linganidan so’ng bolalarga ularning shaxsiy hayotidaga ana shunday holatlarni eslatib o’tish mumkin. Bu savollarga javob berar ekan, bolalar o’z fikrlarini faqat bir-ikkita oddiy gaplardan tuzadilar, lekin buning o’zi endi kelgusida ravon nutqni rivojlantirish uchun tayyorgarlikdir.

Kichkintoylarga ko’p savol bermaslik lozim, odatda ularning asarni qanday tushunganliklarini, qaysi so’zlarni esda saqlab qolganliklarini va ushbu mazmun bolaning shaxsiy tajribasi bilan qay darajada bog’lanishini aniqlovchi ikki-uchta savol berish kifoya. She’riy obrazlar yaxshi o’zlashtirilishi va unutilib ketmasligi uchun yil mobaynida bolalarga tanish hikoyalar, she’rlar, ayrim ertaklar yoki ertaklardan ritmik qatorlarni takror o’qish lozim. She’rlar va ertaklarni esda saqlab kolish lug’atni rivojlantirishga katta ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun bolalarning mashg’ulot davomida eshitgan so’zlari ularning faol lug’ati tarkibiga kirishiga intilish zarur. Buning uchun esa ushbu so’zlarni to’g’ri ko’rinishlarda tez-tez takrorlash lozim, bo’lmasa kichkintoy yangi so’zlarni shunchaki tovushlar uyg’unligi sifatida qabul qiladi va ularning ma’nosini tushunib yetmaydi.

Tarbiyachining vazifasi – bolalarga o’zlari aytayotgan so’zlar ma’nosini tushunishni o’rgatish, ularni boshqa so’zlar bilan birgalikda qanday qilib qo’llash mumkinligini ko’rsatishdan iboratdir. Masalan, «Novvoscha» she’rini (Novvos borar chayqalib, hansiraydi yo’lida. Voy, taxta chayqalmoqda, men ham yiqilaman-da.) O’qib bo’lgandan so’ng bolalarga yana nimalar chayqalishini ko’rsatish mumkin: novdada barg chayqalmoqda, ipga bog’langan soqqa chayqalmoqda, arg’imchoqda qiz chayqalmoqda va h.k.

Ish jarayonida badiiy adabiyot bilan tanishtirishga nisbatan shunday yondashuv tez-tez uchraydiki, bunda pedagog ertak yoki she’rni ifodali, emosional o’qib beradi va shu bilan «tanishtirish» nihoyasiga yetadi. Bolalar balkim, uning ma’nosini tushunib yetar, lekin o’qish ularning fikrlarini rivojlantirmaydi, ular tinglagan asar mazmuni va so’zlari tezda esdan chiqib ketadi. Bunda me’yor hissiga amal qilish juda muhim, ammo asar ustida ishlash, bolalar eslab qolgan so’zlar va ifodalarni takrorlashni davom ettirish juda zarurdir. Har bir mashgulotdan so’ng so’zlarni takrorlash, mustahkamlash lozim. Ularni eng turli-tuman ko’rinishlarda talaffuz qilish darkor, faqat shundagina bolalar ona tili lug’ati va tuzilishini o’zlashtiradilar, ularning faol lug’ati kengayadi, ular bu so’zlarni o’z nutqlarida qo’llay boshlaydilar.

Ayniqsa, grammatik to'g'ri nutqni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda bolalarning adabiy asar mazmunidan kelib chiqib savollarga javob berishida to'g'ri grammatik shakldagi so'zlardan foydalanishini kuzatib borish lozim.

Shunday qilib, badiiy asar bilan tanishtirish nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya'ni tovush madaniyatiga, grammatik qatorga, lug'atga ta'sir ko'rsatadi. Ilk yoshlardan boshlaboq. ravon nutqni rivojlantirish poydevori shakllantiriladi. Bu nisbatan murakkab asarlarni qabul qilish, nutqni yanada rivojlantirish uchun zarurdir. Bolalarga badiiy adabiyotlarni tanishtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bola uch yoshga kelib adabiy rivojlanishning quyidagi ko'rsatkichlariga erishadi:

- adabiy asar borasida kattalar bilan muloqot qilishdan zavq oladi, ularni qiziqib tinglaydi;
- unga aytib berilayotgan yoki o'qilayotgan asarlarni chalg'imasdan, diqqat bilan tinglaydi;
- takror tinglaganda tanish asarlarni, illyustrasiyalar va o'yinchoqlardagi ertaklar, hikoyalar va she'rlar qahramonlarini taniydi;
- asar (sanoq she'rlar, qo'shiqlar, ertaklar) mazmunini so'z, harakat, imo-ishora bilan ko'rsatib beradi;
- tanish she'rlardagi so'zlar va qatorlarni ilib olishga intiladi;
- kichkintoylarga mo'ljallangan kitoblardagi illyustrasiyalarni ko'zdan kechirishga qiziqish bildiradi.

Maktabgacha kichik yoshda olamga nisbatan estetik munosabat ko'p qirrali bo'ladi. Bu endi nafaqat tabiatga va atrofni o'rab turgan tabiat muhitiga munosabat, balki insonlar olamiga – o'ziga, yaqinlariga, tengdoshlariga, boshqa kattalarga bo'lgan munosabat hamdir. Bola o'z tashqi ko'rinishini, kostyumini ko'rish va ularga baho berishni boshlaydi; qo'llari, yuzi, kiyimlarining tozaligiga e'tibor beradi; to'g'ri va ozoda ovqatlanishni o'rganadi. U muloqot va odamlar borasida nima chiroyliyu, nima xunukligini tushuna boshlaydi. Mohiyatan yagona bo'lgan estetik va axloqiy munosabatlar muayyan bola ongida va xulq-atvorida birlashadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bola san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san'at obrazlarini yaxlit va emosional qabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab yetishi bilan ajralib turadi. Chunonchi, yorqin va ritmik marsh musiqasini tinglar ekan, bola eng avvalo, uning ko'tarinki kayfiyatini qabul qiladi va uning muayyan harakat xususiyati bilan aloqasini ilg'ab oladi. Badiiy qobiliyatlar tizimida emosional munosabat bildirish va sensorlik qobiliyatlari bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi. U badiiy obrazlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularni elementlarini ajratganlari holda ular bilan «o'ynashni» boshlaydilar. Ayni paytda ular uni to'qib to'ldiradilar, ayrim lavhalarni takomillashtiradilar, o'z ertaklarini, shu jumladan ular tomonidan ajratilgan adabiy obrazlarni to'qiydilar, badiiy asarlar asosida o'yin syujetlarini shakllantiradilar. Bolalar nafaqat u yoki bu adabiy obrazlarni ajratadilar, balki badiiy tipajlarni yagona emosional mazmun

dominanta asosida umumlashtirma obrazlarni yaratganlari holda ularni birlashtiradilar.

Bolalar adabiy janrlarni farqlay boshlaydilar: ertaklar, hikoyalar, she'rlar; ular tilning tashbehlar, taqqoslashlar, giperbola kabi ayrim ifoda vositalarini ko'rishga qodirdirlar; she'riy asar kayfiyatini intonasiyalar yordamida ifodalab berishlari mumkin; yumor, lirika, tantana. Bayoniy matnlarning an'anaviy uch qismli tuzilmasi (kirish, harakatning rivojlanishi, yakun) va ularning stilistik vositalari (an'anaviy kirish formulasi, ertak yakuni, takrorlash va boshqalar) haqidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi. Uch-to'rt yoshlarda bolalar adabiy asarlarni tanlashga qodirdirlar: ular ayrim adabiy qahramonlarni biladilar va sevadilar, o'zlari uchun muayyan asarni ajratib oladilar va doimo ularni o'qib berish yoki aytib berishni iltimos qiladilar; o'zlari ham yoqib qolgan she'riy matnlarni ko'p martalab takrorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujetli harakatlar va personajlarni afzal ko'rish yaqqol sezila boshlaydi. Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashtirmalari hisoblanadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidaga rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim:

- turli janr va mavzulardaga adabiy asarlarni – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni, she'riy folklorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emosional munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini kuzatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- bolalarni ayrim asarlar va ularning aynan bir xil qahramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish;
- tarbiyachi bilan birgalikda tanish asarlarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman sahnalashtirishga jalb qilish;
- bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik variasiyalari uchun qulay sharoit yaratish;
- bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;
- kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatida asrab-avaylash munosabatini shakllantirish. Illyustrasiyalarni mustaqil ravishda va takror ko'rib chiqish, aynan shu kitobni takror tinglash istagi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularga quyidagi holatlar xos bo'ladi:

- qahramonlarga qayg'urish va ularga hamdard bo'lish, shu tufayli bevosita tashqi ifodalangan emosionallikning pasayishi;
- voqealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turli xil mazmunli aloqalar o'rnatish qobiliyati;
- qahramonlarning tashqi harakatlarini ko'rish va qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni tushunish, ularning yashirish niyatlari ma'nosiga va harakatlarining nooshkora motivlariga kirishga urinish;
- hosil bo'lgan voqea bolaning shaxsiy kundalik hayotidan hikoya emas, balki ko'proq ertakka o'xshash bo'lishi uchun adabiy vaziyatni talqin qilish va

o'zgartirishga urinish;

- janr asosi (ertak, hikoya, she'r) va maqbul mavzularning (hayvonlar, sehrgarlik ko'rinishlari, bolalar va boshqalar) paydo bo'lishi;
- tilning ayrim ifodali vositalarini payqash qobiliyatining paydo bo'lishi;
- adabiy asarlarning xarakterli tuzilmasi va shakli haqidagi tasavvurlarni o'z ijodida ifodalash (kompozisiyalarning uch qismliligi, adabiy qahramonlarning asosiy harakatlari va boshqalar).

Besh-olti yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari – bolalarning psixologik rivojlanishidagi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tamoyillarning bir-biriga zid bo'lgan uyg'unligadan iborat. Bir tomondan – bolalar yuqori ijodiy salohiyati bilan ajralib turadilar. Ikkinchi tomondan – besh-yetti yoshli bolalarning taqlidchilikka, me'yoriylikka intilishi hammaga yaxshi ma'lum. Bola qoidalarni, harakat usullarini o'zlashtirishga intiladi va u bunga qodirdir. Yuqori baholanadigan natijalarga erishish uchun unda obrazli stereotiplar oson shakllanadi va ular bolaga adabiy matnni talqin qilish hamda uni to'g'ri tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Biroq adabiy qahramonlarni faqat «so'zda» tushunish va ularning harakatini axloq me'yorlari nuqtai-nazaridan baholash tasvirlanayotgan vaziyat ma'nosiga kirib borilganlikdan dalolat bermaydi. Bola «yashab ko'radigan» ziddiyatli vaziyatlarni gavdalantirish natijasidagina ularning badiiy obraz va muallif g'oyasini tushunishi mumkin bo'ladi. Bu nafaqat axloqiy nomuvofiqliklarga, balki universal bilish muammolariga ham taalluqlidir, zero badiiy asarlar ularning ko'p qirrali talqinlaridir, Maktabgacha yoshdagi bolalarda bunday tushunish ko'piicha verbal emas, balki obrazli ifodalangandir (tanlov harakatida, obrazli harakatda, suratda, o'yin syujetida, voqealarni o'ylab topishda va boshqalarda). Bolaning individual xususiyatlari uning faoliyatning reproduktiv yoki ijodiy turlarini afzal ko'rishiga yordam beradi. Adabiy asarlar motivlari bo'yicha sahnalashtirish o'yinlari reproduksiya va ijodkorlikning estetik imkoniyatlarini o'zida birlashtirgan shakl hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish sohasida pedagoglar va ota-onalar oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- bolalarni yuqori badiiy saviyadagi adabiyotlarga oshno qilish, ularda adabiy-badiiy taassurotlar zahirasini shakllantirish;
- ifodali badiiy nutqni shakllantirish;
- bolalarga kichik prozaik matnlar mazmunini emosional va ifodali tarzda yetkazish hamda kichik sherlarni yoddan aytib berishni o'rgatish. Ma'lum adabiy asarlarni sahnalashtirishda ishtirok etish.
- bolalarda adabiy asarlarning (xususan, ertaklarning) o'ziga xos tuzilmasi, tipik personajlar va syujetli-mavzuli birliklari hamda ularni ijodiy qo'llash usullari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- asosini bolalarning adabiy obrazlarni talqin qilishi tashkil qiladigan tasavvur shakllarini rivojlantirish;
- bolalarda badiiy obrazning rivojlanishi, o'zgarishi, uning ko'p qirraliligi va ko'p tomonlama bog'liqligi haqidagi tezkor tasavvurlarni shakllantirish;

- bolalarda adabiyotlarni individual tarzda afzal ko’rishni rivojlantirish;
- bolalarning kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatidagi munosabatini rivojlantirish, ularni qulyozma kitoblar yozishga jalb qilish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish uchun pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlarini to’g’ri belgilash zarur. Ular qanday bo’lishi lozim?

Bolaning badiiy adabiyot bilan o’zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga faoliyatning estetik xususiyatlari buzilmasligi lozim, bolalarning imkoniyatlari esa sxematizm va taqlidchilikdan iborat bo’lib qolmasliga kerak. Ushbu maqsadda pedagog quyidagi qator usullardan foydalanishi lozim:

Bolalarning diqqat-e’tiborini alohida adabiy asarning badiiy qimmatiga – she’rlarning obrazli ifodaliligiga, hikoyada syujetning kutilmagan rivojiga qaratish.

Bolaning adabiy asarni yoki o’zi to’qigan asarini ijro etishi (guruhda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o’qish va kattalar bilan dialogda o’qish) uchun emosional boyitilgan ijro muhitini yaratish. Biroq badiiy asar faqat so’z bilan aytilmasdan, balki uning ayrim yorqin jihatlari bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musiqiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar bilan ko’rsatilishi mumkin.

Pedagog bolalarga yaxshi ma’lum bo’lgan an’anaviy (hayvonlar va sehrgarlar haqida) xalq ertaklari va noan’anaviy (bolalar, tabiat hodisalari, predmetlar haqida) guruhda o’qib chiqilgan, bolalar suratlari, variantiv syujetlar, improvizasiyalar va to’qib, oxiriga yetkazishdan iborat bo’lgan u yoki bu adabiy asarlar motivlariga oid «kitoblar» ham aynan shunday tarzda yaratilishi mumkin.

Pedagogning bolalarga o’zining qaysi adabiy asarlarni yoqtirishini ma’lum qilishi, o’zining badiiy ta’bi va aqliy faolligini namoyish qilishi ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish borasida to’g’ri amalga oshirilgan ishlar natijasida yetti yoshga kelib bolada quyidaga rivojlanish ko’rsatkichlari shakllanishi lozim:

- bola o’ziga yoqgan bir nechta adabiy asarlar nomlarini aytishi mumkin;
- kichik she’r yoki she’riy asardan kichik parchani ifodali o’qib berishi mumkin;
- ba’zi tanlagan asarni mustaqil ravishda yoki pedagog yordamida hikoya qilib berishi va quyidagi savollarga javob berishi mumkin: u shunga o’xshash boshqa asarlarni ham biladimi? Ularning o’xshashligi nimalardan iborat? (o’xshash personajlar, syujet harakatlari);
- kitobga qiziqish paydo bo’ladi: o’qilgan kitoblarni mustaqil ravishda varaqlab chiqadi, mazmunini aytib yoki o’qib beradi, uydan sevimli kitoblarini keltiradi;
- ertak syujetiga mos tarzda qo’shimcha personaj kiritadi, ushbu personaj qo’shiladigan vaziyatlarni to’qib, qo’shib qo’yadi;
- yaxlit ertak to’qishi mumkin, bunda u uning ehtimoliy qahramonlarini tasvirlash vositalariga tayanadi, ayni paytda ertaklarga xos mazmun-mavzu birligidan, tipik kompozisiyalar va stilistik vositalar to’plamidan ham

foydalanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O‘yin faoliyatiga ta’rif bering.
2. O‘yin turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
3. Bolalar o‘yinchoqlariga qo‘yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
4. Maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin texnologiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Interfaol o‘yinlarning o‘ziga xos tomonlarini ayting?
6. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limiy o‘yinlar va ularning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
7. Lug‘atni boyitish uchun yordam beradigan ta’limiy o‘yinlarning turlarini bilasizmi?
8. Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlarni aytib bering.
9. Qoidali-harakatli o‘yinlar asosini qanday harakatlar tizimi egallaydi.

## 13-MAVZU: BOLALARNI SAVOD O‘RGATISHGA TAYYORLASH ISHINING MAQSAD HAMDA VAZIFALARI. MTMDA BOLALARNI O‘QISH VA YOZISHGA O‘RGATISH METODIKASI

**Ma‘ruza mashg‘ulotining mazmuni.** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashdagi muhim ishlardan biri, bu bolalar MTMda va oilada bolani savodga tayyorlashdan iboratdir. MTMda bolalarga o‘qish va yozishga o‘rgatishning boshlang‘ich bilimlarini berish, ya’ni bolalarga so‘z haqida tushuncha berish, so‘slardan gaplar tuzishga o‘rgatish, gaplarni so‘zlarga ajratish va ular tartibini aytishga, o‘zbek tilidagi unli va undosh tovushlarni aytish hamda ularni so‘zlarda tahlil qila olishga, o‘rgangan harf va tovushlardan bo‘g‘in yasay olishga, harf elementlarini yozishga va boshqalarga o‘rgatish lozim. Bola maktabga borgunga qadar shunday malakalarga ega bo‘lishi, uning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishining garovi hisoblanadi. MTMdam oilada o‘qish va yozishga o‘rgatish umumrivojlantiruvchi yo‘nalishga ega bo‘lib, u bolada fikr yuritish qobiliyatining axloqiy-irodaviy, estetik va boshqa shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, ushbu davr bolani maktab ta’limiga tayyorlashning muhim sharti, shuning uchun tarbiyachilar savod o‘ragtishga tayyorlash davrini, maqsadini, vazifalarini, mazmuni va metodlarini juda yaxshi bilishlari kerak. Katta guruhlarda nutq bolalar uchun dastlabki o‘quv manbai hisoblanadi. Tarbiyachi va ota-ona bolalarni nutqqa haqiqiy til fani sifatida munosabatda bo‘lishga hamda bolalarga so‘zlarni tovush jihatdan tahlil qilishga o‘rgatadi.

6 yoshli bolalarni o‘qish va yozishga o‘rgatishda ularning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Maktabga borish bolalar hayotida yangi bir dunyo hisoblanadi. Odatda, maktab yoshida boshlab bolalarning asosiy faoliyatlari, vazifalari o‘qish hisoblanadi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat

bo‘lgan o‘qish ularning yangi sifat, yangi xususiyatga ega bo‘lishlarini taqozo etadi. MTMda bolalar nutqini o‘stirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Chunki bolalar nutqining qay darajada rivojlanganligi ular maktabga o‘qishga qanchalim tayyor ekanliklarini ko‘rsatuvchi ishonchli dalil bo‘lib hisoblanadi. Katta guruh bolalari uchun maktab hayoti doimo qiziqarli hisoblanadi. Shu bois tarbiyachi va ota-ona bunday qiziqishni qo‘llab-quvvatlashi va yanada orttirib borishi kerak. Buning uchun esa maktab va unda o‘qish haqida qiziqarli suhbat o‘tkazish hamda yaqin atrofga sayohat uyushtirish foydalidir. 6-7 yoshga to‘lish davri godaklikning tugasi va o‘smirlikning boshkanish davriga to‘g‘ri keladi. Ana su davrdan boshlab bolalarni uzluksiz o‘qishga o‘tishi maqsadga muvofiqdir. Bu davrga kelib bola jismonan va ruhiy jihatdan ancha o‘sadi. O‘zini idora qilishga, xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirishga harakat qiladi. U o‘zini bemalol eplaydigan bo‘ladi, o‘z kuchiga yarasha mehnat qiladi. Bu davrda bolaning fikrlash darajasi ham ancha oshib, narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tafakkuri rivoj topib, ko‘pgina she’r va hikoyalarni bilib oladi. So‘z boyligi ortadi.

Analiz va sintez tafakkurning asosiy jarayonlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. **Analiz** qilish shunday bir tafakkur qilish usulidirki, bunda fikran narsalarni ayrim elementlarga, ayrim qismlarga ajratamiz. Analiz jarayonida narsalarni tarkibiy qismlarga ajratish orqali butunni qismlarga, qismlarni esa butunga bo‘lgan munosabatini aniqlaymiz. Demak, analiz qilish orqali biz narsalarning ichki bog‘lanishlarini, ularning mohiyatini aks ettiramiz. Natijada ongimizda juda ko‘p narsalarni ahaliz qilishimiz mumkin. Masalan qo‘limizdagi ruchkani yoki biror bir buyumni analiz qilish va ularni tarkibiy qismlarga ajratishimiz mumkin. **Sintez** analizning aksi bo‘lgan tafakkur jarayonidir. Sintez qilishda biz analiz qilish vaqtida ayrim bo‘laklarga ajratilgan narsalarning qismlarini fikran birlashtirib, bir butun holga keltiramiz. Demak, analiz va sintez bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Bolalarni savodga o‘rgatish jarayonida sintez va analiz jarayonlarining juda katta ahamiyati bor. Masalan tovushlardan bo‘g‘inlar, bo‘g‘inlardan so‘zlar, so‘zlardan gaplar tuzish va gaplarni nutqda ishlatish, aksincha, nutqdan gap ajratib olish, gapni so‘zlarga ajratish va uni tarkibini aniqlash, so‘zlarni qismlarga, bo‘g‘inlarga ajratish, bo‘g‘inlarni tovushlarga ajratish analiz va sintezning asosi hisoblanadi.

Shundan aytish mumkinki, analiz va sintez savodga o‘rgatishning asosiy metodlaridan biridir. Savodga o‘rgatishdagi dastlabki vazifa–bolalarni tovush eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Savodga o‘rgatishning bu jarayonida analiz va sintez metodidan faol foydalaniladi. Maktabda o‘qituvchi so‘zni bo‘g‘inga, bo‘g‘inni tovushga ajratishga o‘rgatishdan oldin kesma harflardan qanday qilib so‘z tuzishni va so‘zni o‘qishni hamda yozishni o‘rgatadi. MTMda ham har bir bolada kesma harflar bo‘lishi lozim, bu savodga o‘rgatishda muhim qo‘llanma hisoblanadi. Bola bog‘chada kesma harflar yordamida bo‘g‘in va so‘z tuzishga o‘rganib olgach, u maktabda yozishni va bo‘g‘inlab o‘qishni yaxshi egallab oladi. Kesma harflar bilan so‘zlarning aytilishi va yozilishini qiyoslash esa endi ayrim qismlari o‘xshash so‘zlarni, harflarni o‘zgartirish bilan boshqa so‘z tuzish imkonini beradi. Analiz va sintez savodga o‘rgatishning barcha

bosqichlarida bir-biri bilan bog‘liq holda olib boriladi, shuning uchun ham analiz va sintez deb aytiladi. Bolalarni MTMda va oilada o‘qishga o‘rgatishning barcha asosi bolalar nutqining rivojlanganligiga tayanadi va so‘z ustida amaliy ishlash bo‘lib hisoblanadi.

Endigi vazifa bolalarni jonli nutqdan tovushlarni ajrata olishga, bu tovushlarni harflar bilan belgilashga, tovush va harflardan bo‘g‘in va so‘zlar tuza olishga o‘rgatishdir. Bularning barchasi bolalardan nutqni eshitishni talab etadi. Shuningdek, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun nutqni so‘zlarga ajratish, so‘zlarni esa bo‘inlarga va tovushlarga ajratish mumkinligini; ajratilgan nutq elementlaridan bo‘g‘iin va tovushlardan yana so‘z hosil qilish mumkinligini tushunish zarur. Bolalarni o‘qishga puxta o‘rgatish jarayonida quyidagi asosiy didaktik prinsiplarni (ta’lim tamoyillarini) bajarish zarur, bular:

1. O‘rgatishdagi izchillik, ketma-ketlik.
2. Doimiy ravishda takrorlashning zarurligi.
3. Sekin-asta murakkablashtirib borish.
4. Ishning turli usullarini qo‘llash.
5. O‘rgatish jarayonida bolalarning ta’lim jarayonida faol ishtiroki va materialni tushungan holda o‘zlashtirishlari.

Bularning barchasi bolalarni tarbiuyachini tinglash, uning bergan topshiriqlarini mustaqil bajarish nimani ko‘rgan va eshitganligini, esida qolganligini gapirib berish masalasiga o‘rgatish orqaligina amalga oshiriladi. Bolalarni o‘qishga o‘rgatishda mtmda bor bo‘lgan materiallar va o‘yinchoqlar, maishiy xo‘jalik buyumlari, rasm va jadvallar, kesma harflar va bo‘g‘in jadvallaridan foydalanish kerak. Maktabga tayyorlov guruhida ishni gap bilan tanishtirishdan boshlash kerak. Bu vaqtga kelib bolalar gapni so‘zlarga, so‘zlarni esa bo‘g‘inlarga ajrata olishlari lozim. Har bir bola amaliy jihatdan nutqni yaxshi egallagan bo‘lishi mumkin, ammo ular o‘z nutqlari hali alohida so‘zlardan, so‘zlar esa bo‘g‘in va tovushlardan iborat ekanligini bilishmaydi. Endi ular ilk bor o‘z nutqlarini tahlil qilishga o‘tadilar. Tahlil qilishni doimiy ravishda o‘rgatib borish kerak. Bolalar butun sentabr oyida nutqdan gapni ajratishga, tarbiyachining savollariga javob berishga, suratga qarab va berilgan so‘zlar ishtirokida gap tuzishga o‘rganadilar, sayr va sayohatlarda nimalarni ko‘rganliklari haqida gapirib beradilar. Qolgan barcha oylarda ham tarbiyachi yuqoridagi kabi dasturi asosida mashg‘ulot mavzularini rejalashtirgan holda olib boradi. O‘qishga o‘rgatish mashg‘ulotini quyidagi ketma-ketlikda o‘tkazgan ma’qul:

1. Surat, jadval yoki tinglangan hikoya, ertak yuzasidan qisqa suhbat.
2. Yangi bo‘g‘li so‘zni ajratib olish, uni bo‘g‘in tovush jihatidan tahlil qilish.
3. Kesma harflardan so‘z tuzish, uni o‘qish.
4. Mustaqil ravishda yangi bo‘g‘in ishtirokida so‘z tuzish (Bolalarning o‘zlari mustaqil tarzda bo‘g‘in yoki harfni almashtirish yo‘li bilan).
5. Tuzilgan so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qish va ularni og‘zaki gapga kiritish.
6. To‘g‘ri chiziq daftarga yangi bo‘g‘in bilan tuzilgan so‘zni bosma harfda yozish va yozilganini o‘qish.

Har oyda yozishga oʻrgatishga doir toʻrttadan mashgʻulot oʻtkaziladi. Har haftada mashgʻulot bir marta oʻtkazilib, u 25-30 daqiqa davom etadi.

SENTABRda – bolalarga koʻzni qoʻl barmoqlarining mayda muskullarini rivojlantirish uchun mashqlar bajartiriladi. Buning uchun geometrik shakllar chizilib shtrixlanadi.

OKTABRda – avvalgi ishlar davom ettiriladi. Bolalarga yuqoridan pastga qarab va chapdan oʻngga qarab ikkitadan katak sanash, ikki katak uzunligida chiziqcha chizishi, gorizantal, vertical, toʻlqinsimon va aylana chiziq shaklidagi naqshlar chizishga orgatiladi.

NOYABRda – bolalar birinchi sinf yozuv daftari bilan tanishtiriladi. Harf elementlarini yozishga tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

DEKABRda – bolalar bilan yozuv daftarida ishlar davom ettiriladi.

YANVARda – bolalarga harf elementlarini oddiy qalam bilan yozish oʻrgatiladi, toʻgʻri, qisqa tayoqcha, uzun, toʻgʻri tayoqcha tayoqcha, pastga aylantirilgan tayoqcha va boshqalar.

FAEVRALda – bolalar bilan oʻrganilgan harf elementlari takrorlanadi.

MARTda – bolalar oʻrganganlarini takrorlaydilar. Yangi harf elementlarini mashq qiladilar.

APRELda – Oval shaklini, chiziqchalarni birlashtirmasdan yozish.

MAYda – Ona va ota soʻzini yozishni qay daraja oʻrganganligini sinash maqsadida tanish boʻlgan harf elementlarini oʻz ichiga olgan diktant oʻtkaziladi. Bolalarni yozishga oʻrgatishda gigiyenik sharoitlarga amal qilish, alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar oʻtiradigan stol-stullar ularning boʻyiga mos boʻlishi kerak.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Oʻyin faoliyatiga ta’rif bering.
2. Oʻyin turlari va ularning oʻziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
3. Bolalar oʻyinchoqlariga qoʻyiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
4. Maktabgacha ta’lim tizimida oʻyin texnologiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Interfaol oʻyinlarning oʻziga xos tomonlarini ayting?
6. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limiy oʻyinlar va ularning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
7. Lugʻatni boyitish uchun yordam beradigan ta’limiy oʻyinlarning turlarini bilasizmi?
8. Koʻrgazmali materiallar bilan oʻynaladigan ta’limiy oʻyinlarni aytib bering.
9. Qoidali-harakatli oʻyinlar asosini qanday harakatlar tizimi egallaydi.

# 14-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TEVARAK-ATROFNI BILISH JARAYONIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va anglashga o'rgatish.
3. Bolalarning kattalar mehnati hamda sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini boyitish, bilimlarini kengaytirish.

*Tayanch tushunchalar:* ma'nodosh, uyadosh, xususiyat, shaxsiy qobiliyat, jarayon, shaxsiy hayot, tevarak-atrof, rivojlantirish, texnologiya.

Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish.

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy ma'naviyatni takomillashtirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Bolalarning ona tilida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq ma'naviy boyliklarini qanchalik meros qilib olishlari, tarbiyalanuvchilarning kelgusida o'z davrining ilmiy yutuqlarini o'zlashtira olishlari, ularning insoniyatning ilg'or she'riy va estetik ideallariga sodiqligi, ya'ni mustaqil O'zbekistonda demokratik jamiyatning to'laqonli quruvchilari bo'la olishlari tarbiyachiga bog'liqdir. Bolalarga nutqni o'rgatish uchun bo'lajak tarbiyachi nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasini chuqur o'rganishi va ushbu sohaning fanga ma'lum bo'lgan metodlarini o'zlashtirishi, bolaning ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlarini tushunib etishi lozim. Nutqni rivojlantirish metodikasi maktabgacha ta'limdagi boshqa xususiy metodikalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi, chunki nutq – bola shaxsini to'la-to'kis rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Atrofdagilar nutqini tushunish va bolaning o'z faol nutqi har qanday pedagogik jarayonda zarurdir. Nutq bolaning butun faoliyatida unga yo'ldosh bo'ladi.

Intellekt, ya'ni tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayolot, fikrlash, shuningdek, nutq yordamida anglash qobiliyati – bu insonni hayvondan ajratib turuvchi muhim xususiyatlardir. Va intellekt ham, nutq ham insonda ilk bolalik yoshida paydo bo'ladi, hamda u o'smirda va yosh yigitda faqatgina uning organizmi rivojlanayotgani uchun emas, balki ushbu odam nutqni ham o'zlashtirib olgan taqdirdagina jadal takomillashib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish orqali ular tomonidan har tomonlama bilimlarni egallashi, psixik jarayonlarning rivojlanishi, kobiliyatlarini o‘sishi, dunyoqarashini shakllanishi, ahloqiy sifatlar, ijobiy xulq-atvor odatlarini o‘zlashtirilishi rivojlanishiga erishiladi. Bolani o‘rab turgan atrof-olam haqidagi tushunchalar bolalarda ona Vatanga muxabbat, ularni tariximiz va SHarqning buyuk allomalari, ularning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, mashhur sarkardalar, bayramlar, xalq amaliy san’ati haqidagi shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar nutqini rivojlantirish uchun ma’lum bir tizimda ish olib borish maqsadga muvofiq. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘lanishli nutqni o‘stirish dasturini takomillashtirish va uni bir butun, yaxlit jarayon sifatida tarbiya tizimiga kiritish hamda mazmunini belgilash zarur. «Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti», «Samarqand – qadimiy shahar», «Vatanimiz ramzlari», «Maktabga sayohat», «Bozorlar va ularning turlari», buyuk siymolar, mashhur sarkardalar, bayramlar, xalq amaliy san’ati: «Kim bo‘lsam ekan?», «Kashtachilik», «Zardo‘zlik», «SHifokor», «Oshpaz» kasblari va hokazo. Bu mavzulardagi suhbatlar bolalarga tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatlarni mushohada qilib eshitib, tushunchalarini bayon etish qobiliyatlari, ijodiy tafakkurini qay darajada rivojlanganligini namoyon etadi. Tevarak atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga ya’ni analizatorlariga ta’sir etadi va sezgi hosil bo‘ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Masalan, issiq-sovuq, g‘adir-budur va hokazo. Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Hayvonot va o‘simliklar dunyosi
Inson mehnatiga oid ish qurollari va texnika vositalari
Xalq xo‘jaligi tarmoqlari(binolar, inshootlar)
Tevarak-atrofda kechadigan voqea-hodisalar
Tevarak-atrofdagi predmetlar bilan tanishtirish
O‘yinchoqlar, suratlar badiiy asarlar bilan tanishtirish
Nutqni rivojlantirishga oid manbalar

«Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti», «Samarqand – qadimiy shahar»,«Vatanimiz ramzlari», «Maktabga sayohat», «Bozorlar va ularning turlari», buyuk siymolar, mashhur sarkardalar, bayramlar, xalq amaliy san’ati: «Kim bo‘lsam ekan?», «Kashtachilik», «Zardo‘zlik», «SHifokor», «Oshpaz» kasblari va hokazo. Bu mavzulardagi suhbatlar bolalarga tevarak- atrofga bo‘lgan munosabatlarni mushohada qilib eshitib, tushungalarini bayon etish qobiliyatlari, ijodiy tafakkurini qay darajada rivojlanganligini namoyon etadi. Tevarak- atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga ya’ni analizatorlariga ta’sir etadi va sezgi hosil bo‘ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Masalan, issiq-sovuq, g‘adir-budur va hokazo. Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Biz hozirgi davr talabi darajasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning bir butun tizimi, mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab

chiqiladi hamda eng yangi talablar darajasida uni amalga oshirish metodlari, shakllari va vositalari texnologiyasini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya’ni bolalar bilan so‘zlashishdir. So‘zlashish og‘zaki nutqning eng oddiy shakli bo‘lib, unda bola o‘zini tutishi, ko‘z qarashi, xatti-harakati, ovozining past-balandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So‘zlashish – dialogik nutq, asosan, kattalar yordamida amalga oshiriladi va u, ayniqsa, tevarak-atrofni bilish

## ATROF-OLAM BILAN TANISHTIRISH

«Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti». «Samarqand – qadimiy shahar». «Vatanimiz ramzlari». «Maktabga sayohat». «Bozorlar va ularning turlari», buyuk siymolar, mashhur sarkardalar, bayramlar, xalq amaliy san’ati: «Kim bo‘lsam ekan?», «Kashtachilik», «Zardo‘zlik», «SHifokor», «Oshpaz» kasblari va hokazo. Bu mavzulardagi suhbatlar bolalarga tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatlarni mushohada qilib eshitib, tushungalarini bayon etish qobiliyatlari, ijodiy tafakkurini qay darajada rivojlanganligini namoyon etadi. Tevarak atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga ya’ni analizatorlariga ta’sir etadi va sezgi hosil bo‘ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi.Masalan, issiq-sovuq, g‘adir-budur va hokazo. Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Suhbatlar

Maxsus tayyorlanadigan muloqotlar esa dastur asosida muayyan mavzular bo‘yicha uyushtiriladi. Masalan, maxsus tayyorlangan suhbatlar quyidagicha tuziladi: dastlab mavzu belgilanadi, uning maqsadi, vositalari aniqlanadi, savollar tuziladi. Lekin bularning har biri nimaga? nima uchun? nimadan? qanday qilib? kabi izlanuvchi va muammoli savollar tarzida bo‘lishi zarur. SHu bilan birga, savollar, umumlashtiruvchi xarakter kasb etishi ham mumkin.Bunda muloqot mashg‘uloti suhbat, muqaddima, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va anglashga o‘rgatish. Bolalarning tevarak-atrof bilan muloqoti qancha ko‘p bo‘lsa, ularning bog‘lanishli nutqi shunchalik samarali rivojlana boradi. Tevarak-atrofdagi rangin dunyo ular tasavvuri va dunyoqarashini shakllantirishga, so‘z zahirasini boyitishga, nutqini o‘stirishga rag‘bat uyg‘otadi.Ayniqsa, qish fasli bilan bog‘liq mashg‘ulotlar bolalarning qiziqishiga yanada mos tushadi. Masalan, bog‘cha hovlisida qor yog‘ishini kuzatish jarayonida quyidagi savollar asosida suhbat uyushtirish mumkin:

-  Qor uchquni nimaga o‘xshaydi?
-  Nima uchun qor uchquni kapalakka o‘xshatiladi?
-  Qor uchqunlari nima uchun har xil bo‘ladi?
-  Qorda yurganida odam nima uchun sovqotadi-yu, qorbo‘ron o‘ynaganida isib ketadi?
-  Qor odam qachon erib ketadi?
-  U nima uchun erib ketadi?
-  Sirpanchiq o‘ynash uchun nima qilish kerak?

Savol-javob jarayonida tarbiyachi bolalarni kundalik hayot bilan tanishtira boradi, tabiatdagi o‘zgarishlarni kuzatish vositasida bilimini boyitadi, nutqini rivojlantiradi. Savol-javob orqali bolalar qor uchqunlarining har xil shaklda bo‘lishi, uning turli tezlikda yog‘ishi sabablarini bilib oladilar, havo harorati bilan bog‘liq o‘zgarishlarni tushunib etadilar, qish mavsumidagi qiziqarli mehnat jarayoni bilan tanishadilar; qor kurash, supurish, qor bosgan joylarda qushlarga don tashlash uchun joylar tayyorlash kabi ishlarni zavq-shavq bilan, hamkorlikda bajaradilar va tarbiyachi, tengdoshlari bilan faol muloqotda bo‘ladilar. So‘zlashuv jarayonida ishlatiladigan «qor uchqunlari», «kapalak qor», «lo‘ppi-lo‘ppi qor uchquni», «qor kurash», «muz yo‘lak», «don xo‘rak», «qor odam», «muztepa» kabi so‘z va so‘z birikmalari dialogik nutqni shakllantirishga yo‘l ochadi.

Bolalar nutqini rivojlantirish mavzu rejasiga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Tevarak – atrof va ona Vatan.

O‘zbekiston haqidagi tasavvurlarini boyitish

 O‘zbekistonning qadimiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Toshkent, ko‘hna Urganch, SHahrisabz, Xiva, Qo‘qon va Buyuk ipak yo‘li.

 I.A.Karimov – O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti.

 O‘zbekiston Respublikasi Prezident tomonidan boshqariladi.

 Konstitutsiya saboqlari.

 Davlatimiz ramzlari: gerb, bayroq va madhiyasi.

 O‘zbekistonda davlat tili – o‘zbek tili ekanligi.

 O‘zbekistonning poytaxti Toshkent shahri ekanligi.

 Toshkent metropoliteni.

 Toshkent teartlari.

 Mening shaxrim, mahallam.

 Bir bolaga etti qo‘shni ota-ona.

 Oilamiz shajarasi.

 Bizning oila.

 Ona tilim –jonu dilim.

 Til bilgan – el biladi.

 Jonajon o‘lka tabiati.

 Hamdo‘stlik mamlakatlari.

 O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida bola qalbida o‘z millatiga muhabbat, milliy g‘urur hissini tarbiyalash.

2. Buyuk siymolar:

Bolalarni tariximiz va SHarqning buyuk allomalari, ularning hayoti va ijodi bilan tanishtirishni davom ettirish; ulug‘ allomalar:

 Alisher Navoiy;  Al Beruniy;  Abu Ali ibn Sino;  Mirzo Ulug‘bek;  Musavvir Kamoliddin Behzod haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash.

Mashhur sarkardalar:

 Amir Temur;

-  Jaloliddin Manguberdi;
-  Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi bilimlarini kengaytirish;
-  O‘zbekiston harbiy qo‘shinlari va ularning vazifasi, 14 yanvar harbiylarning kasb bayrami ekanligi hamda sportchilar, adiblar, san’atkorlar haqida tasavvurlarini kengaytirish.

Bayramlar va marosimlar, sayllar, urf-odatlar

Bolaning umumxalq bayramlari; 1 sentyabr – “Mustaqillik kuni”, 1 oktyabr – “Ustozlar va murabbiylar kuni”, 8 dekabr – “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni”, 1 yanvar – “YAngi yil” bayrami, 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami, 21 mart – “Navro‘z” bayrami, 9 may – “Xotira va qadrlash” kuni haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish va boyitish; bolalar bilan birgalikda 1 iyun – “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni”ni va “Xayr bog‘cham” bayramlarini nishonlash; shakl va mazmun jihatdan xilma-xil bo‘lgan bayramlar, sayllarni muntazam ravishda tashkil qilib turish. Masalan, “Mehrjon”, qovun sayli, qushlar, gullar bayramlari va boshqalar.

4. O‘zbek xalq ijodi:

-  O‘zbek xalqining hunarmandchilik san’ati.
-  Xalq me’morchilik san’ati.
-  Xalq qo‘shiqlari, laparlari, alla, ertak, maqol va topishmoqlar, tez aytishlar.
-  Tasviriy san’at asarlari.

Bolani o‘zbek xalq amaliy san’ati, milliy hunarmandchiligidan: zargarlik, zardo‘zlik, misgarlik, ganchkorlik kabilar bilan tanishtirish; xalq ustalari tomonidan tayyorlangan buyumlardagi; kashtachilarning tikkan so‘zanalari, zargarlarning nozik did bilan yasagan taqinchoqlardagi go‘zallikni, ranglar jilosini his qilishga undash. SHu tariqa bola qalbida xalq ijodiyotiga, amaliy san’at asarlariga nisbatan qiziqish hissini tarkib toptirish.

3. Bolalarning kattalar mehnati hamda sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini boyitish, bilimlarini kengaytirish.Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muxabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko‘nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyot qilishga o‘rgatishga jiddiy e’tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, mehnatga nisbatan mas’uliyatni his etib yondashishini tarbiyalaydi. Bolalarni kattalar mehnatiga nisbatan mas’uliyatni tarbiyalash uchun o‘zlari mehnat malakalarini egallab olgan bo‘lishlari va o‘z mehnatlarining ahamiyatini tushunishlari lozim. Kattalar mehnatini kuzatish bolalarda kuzatuvchanlikni o‘stirishning usullaridan biridir. Kattalar mehnatini kuzatish jarayonida tarbiyaviy vazifalardan tashqari ta’limiy vazifalar ham hal qilinadi.

Bolalarda o‘z yoshidan kichik bo‘lgan bolalarga o‘yinchoqlarini yig‘ishtirish va tuzatishda, er maydonchasini tozalashda, qum saqlanadigan joyni tartibga keltirishda yordam qilish istagi va ko‘nikmasini tarbiyalash; kasb-hunarga oid turli o‘yinlar (“CHevar”, “Pedagog”, “Hamshira”, “Bozor-bozor”) o‘ynashga o‘rgatish kabi.

Transport va aloqa vositalari haqida quyidagilarni bilishi lozim:bolaning yo‘l harakati qoidalari haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash; transport vositalari, pochta aloqa xizmati, pochtaning vazifasi va ahamiyati haqida ma’lumot berish; telefon aloqasi va telegrafchilar, ularning mehnati, telefon xizmatining hayotimizda tutgan o‘rni haqida tushuncha berish. Bu kabi bilimlarni bolalarga singdirishda “Pochta-pochta”, “Kimga nima kerak?”, “Telefon-telefon”, “Kompyuter” kabi mavzularda suhbat va o‘yinlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. SHu bilan birga, bolalar tomonidan buyumlarning bir necha xil belgilari va ulardan foydalanish haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash; matodan qilingan buyumlar, ularning turlari va foydalanish usullari; temir va yog‘ochdan ishlangan buyumlar va ulardan to‘g‘ri foydalanish haqidagi tasavvurlarini yangi mavzular bilan boyitish; buyumlarning yasalishi va ishlatilishi haqida suhbatlar tashkil etish lozim.

Dasturda bola o‘z tanasining qismlarini va gigienani o‘rganishi: ularni sog‘lom turmush tarziga odatlantirish; ularga odamning ichki a’zolari (yurak, jigar, oshqozon o‘pka) va ularning joylashuvi, vazifalari haqida (inson o‘pka orqali nafas oladi, havo qanchalik toza bo‘lsa, o‘pka shunchalik yaxshi ishlaydi. YUrak inson hayoti uchun eng kerakli a’zolardan hisoblanadi. U ishlayotganini bildirib doim “duk-duk” urib turadi. Jigar qonni tozalaydi. Biz istemol qilayotgan ovqat oshqozonga tushadi va hazm bo‘ladi) ma’lumot berish; bu a’zolar tananing qaerida joylashganini ko‘rsatish va nomini aytishga o‘rgatish; bolaning sog‘lom hayot kechirish (ozodalikka va kun tartibiga rioya qilish, jismoniy mashqlar bajarib, tanani chiniqtirish va sog‘lom ovqatlanish) haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash; odam va hayvon o‘rtasidagi bir necha farqlanuvchi va umumiy jihatlar haqidagi tushunchalarni aniqlash va kengaytirish; mashg‘ulotlarda odamning tuzilishi aks ettirilgan turli rasm va badiiy asarlardan foydalanishi lozimligi qayd etilgan.

Bu kabi ish turlarini tashkil etishda tarbiyachi va bolalar kattalar mehnatini nazorat qiladilar hamda unga baho berishga o‘rganadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishda quyidagi metodlardan foydalaniladi: ko‘rgazmali, amaliy, og‘zaki metodlar. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ko‘rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o‘yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), og‘zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o‘qish, suhbat) metodlaridan va xilma-xil ish shakllaridan: mashg‘ulotlar, ekskursiyalar, kundalik turmushdagi kattalar mehnatini, bayramlarni kuzatish, ta’limiy o‘yinlardan foydalaniladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O‘yin faoliyatiga ta’rif bering.
2. O‘yin turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
3. Bolalar o‘yinchoqlariga qo‘yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
4. Maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin texnologiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Interfaol o‘yinlarning o‘ziga xos tomonlarini ayting?
6. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limiy o‘yinlar va ularning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
7. Lug‘atni boyitish uchun yordam beradigan ta’limiy o‘yinlarning turlarini bilasizmi?
8. Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlarni aytib bering.
9. Qoidali-harakatli o‘yinlar asosini qanday harakatlar tizimi egallaydi.

## 15-MAVZU: KO`RGAZMALI MATERIALLAR BILAN O`YNALADIGAN TA’LIMIY O`YINLAR

Reja:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limiy o‘yinlar va ularning ahamiyati.
2. Maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin texnologiyasining maqsad va vazifalari.
3. Interfaol o‘yinlarning o‘ziga xos tomonlari.
4. Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlar.

*Tayanch tushunchalar:* ta’limiy o‘yinlar, ko‘rgazmali material, didaktik o‘yinlar, qoidali-harakatli o‘yinlar, stol-bosma o‘yinlar, og‘zaki so‘zli o‘yinlari, o‘yin tempi va ritmi, sensor madaniyati.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limiy o‘yinlar va ularning ahamiyati. Ta’limiy o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o‘yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O‘yinda o‘yinning maqsadi, o‘yin qoidalari, o‘yin harakatlari o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. O‘yin maqsadi o‘yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O‘yin qoidasi esa o‘yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o‘yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi.

Ta’limiy o‘yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta’limiy o‘yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o‘yinlar mashg‘ulot jarayonida va o‘yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o‘tkaziladi. Bunda o‘yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Ta’limiy o‘yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta’sir etish.
2. So‘ralganda javob berish.
3. O‘rtoqlarining fikrini eshita olish.
4. O‘yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O‘yin qoidasini bajarish.
6. O‘z xatosini tan olish.

Milliy xalq o‘yinlari ikki guruhga bo‘linadi:
1. Milliy harakatli o‘yinlar.
2. Milliy xalq o‘yinlari.

Milliy harakatli o‘yinlar sport turlari hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo‘lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e’zozlanib kelingan. U bolalarning jismonan baquvvat, sog‘lom, jasur, qat’iyatli, chaqqon, uddaburon bo‘lib o‘sishlarida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Xalq milliy o‘yinlarida millatning o‘tmish tarixi, ma’naviy va madaniy rivojlanishining xarakter-xususiyatlari, urf-odatlari, an’analari jamlangandir. Bolalarning o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki kattalarning taklifiga ko‘ra hikoya qilib berishga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, ertaklar, suratlar va o‘z shaxsiy tajribasiga oid taassurotlarning so‘zdagi mazmunini qisqa hikoya, mulohaza, tavsiflar yordamida ifodalashni o‘rgatish. Dabdurusdan tug‘ilgan so‘z ijodkorligida, tovushlar va qofiyalar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda, so‘zlar bilan amalga oshiriladigan sinovlarda, ularning jarangdorligi va ahamiyati, so‘zlar mazmunini talqin qilishda ko‘zga tashlanadigan so‘zlarga qiziqishni qo‘llab-quvvatlash zarur. Til voqeligini eng oddiy anglashni rivojlantirish, bolalarni «tovush», «so‘z», «gap» atamalari bilan tanishtirish.

Leksik mazmundagi o‘yinlar va mashqlar – nutqning mazmun jihatini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ularda turli predmetlar va ob’ektlarni taqqoslash, turli umumiy xususiyatlar va funksiyalarni ajratish muhim ahamiyatga ega. Bunda real ob’ektlar (o‘yinchoqlar, rasmlar, kiyimlar, mebel va h.k.) ham, xayoliy vaziyatlar (quvnoq va g‘amgin tulkichaning harakatlari, erta va kech kuz ob-havosi va h.k.) ham taqqoslanishi mumkin. Hikoya qilishdan oldingi lug‘at mashqlari bolalar ravon nutqlarining aniq va obrazli so‘zlar hamda iboralar bilan boyitilishiga yordam beradi.

Mavzu: Ijodiy hikoya tuzish: **“O‘jar jo‘ja”**.

Maqsad: Tarbiyachi tomonidan aytilgan hikoyani nihoyasiga etkazishga, jumlalarni qisqa, lo‘nda tuzishga o‘rgatish.

Vazifalar:
-  bog‘langan nutqni rivojlantirish;
-  gapirayotganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, jumlalar tuzish malakasini mustahkamlash.

Savodga o‘rgatish: so‘zlardan gap tuzish va uni “o‘qish” malakasini o‘stirish;
-  -so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish.

Kutilayotgan natijalar:
-  hikoya to‘qishga qiziqi Kutilayotgan natijalar:

 hikoya to‘qishga qiziqish uyg‘onadi.
 sifatlarning qiyosiy (solishtirma) darajalarini yasashga o‘rganadilar.
Kerakli jihozlar:
 Mavzuga oid rasmlar.

Mashg‘ulotning borishi. Bolalar, hozir men sizga o‘jar jo‘ja haqida hikoya aytib beraman. Siz diqqat bilan eshiting, hikoyaning davomini siz aytib berasiz. Bir tovuqning 7 ta jo‘jasi bor ekan. Ulardan bittasi o‘jar ekan. Onasining so‘ziga quloq solmay uni qiynar ekan. Bir kuni ona tovuq jo‘jalarga yolg‘iz ko‘chaga chiqmanglar, adashib qolasiz, - deb o‘zi donlagani ketibdi. Oradan ko‘p o‘tmay, haligi o‘jar jo‘ja ko‘chaga chiqib ketibdi. U yuraveribdi, yuraveribdi, oxiri adashibdi. Yo‘lda bir gala g‘ozlarni ko‘ribdi. CHi-chi, mening onam qayerda? – deb so‘rabdi. G‘ozlar bilmaymiz, deb suvga cho‘milgani ketishibdi. Jo‘ja yana yuraveribdi, yuraveribdi, yo‘lda kuchukchani ko‘rib qolibdi. CHi-chi, mening onam qaerda? – deb so‘rabdi. O‘jar jo‘ja yo‘lda yana nimalarni uchratdi, qanday qilib onasini topib oldi. SHular haqida hikoya tuzib aytib bering. Agar bolalar qiynalsalar tarbiyachi yordamlashadi. Yo‘lda o‘jar jo‘ja mushukni ko‘rib qoladi. Mushuk jo‘jani aldab tutib olmoqchi bo‘lib turganda ona tovuq yugurib kelib mushukni ta’zirini beribdi. Ona tovuq o‘jar jo‘jani ham urishibdi. Jo‘ja esa o‘jarligidan pushaymon bo‘libdi. Bolalarni hikoya tuzishlari uchun ular 3-4 ta boladan iborat guruhlarga ajratiladi: biri boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi, uchinchisi yakunlaydi. Guruh bolalarining javoblari eshitilgach, tarbiyachi ularni rag‘batlantiradi. Tetiklashtiruvchi mashq.

**O‘yinning borishi:** Bolalar doira shaklida turadilar. Tarbiyachi koptokni qo‘liga olib, o‘yinni boshlab beradi. Bolalar tarbiyachi aytgan so‘zni bo‘g‘inlab aytib berishlari kerak: to-vuq, jo‘-ja, mu-shuk, ech-ki, qo‘l-qop, som-sa va hokazo. O‘yin shu tarzda davom etadi. Bolalar, hozir biz «So‘zni o‘zgartir» degan o‘yin o‘ynaymiz. Tarbiyachi uchta bolani chaqiradi. Ular so‘zlar bo‘ladi. Birinchi bola jo‘ja, ikkinchi bola kuchukchani, uchinchi bola uchratdi bo‘ladi, qanday gap hosil bo‘ldi. (Bolalarning javoblari) Agar birinchi so‘z o‘rniga boshqa so‘z qo‘yadigan bo‘lsak yangi gap hosil bo‘ladi. Masalan «Jo‘ja» so‘zining o‘rniga qanday so‘zni qo‘yamiz? Bolalar javobi: «Mushuk» qanday gap hosil bo‘ladi? Bolalar javobi: Mushuk kuchukchani uchratdi. Endi ikkita ketma-ket so‘zlarni o‘zgartiring. Jo‘ja mushukni ko‘rdi (Avvalgi so‘z o‘rnidagi bolalar chetga chiqadilar, ular o‘rniga boshqa bolalar chiqadilar).

4. Bolalar lug‘atini boyitishda ta’limiy o‘yinlarni tanlash, o‘tkazish va tahlil qilish. Xalq milliy o‘yinlarini maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:
- xalq milliy o‘yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo‘llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;
- milliy o‘yinlarni tashkil etishda ma’naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda xalq

milliy o‘yinlaridan maqsadli foydalanish;

- xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish; - bolalarning o‘ynashlari uchun shart-sharoit (o‘yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;

- maktabgacha ta’lim muassasalari, oila va mahallalar o‘rtasida milliy o‘yinlar bo‘yicha ko‘rik tanlovlari va musobaqalar o‘tkazish.

Milliy harakatli o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o‘yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1-2 yoshli bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yin turlari: «Barmoqqa-barmoq», «G‘oz-g‘oz», «G‘oz tursin», «Bup-bup», «Toy-toy», «Poezd», «Achom-achom» o‘yinlari, go‘dak endi bir-ikki qadam tashlashni o‘rganayotgan vaqtda gavdasini to‘g‘ri tutishga yordam beradigan o‘yinlar hisoblanadi.

3-4 yoshli bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yin turlari: «Ot o‘yin», «Ko‘zboylagich», «CHori chambar», «Avval akam», «Tayoq irg‘itish», «Quloq cho‘zish», «CHitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi».

4-5 yoshli bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yin turlari: «CHir aylanma», «CHillak», «Tortishmachoq», «Lafta», «Dor o‘yin», «Berkinmachoq», «Jami», «CHertan devor gir-gir aylan».

Katta yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do‘ppi yashirma», «Sapalak», «Besh tosh», «Oq terakmi, ko‘k terak». Bu o‘yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o‘z-o‘zini boshqara olish va o‘ziga ishonch tarbiyalanadi, qat’iyatlilik ko‘nikmalari shakllanadi, fikrlashga o‘rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bo‘lishga tayyorlanib boriladi. Mustaqil ish Jadvalni to‘ldiring. Qaysi o‘yinlar bolalarni mehr, shafqat va sadoqatga o‘rgatadi? Nomlarini yozing

1.
2.
3.
4.
5.

Xalq milliy o‘yinlari orqali bolalarni ma’naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolalarda o‘z Vatanini sevish, uning boyliklari qadriga etish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo‘shiqlardan zavqlanish tuyg‘ulari, shuningdek, o‘sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O‘yin faoliyatiga ta’rif bering.
2. O‘yin turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
3. Bolalar o‘yinchoqlariga qo‘yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
4. Maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin texnologiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

5. Interfaol o‘yinlarning o‘ziga xos tomonlarini ayting?
6. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limiy o‘yinlar va ularning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
7. Lug‘atni boyitish uchun yordam beradigan ta’limiy o‘yinlarning turlarini bilasizmi?
8. Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlarni aytib bering.
9. Qoidali-harakatli o‘yinlar asosini qanday harakatlar tizimi egallaydi.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR

### 1-MAVZU: Bolalarda nutqni o’stirish metodikasining predmeti va nazariy asoslari. Nutqni rivojlantirish metodikasiing fan sifatida tarkib topishi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishning lingvistik asoslari

Reja:

1. Ta’lim-tarbiya jarayoni hamda til va Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii fani haqida.
2. Til va Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii fanining maqsadi va vazifalari haqida.
3. Til va nutq o’stirishni takomillashtirish yo’llari.

Maktabgacha ta’lim sog‘lom, har tomonlama etuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta’lim olishga tayyorlash ota-onalarga yordam beradi. So‘ngi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunining 11- moddasida: «Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va etuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta’lim olti-etti yoshgacha oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida va mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi» deyilgan.

Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qayd etilganidek, maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, shunnngdek, Maktabgacha ta’lim muassasalarida ham innovatsion g‘oyalarni shakllantirish

asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida; maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yahshilash, ta’lim –tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intelektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida etibor qaratildi. Bu qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan, uning maktabgacha ta’lim bosqichiga e’tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish, mamlakatimiz ilmiy-texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlarga yo‘nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi lozim. Zero, ta’kidlab o‘tganimizdek, uzluksiz ta’lim bosqichlarining nechog‘lik samarali ishlashi ma’lum darajada maktabgacha ta’lim sifatiga bog‘liq: bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo‘ladib, unga to‘g‘ri mazmun va yo‘nalish berish pedagogika fani, ta’lim amaliyotining dolzarb muammosidir. Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta’siri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadilar. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.)ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir.

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo‘lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko‘p asrlik tajribasini o‘zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi - til orqaligina berish mumkin. Til – hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, biz unga o‘z-o‘zidan bo‘lishi shart bo‘lgan narsa sifatida qaraymiz.

Tilning o‘zi nima, biz unda qanday so‘zlayapmiz, biz qanday qilib

so‘zlashni o‘rganishimiz haqida esa unchalik ko‘p o‘ylab ham o‘tirmaymiz. Bilimni uyushtiruvchi boshlang‘ich bosqich sifatida chiqadigan nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o‘rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi ilmiy ufqlarni ochadi, uni o‘zining gumanitar mohiyati haqida orzu-xayollarga berilgan holda doimo tinch-osuda va jimgina o‘tiradigan burchagidan chiqishga majbur qiladi.

Ana shu nuqtai nazardan «Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi» fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Umumiy pedagogika - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

2. Nutq madaniyati - bu to‘g‘ri so‘zlay olish, ya’ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zahira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir.

3. Bolalar psixologiyasi – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

4. Maktabgacha pedagogika – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o‘rganadi.

5. Etika – shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

6. Estetika – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

7. Fiziologiya – o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.

8. Gigiena – bolalarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.

9. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

10. Bolalar adabiyoti va adabiyotshunoslik asoslari – ta’lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish, xalq maktabgacha pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.

11. Madaniyatshunoslik – bolalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

12. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

13. Ijtimoiy pedagogika –13. Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi. SHaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarkibiy tajribani o‘zlashtirish, ta’lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo‘lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. «Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi» fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligini tushuntiring?
2. Bolalar nutqini o‘stirishning predmeti, maqsadi va vazifalarini tavsiflab bering?
3. Bolalar nutqini rivojlatirishning tashkiliy pedagogik va metodik ishlarni qanday tashkil qilish kerak?

## 2-MAVZU: SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O’SIB KELAYOTGAN AVLODNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASHGA OID QARASHLARI

Reja:

1. Sharq va G’arb mutafakkirlari ta’lim va tarbiya haqida.
2. K.D.Ushinskiy bolalarga birinchi navbatda ona tilini o’qitish asoschisi.
3. Ye.N. Vodovozova, uning bolalar nutqini rivojlantirish metodikasiga qo’shgan hissasi.

Ta’lim va tarbiya muammosi juda qadimdan beri mavjud. U o’rta asrlardagi Sharq va G’arb mutafakkirlarining asarlarida ko’rib chiqilgan o’sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy va boshqalar feodal zulm va mutaasib ruhoniylarning qattiq qarshiligiga qaramasdan jahon fani madaniyati, maorifiga beqiyos hissa qo’shdilar.

O’tgan davrlarda mehnatkashlarning o’z munosabatlarini uning yoshlariga tarbiyaviy ta’sirini yanada kuchaytirish maqsadida yo’lga qo’yish borasidagi tajribalarini nafaqat xalk pedagogikasining qator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshqaruvchi obyektiv umumiy ijtimoiy qonunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham o’rganish lozim.

O’rta asrlar Sharqining qomusiy mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy (873-950) insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt-saodatga yetaklash yo’llari va usullarini o’zining ijtimoiy-siyosiy ta’limoti markaziga

qo'yadi. Bu esa uning dunyoqarashlarini umuminsoniy asosga egaligidan dalolat beradi.

Aynan shunday maqsadlar Forobiyning shaxsini tarbiyalash va ta'lim berish, uni takomillashtirish hamda uning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faol roliga nisbatan dunyoqarashlarining bosh mazmunini tashkil etadi.

Abu Rayhon Beruniy (971-1050) qomusiy olim sifatida tarixga kirgan. U fanni dindan ajratish zarur deb hisoblagan, aks holda uning fikriga ko'ra ilmiy bilimlar haqiqiy bo'la olmaydi. Olimning dinga bo'lgan tanqidiy munosabati ko'p jihatdan uning tarbiya va ta'limga bo'lgan munosabatlarini ham belgilab beradi. Beruniy o'z asarlarida ta'limning uzluksiz ko'rgazmali, aniq maqsadga yo'naltirilishi lozimligini va uning muayyan tizim asosida o'tkazilishi zarurligini ta'kidlagan. Beruniy shaxs tarbiya jarayonida shakllanadi, deb hisoblagan. Davoniy Eron hududida yashagan va ijod qilgan bo'lsa ham uning «Axloqi Jaloli» nomli asari inqilobga qadar Samarqand va Buxorodagi madrasalarda o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan hamda O'rta Osiyodagi ko'plab ilg'or muttafakkirlarning pedagogik va axloqiy qarashlarini shakllantirishda katta rol o'ynagan.

Davoniy asarlarida ta'lim-tarbiya metodikasida maktab va o'qituvchining tutgan o'rni haqida ijodiy fikrlar juda ko'p. Uning asarlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Davoniy o'z davrining ilg'or mutafakkiri bo'lgan hamda uning ta'lim va tarbiya haqidagi ko'plab g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ayniksa, Alisher Navoiy o'zbek xalqi qalbidan chuqur joy olgan. Uning asarlari besh yuz yildan buyon ko'plab avlodlarni hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat g'oyalari insonning oliy maqsadlarini kuylash Navoiy merosida asosiy o'rin tutadi.

Navoiyning pedagogik qarashlari o'ta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish va tarbiyalash masalalariga juda katta ahamiyat bergan, Navoiy farzandni oilaga quvonch va baxt keltiruvchi shamchiroq deb bilgan.

Navoiy bolaga uning yoshiga qarab eng kichik yoshdan to'g'ri tarbiya berish zarur, fanlarni o'rganishni iloji boricha barvaqt boshlash lozim, deya ta'kidlagan.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy (1824-1870) rus pedagogikasi, xususan maktabgacha pedagogikaning asoschisi hisoblanadi. U bolalarni maktabgacha tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti masalalarini boshlang'ich ta'lim muammosi bilan bog'lagan.

Ushinskiy pedagogika tizimining asosiy yetakchi g'oyasi xalqona tarbiya g'oyasi hisoblanadi. Bunda har bir xalqning u yashaydigan va mehnat qiladigan tarixiy, tabiiy shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xosligini tushunadi.

Ushinskiy ona tili xalqchillikning eng yaxshi ifodasini tan olgan hamda ta'lim va tarbiya ishida ona tili asosiy o'rinni egallashi lozim deb hisoblagan.

Ona tilining bola psixologik kuchlarini har tomonlama rivojlantirish, til mohiyati va uning vujudga kelishining bosh manbai ekanligi haqidagi ta'limot K.D. Ushinskiy pedagogik ta'limotida markaziy o'rinlardan birini egallaydi

hamda uning metodik tizimini tushunish uchun nasos bo'lib xizmat qiladi.

K.D. Ushinskiy ona tilini birlamchi o'qitishning uchta asosiy maqsadlarini shakllantirgan:

1. So'z imkoniyatlarini rivojlantirish.

2. Bolaga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o'rgatish, bolalarni ona tili boyliklarini egallashga jalb qilish.

3. Til qonunlarini, uning grammatikasini o'rganish.

K.D.Ushinskiyning til va u bilan ruhan shakllanishida tutgan o'rni haqidagi ta'limot nutqni rivojlantirish metodikasini mustaqil fan sifatida ajratish uchun muhim ahamiyatga egadir.

1. Til haqida uning vujudga kelishi haqida ta'limot metodikaning nazariy asoslari ishlab chiqildi, uning har bir odamning rivojlanishida tutgan o'rni ko'rsatib berildi. Bu esa bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashda ona tilining yetakchi o'rin tutishini asoslash imkonini berdi.

2. Bolalar nutqini rivojlantirish ishi maktab ta'limiga qadar boshlanadigan ish sifatida alohida bo'limga ajratilgan.

3. Bolalar nutqini rivojlantirishga bolaning uzoq davom etadigan ona tili uning mazmuni va shakllarini o'zlashtirish jarayoni sifatida qaralgan. Ushbu murakkab jarayon ustoz tomonidan to'g'ri va faol rahbarlik qilishni talab qiladi.

4. Ona tilini o'qitish jarayoniga rahbarlik qilishning asosiy qoidalari ona tilini birlamchi o'qitishni maqsadlari ularni amalga oshirish mazmuni va shakli nutqni rivojlantirishda ko'rgazmaviylikning ahamiyati ishlab chiqilgan va asoslab berilgan.

5. Bola nutqini uning fikrlash ma'naviy va estetik his-tuyg'ulari bilan birgalikda rivojlantirishni ta'minlovchi ish usullari ko'rsatib berilgan.

Nazorat savollari:

1. Abu Nasr al-Forobiyning tarbiya va ta'limga oid qarashlarining bosh mazmunini tavsiflang.

2. Devoniyning tarbiya va ta'limga oid ijabiy g'oyalarini tavsiflab bering.

3. Navoiyning pedagogik merosining bosh xususiyati nimalarda ifodalanadi?

4. K.D.Ushinskiyning bolalarga dastlab ona tilini o'qitish ta'limoti asoschisi sifatidagi faoliyatini ta'riflang.

5. Ye.N.Vodovozovaning maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashdagi xalqchillik g'oyalarini asoslab bering.

## 3-MAVZU. BOLALIKNING ILK BOSQICHLARIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Reja:

1. Ilk yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi.

2. Ilk yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning ahamiyati.

3. Dastlabki tushunarli so’zlarni gapirishga o’rgatish.

Bola nutqini ilk yoshdani boshlab egallaydi, Bolalar uch yoshga kirgunlariga qadar ularning nutqini o’stirishga jiddiy e’tibor berilishi va qunt bilan ishlaninsh lozim. Hozirgi vaqtda shu narsa ma’lumki va ravshaki, markaziy nerv sistemasining barcha funksiyalari ular tabiiy ravishda tarkib topish davrida, avvalo mashq qilish va tarbiyalanishga moyil bo’ladi.

Bola uch yoshga kirgunigacha bo’lgan payt nutq o’stirishning «og’ir» davri hisoblanadi. Bu vaqtga kelib miyaning nutq qismi analitik jihatdan asosan yetilib bo’ladi, bola ona tilining asosiy grammatik formalarini o’zlashtirib oladi, so’z zahirasi ko’payadi.

Dastlabki yillarda bolalar nutqini o’stirishga o’qituvchining yetarlicha tarbiyaviy ta’sir ko’rsatmasligi natijasida bolalar hatto 3-4 yashar bo’lganida ham nutqni egallay olmaydilar. Bolalar nutqni ancha kechikib egallaganlarida ularning nutqida so’zlarning yetishmasligi, nutqning grammatik tuzilishi va talaffuzidagi nuqsonlar uzoq vaqtgacha saqlanadi.

Ma’lumki, o’sishning to’xtab qolishi bolaning tevarak-atrofdagi kattalar bilan muomala qilish imkoniyatlarini cheklab qo’yadi hamda tarbiyachilar va ota-onalarning nutq yordamida har tomonlama tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishlariga to’sqinlik qiladi, bu bilan bolaning butun psixik o’sishiga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi, chunki barcha psixik jarayonlar – idrok, xotira, diqqat, fikrlash operasiyalari, xayol nutq orqali taraqqiy etadi.

Bola nutqini o’stirish sohasida olib borilgan ko’pgina tadqiqotlar natijalarining ko’rsatishicha kattalariing bola bilan munosabatda bo’lishlari nutqni o’z vaqtida o’stirish imkonini beradigan tarbiyaviy ta’sirning asosiy formasidir. Bola bilan munosabat bir oylik bo’lganidan boshlab unga ko’rsatiladigan tarbiyaviy ta’sirning hamma formalariga asos qilib olinishi kerak.

Bolaning bir yoshga to’lgungacha bo’lgan davri nutq tarkib toptirishning tayyorgarlik bosqichidir. Bu bosqich bolalarda ovoz reaksiyalarini, tevarak-atrofdagilarga taqlid qilish va nutqiga tushuna boshlash odatlarini o’stirishni o’z ichiga oladi,

Yangi tug’ilgan bolaning qichqirig’i, nafasning ovoz bilan chiqishi, o’pkaning rostlanishidir. Bola qorni ochgan, sovqotgan, tagi ho’l bo’lib qolgan paytlarda qichqiradi, yiqlaydi, Bunday vaqtlardagi qichqiriq yordam so’rash emas, balki ahvolni anglash ifodasidir.

Nutq elementlari ahamiyatini kasb etuvchi ovoz reaksiyalari bolalarda 1-3 oylik bo’lganlarida kattalariing bolalar bilan emosional muomalasi ta’sirida paydo bo’ladi.

Ilk yoshdagi bolalar nutqini o’sritish ikki davrga:

1) tayyorgarlik va 2) mustaqil nutqni tarkib toptirish davrlariga bo’linadi.

**Tayyorgarlik davri.** Bolada emosional munosabat yarim yashar bo’lguniga qadar paydo bo’ladi. Bu bosqichdagi muhim narsa bolada kattalar bilan muomala qilish ehtiyojining yuzaga kelishidir.

Bola bir oylik bo’lguniga qadar tez-tez uyg’onib turadi va uyg’oqlik vaqtini

ko’pincha emish bilan o’tkazadi. Emishga qadar va emgandan keyingi daqiqalarda – bola onaning tizzasida yotgan vaqtlarda bola bilan dastlabki aloqa – emosionallikka asoslangan munosabat yuzaga keladi.

Katta odam bolani silaydi, unga mehribonlik bilan qaraydi, kuladi, u bilan so’zlashadi, erkalab turli tovushlarni talaffuz qiladi. Bunda bolani o’ziga qaratishta intiladi. Bularning hammasi bolada yoqimli kechinmalar paydo qiladi. Uning emosional tonusini ko’taradi. Dastlabki vaqtlarda bola tashqi ta’sirga berilmaydi, kattalarning ta’sirini sezmaydi. Lekin birinchi oyning oxiri, ikkinchi oyning boshida bunday munosabat vaqtida bola tinchlanadi, harakatlarini kamaytiradi, uning yuzida mamnuniyat ifodalari paydo bo’lib, jilmayadigan bo’lib qoladi. Bularning hammasi bolaning kattalarning o’zi bilan muomalasini faol idrok qilayotganidan, bu muomala unga ijobiy ta’sir ko’rsatayotganidan dalolat beradi.

Bola tarbiyasidagi dastlabki oylar juda mas’uliyatli oylardir. Bola bir oylik bo’lguniga qadar unda tez-tez qichqirishda ifodalanadigan salbiy emosional holat ustunlik qilali. Har bir ona bolani uzoq yig’latmasdan, tez tinchlantirish, erkalab gapirish, mehribonlik bilan unga qarash kerakligini yaxshi biladi. Bolaga birinchi tarbiya berish, jumladan, uning nutqini tarbiyalash ham bolaning barcha muhim sezgi organlariga (ko’rish, eshitish va sezish organlariga) kompleks ta’sir ko’rsatishdan, u bilan emosional muomalada bo’lishdan iborat. Keyinchalik ana shu asosda bolada kattalar bilan muomalada bo’lishda ijobiy his-tuyg’ular jadallik bilan rivojlanadi.

Bola ikki oylik bo’lganda uning uyg’oqlik vaqti ko’payadi. Bu esa kattalarning tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu davrda bolani tizzada olib o’tirgan vaqtdagina emas, balki u beshikda yoki manejda yotgan paytida ham u bilan munosabatni yo’lga qo’yish mumkin. Bunda bolaning qarashini payqash, uni ko’tarib olib o’ynatish, ayni vaqtda uning ko’rish va eshitish organlariga ta’sir etish, ba’zan esa silab ham turish kerak. Shu tariqa bolani tovush chiqarayotgan yoki qimirlayotgan narsa tomonga qaratish, tovushsiz kulgiga, keyinchalik esa qiyqirikqa aylanib ketadigan darajada jilmaytirish mumkin. Shunda bola qo’l-oyoqlari bilan qattiq harakat qiladi,

Uch oyga qadam qo’ygan bolada yana bir yangilik paydo bo’ladi. Bola katta odam bilan muomala qilish uchun uni ko’zi bilan qidiradi. Bola katta odamning erkalash, erkalashidan quvonib ketadi, kuladi, qiyqiradi, qo’l-oyoqlarini o’ynatib, «g’-g’-g’», «u-u-u» kabi tovushlar, ba’zan esa qattiq tomoq tovushlari chiqaradi. N.F. Figurin va M.P. Denisova quvonchning bunday ifodasini «jonlanish kompleksi» deb ataydilar. Endi muomala qilish tashabbusi bolaga o’tadi. Bola ikki oylik bo’lgan chog’idayoq ko’z o’ngida paydo bo’lgan katta kishini ko’radi.

Uch oylik bo’lgandagi farq shundaki, endi bola katta odamni faollik bilan qidiradi, Katta odam turgan tomonga qayrilib qaraydigan bo’ladi. Agar dastlabki oylarda bola bilan muomala qilinmasa, bola uch oylik bo’lganda va keyin ham katta odamni payqamaydi, uzoq-uzoqlarga befarq qaraydi hamda tevarak-atrofidagi narsalarga aslo qiziqmaydi. Kattalar bolalardagi o’zlariga nisbatan

ijobiy munosabatdan foydalanib, ularda tevarak-atrofdaga narsalarga qiziqishni o’stiradilar.

Bola ikki, uch oylik bo’lganda katta odamning yaqinlashib kelib, osib qo’yilgan o’yinchoqni tebratishi, shaqldoqni shakllatirishi bolada o’sha buyumga nisbatan qiziqish uyg’otadi. Bola unga uzoq tikila boshlaydi, ba’zan esa osib qo’yilgan shaqldoqni qo’llari bilan itaradi, shakldoq ovoz chiqarganda quvonib ketadi.

Bolalar ikki-uch oylik bo’lganlarida katta odam ularning bir nechasi bilan ayni bir vaqtda muomala qilishi mumkin. Katta odam bir bolaga gapirishi bilan manejdagi hamma bolalar unga burilib qaraydilar va quvonib ketadilar. Manejda yotgan harakatlanuvchi va tovush chiqaruvchi o’yinchoqlarni ko’rsatish bolalarda katta qiziqish uyg’otadi. Bir bolaning «g’u-g’u»lashi yonida yotgan bolalarda tovush reaksiyasini paydo qiladi. Mustaqil faoliyat vaqtida (manejda yotganda) o’zi ham tovushlarni talaffuz etishni mashq qila boshlaydi.

Bola to’rt oylik bo’lganida u bilan kattalar o’rtasidaga muomala nutq, tovushlari yordamida rivojlanib boradi. Bola katta odamning ovoziga quloq solib, uni qidira boshlaydi va unga ko’zi tushganda qattiq kuladi, qiyqiradi, butun gavdasining harakati bilan javob beradi.

Ilmiy tekshirishlar jarayonida shu narsa aniqlandiki, bola to’rt oylik bo’lganida tovushni eshitish organi nazorati ostida chiqaradi, ko’rish organi nazorati bilan harakatlanadi. Tug’ma kar bolalar dastlabki oylarda tovushlarni xuddi sog’ bolalardek talaffuz qiladilar. Lekin beshinchi, oltinchi oylarda eshitish qobiliyatining yo’qligi sababli ularda bunday tovushlar yo’qoladi.

Bola tovush kompleksini juda jonli idrok qiladi. Kattalar bolalar bilan mashg’ulot o’tkazganlarida, bola talaffuz etadigan tovushlarni talaffuz etganlarida bola ham u tovushlarni talaffuz etadi. Shunday qilib, bolaning «g’u-g’u»lashi kattalar tomonidan rag’batlantirib, o’stirib boriladi. Pedagogik jihatdan qarovsiz bolalar tovushlarni talaffuz etmaydilar va kattalarga taqlid qilmaydilar.

Nutq tovushlari yordamida muomalaning yanada o’sishi shunda namoyon bo’ladiki, kattalar so’zlashganda bola faqat tovushlarga javob beribgina qolmaydi, balki o’zi ham tashabbus ko’rsatib, kattalar bilan so’zlashishga kirishadi. Bolalarda bunday tashabbus, odatda, 4-5 oylik bo’lganda ko’zga tashlanadi. Shu bilan bir qatorda bolalar yonlarida kattalar bo’lmagan vaqtda ham tovushlarni o’zlari talaffuz eta boshlaydilar. Bir bolaning «g’u-g’u»lashi boshqa bolalarni «g’u-g’u»lashi bilan qo’shilib ketadi. Bolalarning hammasi tovushlarni talaffuz etishning bolalarning mustaqil faoliyatiga aylanishiga olib keladi.

Bola to’rt oylik bo’lganda unda birinchi bo’g’inlar va lab tovushlari – «ba», «da», «bu», «ma» paydo bo’ladi. Shu bilan birga u o’zining oldingi «a-a-a», «u-u-u» kabi tovushlarini ham talaffuz qiladi. Gap faqat bolaning qaysi tovushlarni talaffuz qila olishidagina emas, balki uning tez-tez talaffuz qilib turishida hamdir. Bolaning «g’u-g’u»lashi, ya’ni bo’g’inlarni talaffuz etishga aylanishi uchun bola uyg’oq vao’tlarida ham, o’yinchoqlar o’ygayotgan paytida ham talaffuz qilishi kerak. Bu nutq o’stirishning g’oyat muhim vositasidir.

Bola bilan gaplashib, qandaydir tovushlarni talaffuz qilib bolaning

talaffuz qilish faolligini oshirib borish kerak. Bola 3-4 oyligida kattalar bilan muomalada umumiy ifodali harakatlar kompleksini bajargan, qo’l va oyoklarini harakatlantirgan bo’lsa, 5-6 oylik bo’lganda o’z harakatlari va ovoz apparatini bir muncha egallab oladi. U kattalar bilangina emas, balki boshqa bolalar bilan muomalada ham harakat va tovushdan maxsus vositalar sifatida foydalanadi. Bolalar bir-birlariga qarab kuladilar, «g’u-g’u»laydilar. Bolada o’zini qiziqtirgan buyumiga muayyan maqsadni ko’zlab harakatlanish odati paydo bo’ladi. Bola osib qo’yilgan o’yinchoqni ushlab olib, unga tikilib qaraydi. Bu davrda bola harakatini o’stirish juda muhimdir. Uni osib qo’yilgan o’yinchoqlarni o’ynashga, ularni itarishga, silkitish, kaftchalari bilan ushlab olishga qiziqtirish lozim.

Bola 5-6 oylik bo’lganda uning kattalar bilan muomalasida yana bir xususiyat paydo bo’ladi. Bola katta odamni payqashi bilan tovush chiqara boshlaydi. Bu tovushlar katta odamga qaratilgan bo’lib, agar u bola oldiga kelmasa, bola yig’laydi. Tovushlar bola uchun kattalar bilan muomala qilish formasiga va o’z istaklarini ifodalash vositasiga aylanadi. Bu bosqichda bolaning kattalar bilan muomalasida uning xotirasi katta rol o’ynay boshlaydi. Kattalarning jilmaygan va xumraygan chehralari, yoqimli va jiddiy tovushlari bolalarga turlicha ta’sir etadi.

To’g’ri tarbiya berilsa, bola olti oylikligida serharakat, tevarak- atrofga qiziqib qaraydigan bo’ladi. Kam muomala qilingan, ehtiyoj, qiziqishlari o’stirilmagan bolalar asab-psixik tarakqiyoti jihatida orqada qoladi. Ularning xatti-harakatlari juda sekin o’sadi, ularni jilmaytirib, kuldirib bo’lmaydi.

Shunday qilib, bolada nuqt paydo bo’lishidan oldin tayyorgarlik davri bo’lib o’tadi. Bu davrning birinchi bosqichida (bola yarim yashar bo’lguniga qadar) bolaning butun keyingi taraqqiyoti uchun, shu jumladan nutqining o’sishi uchun ham juda muhim ahamiyatga ega bo’lgan emosional muomala tarkib topadi.

Kattalar bilan muomala ta’sirida bolada yangi ehtiyojlar paydo bo’ladi va rivojlanadi. Bu ehtiyojlar bolaning butun psixik taraqqiyotining negizi bo’lib qoladi.

Yarim yoshdan oshish bilan bola va kattalar o’rtasidagi muomalaning yangi bosqichi paydo bo’ladi. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, bolaning harakatlarini yo’lga qo’yish va uning xatti-harakatlariga rahbarlik qilish paytida bolada kattalar bilan ular nutqini tushunish asosida muomala qilish malakasi hosil bo’ladi.

Yarim yoshdan oshgan bolalarda buyumlar, hodisalar va ularni ifodalovchi so’zlarni bir-biri bilan bog’lash malakasini hosil qilish mumkin. Ana shu asosda bolada tevarak-atrofni birinchi bor idrok qilish ba’zi oddiy harakatlarni (ko’rsatish, ushlash, olish, chapak chalish) bajarish, ayrim so’zlarning ma’nosini tushunish malakalari hosil bo’la boshlaydi.

## Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish qonuniyatlari haqida gapirib bering.
2. Bolalar nutqini rivojlantirishning ilmiy asoslari haqida

nimalarni bilasiz?

3. Nutq o‘stirish borasida qanday didaktik tamoyillarga tayanib ish ko‘riladi?

4. Bolalarning nutqini o‘rganishning eng qulay usulini ayting?

5. Bolalar nutqini rivojlantirish sohasida maktabgacha ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsad va vazifalari.

6. Nutqni rivojlantirish dasturining ilmiy asosi.

7. Barcha yosh bosqichlarida bolalar nutqini rivojlantirishga doir pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlari.

8. Bolalar nutqini rivojlantirish sohasida maktabgacha talim muassasasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsad va vazifalari.

## 4-MAVZU: Bolaning har bir yosh bosqichida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. Maktabgacha ta'limda nutq o`stirishning bosqichlari, bolalar yosh xususiyatlari.

**Reja:**

1. Kichik yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. O‘rta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning metodik masalalari.
3. Katta yoshdagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish.

***Tayanch tushunchalar:*** psixolingvistik adabiyotlar, yarim tillilik, ijtimoiy kutish, kommunikativ yo‘naltirilganlik, ijtimoiy vaziyat, emotsional kechinmalar, ermak o‘yinlar, diksiya, emotsional ekspressiya, empatiya

Mavzuni jonlantirish uchun blis so‘rov savollari

1. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishni tarkib toptirish uchun nimalarni amalga oshirish kerak?

2. Nutq madaniyati hamda nutqning tovush madaniyati tushunchalarini izohlang.

3. Tinglash qobiliyati hamda nutqda nafas olishni tarbiyalash uchun qanday masng‘ulot turlaridan foydalanish ijobiy samara beradi?

4. Fonetik urg‘ular ustida qanday ishlar olib boriladi?

5. Tasviriy va ohangdor nutq deyilganda nima tushuniladi?

6. Bolalarda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashda MTMda qanday vositalardan foydalaniladi?

7. Biror-bir guruh uchun tovush talaffuzi bo’yicha hikoya

Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi.

MTTlarining asosiy vazifalaridan biri bolalar nutqining toza va to'g'ri bo'lishi ustida ishlashdir. Nutqning tovush madaniyati deganda, talaffuz jarayonida har bir tovushni ajrata olish va to'g'ri talaffuz qilish tushuniladi. Nutqning tovush madaniyati kishilarning ziynati bo'lishi bilan birga, ularning nutq a'zolarini to'g'ri tarbiyalaniganligini ham bildiradi. Tovush bu – so'zning qobig'i bo'lib, nutq tovushlarisiz tilning hech bir jarayoni amalda oshmaydi, chunki tovushlardan so'zlar, so'zlardan gaplar paydo bo'lishi hammaga ma'lum. Nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlari bo'lib, uning og'zaki ko'rinishi kishilar nutqining tovush madaniyatini belgilaydi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ishlari kichik yoshdan boshlab amalga oshirilishi lozim. Nutqi yaxshi o'sgan bola tevarak-atrofdagilar bilan tez va yengil muomalada bo'la oladi. U o'z istak va fikrini tushunarli qilib ifoda eta biladi. Savol beradi, o'yin vaqtida o'rtoqlari bilan kelisha oladi. Aksincha, nutqi yaxshi o'smagan bola odamlar bilan munosabatga kirishishga qiynaladi va bu unga yomon ta'sir ko'rsatadi. Nutqida kamchiligi bo'lgan 6-7 yashar bola gapirmaydigan, indamas, tortinchoq, odamovi, arzimagan narsadan ta'sirlanaveradigan bo'lib qoladi. Tarbiyachilar va ota-onalarning eng muhim vazifalaridan biri bolalar nutqini to'g'ri o'stirishdir. Ular bolalarning nutqidagi nuqsonlarni tuzatib, ular uchun kishilar bilan bemalol gaplashish imkonini yaratishlari kerak. To'g'ri va aniq nutq kishilarning faoliyatida katta ahamiyatga ega. Yaxshi va to'g'ri taraqqiy etgan nutq maktabda muvoffakiyatli o'qish garovidir. Shuning uchun ham maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning nutqini to'g'ri o'stirish jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalardan biridir. Buni tarbiyachilar va ota-onalar yaxshi bilishlari kerak. Shuning uchun ham bolalar bog'chalarining xar bir guruhida bolalarda tovush madaniyatini tarkib toptirib borish muxim o'rin tutadi. Nutqning tovush madaniyati haqidagi tushuncha g'oyat keng tushunchadir. U tovush, so'z talaffuzini, intonasiya, sur'at, ovoz kuchi va nutqning ta'sirli va tasviriy ohangdorligini o'z ichiga oladi. Nutq madaniyatining asosini eshitish nutqi va nutqda nafas olib, nafas chiqarishni tashkil etadi. Bularni rivojlantirmasdan turib, bola nutqni yaxshi egallay olmaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi kichik bolalar nutqni birmuncha egallagan bo'ladilar. Lekin, ularning nutqi tovush jihatidan hali yetarlicha aniq va toza emas. Ba'zi bolalar ayrim tovushlarni (*r, k, q, s, sh, ch* va boshqalarni) talaffuz etishda qiynaladilar, so'zlarni buzib aytadilar, masalan, koptokni «toptov», Karimni «Tayim», rahmatni «lahmat», shamolni «samol», chumchuqni «sumsuq»deydilar. Ba'zi bolalar so'zdagi bo'g'inlarning joyini o'zgartirib, so'zni o'zini noto'g'ri aytadilar. Masalan, derazani «dezara».... Biroq hamma bolada tovushni talaffuz qilish har xildir 3-4 yashar bolalarning ayrimlari nutqni yaxshi egallaydilar, ba'zilarining nutqini esa aslo tushunib bo'lmaydi. Bolalar nutqi taraqqiyotidagi har xillik bolalarning individual sifatlariga, asosan esa oila va bolalar bog'chasining ular bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlariga bog'liqdir. Bolalar 3-4 yoshga kirganlarida *ch, s, sh, r, j* tovushlarini to'g'ri talaffuz qila boshlaganlaridan keyin ayrim bolalar bu tovushlardan o'rinli va

o’rinsiz foydalanadilar. Masalan, rampa (lampa). Bu tasodifiy bir hol emas, albatta, bola yangi tovushni eski tovush bilan chalkashtirib yuborib, yangi tovushni o’rinli, o’rinsiz ishlataveradilar. O’rta guruh bolalarining ko’pchiligi *r* tovushini o’zlashtirib olgan bo’ladi. Lekin *r* tovushini o’zlashtirib olmagan bolalar ham uchrab turadi. 4-5 yashar bolalar so’zlarni to’g’ri va aniq talaffuz qiladilar. 6-7 yashar bolalarning ko’pchiligi to’g’ri so’zlaydilar, lekin ma’lum miqdordagi bolalarning nutqida (15-20 %) kamchilik uchraydi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash quyidagi talab va vazifalarni o’z ichiga oladi:

**Tovushlarni to’g’ri talaffuz etishni tarkib toptirish.** Tovushlarni to’g’ri talaffuz etish bolalar artikulyasiya apparatining yaxshi ishlashiga bog’liqdir. Nutqni harakatga keltiruvchi apparatning harakat qilishida mayda muskullarning bir-biriga moslashuvi bu harakatlarning aniq va tez bo’lishida muhim rol o’ynaydi. Shuning uchun ham artikulyasiya apparatining (til, lab, pastki jag’, yumshoq tanglay) harakatini takomillashtirish, bolalar tomonidan o’zlashtirilgan unli va oddiy undosh tovushlarni, keyinchalik qiyin undosh tovushlarni (katta guruhdagi bolalar o’zbek tilidagi hamma tovushlarni talaffuz eta olishlari kerak), aniq talaffuz etish ustida tizimli va izchil ish olib borish, so’zlashish va hikoya qilishda tovushlarni to’g’ri talaffuz etishni mustahkamlab borish (hamma guruhlarda) lozim.

**Aniq, burro gapirishga o’rgatish.** Bolalarni ilk yoshlik chog’idanoq so’zlarni aniq, burro talaffuz etishga o’rgatish lozim. Bu ish ikkinchi guruhdan boshlab «Bolalar bog’chasi tarbiya dasturi» asosida olib boriladi (asosan, ashula va she’r aytish jarayonida). Katta guruhlarda esa aniq talaffuz qilishga o’rgatish bo’yicha nutq o’stirish mashg’ulotlari oldiga maxsus vazifalar qo’yiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun katta guruhlarda maxsus metod va o’rgatish usullaridan foydalaniladi.

**So’zlarni to’g’ri talaffuz etish ustida ishlash (fonetik urg’ular).** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar asosan hamma tovushlarni talaffuz etadilar, aniq gapiradilar, lekin ayrim so’zlarni talaffuz etishda xatolikka yo’l qo’yadilar. Kichik yoshlarda so’zlarni qisqartirish hollari uchraydi (qo’zichoq - qo’chchoq). Ayrim katta yoshlarda bolalar ba’zi bir qiyin so’zlarni noto’g’ri talaffuz qiladilar (deraza – dezara, dahliz – dalhiz). Ba’zan urg’ularni noo’rin qo’yadilar (shofer - shafyor).

**Nutqni orfoepik jihatidan to’g’rilash ustida ishlash. Orfoepiya** –to’g’ri talaffuz qilish qoidasi. Bog’chada bolalarda adabiy talaffuzni tarkib toptirish uchun yaxshi sharoit yaratish lozim. Chunki bolalikda to’g’ri talaffuz etish tez o’zlashtiriladi. Kattalar uchun esa adabiy talaffuzlarni o’zlashtirish ancha qiyin, xatolarni tuzatish undan ham qiyin.

**Nutq sur’ati va ovoz sifatini yaxshilash.** Yoqimli nutq nozik sifati, o’rtacha sur’ati, bir maromdaligi, uyg’unligi, o’rtacha kuchi va o’rtacha baland ovozliligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga nutq sur’ati va ovoz sifati yetarlicha harakatchan, egiluvchan bo’lishi lozimki, odam o’zining ma’lum hissiyotini, holatini hamda kayfiyatini u orqali bayon eta olsin, ya’ni shivirlab ham, qattiqroq ham, sekinroq va tezroq ham gapira olsin. Nutqning bu jihatiga

bolalar bog’chasining hamma guruhlarida alohida e’tibor berilishi kerak. Tarbiyachi bolalarni guruh xonasida baqirmasdan gapirishga, uyqu xonasida va ommaviy joylarda yarim ovoz bilan yoki shivirlab gaplashishga o’rgatishi lozim. Shu bilan birga bolalarni so’zlayotganda, mashg’ulotda bolalar oldida javob berayotganda, o’yinda, komanda berayotganda ovozni balandroq chiqarishga ham o’rgatib borish zarur.

**Tasviriy, ohangdor nutqni tarbiyalash.** Tasviriy ohangdor nutq deganda:

1. Bolaning kundalik nutqidagi tabiiy burrolik, tasviriylik.
2. Matnni ifoda etishda bilib foydalanilgan burrolik, tasviriylik tushuniladi.

Bola nutqida tasviriylik biliminigina emas, balki o’z hissiyotini, munosabatini ham ifodalashga intilganda paydo bo’ladi. Hayajonli, hissiyotli nutq avvalo intonasiyada, pauzada, mimika (imo-ishora) harakatida, ko’z harakatida, ovoz kuchi va sur’atining almashinib turishida namoyon bo’ladi. Katta guruhlarda bolalarga quyiladigan talab ortib boradi. Ular endi turli-tuman va nozik hissiyotlarni (muloyimlik, qo’rqish, vahima, qayg’u, g’ururlanish va boshqalar) ham ifodalay olishlari lozim. Katta yoshdagi bolalarda boshqalar nutqidagi tasviriylikni eshita olish malakalarini tarkib toptirish, ya’ni ularga nutqdagi ayrim sifatlarni eshitish asosida analiz qilishga (she’r qanday o’qildi – quvnok yoki qayg’ulimi, kulgili yoki jiddiymi) o’rgatish lozim.

**Nutq orqali madaniy munosabatni tarbiyalash.** Tarbiyachi bolalarda kattalar va tengdoshlari bilan gaplashishda muloyim, yoqimli munosabat tarkib toptirishi lozim.

**Eshitish nutqini.** Bolalar nutqida tovush madaniyatini tarkib toptirishning birdan-bir muhim vositasi eshitish nutqini rivojlantirishdir. Eshitish nutqining rivojlanishi bilan bola nutqni, ayniqsa, so’zning tovush tuzilishini tez va to’g’ri o’zlashtirib oladi. So’zning tovush tarkibini to’g’ri idrok qilish uni to’g’ri eslab qolishning muhim shartidir. Eshitish nutqi bolada juda erta rivojlanadi. 2-3 haftalik bolada nutqda, ovozga nisbatan ba’zi bir terma reaksiya boshlanadi; 5-6 oylarda u intonasiyaga, keyinchalik nutqning ritmiga e’tibor beradi. 2 yoshga yetganda ona tilidagi hamma tovushlarni eshitadi va uni bir-biridan ajrata oladi. 2 yashar bolada eshitish nutqi tarkib topdi deb hisoblash mumkin, chunki u ona tilidagi hamma tovushlarni ajratadi, eshitish nutqining bunday darajada bo’lishi nutq orqali amaliy aloqa qilish uchun yetarlidir, lekin o’qish va yozishni o’rganish uchun yetarli emas. O’qish va yozishni egallash uchun bolada yangi, yuqori darajadagi eshitish nutqi rivojlagan bo’lishi kerak, tovushlarni analiz qilish yoki fonematik idrok qilish, so’zda qaysi tovush eshitilganligini va miqdorini aniqlash qobiliyati o’sishi lozim. Hamma yoshdagi guruhlarda eshitish nutqini tarkib toptirish ishi olib boriladi. Eshitish diqqatini rivojlantirishda didaktik o’yinlar katta rol o’ynaydi. Kichik guruhlarda eshitish nutqini tarkib toptirish mashg’ulotlarida musiqa asboblari, ovoz chiqaradigan o’yinchoqlardan foydalaniladi. Ular vositasida bolalar ovozning kuchi va xarakterini ajratishni o’rganadilar. «Qayerda chalindi?» degan o’yinda bir bola ko’zini yumib, qay tomondan qo’ng’iroqning ovozi kelayotganini qo’li bilan ko’rsatishi kerak. Agar bola to’g’ri topsa, tarbiyachi «To’g’ri» degandan keyin ko’zini ochadi.

Qo'ng'iroqni chalgan bola qo'lini ko'tarib qo'ng'iroqni ko'rsatadi. Agar yanglishsa, topish uchun unga yana bir marta imkon beradi, so'ng boshqa bola o'yinga chiqariladi. «Top-chi, nima chaldilar?» o'yini ham keng tarqalgan o'yinlardan biridir. Katta guruhlarda eshitish idrokini o'stirish faqat shunga o'xshash o'yinlardangina emas, balki radio va boshqa shunga o'xshash vositalarni eshittirish usulidan ham foydalaniladi. «Bir daqiqa tinchlik» o'yinini tez-tez tajriba qilib ko'rish, uni «Kim ko'p eshitadi», «Xonada nima haqida gaplashayotirlar?» degan mashqlar bilan almashtirib turish lozim. Bu mashqlar davomida alohida bolalarga eshitgan narsalarini talaffuz etishni tavsiya qilish mumkin. Nutq va so'zdagi tovushlarni idrok qilish va yaxshi tushunish uchun eshitish nutqini rivojlantiruvchi o'yinlar, masalan, «Men nima dedim, top» didaktik o'yini o'tkaziladi. Tarbiyachi bolalardan bir necha metr narida turadi va bolalar eshitib topishlari uchun lozim bo'lgan so'z yoki jumlani avval sekin, keyin shivirlab talaffuz etadi. Bolalarga o'yin qoidasi tushuntiriladi, «Men bir so'zni sekin aytaman, siz diqqat bilan eshiting va nima aytganimni toping, men kimni chaqirsam, shu bola nima eshitganini aniq va baland ovoz bilan aytib beradi».

**Bolalar nutqida tovush madaniyatini tarbiyalash vositalari.** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqi yaxshi taraqqiy etishi, hamma tovushlarni yaxshi talaffuz etishi uchun ularning nerv tizimi, eshitish va nutq organlari sog'lom bo'lishi lozim. Agar bola yaxshi eshita olmasa, u tovushlarni bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi, tomoq, burun yo'llari, tishi sog'lom, toza bo'lmasa tovushlarni, so'zlarni aniq talaffuz eta olmaydi, nerv tizimi nosog'lom, tez qo'zg'aluvchan bo'lsa, bu ham uning nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bolalar bog'chasida bolaning nutqini yaxshi rivojlantirish uchun sharoitni yaratish zarur. Agar guruh bolalari o'zaro me'yordagi ovoz bilan gaplashayotgan bo'lsalar, ularni yanada osoyishta so'zlashishga majbur etmaslik zarur, chunki ular bunda bir-birlarining, tarbiyachining gaplarini yaxshi eshitadilar, turli tovushlarni so'zlarni, ovozlarni tez sezadilar. Tarbiyachi bolalar nutqiga e'tibor berishi, ularga aniq, ravshan qilib, shoshmasdan gapirishni o'rgatib borishi, shuningdek bolalar quloq, burun, tish, tomoqlarining toza va sog'lom bo'lishi haqida g'amxo'rlik qilishi zarur. Bolalarda nutqdagi tovush madaniyatini tarbiyalash vositalaridan biri tevarak-atrofdagi kishilar bilan so'zlashishda, hikoya aytish, she'rlar o'qishda tasviriy nutqni tarbiyalashdir. Bir tomondan, tevarak-atrofdagilarning intonasiyasiga taklid qilish, ikkinchi tomondan mazmunini tushunish va uni hissiyot bilan to'latish bola nutqini tasviriy nutqga aylantiradi.

### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Maktabgacha o'rta yoshdagi bolalar bilan muloqot qay tarzda amalga oshiriladi?
2. Maktabgacha o'rta yoshdagi bola nutqning grammatik tizimi qanday shakllantiriladi?
3. Muloqotning qanday vositalarini bilasiz?
4. Maktabgacha o'rta yoshdagi bolalar uchun qanday mashg'ulotlar ishlanmasi tavsiya etilgan?

5. Muloqot, til, nutqning tahlili va rivojlanish asoslari haqida nimalarni bilasiz?

## 5-MAVZU: Ravon nutq. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot.

**Reja:**

1. Katta yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning metodik masalalari.
3. Katta yoshdagi bolalarda nutqiy muloqotni rivojlantirish.

***Tayanch tushunchalar:*** psixolingvistik adabiyotlar, yarim tillilik, ijtimoiy kutish, kommunikativ yo‘naltirilganlik, ijtimoiy vaziyat, emotsional kechinmalar, ermak o‘yinlar, diksiya, emotsional ekspressiya, empatiya.




Ravon nutq — bu kishilarning muloqotini va o‘zaro bir-birlarini tushunishlarini ta’minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo‘lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o‘zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to‘g‘ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o‘zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo‘lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog‘liq bo‘ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta’lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro‘y beradi. Bolalar hayotining dastlabki etti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo‘lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e’tibor qaratish zarur.

Til millatning noyob xazinasi bo‘lib doimo og‘zaki va yozma holda, namoyon bo‘lgan. Boy, yorqin, maroqli nutq so‘zlayotgan kim bo‘lishidan qat’iy nazar, nuri hisoblanadi. Tilning oliyjanob imkoniyatlar nutq orqali nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. So‘z va g‘azal sultoni A.Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi. «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa tilning manfaatidir». Demak. Til

qanchalik zo‘r bo‘lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilar ekan. Uning kuch, qudrati nutq jarayonida namoyon bo‘lar ekan. Agar til o‘q bo‘lsa, nutq kamondir. O‘qning qudrati, kamonning qudratiga ham bog‘liq.

Bola tilining grammatik tizimini o‘z vaqtida shakllanti rish – uni to‘laqonli nutqiy va umumiy psixologik rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Tilning grammatik tizimini bola predmetli harakatlarni o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liqlikda bilishni rivojlantirish asosida egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllantirish morfologiya (so‘zlarni sonlar, kelishiklarga qarab o‘zgartirish), so‘z hosil qilish (maxsus vositalar yordamida bir so‘z negizida boshqa so‘zni hosil qilish), sintaksis (oddiy va qo‘shma gaplarni tuzish) ustidagi ishlarni o‘z ichiga oladi.

Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o‘zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birgalikdagi muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim.

Bolalarda grammatik tizimni – sintaksis, morfologiya, so‘z hosil qilishni shakllantirish o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun pedagog turli vositalarni qo‘llashi darkor. Morfologiya va so‘z hosil qilishni o‘zlashtirish uchun rag‘batlantiruvchi til o‘yinlari; sintaksisni rivojlantirish uchun esa keng fikr bildirish, motivatsiyani yaratish muhim.

Ma’lumki, bolalar o‘z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o‘z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega bo‘ladi. Bola hayotining beshinchi yilida pedagog rag‘batlantirishga (gap so‘z hosil qilish va so‘z ijodkorligi xususida bormoqda); oltinchi yilda – gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to‘g‘riligini shakllantirishga (so‘z o‘zgartirishda); ettinchi yilda – hosila so‘zlar o‘rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka, murakkab sintaktik tuzilmalarni ixtiyoriy tuzishga alohida e’tibor berishi lozim.

Didaktik o‘yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar bolalarning tilga oid o‘yinlarini, ularning grammatika sohasidagi faolligini rag‘batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so‘z birikmasini o‘ylab ko‘rish, so‘ngra gapda so‘zlarni bir-biri bilan to‘g‘ri bog‘lash qobiliyatini o‘rgatishi zarur.

Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalarni shakllantirishni yozma nutq vaziyatida, ya’ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi. Bolaga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so‘zlarning to‘g‘ri tartibini qo‘llashni o‘rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e’tiborni qaratish zarur. Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdagi gaplarda leksikadan to‘g‘ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalarga gapda so‘zlarni biriktirishning turli usullarini, so‘zlar o‘rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog‘liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonatsion jihatdan rasmiylashtirishni o‘rgatish zarur.

SHunday qilib, nutqning grammatik tizimini shakllantirish jarayonida

sintaktik birliklar bilan amallar bajarish ko‘nikmasi shakllanadi, muayyan muloqot sharoitida va ravon monologik fikrlarni tuzish jarayonida til vositalarini ongli ravishda tanlash ta’minlanadi. Bola tilining grammatik tizimini shakllantirish uning nutqi (tili) rivojlanishining umumiy oqimida ro‘y berishi lozim; pedagogik rahbarlik shakllari va metodlari umumiy nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich xususiyatga egaligini, eng avvalo, dialog va monologni, so‘zgacha bo‘lgan mazmunli-semantik tizimdan vaziyatga oid ixtiyoriy iborali nutqqa o‘tish (undan keyinchalik dialog va monolog rivojlanadi), bolalarning nutqiy havaskorligi sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqotning dialogik shakllarini o‘zlashtirishni hisobga olishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog‘liqdir. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-muhit bilan tanishtirish, balki uni umumiy ruhiy rivojlantirish uchun ham zarur. Oilada bola nutqini o‘stirishdan maqsad og‘zaki nutqni adabiy til me’yorlariga muvofiq holda egallashi, faol nutqqa kirishishini ta’minlashdan iborat. Farzand nutqini shakllantirish va rivojlantirishda ota-ona o‘zi oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ygani ma’qul:

- farzandida so‘zlashish odobini tarbiyalash;
- lug‘at boyligini shakllantirish, boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;
- nutqni grammatik jihatdan shakllantirish va rivojlantirish;
- ravon nutqni takomillashtirish;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish;
- savod o‘rganishga tayyorlash.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalar bilan muloqot qay tarzda amalga oshiriladi?
2. Maktabgacha o‘rta yoshdagi bolalar bilan muloqot qaytarzda amalga oshiriladi?
3. Maktabgacha yoshdagi bola nutqning grammatik tizimi qanday shakllantiriladi?
4. Muloqotning qanday vositalarini bilasiz?
5. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot qay tarzda amalga oshiriladi?
6. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun qanday mashg‘ulotlar ishlanmasi tavsiya etilgan?
7. Muloqot, til, nutqning tahlili va rivojlanish asoslari haqida nimalarni bilasiz?
8. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot.







## 6-MAVZU: Bolalar lug`atiga yangi so`zlarni kiritish. Lug'at ishlarini olib borishning lingvodidaktik asoslarining metod va usullari.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug'at ishini olib borish vazifasi.
2. Ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlar olib borish.
3. Lug'at ishi jarayoni.
4. Lug'at ishlarini tashkil qilishda hisobga olinadigan jihat lar.
5. Lug'atni boyitish va faollashtirish.

***Tayanch tushunchalar:*** lug‘at ishi, lug‘at zahirasi, nutq madaniyati, umumlashtirish, assotsiativ metod, sheva leksikasi, lug‘atni egallash, antonimiya, sinonimiya, tashbeh (epitet)lar.

Mavzuni jonlashtirish uchun blis so‘rov savollari

1. MTMda bolalarga necha yoshdan boshlab lug‘at ishi bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkaziladi?
2. Bola nutqidagi faol va nofaol lug‘at qaysi yoshda qanday tuzilishda bo‘ladi?
3. Bolalar lug‘atini boyitishda atrof-olam bilan tanishtirib borish tushunchasiga ta‘rif bering.
4. Lug‘at ishi turli yosh bosqichlarida qanday amalga oshiriladi?
5. Lug‘at ishining o‘ziga xos xususiyatlarini ta‘riflang.
6. Lug‘ishiga oid mashg‘ulotlarni tashkil etishda tarbiyachi qanday talablarga rioya qilishi lozim?

**MASHG‘ULOT NAMUNASI**

**Mavzu: Suratga qarab hikoya tuzish: “Paxta – milliy boyligimiz”.**

Maqsad: Tasvir bo‘yicha mazmunli hikoya tuzishga o‘rgatish.

Vazifalar:

- tasvir bo‘yicha voqeani tugallashga, suratga nom topishga o‘rgatish;
- gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, jumlalar tuzish malakasini mustahkamlash;
- paxtaning o‘zbek xalqi turmushidagi o‘rni, asosiy milliy boyligimizdan biri ekanligini tushuntirish;
- bog‘lanishli nutq – hikoya tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- bolalar lug‘atini “Paxtazor” mavzusida so‘zlar yordamida faollashtirish va boyitish;
- bolalarning faol lug‘atiga mexanizator, paxta teruv mashinasi, mahsulot nomlarini kiritiladi.

Kutilayotgan natijalar:

- tasvir bo‘yicha mazmunli hikoya tuzishga o‘rganadilar;
- hikoya to‘qishga qiziqish uyg‘onadi;
- gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, jumlalar tuzish malakasi oshadi;

Kerakli jihozlar:
**“Paxtazor”** mavzusiga doir rasmlar, paxtadan tayyorlanadigan mahsulotlardan namunalar (paxta, sovun, ip kabilar).
Mashg‘ulotning borishi. Bolalarga ko‘rinarli qilib “Paxtazorda” mavzusida surat ilinadi. Tarbiyachi qisqagina kirish suhbati o‘tkazadi.Bolalar, paxta – o‘zbek xalqining faxri, milliy boyligi hisoblanadi. Uni e’zozlab, “Oq oltin” deb ataydilar. Paxta etishtirish uchun dehqonlarimiz juda ko‘p mehnat qiladilar. Bahor va yozda paxtani parvarish qiladilar. Kuzda paxtalar oppoq bo‘lib ochiladi. Hosil yig‘ib-terib olinadi. Paxtadan ip, gazlama, yog‘, qog‘oz kabi mahsulotlar olinadi. So‘ngra tarbiyachi quyidagi savollar bilan bolalar diqqatini suratga jalb qiladi:
1. Suratda qaer tasvirlangan? (Paxtazor).
2. Bolalar nima haqida suhbatlashyaptilar?
3. Suratga nima deb nom berish mumkin?
4. Paxtalarni qanday mashinalar teryapti?
5.Paxta teruv mashina haydovchisini kim deb ataymiz? (mexanizatorlar).
6. Paxtadan qanday mahsulotlar olinadi?
Tarbiyachi: Mana endi, suratga qarab hikoya tuzishga harakat qiling. Avval hikoyaga qanday nom berishingizni ayting?
Bolalar hikoya tuzishga qiynalsalar tarbiyachi hikoya namunasini beradi.
Tarbiyachining hikoya namunasi:
Katta paxta dalasi. Paxtalar qiyg‘os ochilgan. Uchta paxta teruv mashinasi paxta dalasiga ishga tushirilgan. Paxta teruv mashinasini mexanizatorlar boshqaryaptilar. SHahzoda va Zuhriddinlar paxtazorni tomosha qilib turibdilar. Zuhriddin SHahzodaga: -Men katta bo‘lsam albatta mexanizator bo‘laman. Mashinada paxta terishni orzu qilaman, dedi.
Hikoyangizni qiziqarli tugating (bolalar hikoyalarini tugatishga qiynalsalar, tarbiyachi ularga yordam berishi mumkin).
Harakatli o‘yin: “Kim tezroq paxta teradi”.
Ikkita guruh bittadan yugurib borib, chanoqni olib, savatga solishadi, orqaga qaytib, safning ortiga turishadi.
Bolalarning bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :
Paxtani kimlar etishtiradi?
- paxtadan qanday mahsulotlar olinadi?
- paxtalarni qaysi mashinalarda teradilar?
- kimning hikoyasi sizga yoqdi?

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:
1. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug‘at ishini olib borish vazifasi haqida gapiring.
2. Ko‘p ma’noli so‘zlar ustidagi ishlar qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha olib boriladi?
3. Lug‘at ishi jarayonida qaysi sifatlarning oshishiga erishiladi?
4. Lug‘at ishlarini tashkil qilishda nimalarni hisobga olish lozim?

5. Lug‘atni boyitish va faollashtirishga qanday erishiladi?

## 7-MAVZU: Bolalarda nutqning grammatik qurilishini shakllantirish. Nutq o`stirish mazmuni, shakllari.

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirish mazmuni.
2. Didaktik o‘yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar - bolalarning tilga oid o‘yinlarini, ularning grammatik sohasidagi faolligini rag‘batlantirishning muhim vositasidir.
3. Grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish usullari va yo‘llari.

***Tayanch tushunchalar:*** tizim, grammatik tizim, grammatik ko‘nikma, grammatik rivojlanish.

1. MTMda bolalarga necha yoshdan boshlab grammatik xatolarni to‘g‘rilash bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkaziladi?
2. Bolada necha yoshdan undagi qaysi jarayon hisobiga grammatik xatolar soni oshadi?
3. Bolalar asosan qaysi morfologik kategoriyalarda ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadi?
4. Oddiy va murakkab sintaktik tuzilmalar tushunchasiga ta‘rif bering.
5. Bolalarda MTMda grammatik mashg‘ulotlarni olib borish jarayonida tarbiyachi qaysi usullardan foydalanishi yuqoriroq natija ko‘rsatadi?

Mashg‘ulotning borishi:

1- topshiriq: Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllantirish mazmuni.

### 3 X 4 TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya orqali biron bir mavzuni yoki atamani har tomonlama hususiyatlarni guruhlar orqali ma’lum vaqt ichida mohiyatini yoritiladi. Bunda to‘rtta guruh mavzuga doir uchtadan fikr yozadi. Jami fikrlar o‘n ikkita chiqishi kerak. SHunisi muhimki guruhlar bir-birini fikrini takroran yozmasligi kerak.

Maqsadi: Ushbu texnologiya orqali ishtirokchilarning xarakter tomonlari, ichki kechinmalarini ham koʻrishimiz mumkin. Texnologiyani qoʻllaganda guruhlarni faollikka, aqliy hujumni faolligiga, mantiqiy fikrga, savodxonlikka dunyoqarashni kengayishiga oʻzgalar fikrini hurmat qilishga erishiladi.

Xulosa: 3x4 texnologiyasini yangi mavzuni bayon etishda mustahkamlashda, uyga vazifani soʻrashda qoʻllashimiz mumkin.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi**

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yoʻnalishi aniqlanadi. Mavzu boʻyicha bir-biriga bogʻliq boʻlgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan boʻlinishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq koʻrsatmalar beriladi va yoʻnaltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- oʻqitish mazmunini yaxshi oʻzlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish koʻnikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- oʻz-oʻzini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud boʻladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar boʻlganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past boʻladi;
- guruhlararo oʻzaro salbiy raqobatlar paydo boʻlib qolishi mumkin;
- guruh ichida oʻzaro nizo paydo boʻlishi mumkin.

2- topshiriq: Grammatik koʻnikmalarni shakllantirish usullari va yoʻllari.

**(Rezyume, Veer) metodi**

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, koʻptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni oʻrganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari boʻyicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari boʻyicha oʻrganiladi. Bu interfaol

metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda ta'lim oluvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

| BILAMAN | BILMOQCHIMAN | BILIB OLDIM |
|---|---|---|
| Grammatika haqida umumiy tushunchani | MTMda bolalarni grammatik jihatdan to'g'ri nutqqa o'rgatishni | |

## 8-mavzu: BOLALARNING TILNI MULOQOT VOSITASI SIFATIDA O`ZLASHTIRISHLARI; NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH

1- topshiriq: Zamonaviy talablar asosida mashg'ulot ishlanmasini yaratish

Mashg'ulot ishlanmasi (konspekt)ning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

O'rta guruh. Nutq o'stirish mashg'uloti.

Mavzu: **"Aqlli qarg'a"** asarini qayta hikoya qilish.

Maqsad:

1.Ta'limiy: Bolalarni asarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, voqealarni ketma-ket bog'langan holda, grammatik jihatdan to'g'ri jumlalar tuzib bayon qilishga o'rgatish.

2. Tarbiyaviy: Bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, vatanni, tabiatni, undagi barcha jonivorlarni sevishga, uni ardoqlashga o'rgatish.

3. Rivojlantiruvchi: Bolalarga ertakni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi personajlarning gaplarini o'ziga xos xususiyatlarini tushunib, ifodali tarzda hikoya qilayotgan o'rtoqlarining nutqini diqqat bilan eshitishni, asar matni noto'g'ri aytilgan joylarni pay q ashga o'rgatishni davom ettirish. Bolalarda ifodali nutqni tarbiyalash. "Q" tovushini to'g'ri talaffuz etish.

Kutilayotgan natijalar: bolalar qayta hikoya qilishga o'rganadilar, asar matnini noto'g'ri aytilgan joylarini pay q ashga o'rgana boradilar, grammatik

jihatdan to‘g‘ri so‘zlashishga intiladilar.

Bolalar bilimlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan, ishtirok etishga mo‘ljallangan interfaol usullar:

-  “Aqliy hujum” metodi
-  Hikoyaning qisqacha bayoni
-  Savol- javoblar tashkil etish
-  Ta’limi o‘yinlar

Kerakli jihozlar: Asar mazmuni aks ettirilgan rasmlar.

Mashg‘ulotning borishi.

Tarbiyachi: «Aqliy hujum» metodi asosida mashg‘ulotni savol va javoblar bilan boshlaydi. O‘lkamizda kuz boshlandi. Siz gala-gala bo‘lib uchib kelayotgan qushlarni ko‘ryapsizmi?

Tarbiyalanuvchilar: Bu qarg‘alar.

Tarbiyachi: Ha bu qarg‘alar. Ular dala va bog‘larda yashaydilar.

Tarbiyachi: Qarg‘alar foydali qushmi?

Tarbiyalanuvchilar: Ha, qarg‘alar foydali qush.

Tarbiyachi Qarg‘alar qanday qag‘illashadi? Qarg‘alarni kuzatganmisiz, ular tumshug‘ida inlariga nimalarni tashiydilar? Bugun men sizga aqlli qarg‘a haqidagi asarni o‘qib beraman. Diqqat bilan eshitsangiz, nima uchun uni aqlli qarg‘a deb nomlanganini bilib olasiz.

Tarbiyachi asarni ifodali qilib o‘qib beradi va asar asosida savollar beradi?

-  Asar nima haqida ekan? (qarg‘a).
-  Qapg‘a suvsirab uchib yurganda nimaga ko‘zi tushdi? (ko‘zachadagi suvga).
-  Suvni icha oldimi?
-  Nima qildi?

Savol-javoblardan so‘ng tarbiyachi asarni yana bir bor aytib beradi va bolalarga asarni takrorlashlarini so‘raydi. Bolalarning hikoyalarini baholashda asar mazmunini gapirishiga shoshilmay bir tekisda ravon bayon eta bilishlariga e’tibor beradi.

Tetiklashtiruvchi mashq: **“Qarg‘alar” o‘yini.**

Tarbiyachi bolalarni uch guruhga bo‘ladi. Birinchi guruh archalar. Ikkinchi guruh qarg‘alar, uchinchi guruh itlar bo‘lishadi. Birinchi guruh archalar archalarni tasvirlab qo‘llarini pastga tushirgan holda doira bo‘lib turadilar va “YAshil archa tagida qarg‘alar qag‘illashmoqda” deydilar. Ikkinchi guruh qarg‘alar doira ichiga sakrab-sakrab kirishadi va “Qar-qar-qar...” deb qag‘illashadi. Tarbiyachi: mana itlar yugurishdi va qarg‘alar uchib ketishdi”-deb aytishi bilan uchinchi guruh itlar doiraga “RRRR”deb irillab yugurib kelishadi va qarg‘alarning ketidan quvishadi. Ushlangan qarg‘alar itlar bo‘lishadi. O‘yin to ikkita - uchta chaqqon qarg‘a qolguncha davom etadi.

Bolalarni savod o‘rganishga tayyorlash bo‘yicha amaliy mashq.

Tarbiyachi bolalarga quyidagi tez aytish ayttiradi.

Sa’va sahar sayraydi,
Salqin bog‘da yayraydi.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

1.Ertak nima haqida ekan? (qarg‘a).

2.Qapg‘a suvsirab uchib yurganda nimaga ko‘zi tushdi? (ko‘zachadagi suvga).

3.Suvni icha oldimi?

4.Nima qildi?

5. Qarg‘alar qanday qag‘illashadi?

### Nazorat savollari

1. Bolalarning nutqini shakllantirishda tarbiyachining o‘rni.

2 Bolalarning nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida interfaol usullardan foydalanish va ularning vazifalari.

3. Mashg‘ulot tushunchasi va uning turlari?

4. Mashg‘ulot shakllari va vositalari?

5. Mashg‘ulot ishlanmasi va uning tarkibiy qismlari?

6. Nutq o‘stirish uslubiyotining ettita vazifasi haqida ma’lumot bering.

7. Har bir vazifani birma-bir tahlil qilib bering.

8. Savodga o‘rgatish qaysi guruhlarda olib borilishi haqida ma’lumot bering, qanday ishlar bajarilishini izohlang.

## 9-MAVZU: BOLALARNING BOG`LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalar bilan ishlashda badiiy so’z katta o’rin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she’r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko’radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o’zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go’zalliga, tilning ifodaliligi, she’riy so’zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatadi. Buyuk rus demokratik V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, «Tarbiya – buyuk ish, u insonning taqdirini hal qiladi» - degan edi.

Badiiy adabiyotning qimmati bolaning har bir jihatdan o’sishiga ta’sir ko’rsatishidadir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o’lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko’rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealar, bolalarning o’yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg’ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko’rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga  yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to’g’ri-noto’g’ri deb, o’zlariga xos bir yordam beradi. Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do’stlik, halollik, mehnatsevarlik, o’rtoqlik namunalarini ko’rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari

estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta’sir ko’rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she’rlarning musiqaviyligi, tilning o’tkirligi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so’z qudratini his etadilar, uncha katta bo’lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she’rlarini tez va osongina eslab qoladilar.

Badiiy so’zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog’chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o’tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo’lib qoladi. Xalq, og’zaki ijodi – ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo’shiqlarning ko’plari uzoq o’tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqyeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi.

Aql-idroki yoki jasurligi bilan, sabr-toqati yoki mehnati bilan har qanday qiyinchiliklarni yengadigan dovyurak, vijdonli qahramonlar ishtirok etadigan ertaklardan bolalar juda hayratlanadilar, bunday ertaklar bolalarni ijobiy qahramonlarga nihoyatda hayrixoh bo’lishga, yovuzlikka, nohaqlikka, qizg’anchiqlikka, makr-xiylaga nisbatan murosasiz bo’lishga majbur etadi.

O’zbek xalq ertaklaridan tashqari ko’pgina rus xalq va mamlakatimizdagi boshqa xalqlar ertaklari ham bolalarga o’qib beriladigan ertaklar jumlasiga kiradi. Rus mumtoz adabiyoti namoyondalaridan A.S.Pushkin, N.A. Nekrasov, L.N. Tolstoy, K.D. Ushinskiy va boshqalarning asarlari bolalarga o’qib berish dasturiga kiritilgan. O’zbek yozuvchilari, shoirlari bolalar uchun juda ko’p ajoyib asarlar yaratganlar. Bu G’.G’ulom, N. Orifjonov, I. Muslim, P. Mo’min, Sh. Sa’dulla, Q. Hikmat, Q. Muhammadiy va boshqalarning asarlari – bolalarga o’qib beriladigan asarlarning eng boy manbasi hisoblanadi. Maktabgcha tarbiya yoshidagi bolalarga bag’ishlangan adabiyotlar ro’yxatidan rus yozuvchilari va shoirlari: V. Mayakovskiy, A. Kononov, S.Mixalkov, A. Gaydar, K. Chukovskiy va boshqalarning tarjima qilgan asarlari keng o’rin olgan. Bu ro’yxatga chet el yozuvchilari Sh. Perro, X.K.Andersen va boshqalarning ertaklari ham kiradi. Bolalarga o’qib beriladigan asarlar doirasiga har xil janrdagi asarlar: hikoya va povestlar, proza hamda she’r shaklidagi ertaklar, dostonlar, xazil she’rlari, topishmoqlar, masallar kiradi.

Bolalar bog’chasi dasturida ko’rsatilgan asarlarning ko’pchiligi bolalar adabiyotining oltin fondini tashkil etadi. Har yili bolalar uchun yangi kitoblar nashr etib turiladi. Tarbiyachi bosmadan chiqayotgan kitoblarni kuzatib borishi, jurnallardagi tanqidiy maqolalarni o’qishi va bolalar kitoblarining muhokama etilishida ishtirok etishi kerak. Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko’p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. Bolalar bog’chasining muhim vazifasi bolalarning asarlar mazmunini o’zlashtirib olishlariga, ularni to’g’ri tushunishlariga erishishdir. Bolalar asarlarning bir qismini yod olishlari, bir qismini esa matnga yaqinroq qilib aytib bera olishlari lozim.

Masalan, S.Y.Marshakning «O’n ikki oy» ertagini o’qib berishdan oldin:

Tarbiyachi: Bolalar, bir yilda necha oy borligini bilasizlarmi?

Bolalar yoki tarbiyachi: O’n ikki oy.

Tarbiyachi: U oylar qanday ataladi?

Bolalar oylar nomini aytishadi, tarbiyachi esa, zarurat bo'lsa, ularning javoblarini tuzatadi.

Tarbiyachi: Bir oy tugashi bilanoq ikkinchisi boshlanadi. Hali hech qachon fevral yanvar tugamasdan kelmagan yoki may oyi aprelni quvib o'tmagan. Oylar birin-ketin kelaveradi va hech qachon bir-biri bilan uchrashmaydi. Ammo odamlar tog'lik o'lka – Begimiyada bir qiz bir vaqtning o'zida o'n ikki oyning hammasini ko'rganligi haqida hikoya qiladi. Bu qanday bo'lgan?

Manna bunday ....

Keyin tarbiyachi kitobdan o'qiy boshlaydi.

Ertak o'qib bo'lingach, qizcha bir vaqtning o'zida birdaniga o'n ikki oyni qanday ko'rganligi, qiyin vaqtda oylar qizchaga qanday yordam berganligi va boshqalar haqida suhbat o'tkazgan ma'qul. Ayniqsa, axloqiy-estetik va bilish mazmuniga ega bo'lgan kitoblarni o'qib berishda puxta tayyorgarlik talab qilinadi. Axloqiy-estetik mazmundagi kitoblar bolalarda axloqiy sifatlar, xulq-atvorning ijobiy tomonlarini tarkib toptirishga yordam beradi. Sh. Sa'dullaning «Injiq qizcha», L.N. Tolstoyning «Danak», V. Oseyevaning «Sehrli so'z» degan asarlari va boshqalar shunday kitoblar jumlasiga kiradi.

Muhimi, bolalarning kitobni eshitish jarayonidayoq uning g'oyaviy mazmunini tushunib olishlaridir. Bunda muqaddima suhbati katta rol o'ynaydi, tarbiyachi bunday suhbatda bolalar diqqatini eng asosiy, muhim narsalarga jalb etadi, Masalan, maktabga tayyorlov guruhida Sh.Sa'dullaning «Injiq qiz» she'rini o'qib berishdan oldin tarbiyachi bolalarga bunday savol beradi: «Bolalar, yaxshilab o'ylang va ayting: qanday qiz haqida – yaxshi qiz va qanday qiz to'g'risida – yomon deyishadi?».

Bolalarning javoblari.

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar kimning yaxshi qiz, kimning yomon qiz deyilishini to'g'ri aytinglar. Hozir men sizlarga Gulbodom degan qiz haqida yozilagan she'rni o'qib beraman. Sizlar yaxshilab eshiting va keyin menga Gulbodomni yaxshi qiz deyish mumkin-munkin emasligini aytasiz. Bu she'r «Injiq qiz» deb ataladi. She'rni shoir Shukur Sa'dulla yozgan.

Shundan so'ng tarbiyachi she'rni o'qiy boshlaydi.

| BILAMAN | BILISHNI XOHLAYMAN | BILIB OLDIM |
|---|---|---|
| | | |



**B/B/B jadvali**

1. Badiiy adabiyot asosida bolalarda qanday axloqiy sifatlarni shakllantirish mumkin?
2. Ilk yoshdagi bolalarning bolalar badiiy adabiyotini qabul qilishining o’ziga xosliklarini tavsiflang.
3. Maktabgacha ta’lim muassasasi va oila oldida ilk yoshdagi bolalarni adabiy rivojlantirish sohasida qanday asosiy vazifalar turibdi?
4. Bola o’z hayotinig uchinchi yili oxiriga kelib adabiy rivojlanish borasida qanday ko’rsatkichlarni qo’lga kiritadi?
5. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning adabiy asarlarni qabul qilishlar va ular bo’yicha mulohaza yuritishlarining o’ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
6. Bolaning badiiy asar bilan qachon, qayerda va qanday hamkorligi unga estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish borasidagi potensialin amalga oshirish imkonini beradi?
7. Bola 5 yoshga kelib adabiy rivojlanishning qanday ko’rsatkichlariga ega bo’ladi?

## 10-mavzu: DIALOGIK NUTQNING MAZMUNI VA VAZIFALARI

Dialog – ikki yoki bir necha kishining o’zaro suhbati. Suhbat maqsadi odatda biron narsa haqida so’rash va javob olish, biron-bir harakatga undashdan iborat.

Monolog – bir shaxsning ravon nutqi. Monologning maqsadi – biron-bir fakt haqida xabar berishdir.

Dialog o’z uslubiga ko’ra asosan, og’zaki nutq, monolog esa odatda, kitobiy uslubdagi nutq hisoblanadi.

Dialogik ravon nutqda ko’pincha noto’liq gaplardan foydalaniladi, tushirib qoldirilgan ran a’zolarini so’zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib tushunib oladi va og’zaki uslubdagi, standart tuzilishdagi (qolip) to’liq gaplardan ko’proq foydalaniladi: «u kelmay qo’ya olmaydi», ya’ni u albatta keladi.

Bunday tuzilishdagi gaplar monologik nutqda qo’llanilmaydi. Bolalar dialogik nutqni har kuni maishiy hayotda uchratishlari sababli uni ancha oson o’zlashtirib oladilar.

### Bolalarga dialogik nutqni o’rgatish

Dialog – suhbat bolaning kattalar va o’z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasasida o’qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus mashg’ulotlarda.

Dialog ko’proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo’ladi va u bolalar lug’atini boyitish, talaffuzga oid, grammatik ko’nikmalarni tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko’nikmalariga ega bo’lish bazasi hisoblanadi.

Dialog maxsus mashg’ulotlarda o’qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg’ulot); maktabgacha ta’lim muassasasida kun mobaynida bola pedagog va boshqa bolalar bilan erkin muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim.

Dialogik nutqni (yoki og’zaki nutqni) o’rgatish odatda suhbat shaklida, ya’ni kattalar bilan bola o’rtasida hamda bolalarning o’zlari o’rtasida fikr almashish shaklida ro’y beradi.

Agarda maktabda suhbat bilimlarni yetkazish vositasi sifatida o’rganilsa, suhbat jarayonida bolalar nutqini boyitishda qo’shimcha ijobiy hodisa ko’rinishida qabul qilinadi, maktabgacha ta’lim muassasasida ham suhbat aynan nutqni rivojlantirish uchun o’tkaziladi. Biroq nutq albatta borliq xodisasini aks ettirishi, kodlashtirishi bois maktabgacha ta’lim muassasasidagi suhbat xuddi maktabdagi kabi bilim beradi. Nutqiy muloqotga bo’lgan zarurat tufayli to’satdan yuzaga keladigan suhbatda tarbiyachi o’zining til sezgisiga ishongani holda o’z nutqining grammatik shaklini va uning jaranglashi (fonologiyasi)ni tayyorlamaydi, ammo u har bir suhbatning mavzusiga tayyorgarlik ko’rishi shart.

Tayyorlangan suhbat deb nomlanishining sababi shuki, bunda tarbiyachi mashg’ulotdan oldin (mashg’ulotdan bir necha kun oldin) bolalarni shunday

vaziyatda qoldiradiki, bunda ularning diqqat-e’tibori bo’lajak suhbat mavzusi bo’ladigan atrof-olamdagi hodisalarga jalb qilinadi, chunki faktlarga oid materiallar bolalarga bungacha tanish bo’lishi lozim.

Suhbatni tashkil qilish, uning tuzilmasi mavzu va mazmunga, bolalarning yoshiga bog’liq bo’ladi. Har bir suhbatda nutqiy muloqotga bo’lgan zarurat tufayli to’satdan yuzaga keladigan suhbatda tarbiyachi o’zining til sezgisiga ishongani holda o’z nutqining grammatik shaklini va uning jaranglashi (fonologiyasi)ni tayyorlamaydi, ammo u har bir suhbatning mavzusiga tayyorgarlik ko’rishi shart.

Tayyorlangan suhbat deb nomlanishining sababi shuki, bunda tarbiyachi mashg’ulotdan oldin (mashg’ulotdan bir necha kun oldin) bolalarni shunday vaziyatda qoldiradiki, bunda ularning diqqat-e’tibori bo’lajak suhbat mavzusi bo’ladigan atrof-olamdagi hodisalarga jalb qilinadi, chunki faktlarga oid materiallar bolalarga bungacha tanish bo’lishi lozim.

Boshqa shaxslar nomidan qayta hikoya qilib berish uchun dialogik nutqni o’z ichiga olgan asarlardan foydalangan ma’qul. Ularni qayta hikoya qilib berish bolalarning og’zaki nutqini, xususan, murojaat, sanash, xayratlanish, hayron bo’lish intonasiyalarini takomillashtirish imkonini beradi; nutq, emosional jihatdan yanada boyiydi, u personajlarning ahvolidan kelib chiqqan holda goh xursand, goh qayg’uli va goh iltijonamo jaranglaydi.

Bolalarga og’zaki dialogik nutqni o’rgatish jarayonida teatrlashtirilgan tomosha, qo’g’irchoq teatri kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bolalar ham ijrochi, ham tomashabin sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Ravon nutq – bu kishilarning muloqotini va o‘zaro bir-birlarini tushunishlarini ta’minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir.

Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individualaro, ichki individual va umuminsoniy.

Dastlabki yetti yilda bolada kattalar bilan muloqotga ehtiyoj rivojlanishining 4 ta bosqichi ro‘y beradi.

1-bosqich – vaziyatli-shaxsli muloqot;

2-bosqich – vaziyatli amaliy muloqot;

3-bosqich – vaziyatsiz bilish muloqoti;

4-bosqich – vaziyatsiz-shaxs muloqoti.

Maktabgacha ta’lim muassasasida o‘qitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b)maxsus mashg‘ulotlarda.

Dialog ko‘proq erkin nutqiy mulkotda paydo bo‘ladi va maxsus mashg‘ulotlarda o‘qitiladi. Suhbat ta’lim metodikasi sifatida – bu tarbiyachining bolalar guruhi bilan maqsadga yo‘naltirilgan, muayyan mavzuda oldindan tayyorlangan so‘zlashuvidir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida takrorlovchi, umumlashtiruvchi va nazorat-tekshiruv suhbatlaridan foydalaniladi. Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlar **suhbat metodi** va **imitatsiya metodi** asosida o‘tkaziladi. Mazkur metodlar ko‘pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

• tayyorgarlik suhbati (so‘zlashish) usullari;

• teatrlashtirish usullari (imitatsiya).

Bolalarga monologik nutqni muntazam o‘rgatish taxminan besh yoshdan boshlanadi. Monologik nutqni qiyinligi shundaki, u diqqat-e’tiborni o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan voqea yoki badiiy asarga qaratgan boladan bir vaqtning o‘zida nafaqat narsalar, hodisalarni payqash, balki ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham sezishni talab qiladi. Turli yosh bosqichlarida bolalarni monologik nutqga o‘rgatishning mazmuni va vazifalarini o‘zlashtirish darkor. Bolalarni monologik nutqga o‘rgatish davomida ularni qayta hikoya qilishga o‘rgatish metodikasi ham shakllanib boradi. Bu jarayonda bola hikoya qilib berishga o‘rgatiladi. Hikoyalarning turlari va uni o‘qitishning izchilligi ham kuzatilib boriladi. Bolalar hikoya to‘qishni o‘rganadilar. Turli yosh bosqichlarida monologik nutqga o‘rgatishning bir qancha vazifalari va uni o‘ziga xos mazmuni ham mavjud. Mashg‘ulot davomida yuqoridagilarning barchasi o‘rganib boriladi. O‘tkaziladigan mashg‘ulotlar nomlari va rejalari: masalan, hikoya qilishda tarbiyachi bolalarga mavzu va reja beradi.

Mavzu: «Qizcha mushukchani qanday topdi?»

1. Qizcha mushukchani qayerdan topdi?
2. Mushukcha qanday edi?
3. Qizcha u bilan nima qildi?

**Savol va topshiriqlar:**

1. Nutq inson faoliyatida qanday vazifalarni bajaradi? Ularni har birini tavsiflang.
2. Kommunikativ tusdagi omillar deganda nimani tushunish lozim?
3. Bolalarga dialogik nutqni o‘qtishning asosiy metodini tavsiflab bering.
4. Suhbatdan qaysi tarkibiy komponentlarni ajratib ko‘rsatish mumkin?
5. So‘zlashning hikoya qilishdan farqi nima?
6. Qaysi mashg‘ulotlarda tarbiyachi bolalarni so‘zlashuv tiliga o‘rgatadi?
7. Suhbatga tayyorlanish va uni o‘tkazish uchun nimalar qilish kerak?
8. Monologning bola uchun qiyinligining sababi nimada?
9. Monologik matnni qayta hikoya qilishda yordam beradigan savollar toifalarini tavsiflang.

## 11-mavzu: TURLI YOSH GURUHDA SUHBAT UCHUN MAVZU TANLASH VA UNGA QO`YILGAN TALABLAR

**Tarbiyachining hikoya qilish namunasi** – bu didaktik usul bo’lib, uning yordamida tarbiyachi bolalarni boshqalardan o’rnak olib hikoya qilishga o’rgatadi. Hikoya qilish namunasi qimmatli tarbiyaviy mazmunga ega bo’lishi, bolalarni o’z hikoyalarida yaxshi xatti-harakatlarni do’stlik tuyg’ularini tasvirlashga undashi lozim.

Hikoya qilish namunasini berish usuli eng yengil usul bo’lib hisoblanadi, chunki bolalar tarbiyachining surat, predmet, voqealar haqidagi savollarini yoki ko’rsatmalarini emas, balki tayyor hikoyasini eshitadilar. Shuning uchun hikoya namunasi berish usulidan hikoya qilib berishga o’rgatishning birinchi bosqichlarida yoki tarbiyachi bolalar oldiga yangi vazifalar qo’yganda foydalaniladi.

**Hikoyaning rejasini berish** – bu hikoya tuzishda amal qilish lozim bo’lgan ikki-uchta asosiy savollardir. Namuna bo’yicha ikki-uchta mashg’ulot o’tkazilgach, (masalan, o’yinchoqlarni tasvirlash), hikoyaning rejasini berish hikoya qilishga o’rgatishning mustaqil, asosiy usuli bo’lib qoladi. Tarbiyachi mashg’ulotgacha rejaning asosiy va qo’shimcha savollarini tayyorlaydi. Chunki bir mashg’ulotda reja savollarining o’zgarib turishi bolalarni faollashtiradi. Hikoyani turli-tuman qiladi. Masalan, maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari bilan ular yashaydigan ko’chalarini tasvirlash mashg’ulotida quyidagicha reja tavsiya qilish mumkin (bu savollar bittadan berilmay birdaniga beriladi):

1. Sening ko’changni nomi nima?
2. Sening ko’changda qanday binolar bor?
3. Sening ko’changda qanday transportlar o’tadi?

Uch-to’rt bola yuqoridagi reja savollari bo’yicha hikoya qilgach, quyidagi yangi savollarni berish mumkin:

1. Sening ko’changni nomi nima?
2. Sening ko’changda qanday daraxtlar bor?
3. Nima uchun sening ko’chang toza va chiroyli?

Maktabga tayyorlov guruhida dasturda yanada yuqoriroq talablarni qo’yadi. Bolalarni rejadagi savollarga quloq solishga unga rioya qilishga o’rgatiladi (ayniqsa suratga qarab hikoya qilishda va jamoa tajribasidan olib to’qilgan hikoyalarda).

Bu guruhda bolalar o’rtoqlarining hikoyalarini nazorat qilishga ko’proq jalb etiladi (hozir nima haqida gapirish kerak? Hammaga tushunarli bo’lishi uchun hikoyani nimadan boshlashi yaxshirok?).

Reja tuzib berish hikoyaning namunasini berish usuliga qaraganda eng qiyin usul bo’lib undan bolalarni hikoya qilishga o’rgatishda keng foydalaniladi. Rejani jamoa bo’lib muhokama qilish – bu usul bolalarni ijodiy hikoya qilishga o’rgatishning birinchi bosqichlarida ko’proq qo’llaniladi.

Bolalar hikoyaning qiyin turi, ya’ni tarbiyachi taklif etgan mavzu bo’yicha hikoyalar tuza olishlari va bu hikoyalar va bu hikoyalar turli-tuman bo’lishi uchun

tarbiyachi bu usuldan foydalanishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga mavzu va rejani beradi. Mavzu: Qizcha mushukchani qanday topdi?

1. Qizcha mushukchani qanday topdi .

2 Mushukcha qanday edi?

3. Qizcha u bilan nima qiladi?

Bolalarning joyida turib bergan javoblari hikoya bo'lmaydi, u bir necha yoki bitta jumladir. Maqsad – hikoyalarning turli-tuman bo'lishi mumkinligini ko'rsatishdir. Tarbiyachi reja tuzayotganda jamoa bo'lib muhokama qilish uchun eng qiyin savollarni oldindan aniqlashi lozim.

**Qismlar bo'yicha hikoya tuzish.** Odatda bu usul mazmuni qismlarga oson bo'linadigan suratlar bilan ishlashda foydalaniladi. Suratlar bilan ishlashda tarbiyachi oldindan uni shartli ravishda qismlarga bo'ladi va bola biror qism haqida so'zlab berishi lozim.

Umumiy jamoa tajriba asosida hikoya qilishda tarbiyachi oldindan mavzuni juda mayda qismlarga bo'ladi, Masalan, «Bizning tipratikon» mavzusidagi tasviriy hikoyani tuzishda tarbiyachi bolalarni tipratikon haqida hamma narsani birdan so'zlamasdan, hammasini esga olish uchun tartib bilan so'zlaymiz deb ogohlantiradi. So'ngra tarbiyachi har bir qismga reja beradi. Hozir bolalar eslang tipratikonning usti nima bilan qoplangan? Uning tumshug'i qanday? U qanday yuradi?

Bu reja bolalarning ikkita-uchta hikoyalaridan keyin boshqa qismga o'tiladi. Bizda tipratikon qayerda yashaydi, uning qafasida nima bor, u nima uchun kerak aytib bering. Bolalarning javobidan keyin hikoyaning uchinchi qismiga o'tiladi. Ayting-chi biz tipratikonni nima bilan boqdik. Kim uni parvarish qiladi, qanday parvarish qildi va hikoyaning oxirida bolalardan biz o'z tipratikonimizni kimga sovg'a qildik, o'rta guruh bolalari bizga nima dedilar? deb so'rash mumkin. Jamoa hikoya uchun «Bolalar bog'chasida», «Yangi yil archasi», «Hayvonot bog'iga ekskursiya», «Shahar atrofiga sayohat» va boshqa mavzularni tanlab olish mumkin.

Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi mavzuning hamma qismlari bo'yicha bitta umumiy reja beradi va yaxshi hikoya qiladigan 1-2 bola hammasi haqida birdan gapirib beradi. Masalan, «Bizning tipratikon» hikoyasida har bir qism rejalari bo'yicha bolalar hikoya qilganlaridan keyin mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bunday reja beradi:

1. Bizning tipratikonimiz qanday edi?
2. Biz uni qanday parvarish qildik?
3. Biz uni kimga sovg'a qildik?

**Savollar berish** – bu keng tarqalgan usul. Lekin hikoya qilishda u ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Savollar odatda javob berayotgan bolaga yoki butun guruhga hikoya tugagandan keyin uni aniqlash yoki to'ldirish uchun beriladi. Savollar metodik jihatdan to'g'ri bo'lishi lozim. Baland ovoz bilan hamma bolalarga qarata javob berish uchun bolani chaqirishdan oldin pauzaga rioya qilish kerak.

**Aytib turish** – hikoya qilish jarayonida bola yanglishib qolgan vaqtda savol berishdan ko'ra, so'zni yoki gapni aytib turishdan foydalanish yaxshiroqdir. Aytib

turish yoki to'g'rilash yetarli darajada baland ovozda hayrixohlik ruhida bo'lishi lozim. To'g'rilangan so'z yoki jumlani bolaga takrorlash shart emas. Chunki bola hikoyaning davomini esdan chiqarib qo'yishi mumkin.

**Bolalar hikoyasini baholash** – o'rgatuvchi usuldir. Shuning uchun u mashg'ulotning oxirida emas, balki mashg'ulot jarayonida qo'llaniladi. Baholash faqatgina hikoyasi baholanayotgan bolagagina ta'sir etib qolmay, qolgan bolalarga, ular tuzishi lozim bo'lgan hikoyalarga ham ta'sir etadi. Bolalar bahoni tinglab tarbiyachi maqtaganlarga taqlid qiladilar Har bir bolaning hikoyasi mufassal baho berish shart emas. Lekin ba'zi hikoyalarning qimmatli tomoni, ya'ni mustaqilligi, izchilligi ovoz kuchi, javob berganda turishi va hokazalar ajratib ko'rsatishi tavsiya etiladi.

Kichik guruh bolalarida boshlang'ich monolog tarzidagi nutqiy o'stirishda suratdan keng foydalanishadi. Bolalar suratlarni mashg'ulotlarda ko'radilar. Kundalik turmushda ham kitobdagi rasmlarni, suratlarni, taklifnomalarni ko'zdan kechiradilar. Yilning boshida birinchi kichik guruhda bolalar tarbiyachining savoliga xor bilan javob bera oladilar. Tarbiyachi o'z vaqtida bolalarga yordam berishi, ya'ni aytib turishi yoki birga javob berishi lozim. O'rta guruhda tarbiya dasturi asosida bolalarni hikoya qilishga o'rgatishning mazmuni bir muncha murakkablashadi. O'rta guruh bolalari faqatgina yaxshi tanish ertak va hikoyalarni kayta hikoya qilibgina qolmay, mashg'ulotda birinchi marta o'qib berilgan asarlarni ham qayta-qayta hikoya qilishga, predmetlar, o'yinchoq, o'simlik, kiyimlarning ko'prok xarakterli belgilarini tasvirlab berishga o'rganishlari lozim.

Agar bolalarga yaxshi tanish ertak va hikoyalarni qayta hikoya qilish malakasi kichkina guruhdan tarkib topa boshlasa, birinchi marta o'qib berilgan adabiy asarni qkayta hikoya qilish malakasi esa faqat o'rta guruhda tarkib topa boshlaydi.

Qayta hikoya qilish uchun asarlar tanlashda quyidagi talablarni hisobga olish tavsiya etiladi:

a) adabiy asar bolalarni ruhan tarbiyalash ishiga xizmat qilishi;

b) adabiy asarlar o'zining mazmuniga ko'ra bolalarga tushunarli va ularning tajribasiga yaqin bo'lishi;

d) adabiy asarlar badiiy bezatilgan bo'lishi lozim. Agar mazmunan aniq tuzilgan, tushunarli, ifodali tilda qisqa, aniq jumlalar bilan yozilgan bo'lishi kerak.

Tarbiyachi bu talablarga asoslanib qayta hikoya qilish uchun asarlarni to'g'ri tanlashi hamda bolalarning so'zlab berish malakalarini ham hisobga olishi kerak.

Asarni tanlab olgandan so'ng tarbiyachi uni ifodali o'qishga o'rganish unda bolalar uchun noaniq bo'lgan so'zlarni ajratishi va ularni yaxshiroq tushuntirish yo'llarini o'ylab ko'rishi lozim.

Mashg'ulotning tuzilishini belgilashda tarbiyachi unga quyidagi qismlar kirishi mumkinligini esda saqlashi kerak:

1. Kirish suhbati.
2. Matnni birinchi o'qib berish.
3. Asar yuzasidan suhbat o'tkazish.

4. Matnni ikkinchi marta o’qib berish.
5. Bolalarning qayta hikoya qilishlari.

**12-mavzu: Hikoya qilishga o`rgatishning maqsadi, vazifasi. Bolalarni o’z tajribalardan hikoya qilishga o’rgatish. Ijodiy hikoya qilish.**

**“Klaster” usuli**



Qayta so’zlab berish (hikoya qilish) – eshitilgan badiiy asarni ravon kelishtirib berishdir. Bola muallif tomonidan aytib berilgan tayyor mazmunni gapiradi va tayyor nutqiy shakllardan – so’zlardan, jumlalardan, ularning izchilligidan foydalanadi.

Hikoya qilish – biron bir voqeani ravon qilib mufassal gapirib berishdir. Hikoya uchun bolaning o’zi mazmun va nutq shaklini tanlaydi. Mazmuni bo’yicha hikoyalarni shartli ravishda ikki turga bo’lish mumkin:

a) hayotiy voqealarga asoslangan dalilli hikoyalar (bularga kuzatish yoki idrok qilish vaqtidagi hikoyalar, ko’rib turgan predmetni, o’yinchoqlarni tasvirlash, xotira bo’yicha hikoyalar, ya’ni ko’rilgan narsalar haqidagi hikoyalar kiradi).

b) ijodiy hikoyalar (bolalar tomonidan o’ylab tuzilgan hikoyalar) xayoliy (uydirma) materiallarga asoslanadi. Lekin ularda bolalarning tajribasi ham ishga solinadi. Hikoyaning bunday turi maktabga tayyorlov guruhida o’tkaziladi.

Olti yoshlik bolalar o’z xayol kuchlari bilan uncha murakkab bo’lmagan hikoya va ertaklarni to’qiy oladilar. Bolalar ijodiy hikoyalarida ishtirok etuvchi shaxslarning yangi obrazlarni, ularning harakati, qiliqlarini o’ylab topadilar.

Hikoyalar shakli bo’yicha tasviriy va syujetli bo’lishi mumkin. Tasviriy hikoya – bu biror premet, masalan, o’yinchoq, kiyim yoki hodisaning tug’ilgan kun, bayram va boshqalarning xarakterli belgilarini gapirib berishdir.

Syujetli hikoya – bu qandaydir bir voqeani ijodiy gapirib berishdir. Masalan, «A’zam kuchukchani qanday qilib topib oladi?» va boshqalar.

Bolalarni hikoya qilishga o’rgatishda maxsus usullardan foydalaniladi. Hikoya qilishga o’rgatish usullari turli-tumandir. Ularning eng asosiylari – tarbiyachining hikoya qilish namunasini aytib berishi, hikoyaning rejasini tuzib berishi, hikoyani qismlar bo’yicha tuzish, uning rejasini jamoa bo’lib muhokama qilish tarbiyachining savollar berishi, aytib turishi va bolalarning hikoyalarini baholash usullaridir.

Tarbiyachi har bir mashg’ulot uchun aniq bitta yoki ikkita usulni asosiy usul qilib tanlaydi. Masalan, hikoya qilish namunasini aytib berish va hikoyaning rejasini tuzib berish yoki hikoya qilish rejasini tuzib berish va rejani jamoa bo’lib muhokama qilishni tanlashi mumkin.

Tarbiyachining hikoya qilish namunasi – bu didaktik usul bo’lib, uning yordamida tarbiyachi bolalarni boshqalardan o’rnak olib hikoya qilishga o’rgatadi. Hikoya qilish namunasi qimmatli tarbiyaviy mazmunga ega bo’lishi, bolalarni o’z hikoyalarida yaxshi xatti-harakatlarni do’stlik tuyg’ularini tasvirlashga undashi lozim.

Hikoya qilish namunasini berish usuli eng yengil usul bo’lib hisoblanadi, chunki bolalar tarbiyachining surat, predmet, voqealar haqidagi savollarini yoki ko’rsatmalarini emas, balki tayyor hikoyasini eshitadilar. Shuning uchun hikoya namunasi berish usulidan hikoya qilib berishga o’rgatishning birinchi bosqichlarida yoki tarbiyachi bolalar oldiga yangi vazifalar qo’yganda foydalaniladi.

Hikoyaning rejasini berish – bu hikoya tuzishda amal qilish lozim bo’lgan

ikki-uchta asosiy savollardir. Namuna bo'yicha ikki-uchta mashg'ulot o'tkazilgach, (masalan, o'yinchoqlarni tasvirlash), hikoyaning rejasini berish hikoya qilishga o'rgatishning mustaqil, asosiy usuli bo'lib qoladi. Tarbiyachi mashg'ulotgacha rejaning asosiy va qo'shimcha savollarini tayyorlaydi. Chunki bir mashg'ulotda reja savollarining o'zgarib turishi bolalarni faollashtiradi. Hikoyani turli-tuman qiladi. Masalan, maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari bilan ular yashaydigan ko'chalarini tasvirlash mashg'ulotida quyidagicha reja tavsiya qilish mumkin (bu savollar bittadan berilmay birdaniga beriladi):

1. Sening ko'changni nomi nima?
2. Sening ko'changda qanday binolar bor?
3. Sening ko'changda qanday transportlar o'tadi?

Uch-to'rt bola yuqoridagi reja savollari bo'yicha hikoya qilgach, quyidagi yangi savollarni berish mumkin:

1. Sening ko'changni nomi nima?
2. Sening ko'changda qanday daraxtlar bor?
3. Nima uchun sening ko'chang toza va chiroyli?

Maktabga tayyorlov guruhida dasturda yanada yuqoriroq talablarni qo'yadi. Bolalarni rejadagi savollarga quloq solishga unga rioya qilishga o'rgatiladi (ayniqsa suratga qarab hikoya qilishda va jamoa tajribasidan olib to'qilgan hikoyalarda).

Bu guruhda bolalar o'rtoqlarining hikoyalarini nazorat qilishga ko'proq jalb etiladi (hozir nima haqida gapirish kerak? Hammaga tushunarli bo'lishi uchun hikoyani nimadan boshlashi yaxshirok?).

Reja tuzib berish hikoyaning namunasini berish usuliga qaraganda eng qiyin usul bo'lib undan bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda keng foydalaniladi. Rejani jamoa bo'lib muhokama qilish – bu usul bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatishning birinchi bosqichlarida ko'proq qo'llaniladi.

Bolalar hikoyaning qiyin turi, ya'ni tarbiyachi taklif etgan mavzu bo'yicha hikoyalar tuza olishlari va bu hikoyalar va bu hikoyalar turli-tuman bo'lishi uchun tarbiyachi bu usuldan foydalanishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga mavzu va rejani beradi. Mavzu: Qizcha mushukchani qanday topdi?

1. Qizcha mushukchani qanday topdi .

2 Mushukcha qanday edi?

3. Qizcha u bilan nima qiladi?

Bolalarning joyida turib bergan javoblari hikoya bo'lmaydi, u bir necha yoki bitta jumladir. Maqsad – hikoyalarning turli-tuman bo'lishi mumkinligini ko'rsatishdir. Tarbiyachi reja tuzayotganda jamoa bo'lib muhokama qilish uchun eng qiyin savollarni oldindan aniqlashi lozim.

Qismlar bo'yicha hikoya tuzish. Odatda bu usul mazmuni qismlarga oson bo'linadigan suratlar bilan ishlashda foydalaniladi. Suratlar bilan ishlashda tarbiyachi oldindan uni shartli ravishda qismlarga bo'ladi va bola biror qism haqida so'zlab berishi lozim.

Umumiy jamoa tajriba asosida hikoya qilishda tarbiyachi oldindan mavzuni juda mayda qismlarga bo'ladi, Masalan, «Bizning tipratikon» mavzusidagi tasviriy

hikoyani tuzishda tarbiyachi bolalarni tipratikon haqida hamma narsani birdan so’zlamasdan, hammasini esga olish uchun tartib bilan so’zlaymiz deb ogohlantiradi. So’ngra tarbiyachi har bir qismga reja beradi. Hozir bolalar eslang tipratikonning usti nima bilan qoplangan? Uning tumshug’i qanday? U qanday yuradi?

Bu reja bolalarning ikkita-uchta hikoyalaridan keyin boshqa qismga o’tiladi. Bizda tipratikon qayerda yashaydi, uning qafasida nima bor, u nima uchun kerak aytib bering. Bolalarning javobidan keyin hikoyaning uchinchi qismiga o’tiladi. Ayting-chi biz tipratikonni nima bilan boqdik. Kim uni parvarish qiladi, qanday parvarish qildi va hikoyaning oxirida bolalardan biz o’z tipratikonimizni kimga sovg’a qildik, o’rta guruh bolalari bizga nima dedilar? deb so’rash mumkin. Jamoa hikoya uchun «Bolalar bog’chasida», «Yangi yil archasi», «Hayvonot bog’iga ekskursiya», «Shahar atrofiga sayohat» va boshqa mavzularni tanlab olish mumkin.

Mashg’ulotning oxirida tarbiyachi mavzuning hamma qismlari bo’yicha bitta umumiy reja beradi va yaxshi hikoya qiladigan 1-2 bola hammasi haqida birdan gapirib beradi. Masalan, «Bizning tipratikon» hikoyasida har bir qism rejalari bo’yicha bolalar hikoya qilganlaridan keyin mashg’ulotning oxirida tarbiyachi bunday reja beradi:

1. Bizning tipratikonimiz qanday edi?
2. Biz uni qanday parvarish qildik?
3. Biz uni kimga sovg’a qildik?

Savollar berish – bu keng tarqalgan usul. Lekin hikoya qilishda u ikkinchi darajali rol o’ynaydi. Savollar odatda javob berayotgan bolaga yoki butun guruhga hikoya tugagandan keyin uni aniqlash yoki to’ldirish uchun beriladi. Savollar metodik jihatdan to’g’ri bo’lishi lozim. Baland ovoz bilan hamma bolalarga qarata javob berish uchun bolani chaqirishdan oldin pauzaga rioya qilish kerak.

Aytib turish – hikoya qilish jarayonida bola yanglishib qolgan vaqtda savol berishdan ko’ra, so’zni yoki gapni aytib turishdan foydalanish yaxshiroqdir. Aytib turish yoki to’g’rilash yetarli darajada baland ovozda hayrixohlik ruhida bo’lishi lozim. To’g’rilangan so’z yoki jumlani bolaga takrorlash shart emas. Chunki bola hikoyaning davomini esdan chiqarib qo’yishi mumkin.

Bolalar hikoyasini baholash – o’rgatuvchi usuldir. Shuning uchun u mashg’ulotning oxirida emas, balki mashg’ulot jarayonida qo’llaniladi. Baholash faqatgina hikoyasi baholanayotgan bolagagina ta’sir etib qolmay, qolgan bolalarga, ular tuzishi lozim bo’lgan hikoyalarga ham ta’sir etadi. Bolalar bahoni tinglab tarbiyachi maqtaganlarga taqlid qiladilar Har bir bolaning hikoyasi mufassal baho berish shart emas. Lekin ba’zi hikoyalarning qimmatli tomoni, ya’ni mustaqilligi, izchilligi ovoz kuchi, javob berganda turishi va hokazalar ajratib ko’rsatishi tavsiya etiladi.

Tarbiyachi bu talablarga asoslanib qayta hikoya qilish uchun asarlarni to’g’ri tanlashi hamda bolalarning so’zlab berish malakalarini ham hisobga olishi kerak.

Asarni tanlab olgandan so’ng tarbiyachi uni ifodali o’qishga o’rganish unda

bolalar uchun noaniq bo'lgan so'zlarni ajratishi va ularni yaxshiroq tushuntirish yo'llarini o'ylab ko'rishi lozim.

Mashg'ulotning tuzilishini belgilashda tarbiyachi unga quyidagi qismlar kirishi mumkinligini esda saqlashi kerak:

1. Kirish suhbati.
2. Matnni birinchi o'qib berish.
3. Asar yuzasidan suhbat o'tkazish.
4. Matnni ikkinchi marta o'qib berish.
5. Bolalarning qayta hikoya qilishlari.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Hikoya janri haqida ma`lumot bering.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalar bilan ishlashda hikoya qilishga o`rgatish usullari qanday?
3. Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalarni qayta hikoya qilishga o`rgatishga bag`ishlangan mashg`ulot tuzing.

.



## 13-mavzu: BOLALARNI BADIIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI. NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI TO'G'RISIDA

## TOVUSHLARNI TO'G'RI TALAFFUZ ETISHGA QARATILGAN O'YINLAR

Ma'lumki,tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda uning sabablariga alohida e'tibor beriladi.CHunki,artikulyasion motorika harakatchanligining etishmasligi va fonematik idrokning rivojlanmaganligi tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqarishi hammaga ma'lum.

Dastavval,artikulyasion motorikani harakatchanligi oshirish ishlaridan boshlash lozim.Fonematik idokni shakillantirish va rivojlantirish ishlari esa tovushni nutqqa qo'yish va mustahkamlash ishlari bilan parallel ravishda olib boriladi.

Quyida biz,tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda foydalanish mumkin bo'lgan o'yinlar guruhini keltirib o'tamiz.

O'zbek tilimizning xususiyatlaridan kelib chiqib,bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda logopedik o'yinlardan foydalanish yo'llarini takomillashtirish maqsadida boy abadiy merosimizdan namunalar keltiramiz.

### §1. Sirg'aluvchi tovushlarni nutqga qo'yish, mustaxkamlashga oid o'yinlar

Tovushlar talaffuzining buzilishi aoosan artikulyasion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo'lgan tovushlarda kuzatilakdi.SHunday tovushlar qatoriga sirg'aluvchi va shovqinli tovushlar kiradi.

Bu tovushlardagi kamchiliklarni bartaraf etish ishlarini bolalar uchun qiziqarli bo'lgan o'yin faoliyati bilan bog'lab o'tish orqali,korreksiyalash ishining samaradorligi oshadi.

Quyida keltirilgan o'yinlar sirg'aluvchi tovushlarni shakillantirishga qaratilgan.

#### "Nasos" o'yini.

Maqsad: Bolalarga "S" tovushini to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

O'yinning borishi: Bolalar stulchalarda o'tirishadi.Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: - Hozir biz velosipedda sayr qilamiz.Velosipedda sayr qilishdan avval uning kamerasiga havo damlanganmi yoki yo'qmi shuni tekshiramiz.Velosiped uzoq vaqtgacha minilmaganligi sababli kamerasi bir oz bo'shab qolibdi.Unga dam berish kerak.Nasos bilan kameraga havo yuboramiz.Nasosdan chiqayotgan haqo S-S-S,deb ovoz chiaradi.Bolalar avval birma-bir,so'ngra birgalikda nasos harakatiga taqlid qilib,kameraga dam uradilar.Kameraga dam berish vaqtida S-S-S tovushini cho'zibroq etadilar.

Metodik ko'rasatma: Bolalar S tovushini to'g'ri talaffuz ishlari uchun lab,til holati va oqimining til o'rtasidan ishga z'tibor berib borish zarur.

**“Sharcha teshildi” o‘yini.**

Maqsad: “S” tovushini nutqqa kiritish.

O‘yinning borishi: Logoped bolalarga sharchalar tarqatib chiqadi va aytadi: “Bolalar,yaqinda biz yangi yil bayramini nishonlaymiz.SHuning uchun xonamizni chiroyli qilib bezatishimiz kerak” Kelinglar,hozir sizlar bilan birgalikda sharlarimizni shishiradilr.Logoped ataylab 3-4 nafar bolaga teshik sharchalarniberib qo‘yadi.So‘ngra logoped bolalar diqqatini teshilgan sharchadan chiqayotgan oqozga qaratadi,va bolalardan so‘raydi: “Bolalar qanday qanday ovoz eshityapsizlar” “Bolalar ps-ss-s-s”deb talaffuz etadilar.

**“Do‘kon” o‘yini.**

Maqsad: “S” tovushini so‘zlarda to‘g‘ri talaffuz etish.

O‘yinning borishi: Bolalarga o‘yin qoidalarini tushuntirish.Bolalar tasavvur qilinglar mana bu stol-do‘kon:,stol ustidagi rasimlar, o‘yinchoqlardo‘konda sotiladigan narsalar.

Hozir sizlar bilan shu o‘yinni birgalikda o‘ynaymiz.Xozir bitta-bitta gapiraman va kelgan bola do‘kondan narsa sotib olishi kerak.

O‘yinchoqlarni nomini rasimlarni xarid qilgan bola chiroyli baland ovoz bilannomlab berishadi.

-soat-sovun-sandiq

-doska-stol-savat

-gilos-avtobus-sochiq

O‘yin davomida asosan “S” tovushi qatnashgan so‘zlarni urg‘u berib jarangdor ovoz bilan talaffuz qilishga qaratish.

**“Sabzilar va giloslar” o‘yini.**

Maqsad: “S”tovushini bo‘g‘inlarda,so‘zlarda to‘g‘ri va aniq talaffuz etishga o‘rgatish.

O‘yinning borishi: Logoped bolalarni 2 guruhga ajiratadi va guruxlar “sabzilar va “ “Giloslar”nomlari bilan nomlanadi.Bunda “Sabzilar”guruhi ochiq bo‘g‘inda,ya’ni sa-so-si-su-so‘ bo‘g‘inlarini “Giloslar” guruhi yopiq bo‘g‘inda,ya’ni as-os-is-us-o‘s bo‘g‘inlarini talaffuz qilishlari tushuntiriladi.Guruxlardan bolalar navbatma-navbat chiqib,bo‘g‘inlarni talaffuz qiladilar.O‘yin bir necha marta takrorlrnadi va o‘yinda bolalar rollarni almashadilar.Bunda logoped bolalarni “S tovushini bo‘g‘inlarda tug‘ri va aniq talaffuz qilishlarini kuzatadi.

## “Z” tovushini to‘g‘ri talaffuz etishga qaratilgan o‘yinlar.

**“Gullar va asalarilar” o‘yini.**

Maqsad: “Z” tovushini tutqga kiritish.

O‘yinning borishi: O‘yin boshlanishidan oldin kim asal arilar bo‘lishi,kim esa gullar bo‘lishi aniqlantirilib olinadi (masalan o‘g‘il bolalar asal arilar,qiz bolalar esa gullar).Keyin hammalari xona bo‘ylab yoki maydonchada yuguradilar.Logoped ishorasidan so‘ng (chapak chalish yoki biror bir predmetga urishi) qiz bolalar ya’ni

gullar tizzalari bilan o‘tirradilar.Asalarilar qanotlarini qoqib guldan gulga qo‘nib yuradilar.

Buni ular asalarilarga taqlid qilgan holda bajaradilar: V-zz-z-z. Logoped yana chapak chalishi bilan bolalar rollarini almashtiradilar.

**“Chivinlar o‘yini”.**

Maqsad: “Z”tovushini nutqqa kiritish.

O‘yinning borishi: Endi hamma diqqat bilan meni eshitsin.Bugun sizlar bilan yana bir yangi o‘yin o‘ynaaymiz.O‘yinning nomi “chivinlar” o‘yini .Bolalar bilan qanday qilib boqqa sayrga borganliklari haqida suhbat o‘tkazadi.Bolalar, esinggizdami,biz sizlar bilan boqqa sayrga borgan edik? Kechki payt chivinlar bizilab kelib,bizni xo‘p chaqqan edi.Hozir sizlar bilan “chivinlar ”o‘yinini o‘ynaymiz, deyiladi. Bolalar buning uchun biz ikki guruhga bo‘linamiz. Birinsi guruh bolalari chivinlar,ikkinchi guruh bolalari esa sayr qilib yuruvchilar bo‘lishadi.CHivin bo‘lgan bolalar “z z z” deb sayr qilib yurgan bolalar ketidan yugurishadi.Sayr qilib yurgan bolalar esa chivinlardan qochishga,yashirinishga harakat qilib,uylariga yugurishadi.Xona burchagidagi stulchalar uycha hisoblanadi.So‘ngra,rolni almashasizlar.Hammaga tushunarlimi,unda boshladik.

**“Rasmni juftini top”**

Маысad: «Z» tovushini so‘zlarida to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish.

O‘yinning borishi: Bolalar stullarda o‘tirishadi.Logopedning stoli ustida teskari qilib qo‘ymlgan rasimlar bo‘ladi.Har bir bolaga xuddi shu rasmdan berib chiqiladi.Logoped bolalardan birini chaqiradi va bu bola stoldagi rasimlardan birini oladi va uni ko‘rsatib baland ovoz bilan-“Men zanjirni ”oldim,kimda xuddi shu rasimning jufti bo‘lsa,shubola o‘rnidan tursin deydi.O‘rnidan turgan bola ham o‘rtoqlariga rasimni ko‘rsatib, “Mendagi rasimda ham zanjir tasvirlangan”,deydi.Bolalar har juft rasimni ustiga qo‘yadilar.O‘yini shu tariqa to stol ustidagi rasm tomom bo‘lguncha davom etadi.Buning uchun “z”tovushi so‘zining boshida, o‘rtasida oxirida kelgan rasimlardan foydalaniladi.Bularga: zina,uzum,piyoz,dazmol,muzqaymoq,uzuk,oshpaz,sabzi,tarvuz rasimlari kiradi.

**“Zebo va mayiz” o‘yini.**

Maqsad: “Z” tovushini so‘zlarda va gaplarda mustaxkamlash.

Jihoz: Rezinali qo‘g‘irchoq.

O‘yinning borishi: Logoped chiroyli kiyintirilgan rezinali qo‘g‘irchoqni olib kiradi va bolalarga: “Bolalar bu qo‘g‘irchoqning ismi Zebo”.Uni magazindan sotib olishdi.U rezinali.Zeboning oyoqlari rezinali,qo‘llari,yuzlari va burni ham rezinali.Keyin esa logoped bolalardan so‘raydi: “Qo‘g‘irchoqning ismi nima ekan? Uni qaerdan sotib olishibdi?Uning oyoqlari,qo‘llari,yuzlari,burni nimadan qilingan ekan?”bolalar javob beradilar.Logoped davom etadi: “Zebo mayizni yaxshi ko‘radi.Lola kel Zeboni mayiz bilan mehmon qil”.Lola chiqib,aytadi:

“Zebo,mayizdan ol”Bolalar navbatma navbat Zeboni mayiz bilan mehmon qilgan holda yuqoridagi frazalarni aytadilar.

**“Kim chaqqon?” o‘yini.**

Maqsad: “Z”tovushini so‘zlarda tug‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish.

O‘yinning borishi: Logoped bolalarga bir qancha savollar beradi.Avval bolalarga logoped shunday deydi: Men sizlarga savollar beraman kim birinchi topsa,shu bolaga qizil yulduzcha beraman.Kim ko‘p qizil yulduzcha yig‘sa,shu bola g‘olib bo‘ladi.

Qaysi transportning nomida “Z” tovushi bor?
Qaysi daraxtning nomida “Z” tovushi bor?
Qaysi hayvonlarning nomida “Z” tovushi bor?
Qaysi uy jixozlarining nomida “Z”tovushi bor?
Qaysi sabzavotlarning nomida “Z” tovushi bor?
Qaysi mevalarning nomida “Z”tovushi bor?
Qaysi Gullarning nomida «Z» tovushi bor?
Qaysi parrandalarning nomida «Z»tovushi bor?
Qaysi qizlarning va bolalar nomida “Z”tovushi bor?

**“Adashma” o‘yini.**

Maqsad: S-Z tovushlarining bir-biridan farqlashga o‘rgatish.

O‘yinning borishi: Bolalarga ikkitadan rasm beriladi.Bittasida nasos tasvirlangan,ikkinchisida chivin.Nasos tasvirlangan rasmni bolalar chap qo‘llarigaoladilar.CHivin tasvirlangan ramsmni esa o‘ng qo‘llariga oladilar.CHivin tasvirlangan rasmni esa o‘ng qo‘llariga oladilar.Tarbiyachi nomida S yoki Z tovushi hamda bir so‘zda S va Z tovushi bor bo‘lgan rasmlarni bolalarga ko‘rsatadi va nomini aytadi.Masalan: sabzi,sumka,yulduz,gazeta,somsa va hakazolar.

Agar rasmning nomini bildiruvchi so‘zlarda S tovushi bo‘lsa,so‘ngra bolalar nomini bildiruvchi so‘zda har ikki tovush bor bo‘lgan rasmlarni ko‘rsatadilar va S-Z tovushlarida qaysi biri so‘zning boshida kelayotganligini aytadilar.

Metodik ko‘rsatma: S va Z tovushini rasimla orqali taqqoslash kerak.Mashg‘ulot paytida nomida S va Z tovushi bo‘lgan rasimlardan ham foydalanish mumkin.Agar tarbiyachi bolalarga bunday rasimlarni ko‘rsatsa,bolalar qo‘llaridagi rasimlarni ko‘rsatmasliklari kerak.

## 14-MAVZU: BOLALARNI TO`G`RI TALAFFUZGA O`RGATISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI

### Ovozni rivojlantirishga oid o‘yinlar

Ovozni past va baland chiqara olish malakasini xosil qilish. Maqsad: Bolalarni ingichka va past ovozda gapirishga urgatish.

### “Kim qanday qichqiradi?” o‘yini hikoyasi.

**Hikoyaning qisqacha mazmuni.** Logoped o‘zining xikoyasini,xikoya mazuniga talluqli bulgan shakllarni (o‘yinchoq) yoki o‘yinichoq rasimlarini flannelografda kursatib berish bilan boshlaydi: Ertalab biz oilamiz bilan dalaga sayr qilgani chiqdik.Qo‘log‘imizga nimaningdir ingichka ovazda “pi-pi”deb (ingichka ovozda talaffuz etadi) ovoz chiqarayotgani eshitildi.Qarasak bu chumchuqning bolasi-chumchuqcha ekan. U daraxtga qunib,onasini qidirib chaqirayotgan ekan. U onam menga qachon qurt,chuvalchang olib keladilar deb,ingichka ovozda chiyillar edi.Qushcha qanday chiyillar ekan? “bolalar ingichka ovozda chumchuqchaning “pi-pi” deb ovoz chiqarishiga taqlid qiladilar.Birdaniga ona chumchuq uchib keladi,uning og‘zida chuvalchang bor edi,u chuvalchangni bolasiga (qushchaga)berdi va past ovozda “pi-pi deb ovoz chiqarib quydi”.Logoped past ovozda talaffuz etadi.Ona chumchuq qanday ovoz chiqaradi? (Bolalar “pi-pi”deb juda past ovozda talaffuz etadilar).Qush uchib ketganidan keyin biz sayrimizni davom ettirdik.Biz bir poliz oldidan chiqib qoldik.U erda qaerdandir ingichka “miyov-miyov” degan ovoz kelar edi. Bu ovoz mushukchaniki ekan. Ubizni kurib oldimizga yugurib keldi.U qanday miyovaydi? (Bolalar mushukchaning ovozini ingichka ovozda talaffuz etadilar).U onasi ona mushukni qidirib yurgan ekan.Ona mushuk bolasini mushukchaning ovozini eshitib,yugurib keldi va past ovozda “miyov-miyov”deb bolasini erkalab quydi.Ona mushuk qanday miyovlaydi? Bolalar past ovozda ona mushuk ovoziga taqlid qiladilar, “miyov-miyov”.Endi,bolalar,men xozir sizlarga guruximizga kimlar mexmon bulib kelganini kusataman.Logoped boshqa xonadan katta mushik (ona mushuk) o‘yinchog‘ini olib keladi va stol ustida yurgizadi.Bolalardan suraydi: “Ona mushuk qanday miyovlaydi?” (Bolalar ovozlarini pasaytirib, “miyov-miyov”deb aytadilar).So‘ngra mushukchani,ona chumchuq (kush), chumchuqchani kursatadi,bolalar ularning ovozlarini taqlid qiladilar.

**Metodik kursatma.** Bolalar baqirmasdan,tinch oxangda,kerak bulganda ovozni balandlatib, paslatib gaplashishlari logoped esa nazorat qilib turishi kerak.

**Ovoz kuchini o‘zgartirish.**

Maqsad: Bolalarni vaziyatga qarab baland va rast ovozda foydalanishga o‘rgatish.

**“Shamol esyapti” o‘yini.**

O‘yinning qisqacha mazmuni. Bolalar stulchalarda yarim doira shaklida utiradilar,logoped shunday deydi: Biz yozda urmonga sayrga bordik.Dala buylab ketyapmiz,quyosh oltin nurlarini har tomonga sochyapti,engil shamol esib

utlarni,gullarni tebratyapti. SHamol sekinesyapti,mana bunday: u-u-u, (logoped “u”tovushini sekin va chuzib talaffuz etadi).Mana bog‘chaga ham etib keldik.Bizlar ko‘plab gullar,mevalar terdik va bog‘chaga qaytmoqchi bo‘ldik.Birdaniga ko‘chli shamol esa boshladi.SHamol qattiq g‘uvillay boshladi: u-u-u…(tarbiyachi bu tovushni baland va uzoq talaffuz etadi). Bolalar tarbiyachiga taqlid qilib,engil va kuchli esayotgan shamolning ovozini takrorlaydi.Sungra tarbiyachi rasimlarni ko‘rsatadi,bolalar esa rasim tasviriga qarab,unga talluqli bulgan ovoz kuchida shamolning ovoziga taqlid qiladilar.
Metodik ko‘rsatma: Logoped bolalarning ovoz kuchini o‘zgartirishlariga e’tibor berib borish kerak.

**Osoyishta (past)ovozdan foydalanish malakasini tarbiyalash.**

O‘yinning qisqacha mazmuni: Bolalar doira bulib yuradilar,urtada mushuk rolidagi bola utiradi.YUolalar yura turib quyidagi she’rni past ovozda aytadilar:

Sekin sichqonlar,sekin sichqonlad
Tom boshida mushuk bor
Sichqon,sichqon,extiyot bul!
Mushuk seni tutmasin!

Mushukni tasvirlovchi bola she’r matnini tugatishi bilan balandovozda miyovlaydi va bolalar ketidan quvadi.Ushlangan bola mushuk buladi.
Metodik kursatma: Bola ovozi juda baland ham,past ham bulmasligi zarur.

**Past va baland ovozdan foydalanish malakaschini tarbiyalash.**

Maqsad: Bolalarni past va baland ovozda gapirishga o‘rgatish.

**“Aks-sado” o‘yini.**

O‘yinning qisqacha muzmuni: Bolalar 2 guruxga ajiratiladi.Birinchi guruh bolalari urmonda adashib qolgan bolalarni,ikkinchi gurux bolalari aks-sadoni tasvirlaydilar.Har bir guruhxonaning turli bo‘rchagiga joylashadi.Urmonda adashib qolgan bolalarni tasvirlovchi guruh bolalari boshqa guruhdagi bolalarni (aks-sado guruhidagi bolalarni) ismini baland ovoozda aytib chaqirishadi: “Au,Olima! Au,Pulat!” Aks sadoni tasvirlovchi bolalar xuddi shu sцzlarni past ovozda takrorlashadi. Sungra qatnashchilari rol almashinadilar.
Metodik kursatma: Bolalar urtoqlarining ismini aytib chaqirganlaridan keyin pauza qilishlari, “Aks-sado” ga aytgan so‘zlarni takrorlash uchun imkoniyat berishlari kerak.

**“Baland-past” o‘yini.**

O‘yinning borishi: Bolalar soniga qarab 2-3 juft o‘yinchoq olinadi.Past tovushga taqlid qilganda shivirlashga o‘tib ketmaslik kerak.

Tarbiyachi katta va kichik kuchukchalarni ko‘rsatib,bolalarga shunday deydi:Katta kuchuk vovilaganda baland ovozda akillaydi vov-vov-vov.Katta kuchuk qanday akillagan ekan.Bolalar balan ovozda vov-vov deb aytadilar.Tarbiyachi o‘yinni davom ettirib,shunday deydi: Kichkina kuchukcha

past ovozda akillaydi vov-vov. Kichkina kuchukcha qanday ovozda akkilar ekan.Bolalar past ovozda vov-vov deb aytadilar.

Tarbiyachi har ikkala kuchuk o‘yinchog‘ini olib qo‘yadi va shunday deydi: Xozir juda ham daqqat bilan quloq solib o‘tiringlar.Kuchuk paydo bo‘lishi bilan siz vov-vov deb aytasiz,ammo adashib ketmaganlar,katta kuchuk baland ovozda akillaydi,kichkina kuchuk past ovozda akillaydi.Xuddi shu tarzda boshqa o‘yinchoqlar bilan o‘yin o‘tkaziladi.

**Blis-o’yin “Men – tarbiyachiman”**

| Guruh bahsi | Guruh xatosi | To’g’ri javob | Yakka xato | Yakka baho | Guruh ishidan chetla-shish | Harakatlar mazmuni |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 9 | | | | 1. Mashg‘ulotlar rejasini tuzadi |
| | | 3 | | | | 2. Nutqidagi noto‘g‘ri talaffuz qiladigan tovushlarni bilib oladi |
| | | 2 | | | | 3. Bola bilan nutqiy muloqotda bo‘ladi |
| | | 4 | | | | 4. Bola nutqidagi xatolar turini aniqlaydi |
| | | 8 | | | | 5. Mashg‘ulotga faol qatnashgan bolalarni rag‘batlantiradi |
| | | 1 | | | | 6. Gaplarni to‘g‘ri bog‘lashni o‘rgatadi. |
| | | 7 | | | | 7. Xato talaffuz qilinadigan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatadi. |
| | | 10 | | | | 8. Talaffuzi noto‘g‘ri tovushlar yuzasidan mashg‘ulot o‘tkazishni rejalashtiradi. |
| | | 12 | | | | 9. Bolani mtmga kelgan kunidan boshlab nutqini tekshiradi |
| | | 6 | | | | 10. Maxsus mashg‘ulotlarda bolalar bilan ular nutqidagi kamchiliklarni to‘g‘rilab boradi. |
| | | 5 | | | | 11. O‘tkazilgan mashg‘ulot natijasini tahlil qiladi. |
| | | 11 | | | | 12. Har bir so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatadi. |

## 15-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TEVARAK-ATROFNI BILISH JARAYONIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Reja:

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va anglashga oʻrgatish.
3. Bolalarning kattalar mehnati hamda sogʻlom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini boyitish, bilimlarini kengaytirish.

*Tayanch tushunchalar:* ma’nodosh, uyadosh, xususiyat, shaxsiy qobiliyat, jarayon, shaxsiy hayot, tevarak-atrof, rivojlantirish, texnologiya.

Mashgʻulotning borishi

1- topshiriq: Maktabgacha yoshdagi bolalarning tevarak-atrofni bilishda nutqni rivojlantirishda “INSERT” USULI

Samarali oʻqish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil oʻqib oʻrganishga yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari kitob va boshqa materiallar oldindan tinglovchiga vazifa qilib beriladi.Uni oʻqib chiqib “V”; “+”; “-“; “?” belgilar orqali oʻz fikrini ifodalaydi.

(V)- Men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)- YAngi ma’lumot

(-)-Men bilgan narsaga zid.

(?)-Meni oʻylantirdi. Bu borada menga qoʻshimcha ma’lumot zarur.

**“Insert” usuli jadvali**

| Tushunchalar | B | + | - | ? |
|---|---|---|---|---|
| Maktabgacha yoshdagi bolalar-ning tevarak-atrofni bilishda nutqni rivojlantirish aha-miyati | | | | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar-ning tvarak--atrofni bilishda nutqni rivojlantirish maz-munini | | | | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar-ning tevarak-atrofni bilishda nutqni rivojlantirish maz-munini bilan tanishtirish | | | | |

## 16-MAVZU: KO`RGAZMALI MATERIALLAR BILAN O`YNALADIGAN TA’LIMIY O`YINLAR

Reja:

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limiy o‘yinlar va ularning ahamiyati.

*Tayanch tushunchalar:* ta’limiy o‘yinlar, ko‘rgazmali material, didaktik o‘yinlar, qoidali-harakatli o‘yinlar, stol-bosma o‘yinlar, og‘zaki so‘zli o‘yinlari, o‘yin tempi va ritmi, sensor madaniyati.

1- topshiriq: Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan lug‘at ishini olib borish vazifasini «XULOSALASH» metodidan foydalanish.

«XULOSALASH» metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarak teridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi.

Bu Metodni amalga oshirish tartibi:

trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. SHundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

2- topshiriq: Lug‘atni boyitish va faollashtirishni “SWOT-tahlil” metodida ishlash.

**“SWOT-tahlil” metodi.**

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

• kuchli tomonlari S – (strength)
• zaif, kuchsiz tomonlari W – (weakness)
• imkoniyatlari O – (opportunity)
• to‘siqlar T – (threat)

Namuna: Ko‘rgazmali materiallar bilan o‘ynaladigan ta’limiy o‘yinlarini SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

# TARQATMA MATERIALLAR






6. Bolalarda nutqning grammatik qurilishini shakllantirishda nimalarga ahamiyat berish zarur?
7. Turli yosh guruhlarida bolalarning tovush madaniyatini tarbiyalash bosqichlari va bunday ishlarni amalga oshirishni izohlang.
8. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishitish uchun qo’yiladigan talablar nimalardan iborat?.
9. Rejalashtirish turlari va va uning ahamiyati.
10. Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish qanday amalga oshiriladi?
11. Ilk yoshdagi bolalar nutqini o’stirishga qo’yilgan talablar (t.i.: muomalada bo’lish, ko’zdan kechirish, nomini aytish).
12. Nutqning normal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi nutqiy kasalliklar va uning oldini olish usullari.
13. Nutqda nafas olish va ritm sur’atini yaxshilash qanday amalga oshiriladi?

14. Bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash ishining mohiyatini izohlang.
15. Bolalar lug'atini boyitishga xizmat qiluvchi ijodiy lug'at tuzing. Lug'atni boyitish mashg'ulotlaridan yana qaysi turini bilasiz?
16. Bolalar nutqidagi grammatik xatoliklarni to‘g‘rilash va ular nutqini o‘stirish.
17. Mashg'ulotlarda bolalarning faol munosabatda bo'lishiga va dastur materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishlariga nima bilan erishiladi?
18. Aralash guruhda mashg'ulotlar o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?.
19. Zamonaviy nutq tadqiqotlariga nisbatan tizimli yondashuv nimani anglatadi?
20. 20-60-yillardagi chet el fanida ontogenezni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan asosiy tadqiqotlarni (J.Piaje, P.Skinner, N.Xomskiy, J.Miller) asoslab bering.
21. MTMda savod o‘rgatish davri qaysi oylarni o‘z ichiga oladi.
22. MTMda bolalarni o‘qishga o‘rgatish deyilganda nima tushuniladi va uning ahamiyati nimadan iborat?

ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi**
**VARIANT 1**

1. Bolalarni yozuvga o’rgatishda analitik – sintetik metoddan foydalanish(yozuv, uning bola hayotidagi o’rni, tahlil qilish, bog’lash).
2. Dastlabki tushunarli so’zlarni gapirishga o’rgatish uslubiyati (sekin-asta gapirish, har qiyqiriq va ovozlardan so’ng ishlanadigan ilk so’zlar).
3. Nutqiy va fonematik eshitishni rivojlantirish (nutq, nutq tovushlari, eshitish a’zolari, ularni tarbiyalash, asrab-avaylash).
4. Ertak janri haqida ma’lumot bering, uning bolaning nutqini o’stirishdagi o’rnini qanday baholaysiz? (xalq og’zaki ijodi, janr, tur va xususiyatlari).

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi**
**VARIANT 2**

1. Maktabgacha ta’lim bolalar adabiyoti haqida ma’lumot bering. (xalq og’zaki ijodi, bolalar adabiyoti vakilari).
2. Hikoya qilishga o’rgatishning metodik turlari (hikoya, qayta hikoya, savol-javob).
3. Vodovozovaning «Til va Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii»ga qo’shgan hissasi (t.i: xalq og’zaki ijodi, folkor, tilni o’qitish).
4. Tez aytish va uning maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga o’rgatiladigan turi hamda ahamiyati haqida ma’lumot keltiring.

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi**
**VARIANT 3**

1. Kichik guruh bolalarining lug’atini o’stirishda tarbiyachining e’tibori va o’tkaziladigan mashg’ulot turlari (lug’at ishi, uning turlari, mohiyati, mashg’ulot turlari).

2. Ravon nutq nima? Maktabgacha yosh davrida ravon nutqni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Grammatika haqida umumiy tushuncha bering (t.i.: tuzilish, shakl, so'z turkumi, qo'shimcha va boshqalar).
4. Rejalashtirish turlari va va uning ahamiyati.

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul'tet: Pedagogika Yo'nalish: 5141700 - Maktabgacha ta'lim**
**O'quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi**
**VARIANT 4**

1. Bayon qiluvchi monologlar tuzishga o'rgatish (bola, so'zlab berish, hikoya tuzishi).
2. Bog'chada she'riy muhit yaratish va uning bola hayotidagi o'rni.
3. Bolalarda nutq rivojlanishining vaqtincha to'xtashi (nutq, sust rivojlanish, uyalish, to'xtash, tortinish, muloqotga kirisha olmaslik va boshqalar).
4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o'qishga o'rgatishda individual xususiyatlarni hisobga olish (bolaning ruhiy holati, o'ziga xos xususiyati).

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul'tet: Pedagogika Yo'nalish: 5141700 - Maktabgacha ta'lim**
**O'quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi**
**VARIANT 5**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atni o'zlashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlari (lug'at, so'zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o'rgatish, bolalar lug'atini boyitish).
2. Hikoya qilishga o'rgatishning metodik turlari (hikoya, qayta hikoya, savol-javob).
3. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarda so'zning tovush jihatidan tanishtirilishi (tovush, bo'g'in, so'z, ibora, tovushlarni farqlash, anglash).
4. Nutqiy va fonematik eshitishni rivojlantirish deganda nima tushuniladi? (eshitish organlari kamchiliklari, nutq tovushlarini farqlash, adrok qilish)

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii**
**VARIANT 6**

1. Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish qanday amalga oshiriladi?
2. Qayta hikoya qilishga o’rgatishning metodik turlari. Bolalarni monologik nutqqa o’rgatish uslubiyati (katta guruh, monolog, so’zlab berish).
3. Bolalarni oddiy va murakkab sintaktik tuzilmalarga o’rgatish metodikasi deganda nima tushuniladi (oddiy so’z birikmalari, murakkab so’z birikmalari, gap va murakkab gaplar).
4. Nutqi buzilgan bolalarga tarbiyachining alohida munosabati (nutq buzilishi, nutqning o’sishdan to’xtashi, tarbiyachining alohida munosabati).

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii**
**VARIANT 7**

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishitish uchun qo’yiladigan talablar.
2. Bolalar nutqini rivojlantirishning lingvistik asoslari (til, lug’at, grammatik, tovush va booshqalar).
3. Qanday bolalar nutqida kamchilik bo’ladi? Nutqida kamchiligi bor bolalar bilan ishlash usullarini ta’riflang. (guruhlararo, individual, duduqlik, sut nutqlilik).
4. Ilk yoshdagi bolalar nutqini o’stirishga qo’yilgan talablar (t.i.: muomalada bo’lish, ko’zdan kechirish, nomini aytish).

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi**
**VARIANT 8**

1. Bolalarni savod o’rgatishga tayyorlash ishining mohiyatini izohlang.

2. Bolalar nutqini shakllantirish bo‘yicha Chet el va Rossiyada olib borilgan tadqiqot ishlari va yo‘nalishlari haqida yozing.
3. Xalq og’zaki ijodining qaysi janrlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mosligini va ularning ongiga ta’sirini tahlil qiling (janr, she’r, ertak, topishmoq va boshqalar).
4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini o’stirish ishlariga uslubiy rahbarlik qilish qanday amalga oshiriladi?

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii**

**VARIANT 9**

1. Bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutqni shakllantirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi o’rta guruh bolalari uchun o’rgatilishi lozim bo’lgan badiiy adabiyot turlari.
3. Xalq og’zaki ijodining qaysi janrlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mosligini va ularning bolalar ongiga ta’sirini tahlil qiling (janr, she’r, ertak, topishmoq va boshqalar)
4. Ikki yoshga qadam qo’ygan bolalarda nutq va boshqa o’zgarishlar (t.i.: umumlashtirish, tanish, ilk so’zlar).

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii**

**VARIANT 10**

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda yozish ko’nikmalarini shakllantirish uchun qo’yiladigan gegeenik talablar.
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dastur vazifalari (o’rganish, oy va haftalarga mo’ljallab mashg’ulotlarni bo’lish).
3. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni rejalashtirish va ushbu ishlarning hisobini yuritish qanday amalga oshiriladi (ilk bosqich, o’rta, tayyorlov, mashg’ulot).
4. Bayon qiluvchi monologlar tuzishga o’rgatish (t.i.: bola, so’zlab berish, hikoya tuzish).

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii**

**VARIANT 11**

1. Rejalashtirish turlari va ularni amalga oshirish (mashg’ulotlar, vazifalar, uslublar usullar, yakkama – yakka ish).
2. Ona tilining grammatik qurilishi (so’z shakli, qo’shimcha, qiyin qo’shimchalar).
3. Tovushlarni yaxshi eshitmaydigan bolalarda nutqning buzilishi (eshitish a’zolarini rivojlantirish, yaxshi eshitmaslik oqibati).
4. Bola nutqini shakllantirishning necha xil usuli mavjud (t.i.: ilk so’zlar, dialogik nutq).

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii**

**VARIANT 12**

1. Nutqning normal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi nutqiy kasalliklar va uning oldini olish usullari.
2. Bolalikning ilk bosqichlarida nutqni rivojlantirishning ahamiyati (atak-chechak so’zlar, ilk tushunarli va tushunarsiz so’zlar).
3. Nutqning tinglash qobiliyatini shakllantirishga doir mashg’ulotlar qanday o’tkaziladi? (diqqatni barqarorlashtirish, tinglashga o’rgatish).
4. Tayyorlov guruhidagi bolalarni o‘qish va yozishga o‘rgatishda ularning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish.

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakultet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii**

**VARIANT 13**

1. Bolaning badiiy asar bilan qachon, qayerda va qanday hamkorligi unga estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish borasidagi potensialini amalga oshirish imkonini beradi?
2. Tovushlarni yaxshi eshitmaydigan bolalarda nutqning buzilishi (nutq to’xtashi, uning bola hayotiga ta’siri).

3. Til va Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii fani bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida ma’lumot bering. (t.i.: Ushinskiy, Vodovozova, Flerina).
4. Maqol va uning ahamiyati (t.i.: xalq hayoti, tajribalar, nutq bazasi, tarbiyaviyligi).
5. Biror badiiy adabiyot janridan misol keltiring va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili:2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii**

**VARIANT 14**

1. Hikoya qilishga o’rgatishning metodik turlari (t.i.: hikoya, qayta hikoya, savol-javob).
2. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish metodikasi fani bo’yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari haqida yozing (Tixeyeva, Razbayeva, Q.Shodiyeva).
3. Bolalarda nutq rivojlanishining vaqtincha to’xtashi (nutq, sust rivojlanish, uyalish, to’xtash, tortinish, muloqotga kirisha olmaslik va boshqalar).
4. Katta yoshdagilarning bola bilan muloqoti. Emosional va mazmunli muloqot (o’rtadagi farq, kengroq tushuntirish, ta’sir o’tkazish va boshqalar). Biror badiiy adabiyot janridan misol keltiring va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.

Kafedra mudiri: dots. E.Mardanov

**O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi**
**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**
**Fakul’tet: Pedagogika Yo’nalish: 5141700 - Maktabgacha ta’lim**
**O’quv yili: 2019-2020 Kurs: 3. K/B Semestr: 5**
**Fan: Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii**

**VARIANT 15**

1. Bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirish vositalari. Bolalarda nutqni rivojlantirish usullari (t.i.: Nutqni rivojlantirishning turli yo’llari, grammatik, tovush, lug’at va boshqalar).
2. Ravon nutq turlari. Bolalarni dialogik nutqqa o’rgatish uslubiyati (t.i.: dialogik, so’zlashuv, monologik, hikoya qiluvchi).
3. Mtmda bolalar nutqini o‘stirishda olib boriladigan mashg‘ulot turlarini izohlang.
4. M/t yoshidagi bolalarni o’qishga o’rgatishning ahamiyati.

## NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANIDAN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1. Bolalarni yozuvga o’rgatishda analitik – sintetik metoddan foydalanish(yozuv, uning bola hayotidagi o’rni, tahlil qilish, bog’lash).
2. Dastlabki tushunarli so’zlarni gapirishga o’rgatish uslubiyati (sekin-asta gapirish, har qiyqiriq va ovozlardan so’ng ishlanadigan ilk so’zlar).
3. Nutqni rivojlantirishda ta’limning o‘rni nimadan iborat?
4. Ertak janri haqida ma’lumot bering, uning bolaning nutqini o’stirishdagi o’rnini qanday baholaysiz? (xalq og’zaki ijodi, janr, tur va xususiyatlari).
5. Maktabgacha ta’lim bolalar adabiyoti haqida ma’lumot bering. (xalq og’zaki ijodi, bolalar adabiyoti vakilari).
6. Hikoya qilishga o’rgatishning metodik turlari (hikoya, qayta hikoya, savol-javob).
7. Maktabgacha ta’lim muassasasida nutq o‘stirishga tadbirlarni o‘tkazish qoidalari.
8. Tez aytish va uning maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga o’rgatiladigan turi hamda ahamiyati haqida ma’lumot keltiring.
9. Bog‘lanishli nutq haqida umumiy ma’lumot.
10. 6-7 yoshli bolalarga bog‘lanishli nutq mashg‘ulotlarini rejalashtirishda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.
11. MTMda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish shakllari va metodlari.
12. 6-7 yoshli bolalarda bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlantirishga qo‘yiladigan talablar.
13. Bayon qiluvchi monologlar tuzishga o’rgatish (bola, so’zlab berish, hikoya tuzishi).
14. Bog’chada she’riy muhit yaratish va uning bola hayotidagi o’rni.
15. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o’qishga o’rgatishda individual xususiyatlarni hisobga olish (bolaning ruhiy holati, o’ziga xos xususiyati).
16. Ertaklar hamda uning bola va tarbiyachi o’rtasidagi o’rni (t.i.: ertak nomlari, ularning ahamiyati, tarbiyachi nutqidagi o’rni).
17. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug’atni o’zlashtirishdagi o’ziga xos xususiyatlari (lug’at, so’zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o’rgatish, bolalar lug’atini boyitish).
18. Hikoya qilishga o’rgatishning metodik turlari (hikoya, qayta hikoya, savol-javob).
19. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarda so’zning tovush jihatidan tanishtirilishi (tovush, bo’g’in, so’z, ibora, tovushlarni farqlash, anglash).
20. Nutqiy va fonematik eshitishni rivojlantirish deganda nima tushuniladi? (eshitish organlari kamchiliklari, nutq tovushlarini farqlash, adrok qilish)
21. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dastur vazifalari (o’rganish, oy va haftalarga mo’ljallab mashg’ulotlarni bo’lish).

22. Ravon nutq turlari. Bolalarni monologik nutqqa o'rgatish uslubiyati (katta guruh, monolog, so'zlab berish).
23. Bolalarni oddiy va murakkab sintaktik tuzilmalarga o'rgatish metodikasi deganda nima tushuniladi (oddiy so'z birikmalari, murakkab so'z birikmalari, gap va murakkab gaplar).
24. Bog'lanishli nutq texnologiyasi deyilganda nima tushuniladi?
25. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishitish uchun qo'yiladigan talablar.
26. Bolalar nutqini rivojlantirishning lingvistik asoslari (til, lug'at, grammatik, tovush va booshqalar).
27. 6-7 yoshli bolalarga bog'lanishli nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlar turlari haqida yozing.
28. Nutq o'stirish bo'yicha Chet elda qanday tadqiqot ishlari olib borilgan?
29. Bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash ishining mohiyatini izohlang.
30. Maktabgacha tarbiya muassasalarida lug'at bilan ishlash vazifasi va mazmuni (ilk yosh, o'rta guruh, katta guruh).
31. Xalq og'zaki ijodining qaysi janrlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mosligini va ularning ongiga ta'sirini tahlil qiling (janr, she'r, ertak, topishmoq va boshqalar).
32. 6-7 yoshli bolalarda bog'lanishli nutq texnologiyasini rivojlantirishga oid qanday mavzularni bilasiz?
33. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirishdagi ona tilining roli (fonetik, grammatik va boshqalar).
34. Maktabgacha tarbiya yoshidagi o'rta guruh bolalari uchun o'rgatilishi lozim bo'lgan badiiy adabiyot turlari.
35. Xalq og'zaki ijodining qaysi janrlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mosligini va ularning bolalar ongiga ta'sirini tahlil qiling (janr, she'r, ertak, topishmoq va boshqalar)
36. Maktabgacha ta'lim muassasasida nutq o'stirishga oid tadbirlarni o'tkazish qoidalari haqida yozing.
37. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda yozish ko'nikmalarini shakllantirish uchun qo'yiladigan gegeenik talablar.
38. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dastur vazifalari (o'rganish, oy va haftalarga mo'ljallab mashg'ulotlarni bo'lish).
39. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni rejalashtirish va ushbu ishlarning hisobini yuritish qanday amalga oshiriladi (ilk bosqich, o'rta, tayyorlov, mashg'ulot).
40. MTMda bog'lanishli nutqni rivojlantish shakllariga oid qanday mavzularni bilasiz?
41. Rejalashtirish turlari va ularni amalga oshirish (mashg'ulotlar, vazifalar, uslublar usullar, yakkama – yakka ish).
42. Ona tilining grammatik qurilishi (so'z shakli, qo'shimcha, qiyin qo'shimchalar).

43. 6-7 yoshli bolalarda bog‘lanishli nutqni rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish.
44. Bola nutqini shakllantirishning necha xil usuli mavjud (t.i.: ilk so’zlar, dialogik nutq).
45. Tarbiyachi nutqi. Tarbiyachining kommunikativ mahorati (ravon nutq namunasi, tekis va sof ovoz).
46. Bog‘lanishli nutq haqida umumiy ma’lumot bering.
47. Nutqning tinglash qobiliyatini shakllantirishga doir mashg’ulotlar qanday o’tkaziladi? (diqqatni barqarorlashtirish, tinglashga o’rgatish).
48. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dastur vazifalari (t.i.: o’rganish, oy va haftalarga mo’ljallab mashg’ulotlarni bo’lish).
49. Til va Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii fanining predmeti, vazifalari va maqsadi (til, nutq o’stirish, grammatik jihat, lug’aviy).
50. Til va Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii fani bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida ma’lumot bering. (t.i.: Ushinskiy, Vodovozova, Flerina).
51. Maqol va uning ahamiyati (t.i.: xalq hayoti, tajribalar, nutq bazasi, tarbiyaviyligi).
52. Hikoya qilishga o’rgatishning metodik turlari (t.i.: hikoya, qayta hikoya, savol-javob).
53. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish metodikasi fani bo’yicha olib borilayotgan ishlari haqida yozing (Tixeyeva, Razbayeva, Q.Shodiyeva).
54. Nutqni rivojlantirish dasturining ilmiy asosi haqida yozing.
55. Katta yoshdagilarning bola bilan muloqoti. Emosional va mazmunli muloqot (o’rtadagi farq, kengroq tushuntirish, ta’sir o’tkazish va boshqalar).
56. Bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirish vositalari. Bolalarda nutqni rivojlantirish usullari (t.i.: Nutqni rivojlantirishning turli yo’llari, grammatik, tovush, lug’at va boshqalar).
57. Barcha yosh bosqichlarida bolalar nutqini rivojlantirishga doir pedagogik ishlar qanday amalga oshiriladi?
58. Bolalar lug’atini boyitishga xizmat qiluvchi jiodiy hikoya tuzing.
59. Nutq o’stirish fanini o’rganishdan maqsad nima? (t.i.: nutq, til, nutqni rivojlantirish, fikrni aniq yetkazish).
60. Bog‘lanishli nutq haqida umumiy ma’lumot bering.
61. Bolaning nutqi rivojlanish davrida eshituv diqqatining ahamiyati (t.i.: eshituv diqqati, taqlidchanlik, eshitmagandagi holatlar).
62. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
63. Xalq og’zaki ijodi va uning bola nutqini o’stirishdagi ahamiyati (maqol, matal, tez aytish, topishmoq va boshqalar).

64. Dastlabki tushunarli so’zlarni gapirishga o’rgatish uslubiyati (sekin-asta gapirish, har qiyqiriq va ovozlardan so’ng ishlanadigan ilk so’zlar).
65. Ravon nutq turlari. Bolalarni dialogik nutqqa o’rgatish uslubiyati (t.i.: dialogik, so’zlashuv, monologik, hikoya qiluvchi).
66. Katta yoshdagilarning bola bilan muloqoti. Emosional va mazmunli muloqot (o’rtadagi farq, kengroq tushuntirish, ta’sir o’tkazish va boshqalar).
67. Savod o’rganishga tayyorlash davrida bolalarni o’qishga o’rgatishning analitik – sintetik tovush metodi haqida ma’lumot bering (savod o’rgatish davri, bug’inlash , bo’lish, birlashtirish).
68. Lug’at ishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug’atni o’zlashtirishdagi o’ziga xos xususiyatlari (lug’at, so’zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o’rgatish, bolalar lug’atini boyitish).
69. Barcha yosh bosqichlarida bolalar nutqini rivojlantirishga doir pedagogik ishlar qanday amalga oshiriladi?
70. Bolalarni yozishga o’rgatishda ta’limiy talablar va ko’rgazmalilik haqida ma’lumot bering (ta’lim berish, mashg’ulot o’tkazish qoidasi).
71. Bayon qiluvchi monologlar tuzishga o’rgatish (bola, so’zlab berish, hikoya tuzishi).
72. Grammatika haqida umumiy tushuncha bering (t.i.: tuzilish, shakl, so’z turkumi, qo’shimcha va boshqalar).
73. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dastur vazifalari (o’rganish, oy va haftalarga mo’ljallab mashg’ulotlarni bo’lish).
74. Topishmoqlar va uning bola nutqini o’stirishdagi ahamiyati.(topishmoqning turlari, bola yoshini hisobga olish)..
75. Nutqni rivojlantirish metodikasi fanida ona tilining roli (t.i.: tilni bilish zaruriyati, til va nutq hamda uning bog’liqligi).
76. Barcha yosh bosqichlarida bolalar nutqini sayrlar vositasida o‘stirish.
77. Bola nutqini shakllantirishning necha xil usuli mavjud (t.i.: tovush madaniyati, lug’at, grammatik va b.q.).
78. Maktabgacha ta’lim muassasida bolalar uchun she’riy muhit yaratish va uning ahamiyati.
79. Bolalarni oddiy va murakkab sintaktik tuzilmalarga o’rgatish metodikasi deganda nima tushuniladi (oddiy so’z birikmalari, murakkab so’z birikmalari, gap va murakkab gaplar).
80. Turli yosh guruhlarida bolalarning tovush madaniyatini tarbiyalash bosqichlari va bunday ishlarni amalga oshirish.
81. Xalq og’zaki ijodining qaysi janrlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mosligini va ularning ongiga ta’sirini tahlil qiling (janr, she’r, ertak, topishmoq va boshqalar).
82. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dastur vazifalari (o’rganish, oy va haftalarga mo’ljallab mashg’ulotlarni bo’lish).

83. Lug’at ishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug’atni o’zlashtirishdagi o’ziga xos xususiyatlari (lug’at, so’zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o’rgatish, bolalar lug’atini boyitish).
84. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish metodikasi fani bo’yicha olib borilayotgan ishlari haqida yozing (Tixeyeva, Razbayeva, Q.Shodiyeva).
85. Katta yoshdagilarning bola bilan muloqoti. Emosional va mazmunli muloqot (o’rtadagi farq, kengroq tushuntirish, ta’sir o’tkazish va boshqalar).
86. Nutqning tinglash qobiliyatini shakllantirishga doir mashg’ulotlar qanday o’tkaziladi? (diqqatni barqarorlashtirish, tinglashga o’rgatish).
87. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dastur vazifalari (t.i.: o’rganish, oy va haftalarga mo’ljallab mashg’ulotlarni bo’lish).
88. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishitish uchun qo’yiladigan talablar.
89. Bolalar nutqini rivojlantirishning lingvistik asoslari (til, lug’at, grammatik, tovush va booshqalar).
90. 6-7 yoshli bolalarga bog‘lanishli nutqni rivojlantirishga doir mashg‘ulotlar turlari haqida yozing.
91. Nutq o‘stirish bo‘yicha Chet elda qanday tadqiqot ishlari olib borilgan?
92. Bolalarni yozuvga o’rgatishda analitik – sintetik metoddan foydalanish(yozuv, uning bola hayotidagi o’rni, tahlil qilish, bog’lash).
93. Dastlabki tushunarli so’zlarni gapirishga o’rgatish uslubiyati (sekin-asta gapirish, har qiyqiriq va ovozlardan so’ng ishlanadigan ilk so’zlar).
94. Nutqiy va fonematik eshitishni rivojlantirish (nutq, nutq tovushlari, eshitish a’zolari, ularni tarbiyalash, asrab-avaylash).
95. Biror badiiy adabiyot janridan misol keltiring va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.
96. Maktabgacha ta’lim bolalar adabiyoti haqida ma’lumot bering. (xalq og’zaki ijodi, bolalar adabiyoti vakilari).
97. Vodovozovaning «Til va Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii»ga qo’shgan hissasi (t.i: xalq og’zaki ijodi, folkor, tilni o’qitish).
98. Kichik guruh bolalarining lug’atini o’stirishda tarbiyachining e’tibori va o’tkaziladigan mashg’ulot turlari (lug’at ishi, uning turlari, mohiyati, mashg’ulot turlari).
99. Ravon nutq nima? Maktabgacha yosh davrida ravon nutqni rivojlantirishning o’ziga xos xususiyatlari.
100. Grammatika haqida umumiy tushuncha bering (t.i.: tuzilish, shakl, so’z turkumi, qo’shimcha va boshqalar).
101. Rejalashtirish turlari va va uning ahamiyati.
102. Biror badiiy adabiyot janridan misol keltiring va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.

103. Bayon qiluvchi monologlar tuzishga o’rgatish (bola, so’zlab berish, hikoya tuzishi).
104. Bog’chada she’riy muhit yaratish va uning bola hayotidagi o’rni.
105. Bolalarda nutq rivojlanishining vaqtincha to’xtashi (nutq, sust rivojlanish, uyalish, to’xtash, tortinish, muloqotga kirisha olmaslik va boshqalar).
106. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni o’qishga o’rgatishda individual xususiyatlarni hisobga olish (bolaning ruhiy holati, o’ziga xos xususiyati).
107. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug’atni o’zlashtirishdagi o’ziga xos xususiyatlari (lug’at, so’zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o’rgatish, bolalar lug’atini boyitish).
108. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarda so’zning tovush jihatidan tanishtirilishi (tovush, bo’g’in, so’z, ibora, tovushlarni farqlash, anglash).
109. Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish qanday amalga oshiriladi?
110. Qayta hikoya qilishga o’rgatishning metodik turlari. Bolalarni monologik nutqqa o’rgatish uslubiyati (katta guruh, monolog, so’zlab berish).
111. Nutqi buzilgan bolalarga tarbiyachining alohida munosabati (nutq buzilishi, nutqning o’sishdan to’xtashi, tarbiyachining alohida munosabati).
112. Bolalar nutqini rivojlantirishning lingvistik asoslari (til, lug’at, grammatik, tovush va booshqalar).
113. Qanday bolalar nutqida kamchilik bo’ladi? Nutqida kamchiligi bor bolalar bilan ishlash usullarini ta’riflang. (guruhlararo, individual, duduqlik, sut nutqlilik).
114. Ilk yoshdagi bolalar nutqini o’stirishga qo’yilgan talablar (t.i.: muomalada bo’lish, ko’zdan kechirish, nomini aytish).
115. Bolalarni savod o’rgatishga tayyorlash ishining mohiyatini izohlang.
116. Bolalar nutqini shakllantirish bo‘yicha Chet el va Rossiyada olib borilgan tadqiqot ishlari va yo‘nalishlari haqida yozing.
117. Xalq og’zaki ijodining qaysi janrlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mosligini va ularning ongiga ta’sirini tahlil qiling (janr, she’r, ertak, topishmoq va boshqalar).
118. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini o’stirish ishlariga uslubiy rahbarlik qilish qanday amalga oshiriladi?
119. Bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutqni shakllantirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
120. Maktabgacha tarbiya yoshidagi o’rta guruh bolalari uchun o’rgatilishi lozim bo’lgan badiiy adabiyot turlari.
121. Ikki yoshga qadam qo’ygan bolalarda nutq va boshqa o’zgarishlar (t.i.: umumlashtirish, tanish, ilk so’zlar).

122. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda yozish ko’nikmalarini shakllantirish uchun qo’yiladigan gegeenik talablar.
123. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni rejalashtirish va ushbu ishlarning hisobini yuritish qanday amalga oshiriladi (ilk bosqich, o’rta, tayyorlov, mashg’ulot).
124. Bayon qiluvchi monologlar tuzishga o’rgatish (t.i.: bola, so’zlab berish, hikoya tuzish).
125. Rejalashtirish turlari va ularni amalga oshirish (mashg’ulotlar, vazifalar, uslublar usullar, yakkama – yakka ish).
126. Ona tilining grammatik qurilishi (so’z shakli, qo’shimcha, qiyin qo’shimchalar).
127. Tovushlarni yaxshi eshitmaydigan bolalarda nutqning buzilishi (eshitish a’zolarini rivojlantirish, yaxshi eshitmaslik oqibati).
128. Nutqning normal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi nutqiy kasalliklar va uning oldini olish usullari.
129. Bolalikning ilk bosqichlarida nutqni rivojlantirishning ahamiyati (atak-chechak so’zlar, ilk tushunarli va tushunarsiz so’zlar).
130. Nutqning tinglash qobiliyatini shakllantirishga doir mashg’ulotlar qanday o’tkaziladi? (diqqatni barqarorlashtirish, tinglashga o’rgatish).
131. Tayyorlov guruhidagi bolalarni o‘qish va yozishga o‘rgatishda ularning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish.
132. Bolaning badiiy asar bilan qachon, qayerda va qanday hamkorligi unga estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish borasidagi potensialini amalga oshirish imkonini beradi?
133. Til va Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasii fani bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida ma’lumot bering. (t.i.: Ushinskiy, Vodovozova, Flerina).
134. Maqol va uning ahamiyati (t.i.: xalq hayoti, tajribalar, nutq bazasi, tarbiyaviyligi).
135. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish metodikasi fani bo’yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari haqida yozing (Tixeyeva, Razbayeva, Q.Shodiyeva).
136. Bolalarda nutq rivojlanishining vaqtincha to’xtashi (nutq, sust rivojlanish, uyalish, to’xtash, tortinish, muloqotga kirisha olmaslik va boshqalar).
137. Katta yoshdagilarning bola bilan muloqoti. Emosional va mazmunli muloqot (o’rtadagi farq, kengroq tushuntirish, ta’sir o’tkazish va boshqalar). Biror badiiy adabiyot janridan misol keltiring va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.
138. Bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirish vositalari. Bolalarda nutqni rivojlantirish usullari (t.i.: Nutqni rivojlantirishning turli yo’llari, grammatik, tovush, lug’at va boshqalar).
139. Mtmda bolalar nutqini o‘stirishda olib boriladigan mashg‘ulot turlarini izohlang.

140. M/t yoshidagi bolalarni o'qishga o'rgatishning ahamiyati.
141. Biror badiiy adabiyot janridan misol keltiring va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.
142. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda maktabgacha ta'lim muassasalari va ota-onalarning vazifalari nimadan iborat?
143. Bolaning nutqi rivojlanish davrida eshituv diqqatining ahamiyati (t.i.: eshituv diqqati, taqlidchanlik, eshitmagandagi holatlar).
144. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
145. Xalq og'zaki ijodi va uning bola nutqini o'stirishdagi ahamiyati (maqol, matal, tez aytish, topishmoq va boshqalar).
146. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashda bolalar badiiy adabiyotining ahamiyati hamda she'riy asarlar .
147. Sintaktik tuzilmalarni tuzishga o'rgatish uslubiyati (so'z birikmasi, gaplar tuzish)
148. Ravon nutq turlari. Bolalarni monologik nutqqa o'rgatish uslubiyati (t.i.: dialogik, so'zlashuv, monologik, hikoya qiluvchi).
149. Katta yoshdagilarning bola bilan muloqoti. Emosional va mazmunli muloqot (o'rtadagi farq, kengroq tushuntirish, ta'sir o'tkazish va boshqalar).
150. Savod o'rganishga tayyorlash davrida bolalarni o'qishga o'rgatishning analitik – sintetik tovush metodi haqida ma'lumot bering (savod o'rgatish davri, bug'inlash , bo'lish, birlashtirish).
151. Lug'at ishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atni o'zlashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlari (lug'at, so'zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o'rgatish, bolalar lug'atini boyitish).
152. MTMda she'riy muhit yaratish usullari.
153. Biror badiiy adabiyot janridan misol keltiring va tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qiling.
154. Bolalarni yozishga o'rgatishda ta'limiy talablar va ko'rgazmalilik haqida ma'lumot bering (ta'lim berish, mashg'ulot o'tkazish qoidasi).
155. Grammatika haqida umumiy tushuncha bering (t.i.: tuzilish, shakl, so'z turkumi, qo'shimcha va boshqalar).
156. Nutqda nafas olish va ritm sur'atini yaxshilash qanday amalga oshiriladi?
157. Nutqning normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi nutqiy kasalliklar va uning oldini olish usullari.
158. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning o'ziga xos xususiyatlari.
159. Mtmda katta guruh bolalarini bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish qanday amalgam oshiriladi?.
160. Maqol va uning ahamiyati (t.i.: xalq hayoti, tajribalar, nutq bazasi, tarbiyaviyligi).

161. Bolalarda nutq rivojlanishining vaqtincha to’xtashi (nutq, sust rivojlanish, uyalish, to’xtash, tortinish, muloqotga kirisha olmaslik va boshqalar).
162. Bolalarni oddiy va murakkab sintaktik tuzilmalarga o’rgatish metodikasi deganda nima tushuniladi (oddiy so’z birikmalari, murakkab so’z birikmalari, gap va murakkab gaplar).
163. Turli yosh guruhlarida bolalarning tovush madaniyatini tarbiyalash bosqichlari va bunday ishlarni amalga oshirish.
164. Nutqning tovush tovush madaniyati bo‘limlarini keltiring.
165. Lug’at ishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug’atni o’zlashtirishdagi o’ziga xos xususiyatlari (lug’at, so’zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o’rgatish, bolalar lug’atini boyitish).
166. Ona tilining grammatik qurilishi (so’z shakli, qo’shimcha, qiyin qo’shimchalar).
167. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug’atni o’zlashtirishdagi o’ziga xos xususiyatlari (lug’at, so’zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o’rgatish, bolalar lug’atini boyitish).
168. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarda so’zning tovush jihatidan tanishtirilishi (tovush, bo’g’in, so’z, ibora, tovushlarni farqlash, anglash).
169. Nutqiy va fonematik eshitishni rivojlantirish deganda nima tushuniladi? (eshitish organlari kamchiliklari, nutq tovushlarini farqlash, adrok qilish)
170. Bolalar nutqidagi morfologik kamchiliklar va ularni bartaraf etish usullari.
171. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda yozish ko’nikmalarini shakllantirish uchun qo’yiladigan gegeenik talablar.
172. Ilk yoshdagi bolalarga badiiy adabiyotni o‘rgatish qanday amalga oshiriladi?
173. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni rejalashtirish va ushbu ishlarning hisobini yuritish qanday amalga oshiriladi (ilk bosqich, o’rta, tayyorlov, mashg’ulot).
174. Bayon qiluvchi monologlar tuzishga o’rgatish (t.i.: bola, so’zlab berish, hikoya tuzish).
175. Bolalarni savod o’rgatishga tayyorlash ishining mohiyatini izohlang.
176. Maktabgacha tarbiya muassasalarida lug’at bilan ishlash vazifasi va mazmuni (ilk yosh, o’rta guruh, katta guruh).
177. Xalq og’zaki ijodining qaysi janrlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mosligini va ularning ongiga ta’sirini tahlil qiling (janr, she’r, ertak, topishmoq va boshqalar).
178. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini o’stirish ishlariga uslubiy rahbarlik qilish qanday amalga oshiriladi?
179. Bolalarda lug‘atni rivojlantirishning asosiy uch xususiyatini keltiring va izohlang.

180. Qayta hikoya qilishga o’rgatishning metodik turlari. Bolalarni monologik nutqqa o’rgatish uslubiyati (katta guruh, monolog, so’zlab berish).
181. Bolalarni oddiy va murakkab sintaktik tuzilmalarga o’rgatish metodikasi deganda nima tushuniladi (oddiy so’z birikmalari, murakkab so’z birikmalari, gap va murakkab gaplar).
182. Nutqi buzilgan bolalarga tarbiyachining alohida munosabati (nutq buzilishi, nutqning o’sishdan to’xtashi, tarbiyachining alohida munosabati).
183. Nutqning normal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi nutqiy kasalliklar va uning oldini olish usullari.
184. Bolalikning ilk bosqichlarida nutqni rivojlantirishning ahamiyati (atak-chechak so’zlar, ilk tushunarli va tushunarsiz so’zlar).
185. Nutqning tinglash qobiliyatini shakllantirishga doir mashg’ulotlar qanday o’tkaziladi? (diqqatni barqarorlashtirish, tinglashga o’rgatish).
186. Savod o‘rgatish davrida bolalar nutqini o‘stirish qanday amalgam oshiriladi?
187. Bayon qiluvchi monologlar tuzishga o’rgatish (bola, so’zlab berish, hikoya tuzishi).
188. Lug’at ishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug’atni o’zlashtirishdagi o’ziga xos xususiyatlari (lug’at, so’zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o’rgatish, bolalar lug’atini boyitish).
189. Tarbiyachi nutqi. Tarbiyachining kommunikativ mahorati (t.i.: ravon nutq namunasi, tekis va sof ovoz).
190. Bolalar lug’atini boyitishga xizmat qiluvchi ijodiy lug’at tuzing. Lug’atni boyitish mashg’ulotlaridan yana qaysi turini bilasiz?
191. Bolalar nutqidagi grammatik xatoliklarni to‘g‘rilash va ular nutqini o‘stirish.
192. Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug’atni o’zlashtirishdagi o’ziga xos xususiyatlari (lug’at, so’zlarni tushuntirish, ularni yod olishga o’rgatish, bolalar lug’atini boyitish).
193. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarda so’zning tovush jihatidan tanishtirilishi (tovush, bo’g’in, so’z, ibora, tovushlarni farqlash, anglash).
194. Lug’at ishlariga oid dasturlarni amalga oshirish mashg’ulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim necha xil ko’rinishdagi mashg’ulotlardan tashkil topadi
195. Bolalar nutqini o‘stirishda mustaqil badiiy nutq faoliyatining ahamiyati.
196. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish metodikasi fani bo’yicha olib borilayotgan ishlari haqida yozing (Tixeyeva, Razbayeva, Q.Shodiyeva).
197. Bolalar lug’atini boyitishga xizmat qiluvchi ijodiy lug’at tuzing. Lug’atni boyitish mashg’ulotlaridan yana qaysi turini bilasiz?
198. O‘rta yosh guruhidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

199. Kundalik hayotda bolalarning nutqidagi grammatik nuqsonlarni tuzatib borish qanday amalga oshiriladi?

200. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirishning fiziologik asoslari (nutq a’zolari, nutqning organlarini rivojlantirish va ularni asrash).

## TEST SAVOLLARI

1. Bolalarda nutqni eshitish qanday hodisani yuzaga keltiradi?
fonematik idrok qilishni
nutqda nafas olishnni
xotirani rivojlantirishni
nutqda talaffuz qilishni

2. Ovoz va nutqning vujudga kelishida…...
nafas olish asos hisoblanadi
idrok qilish asos hisoblanadi
nutqni yuzaga chiqishi
tovushni talaffuz qilish

3. Nutqimizda so‘zlarning qobig‘ini nima tashkil qiladi?
nutq tovushlari
sozlar talaffuzi
gap tuzish
so‘z birikmasi

4. So‘zning borliqdagi shaxs, narsa, belgi, miqdor, harakat-holat haqidagi tushunchalarini ifodalashi uning….
lug‘aviy ma’nosi deyiladi.
grammatik ma’nosi deyiladi
lug‘aviy-grammatik ma’nosi deyiladi.
Bir m’noliligi deyiladi

5. Farzandni oilaga quvonch va baxt keltiruvchi shamchiroq deb ta’kidlagan mutafakkirni belgilang.
Alisher Navoiy
Ibn Sino
Beruniy
Dovoniy

6. “Axloqi Jaloli” asari muallifini belgilang.
Dovoniy
Alisher Navoiy
Forobiy
Beruniy

7. Qaysi mutafakkir olim o‘z asarlarida ta’limning uzluksiz, ko‘rgazmali, aniq maqsadga yo‘naltirilishi va muayyan tizim asosida o‘tkazilishi zarurligini ta’kidlagan?

Beruniy
Dovoniy
Ushinskiy
Forobiy

8. Qaysi adib bola tarbiyasi bilan enaga shug‘ullanishi kerakligini, bolani tarbiyalayotganda uning shaxsiga tegmasdan tarbiyalash lozimligini ta’kidlagan?

Ibn Sino
Beruniy
Forobiy
Bobur

9. Mtmda ona tilini o‘qitishning asoslarini belgilab bergan va bolalarni xalqona ohangda tarbiyalash kerak degan g‘oyani ilgari surgan olimni belgilang.

K.D.Ushinskiy
Vodovozova
Flerina
Komenskiy

10. Quyidagilardan qaysi asar Ushinskiyga tegishli va nechanchi yilda chop etilgan?

“Ona tili”, 1861 yil
“Aqliy rivojlanish” 1871 yil
“Axloqi Jaloli” XV asr
“Ona tili” 1761

11. K.D.Ushinskiy ona tilini birlamchi o‘qitishning nechta asosiy maqsadini shakllantirgan?

3 ta
2 ta
4 ta
5 ta

12. Mtmda bolalarga ona tilini o‘qitish bo‘yicha Ushinskiy ishlarining davomchisi va shogirdini belgilang.

Vodovozova
Flerina
A.N.Gvozdev
Leontev

13. Bolalarda ona tilini rivojlantirish dasturiva bolalarni tarbiyalashda rus folkloridan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan shaxsni belgilang?

E.N. Vodovozova
A.R.Usova
Y.A.Flerina
Y.I. Tixeyeva

14. Mtmda kichik yoshga nisbatan "tilni o'qitish" atamasini qo'llagan va bu o'quvni amalga oshirish mtmning asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlagan olimni belgilang.
Y.I. Tixeyeva
E.N. Vodovozova
A.R.Usova
Y.A.Flerina
15. Quyidagilardan Vodovozovaning asarini hamda yozilgan yilini belgilang.
"Aqliy rivojlanish" 1871 yil
"Ona tili" 1861 yil
"Onalar maktabi" 1766 yil
"Aqliy rivojlanish" 1861 yil
16. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish muammosini tor darajada hal etish"ning xafliligi haqida ogohlantirgan olimani toping.
Y.A.Flerina
A.R.Usova
E.N. Vodovozova
Y.I. Tixeyeva
17. XX asrning nechanchi yillariga kelib maktabgacha ta'limda nutq o'stirish metodiukasiga bog'liq nazariy va amaliy tadqiqotlar tanqidga uchradi?
70 – 80- yillarga
55 – 65 – yillarga
80 – 90 - yillarga
50 – 60 – yillarga
18. "Nutq o'ziga xos faoliyat sifatida boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda turmaydi, u psixologik rivojlanish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi..". Ushbu fikr muallifini toping.
A.N.Leontev
L.S.Vigotskiy
B.F.Lomov
Ushinskiy
19. XX asrning 50-yillarida qanday g'oyalar ta'siri doirasida imitatsion yondashuv ajralib chiqdi?
bixeviorizm va neoxeviorizm doirasida
mantiqiylik va obrazlilik doirasida
lug'aviylik va shakliylik doirasida
tilshunoslik doirasida
20. XX asrning qaysi yillari boshlarida grammatikani vujudga keltiruvchi transformatsion nazariyaga asoslangan bolalarning taklif yaratishi nazariyasi keng tarqaldi?
60 – yillar boshlarida
50 - yillar boshlarida
70 - yillar boshlarida
80 - yillar boshlarida

21. Bola nutqi - ….
 - bolaga oid bo‘lgan o‘ziga xos madaniyatning qimmatli ovozidir.
 - bolani gapirishni o‘rganishi
 - so‘zlarni yod olishi
 - psixik rivojlanmaslik
22. Tarbiyachining sayoz, cheklangan ta’sirsiz nutqi bolalarni …
 - nutq mazmuniga e’tiborsiz qilib qo‘yib, zeriktirib yuboradi.
 - bolalar nutqini yaxshilaydi
 - bolalarga juda qiziqarli bo‘ladi
 - bolalarni kuldiradi
23. Talaffuz etishning tovush jihatidan necha xil uslubi bor va ular qaysilar?
 - ikki xil: so‘zlashuv uslubi va to‘liq uslub
 - uch xil: so‘zlashuv, adabiy til va to‘liq uslublar
 - ikki xil: so‘zlashuv uslubi va badiiy uslub
 - tort xil: og‘zaki, yozma, to‘liq, so‘zlashuv uslublari
24. «Bixeviorizm» so’zining ma’nosi qaysi javobda to’g’ri berilgan?
 Inglizcha – xulq-atvor (harakat), tashqi ta’sir, tan (badan) aks ta’sir
 Rumincha – so’ngan vulqon
 Grekcha – tushunmoq, qo’llamoq
 Lotincha – ikkilangan
25. Kim “… bog‘chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna bog‘bonning (tarbiyachining) tilidir… ” deb ta’kidlagan?
Y.I. Tixeyeva
E.N. Vodovozova
 A.R.Usova
 Y.A.Flerina
26. ilk yoshdagi boalar nutqini o‘stirish necha davrga bo‘linadi va ular qaysilar?
 Ikki davrga: tayyorgarlik va mustaqil nutqni tarkib toptirish davri
 Uch davrga: tayyorgarlik, mustaqil nutqni tarkib toptirish, amalda qo‘llash davri
 Ikki davrga: so‘zlashuv uslubi va to‘liq uslub davri
 Hech qanday davrlarga bo‘linmay bolaning xohishida paydo bo‘ladi.
27. har bir kishi hayotida mihim ahamiyatga ega bo‘lgan nutq nechta vazifalarni bajaradi?
Uchta asosiy vazifani
Ikkita asosiy vazifani
To‘rtta asosiy vazifani
Oltita asosiy vazifani
28. Kishilarning muloqotini va o‘zaro bir-birlarini tushunishlarini ta’minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikr….
Ravon nutq deyiladi.
Asosiy nutq deyiladi
Nutq deyiladi
Monolog deyiladi
29. Monologning maqsadi…..

biror bir fakt haqida ma’lumot, xabar berishdir.
Bolalarni gapirishga o‘ragtish
O‘z-o‘ziga so‘zlashni o‘rgatish
Ertak aytib berish
30. Bolaning kattalar va o‘z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli
-dialog deyiladi
- monolog deyiladi
- nutq jarayoni deyiladi
- ravon nutq deyiladi
31. Ravon nutq turlariga nimalar kiradi?
- dialog va monolog kiradi
- dialog kiradi
- monolog kiradi
- ravon nutq turlarga bo‘linmay, yaxlitlikni ifodalaydi.
32. Xalq og‘zaki ijodi fanda qanday nom bilan yuritiladi?
Folklor
Og‘zaki ijod
O‘lanlar
Xalq ijodi
33. Mtmda bola necha yoshga qadam qo‘yganida grammatik xatolar ustida ishlash maxsus mashg‘ulotlar tarzida olib boriladi?
-besh yoshga qadam qo‘yganida
-uch yoshga qadam qo‘yganida
-to‘rt yoshga qadam qo‘yganida
-olti yoshga qadam qo‘yganida
34. Bola nutqini o‘stirishda didaktik o‘yin va mashg‘ulotlar yaxshi natijalar berishi uchun tarbiyachining oldiga nechta talab qo‘yiladi?
8 ta
9 ta
10 ta
6 ta
35. Hozirgi kunda mtmda bolalarning turli yosh bosqichi necha guruhga ajratiladi?
3 guruhga
4 guruhga
5 guruhga
2 guruhga
36. Nasriy, she’riy, ko‘pincha qofiyali shaklda obrazli va lo‘nda qilib ifodalangan ibratli ma’nodagi, xalq hayoti tajribalari asosida kelib chiqqan hikmatli so‘zlar nima deyiladi?
Maqol
Matal
Ertak
Topishmoq

37. “Ushbu holatda nutq og‘zaki nutq – monolog, dialog bir necha odamlar suhbati sifatida yuzaga chiqadi”. Yuqorida keltirilgan ta’rif ravon nutqning qaysi vazifasini yuzaga chiqaradi?
Individuallararo
Ichki individual
Umuminsoniy
Ichki umuminsoniy
38. Maktabgacha ta’lim muassasasida o‘qitish necha xil shaklda amalga oshiriladi?
Ikki shaklda
Uch shaklda
To‘rt shaklda
Olti shaklda
39. Ma’lumki, nutqning bir necha turlari mavjud, mtmda bolalarga turli yosh guruhlarida nutqning qaysi shakli asosiy o‘ringa qo‘yiladi?
Og‘zaki
Yozma
Yozma va og‘zaki
O‘qish nutqi
40. Mazmuni bo‘yicha hikoyalar shartli ravishda necha turga bo‘linadi, ular qaysilar?
Hayotiy voqealarga asoslangan hikoyalar va ijodiy hikoyalar
Xayoliy fantastik hikoyalar va ijodiy hikoyalar
Syujetli hikoyalar hamda tasviriy hikoyalar
Noana’naviy hikoyalar va qadimiy hikoylar

## 1. GLOSSARIY (Izohli lug’at)

*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*-1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan huquqiy hujjat.

*O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni*-1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan huquqiy hujjat.

*Uzluksiz ta’lim* – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo’lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko’rsatish muhitini o’z ichiga oladi.

*Fan* – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

*DTS (davlat ta'lim standarti)*-ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi.

*Ma'lumot*- ta'lim–tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma hamda shakllangan dunyoqarashlar majmui.

*Ta'lim tamoyillari*-umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish hamda o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishning asosiy qonun qoidalari yig'indisidir.

*Metod* – tadqiqot usuli, tadqiqot yo‘li. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli.

*Metodika* – biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi. O‘qitish usullari haqidagi ta'limot.

*Usul* – biror narsani yuzaga chiqarish, amalga oshirish yo‘li, tartibi. Biror ish mashg‘ulot kabilarga xos bo‘lgan unda qo‘llanuvchi asosiy xatti-harakat.

Uslub – til unsurlarining ma'lum vazifa bajarishiga bog‘liq holda birlashadigan, til birliklarining o‘ziga xos tanlanishi, birikishi va sh.k. bilan xarakterlanadigan tizimlar.

*Nutqni rivojlantirish metodikasi* – majktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir.

*Metodikaning asosiy vazifasi* – ilmiy pedagogik asosda nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalari, metodlari va usullarini ishlab chiqish hamda bolalarda zarur nutqiy ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirishlari uchun mtm tarbiyachilarini ular bilan qurollantirishdan iborat.

*Nutqni rivojlantirish* – bolaning yakka tartibdagi psixologik rivojlanishida markaziy o‘rin tutadigan ijtimoiy tarixiy tajribani o‘zlashtirishdagi o‘ta murakkab, ko‘p omilli jarayondir.

*Til* – kishilar o‘rtasida, jamiyatda o‘zaro fikr almashishning muhim vositasi, tilshunoslikning asosiy o‘rganish ob'ekti.

*Nutq* – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi.

*Nutq a'zolari* – kishi organizmining nutq tovushlari hosil bo‘lishida qatnashadigan turli qismlari (til, lab, tovush paychalari, tish, hiqildoq…).

*Nutq tovushlari* – insonlar tomonidan talaffuz qilinadigan, ma'lum ma'no anglatish xususiyatiga ega bo‘lgan, nutqni vujudga keltiruvchi tovushlar.

*Monolog*- bir shaxsning o‘z-o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi.

*Monologik nutq* – monologning nutqdagi ko‘rinishi.

*Ravon nutq* – tovush, so‘z va jumlalarni adabiy talaffuz qoidalariga muvofiq aniq talaffuz etilgan, mantiqan bog‘langan barcha uchun tushunarli bo‘lgan nutq ko‘rinishidir..

*Hikoya* – ma’lum bir hayotiy yoki xayoliy voqea hodisalarga asoslangan, badiiy to‘qimalarga tayangan janrdir.

*Hikoya qilish* – hayotiy yoki xayoliy voqea hodisalarga asoslangan, badiiy to‘qimalar bilan boyitilgan obrazli fikrlashdir.

*Monologning maqsadi* – biror bir fakt haqida xabar, ma’lumot berishdir.

*Qayta hikoya qilish* – eshitilgan badiiy asarni ravon, ifodali aytib berishdir.

*Tasviriy hiukoya* – bu biror predmet, masalan o‘yinchoq, kiyim yoki harakat-holatning va boshqalarning xarakterli belgilarini gapirib berishdir.

*Syujetli hikoya* – bu qandaydir voqeani ijodiy gapirib berishdir.

*Tarbiyachining hikoya qilish namunasi* – bu didaktik usul bo‘lib, uning yordamida tarbiyachi bolalarni boshqalardan o‘rnak olib hikoya qilishga o‘rgatadi.

*Lug‘at* – biror tildagi so‘zlarning ma’lum tartibda jamlab, izohlab yoki tarjima qilib beruvchi tildagi so‘zlar yig‘indisi.

*Lug‘aviy ma’no* – so‘zning borliqdagi narsa, voqea, hodisa, belgi, miqdor, harakat-holat haqida ifodalovchi tushunchasi.

*Lug‘atni egallash* – nafaqat so‘zni o‘zlashtirish, uni tushunish, balki uni amalda albatta qo‘llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir.

*Lug‘at ishlarining metodi* – bu atrof-olamni bevosita kuzatish, mazmuni bolalarga notanish bo‘lgan yoki kam tanish bo‘lgan suratlarni ko‘rsatish, badiiy asarlarni o‘qish, diafilmlar va kino(hujjatli)lar ko‘rsatish.

*Grammatika* – so‘zlarning gapda o‘zgarishi va birikishi haqidagi qoidalar to‘plamidir.

*Morfologiya* – so‘zlarning tuzilishi va o‘zgarishini, so‘zlarning xususiyatlariga ko‘ra turkumlarga ajralishini tekshiradi.

*Sintaksis* – gap va uning grammatik xususiyatlari, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish yo‘llari, so‘z birikmalari hamda ularning turlari o‘rganiladi.

*Morfologik kamchiliklar va xatolar* – bu bola nutqida so‘zlani qo‘llashda, qo‘shimchalarni talaffuz qilishida xatoga yo‘l qo‘yish, qo‘shimchalarning o‘rnini almashtirib qo‘llash.

*Sintaktik xatolar* – bu bola nutqida so‘zlarni bir-biriga mantiqan bog‘lash, gaplar tuzish bilan bog‘liq yo‘l qo‘yiladigan xato va kamchiliklaridir

*Grammatik forma* – grammatik kategoriyalar ko‘rinishi.

*Mashg‘ulot* – muayyan maqsaddagi, masalan o‘qitish-o‘rgatishga qaratilgan ish; dars.

*Nutqning tovush madaniyati* – talaffuz jarayonida har bir tovushni ajrata olish va to‘g‘ra talaffuz qilish tushuniladi.

*Nutqning tovush madaniyati* – kishilarning ziynati bo‘lish bilan birga, ularning nutq a’zolari to‘g‘ri tarbiyalanganligini ham bildiradi.

*Tovush* – bu so‘zning qobig‘I hisoblanadi.

*Tasviriy, ohangdor nutq* – bunda bolaning kundalik hayotidagi tabiiy burrolik, tasviriylik hamda matnni ifoda etishda bilib foydalanidigan burrolik, tasviriylik tushuniladi.

*Nutq sur’ati va ovoz sifati* – yoqimli nutq nozik sifati, o‘rtacha sur’ati, bir maromdaliligi, uyg‘unlgi, o‘rtacha kuchi va o‘rtacha baland ovozliligi bilan xarakterlanadi.

*Bilish qobiliyati* – kattalarning hikoya yoki kitob o‘qishlarini diqqat bilan tinglash, tanish asarlarini esda saqlab qolish va uni takror tinglaganda ertak, hikoya, illyustratsiya, o‘yinchoqlar qahramonlarini tanib olish, she’rlar qatorlari, kichik shakldagi asarlar matnini esda saqlab qolish.

*Nutqiy malaka* – asar, sanoq she’r, o‘yinlar, qo‘shiqlar, she’rlar mazmunini so‘z, imo-ishora, harakat orqali tasvirlash; so‘zni va tanish she’rlar qatorlarini bilib olish, ularning ayrimlarini yoddan aytib berish.

*Munosabat* – badiiy asar bilan bilan uchrashuvdan xursandchilikni, emotsional hankorlikdan quvonchni va birgalikdagi qayg‘urishlarni ifodalash.

*Tevarak atrofdagilar nutqi* – bolalar nutqining o‘sishida taqlid qilish namunasi hisoblanaqi

*Bolalarning mazmunli hayoti* – turli-tuman ijodiy va didaktik o‘yinlar, mashg‘ulotlar sayr va kuzatuvlar, navbatchilik jamoa mehnati, yorqin bolalar bayramlari – bularning hammasi bolalar hayotini mazmunli qiladi va ular nutqining mazmuniga aylanadi.

*Bolalarning nutq amaliyoti* – turli-tuman nutq amaliyoti bolalar nutqini o‘stirishning zarur shartidir, chunki tilni undan foydalanish jarayonidagina egallash mumkin. Tarbiyacha va boshqa kattalarning nutqini, badiiy asarlarni tinglashning o‘zi bolaga tevarak-atrofdagilar bilan muomalada tildan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilmaydi.

*So‘zlashuv uslubi* – so‘zlardagi tovush va bo‘g‘inlarni tushirib qoldirib, tez va e’tiborsizlik bilan talaffuz etish. Talaffuz etishning so‘zlashuv uslubi kundalik turmushda qo‘llaniladigan nutq uchun xarakterlidir.

*To‘liq uslub* – so‘zlarning aniq va ravshan jaranglashi bilan ajralib turadigan uslubdir. Talaffuz etishning to‘liq uslubini egallash nutq estetikasi nuqtai nazaridan ham muhimdir.

**Mustaqil ish topshiriqlari**

| № | Mavzular nomi | Soat |
|---|---|---|
| 1. | Nutq o`stirish metodikasi fanining nazariy asoslari. | 2 |
| 2. | Nutq o`stirish metodikasi pedagogik fan, fanning predmeti, maqsadi vazifalari. | 2 |
| 3. | Nutq o`stirish metodikasining ilmiy tadqiqot metodlari va boshqa fanlar bilan munosabati. | 2 |
| 4. | Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o`stirishning mazmuni, dastur talablari. | 2 |
| 5. | Nutq o`stirish metodlari va usullari. | 2 |
| 6. | Nutq o`stirish mashg`ulotlari, ularning qurilishi. | 2 |
| 7. | Boglanishli nutq o`stirishning maqsadi, vazifalari, bog`lanishli nutq turlari. | 2 |
| 8. | Suhbat diologik nutq o`stirishning asosiy metodidir. | 2 |
| 9. | Maktabgacha ta'limda monologik nutq-hikoya qilishga o`rgatish metodikasi. | 2 |
| 10. | Maktabgacha ta'limda bolalar so`z boyligini oshirishning maqsadi, vazifalari. | 2 |
| 11. | Maktabgacha ta'limda bolalar so`z boyligini oshirish metodlari. | 2 |
| 12. | Maktabgacha ta'limda nutqning grammatik tomonini shakllantirish metodikasi. | 2 |
| 13. | Maktabgacha ta'limda nutqning tovush tomonini tarbiyalashning maqsad-vazifalari. | 2 |
| 14. | Badiiy asarlarni o`rgatish  metodikasi. | 2 |
| 15. | Maktabgacha ta'limda monologik nutq-hikoya qilishga o`rgatish metodikasi. | 2 |
| 16. | Maktabgacha ta’lim tizimida bolalar nutqini o’stirish dasturini o’rganish va tahlil qilish | 2 |
| 17. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga qo’yilgan davlat talablarini o’rganish | 2 |
| 18. | Nutq o’stirish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot ishlari  va boshqa fanlar bilan aloqasi | 2 |
| 19. | Hikoya qilishga o`rgatish metodlari. | 2 |
| 20. | Turli yosh guruhda hikoya namunalari | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| 21. | So`z va uning xususiyatlari. | 2 |
| 22. | Bolalar lug`atini boyitish va uning vazifalari. | 2 |
| 23. | So`z boyligini oshirish talablari | 2 |
| 24. | Talabalarni nutq o’stirish mashg’ulotlarini rejalashtirishga o’rgatish | 2 |
| 25. | Nutq o’stirish mashg’ulotlarini tashkil qilish | 2 |
| 26. | Pedagogika kollejlarida nutq o`stirish metodikasi fanining o`qitilishi | 4 |
| 27. | Nutq o`stirish mashg`ulotlarini rejalashtirish va tashkil qilish | 2 |
| 28. | Nutq o`stirish mashg`ulotlarini kuzatish va tahlil qilish. | 2 |
| 29. | Bolalarni savod o’rganishga tayyorlash. | 2 |
| 30. | Bolalarda nutqni rivojlantirishga doir ishlarni rejalashtirish va hisobotini yuritish. | 4 |
| 31. | Bolalarda nutqni rivojlantirishga doir ishlarga uslubiy rahbarlik qilish | 2 |
| 32. | «O’zbekiston Respublikasida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning dolzarb muammolari» mavzusida pedagogik kengashni tayyorlash va o’tkazish. | 2 |
| 33. | Bolalarda nutqni rivojlantirish metodikasining pretmeti va nazariy asoslari | 2 |
| 34. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ona tilining roli | 4 |
| 35. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishning fiziologik asoslari | 2 |
| 36. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishning psixologik –pedagogik asoslari | 4 |
| 37. | Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishning ingvestik asoslari | 2 |
| 38. | Nutqni rivojlantirish metodikasiing fan sifatida tarkib topishi | 4 |
| 39. | Sharq mutafakkirlari o’sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda ona tilining roli haqida | 2 |
| 40. | Nutqiy muloqotni rivojlantirish | 4 |
| 41. | Maktabgacha ta'limda nutq o`stirishning bosqichlari, bolalar yosh hususiyatlari | 4 |
| 42. | Nutq o`stirish mazmuni, shakllari | 2 |
| 43. | Mashg`ulot-maktabgacha ta'limda nutq o`stirishning asosiy | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| | shakli | |
| 44. | Turli yosh guruxda suhbat uchun mavzu tanlash va unga qo`yilgan talablar | 2 |
| | **Jami** | **88** |

## NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANIDAN MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARI

1. “O‘quv qurollari” nomli mashg‘ulot ishlanmasini tuzing va mashg‘ulotga mos tarzda rasmlar jamlanmasini yarating.
2. “Bizning bog‘chamiz” nomli mashg‘ulot ishlanmasini hamda rasmlar jamlanmasini yarating.
3. Tayyorlov guruhi bolalariga maktabni tanishtirish uchun “Maktab” mashg‘ulot ishlanmasi va ko‘rgazmali qurollarni tuzing.
4. “Onajonim bayrami” nomli bayram senariysi hamda rasmlar yig‘indisi tuzing.
5. “Bog‘da bahor” nomli rasmlar yig‘indisi va mashg‘ulot ishlanmasini tuzing.
6. “Nima yaxshi-yu, nima yomon” mavzusida mashg‘ulot ishlanmasi hamda ko‘rgazmali qurollar tuzing.
7. S, f. g‘, g, q, k tovushlarini bir-biridan farqlashga yordam beruvchi suratlar jamlanmasini yarating.
8. “Ozoda, orasta va tartibli bo‘laylik” mavzusida mashg‘ulot ishlanmasi va rasmlar jamlanmasini yarating.
9. “Mening oilam” nomli mashg‘ulot ishlanmasi hamda rasmlar jamlanmasini yarating.
10. “Qo‘lim ikkita, barmoqlarim o‘nta, siznikichi?” nomli didaktik o‘yinga asoslangan mashg‘ulot ishlanmasini tuzing.
11. “Ust bosh va oyoq kiyimlari” nomli rasmlar majmuasini hamda mashg‘ulot ishlanmasini tuzing.
12. “Jamoa xo‘jaligi, korxona” nomli mashg‘ulot ishlanmasini hamda rasmlar jamlanmasini yarating.
13. “Dono bo‘lish qoidalari” nomli mashg‘ulot ishlanmasini rasmlar to‘plamini yaratish.
14. “Oshxona jihozlari” nomli mashg‘ulot ishlanmasini tuzing hamda rasmlar jamlanmasini yarating.
15. “Sumalak” nomli mashg‘ulot ishlanmasi hamda rasmlar to‘plamini yaratish.
16. “Vatanimiz posbonlari” nomli mashg‘ulot ishlanmasi hamda rasmlar to‘plamini yaratish.
17. “-da, -miz, -yapti” qo‘shimchalarini o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasi hamda mashg‘ulotga xos ko‘rgazmali qurollarni yaratish.

18. “-ning” qo‘shimchasini o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasi hamda mashg‘ulotga xos ko‘rgazmali qurollarni yaratish.
19. “Xona” nomli mashg‘ulot ishlanmasini yaratish va rasmlar jamlanmasini tuzish.
20. “Salomlashish va xayrlashish odobini o‘rganamiz” (tayyorlov guruhi) nomli mashg‘ulot ishlanmasi va rasmlar to‘plamini yarating.

Mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish uchun talabalarga tavsiya etilayotgan pedagogik texnologiyalar va ularning qo’llanilishi

Pedagogik texnologiyaning mohiyati

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatmiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, bilimga chanqoqlik Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

"Ta'lim to’g’risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Chunki mamalakatimiz tez sur'atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy -siyosiy mavqei kundan-kun ortib bormoqda. Lekin ijtimoiy sohada, ayniqsa, ta'lim - tarbiyada umumiy taraqqiyotdan orqada qolish hollari sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish bilan bunday holga barham berish mumkin.

Pedagogika fani va amaliyotida keyingi paytlarda keng qo’llanilayotgan "pedagogik texnologiya" atamasi inglizcha "an educational technologu" so’zidan olingan bo’lib, "ta'lim texnologiyasi" degan ma'noni bildiradi. "Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan -texnos- san'at, hunar va logos- fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani " ma'nosini anglatadi.

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'quvchi (talaba)larga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya.

O'qitish texnologiyasi- birinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi usul va vositalar (texnologik operatsiya)ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni; ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli- bayonli aspektini ifodalaydi.

Ta'lim texnologiyasi- pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan

holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli.

Pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflar

Rus olimi V.P. Bespalko "…pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizimning loyihasidir",- deyish bilan , quyidagi ta'rifni beradi: "Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir" Bu ta'rif mazmunidan quyidagi muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- PT o'quvchi (talaba)larda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;
- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi;
- yakuniy natija albatta kafolatlanadi.

Nufuzli YuNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif bo'yicha: "Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir"

O'zbekistonlik olim N.Sayidaxmedov fikricha: "Pedagogik texnologiya- bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir".

Pedagog olimlarimizdan biri M.Ochilov pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: "Pedagogik texnologiya- tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir".

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya- ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob'ektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi.

## FAN BO‘YICHA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH MEZONLARI

**1) Nazorat turlari**

1. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

2. Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo‘limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tkaziladi.

3. Oraliq nazorat turi har bir fan bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o‘tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat turini o‘tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

4. Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

5. Semestr davomida haftasiga 2 akademik soatdan kam bo‘lgan fanlar bo‘yicha oraliq nazorat turi o‘tkazilmaydi.

6. Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg‘ulotlardagi faolligi fan o‘qituvchisi tomonidan baholanib boriladi...

**2) Talabalar bilimini baholash mezonlari**

1. Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a’lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

## Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

### Rahbarlik adabiyotlar


6. Sh.Mirziyoyev. "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi tog`rida"gi PF-4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
7. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent, 2017. B.56.
8. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. –Toshkent, 2017. B.592.
9. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son,70-modda.
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil, 16-yanvar, №11.


### Asosiy adabiyotlar


11. M.Asqarova, S.Matjonov va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirish.T.: O`zbekiston, 2001. -160 b.
12. Jo'raqulov R. "Bolalar nutqini o'stirish". -Samarqand, 1994.
13. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. O`quv qo`llanma. -Toshkent, 2017.
14. Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. -Toshkent, 1995.
15. Shodiyeva Q. Kichkintoylarni o'qish va yozishga o'rgatish. -Toshkent, "O'qituvchi", 2002.


### Qo'shimcha adabiyotlar


18. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. -Toshkent, "Sharq", 2004.
19. R.N.Nurmatov, X.N.Muzaffarova, G.X.Temurova. Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi. O`quv-metodik qo`llanma. -Jizzax, 2009.
20. S.G`oziyeva, D.Ochilova, L.Dolimova. Badiiy terma kitob. -Toshkent, "O`qituvchi", 1994. -B.222.
21. G.Nasriddonova, S.Xo`jaahmedov. Nutq o`stirish nazariyasi va metodikasi. -Toshkent, 2011.-B.320.
22. M.R.Qodirova, F.R.Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. -Toshkent, 2006.
23. M.Asqarxo`jayeva, N.Hakimova. Bog`chalarda o`zbek tilini o`rgatish. -Toshkent, "O`qituvchi", 1994. -B.126.

24. Jo’raqulov R., To’xtayeva Sh. Bog’chalarning kichik guruhlarida bolalar nutqini o’stirish bo’yicha uslubiy tavsiyalar. -Samarqand, 1991.
25. Jo‘rayev S., Qodirov H. Kichkintoylar nutqini o‘stirish. -Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.
**26.** Abdullayeva Q va boshq. Savod o‘rgatish metodikasi. -Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995.

## Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz